Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, asarlarni tahlil etadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan adabiyotlarni, badiiy asarlarni o'rganadilar. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas. Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

“O'zbek adabiyoti tarixi” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi 12 ta katta mavzu ko'rinishida shakllantirilgan.

Mustaqil ta'limning mazmuni va hajmi 5-semestr uchun

№	Ishchi o'quv dasturining mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzulari	Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar	Hajmi
1	Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” asari tahlili.	Yozma tahlil, og'zaki javob.	2
2	Muqimiy, Zavqiy hajviyalaridan bittadan yod olish va tahlil etish.	Yozma tahlil, yod aytish.	4
3	Avaz O'tar, Muhyi Xo'qandiy g'azallaridan yod olish va tahlil etish.	Yozma tahlil, yod aytish.	4
4	"Miriyning "Rustam va So'hrob" dostoni badiiyati" kitobi tahlili	Yozma tahlil, og'zaki javob.	2
5	Anbar Otinning “Qarolar falsafasi” asari tahlili.	Yozma tahlil, og'zaki javob.	2
6	"Qoriy Xo'qandiy adabiy merosi" kitobi tahlili	Yozma tahlil, og'zaki javob.	2
7	Siddiqiy-Ajziy ijodida ma'rifat va Vatan mavzusi talqini	Yozma badiiy tahlil qilish	2
8	Munavvarqori Abdirashidxonov – o'zbek jadidchilik harakatining yo'l boshchilaridan biri	Yozma ma'lumot to'plash	2
9	Vasliy Samarqandiyning hayoti va ijodi	Og'zaki so'rash	2
10	Hamza. Dramalari. Publitsistikasi	Konspekt tuzish	2
11	Abdulla Qodiriy hikoyalari tahlili.	Konspekt tuzish	2
12	Cho'lpon she'rlari tahlili.	Konspekt tuzish	2
Jami			28

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik;
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy ta'lim.

Dasturning informasion-metodik ta'minoti

Dasturdagi mavzularni o'tishda ta'limning zamonaviy metodlaridan keng foydalanish, o'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning «Muammoli ta'lim» texnologiyasining «Munozarali dars» metodidan foydalanish nazarda tutiladi.

FOYDALANILGAN ASOSIY DARSLIKLAR VA O'QUV QO'LLANMALAR RO'YXATI

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Тошкент, Маънавият, 2004.
2. Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Тошкент, Маънавият. 2002.
3. Qosimov B., Dolimov U. Ma'rifat darg'alari. - T.: O'qituvchi, 1990. Qosimov B.
4. Milliy uyg'onish: ma'rifat, jasorat, fidoyilik. - T.: Ma'naviyat, 2002.
5. Орзибеков Р. Миллий уйғониш даври адабиёти. Самарқанд.
6. Ўзбек адабиёти тарихи. 11 синф дарслиги. (Каримов Б., Норматов У., Назаров Б.) Тошкент, Ўқитувчи. 1997.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

7. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадидчилик. —Т., 2007.

8. Болтабоев Ҳ. XIX асрнинг охири ва XX аср бошларида драматургия. –Т., 1993.
9. Ғаниев И. Фитрат. Ётиқод. Ижод. –Т., 1994.
10. Ғанихўжаева Ф.Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). –Т.: ФАН, 1970.
11. Долимов У. Исҳоқхон Иброт. Истиқлол фидойилари.-Т.:Шарқ, 1994.
12. Жабборов Н. Ватан иштиёқин тортарам. // Тафаккур, 2002, 1-сон, 48-57 бетлар.
13. Жабборов Н. Маърифат надир. –Т., Маънавият, 2010
14. Жабборов Н. Фурқат мероси ва Хитой манбалари. // Шарқ юлдузи, 2001, 121-127-бетлар
15. Жалолов А. XIX аср охири ва XX аср бошларидаги ўзбек адабиёти.-Т.,1991.
16. Каримов Ғ. Муқимий ҳаёти ва ижоди. Тошкент, 1970.
17. Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи III китоб. Тошкент, 1987.
18. Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. 3-китоб. –Т., 1975.
19. Қосимов Б. Излай-излай топганим.-Т.: Адабиёт ва санъат,1983.
20. Қосимов Б.Излай-излай топганим... Тошкент, Ғофур Ғулом нашриёти 1983.
21. Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. –Т., 1994.
22. Муқимий. Асарлар,Тошкент. Ғофур Ғулом нашриёти. 1974.
23. Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. Тошкент, «Камалак».1991.
24. Муҳаммадив А. Муҳйи ижодига алоқадор айрим манбалар хусусида // СамДУ илмий тадқиқотлар ахборотномаси. – Самарқанд, 2006. – № 4. – Б. 47 – 51.
25. Муҳаммадиев А. Муҳйи ғазалларида ишқ талқини // Хорижий филология. – Самарқанд, 2005. – № 4. – Б. 60 – 62.
26. Муҳаммадиев А. Муҳйи замондошлари хотирасида // СамДУ илмий тадқиқотлар ахборотномаси. – Самарқанд, 2004. – № 4. – Б. 76 – 79.
27. Муҳаммадиев А. Муҳйи ижодида давр адабий анъаналари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2007. – № 3. – Б. 60 – 64.
28. Муҳаммадиев А. Муҳйи ижодида мувашшаҳлар // Филология масалалари. – Тошкент, 2006. – № 1. – Б. 42 – 46.
29. Муҳаммадиев А. Муҳйи ҳажвиётлари // Тил ва адабиёт муаммолари / Филология факултети профессор-ўқитувчиларининг 2007 йилдаги илмий-тадқиқот ишлари натижалари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2008. – Б. 63–65.
30. Муҳаммадиев А. Муҳйими ёки Муҳйи // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2005. – № 5. – Б. 92 – 94.
31. Норматов У. Қодирий боғи. –Т., 1995.
32. Раззоқов Ҳ. Муқимий ва Завқий. Тошкент, 1955.
33. Ризаев Ш. Жадид драмаси. Тошкент, «Шарқ»1997.
34. Ризаев Ш. Жадид драмаси.-Т.:Шарқ, 1997.
35. Сулаймонов И. Қорий адабий меросининг жанр кўлами. СамДУ Илмий тадқиқотлар ахборотномаси. 2008 й. № 2.
36. Сулаймонов И. Қорий муҳаммаси жанрига доир. ТДЖТУ филология масалалари журнали. 2008-й.№2.
37. Сулаймонов И. Мулла Маҳмуд Қорий ва унинг адабий мероси. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. 2008 й. №3.
38. Ўзбек адабиёти тарихи.У жилдлик У жилди. Тошкент, «Фан» 1980.
39. Юнусов М. Комил Хоразмий. –Т.: Ўзадабийнашр, 1960.

40. Юсупов Ш. Тарих ва адаб бўстони.-Т.,2003.
41. Юсупов Ш. Фурқат йўлларида. Тошкент.1984.
42. Юсупов Ш. Худоёрхон ва Фурқат.-Т.:Шарқ.1997.
43. Юсупов Ш. Хуфия катламалар.-Т.,1999.
44. Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. 3-китоб. –Т., 1975.
45. Жалолов А. XIX аср охири ва XX аср бошларидаги ўзбек адабиёти.-Т.,1991.
46. Юнусов М. Комил Хоразмий. –Т.: Ўзадабийнашр, 1960.
47. Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. Ғ.Ғулом номидаги АСН. - Т., 1994.
48. Комил Хоразмий. Танланган асарлар. -Т., 1961.
- 49.Комил Хоразмий. Девон. -Т., 1975.
- 50.Юсупов Ш. Комил ҳақида янги маълумот. //Шарқ юлдузи, 1968.
- 51.Ғанихўжаева Ф.Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). -Т.: ФАН, 1970.
- 52.Комил Аваз. Гарчи эрурман толеъи Феруз. // ЎзАС, 1994, 30 сентябрь.
- 53.Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. Ғ.Ғулом номидаги АСН. - Т., 1994.
- 54.Муҳаммад Раҳимхон Феруз. “Не бўлди, ёрим келмади”. Т, 1991.
55. Раҳим Давлатёр, Матрасул Шихназар. Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати. Т, 1993.
56. Жумахўжа Н., Азизова И. Феруз адабий муҳити. Т, 1994.
57. Аваз Комил. “Гарчи эрурман толеъи Феруз”. //Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1994 йил 30 сентябрь.
58. Муҳаммад Раҳимхон Феруз. Элга шоҳу ишққа кул. Т.: Адабиёт ва санъат, 1995.
59. 11. Ma’ruza matni

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI FILOLOGIYA FAKULTETI
MUMTOZ ADABIYOT TARIXI KAFEDRASI
“O'ZBEK ADABIYOT TARIXI” FANIDAN TA'LIM TEXNOLOGIYASI

MA'RUZA MASHG'ULOTLARI

1-MAVZU

Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyotining ilk bosqichlari. Davrning ijtimoiy-madaniy qiyofasi. Komil, Feruz, Tabibiyalar ijodining Xorazm adabiy muhitida tutgan oʻrni

AXBOROTLI MA'RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
I-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa)	1.1.Mavzu: Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyotining ilk bosqichlari. Davrning ijtimoiy-madaniy qiyofasi. Komil, Feruz, Tabibiyalar ijodining Xorazm adabiy muhitida tutgan oʻrni. Maqsad: Mavzu haqida talabaga ma'lumot berish, uning bilim malakasini oshirish, adabiyot orqali talabaning ruhiyatiga ta'sir etish, milliy istiqlol g'oyasi asosida tarbiyalash va h.k. Mashg'ulotni axborotli ma'ruza ekanligi haqida ma'lumot berish (Ilova - 1) 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil islash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi. (Ilova -2. Slaydlar) 1.3. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (Ilova -3)	Talabalar tinglaydilar, yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
II-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1.Talabalar bilimini aqliy hujum orqali faollashtiradi . (Ilova -4) Bilimlarni faollashtirish jarayonida o'quv muammosini yechish bo'yicha izlanuvchanlik faoliyatida faol eshtirok etishlari uchun talabalar bilimini savollar orqali aniqlanadi: 1. Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyotining ilk bosqichlari. 2. Davrning ijtimoiy-madaniy qiyofasi. 3. Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyotining manbalari. Faollashtirilgan bilimlar asosida	Savollarga javob beradilar Muammoni yechish bo'yicha o'z fikrlarini beradilar

	talabalarni mashg'ulotda yechiladigan muammoga "olib kiriladi" va uni ifodalaydi: 1. Xiva adabiy muhiti 2. Qo'qon adabiy muhiti 3. Buxoro adabiy muhiti 4. Samarqand adabiy muhiti Uni yechishni tashkillashtiradi. Talabalar bilan birga yuqoridagi savollarni tahlil qiladi, ularda paydo bo'lgan qiyinchilikni aniqlaydi. 2.2. Muammoni yechish yo'llarini izlashni tashkillashtirishga o'tadi, ya'ni talabalarga "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" fani yuzasidan chuqur ma'lumot beradi. Davrning mavjud adabiy muhitlari, ularning mushtarak va ijodiy o'ziga xosligi haqida ma'lumot beradi. Axborotli ma'ruza mashg'ulotining rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon etadi. (Ilova 5-10)	Kichik muammoni yechish bo'yicha fikrlar bildiradilar, munozara qiladilar, tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar. daftarga yozadilar
III-Bosqish. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. (Ilova -11) 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq (Ilova -12)	Tinglaydilar. Topshiriqni yozadilar

ILOVALAR

1-ilova

MAVZU: MILLIY UYG'ONISH DAVRI O'ZBEK ADABIYOTINING ILK BOSQICHLARI

REJA:

1. Davrning ijtimoiy-madaniy qiyofasi.
2. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining manbalari.
3. Xiva va Buxoro xonliklarida tarixiy-ijtimoiy sharoit
4. Madaniy-adabiy muhit.
5. Ulardagi mushtarak va o'ziga xos xususiyatlar.

2-ilova a)

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent, «Ma'naviyat», 2004
2. Qosimov B. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent «Ma'naviyat» 2002.
3. Orzibekov R. Milliy uyg'onish davri adabiyoti. Samarqand.
4. O'zbek adabiyoti tarixi. 11 sinf darsligi. (Karimov B., Normatov U., Nazarov B.) Toshkent, «O'qituvchi» 1997.
5. Milliy uyg'onish. Toshkent, «Universitet» 1993.

Darsda “BBB” jadval bilan ishlash olib boriladi.

Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim
1. Davrning ijtimoiy-madaniy qiyofasi; 2. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining manbalari	1. Xiva va Buxoro xonliklarida tarixiy-ijtimoiy sharoit haqida to'liq ma'lumot olishni istayman. 2. Madaniy-adabiy muhit haqida ma'lumot. 3. Ulardagi mushtarak va o'ziga xos xususiyatlar haqida ma'lumot	

2-ilova s)

IXTIYORIY DAFTARLARNI OLADILAR VA KERAKLI TUSHUNCHALARNI YOZIB BORADILAR

Qo'simcha ma'lumot. 3-ilova ma'ruza mashg'uloti bo'lganligi sababli undan foydalanilmaydi.

Guruhlar faoliyatini baholash mezonlari

Guruhlar	Ma`lumotning to`liqligi (1)	Ma`lumot mazmunining aniq tushuntirilishi (1)	Taqdimotning ko`rgazmali berilishi (1)	Umumiy ball
1-guruh				
2-guruh				
3-guruh				
4-guruh				

Guruhlar faoliyati natijalarining umumiy bahosi

Guruh	O`zaro baholash natijalari					Jami
	1	2	3	4		
1	*					
2		*				
3			*			
4				*		


Qo`shimcha ma`lumot. Tezkor-so`rov amalga oshiriladi.

1. Xiva va Buxoro xonliklarida tarixiy–ijtimoiy sharoit qanday edi?
2. Madaniy–adabiy muhit-chi?
3. Ulardagi mushtarak va o`ziga xos xususiyatlar nimalarda ko`rinadi?

11-ilova a)

Ushbu mavzu yuzasidan maktab, kollej va litsey darsliklarida keltirilgan ma`lumotlar bilan tanishadilar va ular haqida ma`lumot olishib, kelgusida o`qituvchilik ko`nikmasini yuzaga kelishida yordamchi vosita bo`lib xizmat qiladi

Klaster sxemasini to'ldiring



12-ilova

Mustaqil ish:

1. Ziyonet.ru internet tarmog'idan mazkur davr haqidagi ma'lumotlarni olish va uni o'rganish.
2. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. (Toshkent, «Ma'naviyat», 2004) kitobini o'qish
3. Orzibekov R. Milliy uyg'onish davri adabiyoti kitobini konspekt qilish

MA'RUZA MASHG'ULOTLAR

2-MAVZU

QO'QON ADABIY MUHITI: MUQIMIY VA MUHYI IJODLARINING DAVR ADABIY MUHITIDA TUTGAN O'RNI

AXBOROTLI MA'RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
I-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqqa)	1.1.Mavzu: Muqimiy va Muhyilar ijodining qo'qon adabiy muhitida tutgan o'rni Maqsad: mavzu haqida talabaga ma'lumot berish, uning bilim malakasini oshirish, adabiyot orqali talabaning ruhiyatiga ta'sir etish, milliy istiqlol g'oyasi asosida tarbiyalash va h.k. Mashg'ulotni axborotli ma'ruza ekanligi haqida ma'lumot berish (Ilova - 1) 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil islash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi. (Ilova -2. Slaydlar) 1.3. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (Ilova -3)	Talabalar tinglaydilar, yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
II-bosqich. Asosiy (60 daqqa)	2.1.Talabalar bilimini aqliy hujum orqali faollashtiradi. (Ilova -4) Bilimlarni faollashtirish jarayonida o'quv muammosini yechish bo'yicha izlanuvchanlik faoliyatida faol eshtirok etishlari uchun talabalar bilimini savollar orqali aniqlanadi: Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashg'ulotda yechiladigan muammoga "olib kiriladi" va uni ifodalaydi: Talabalar bilan birga yuqoridagi savollarni tahlil qiladi, ularda paydo bo'lgan qiyinchilikni aniqlaydi. 2.2.Muammoni yechish yo'llarini izlashni tashkillashtirishga o'tadi, ya'ni talabalarga "Hozirgi zamon ozarbayjon adabiyoti" mavzusi yuzasidan chuqur ma'lumot beradi. Hozirgi zamon ozarbayjon adabiyoti vakillari haqida ma'lumot beradi, ular yaratgan asarlarining bugungi kundagi ahamiyati kabi jihatlariga to'xtaladi va ular haqida ma'lumot beradi. Axborotli ma'ruza mashg'ulotining rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon etadi. (Ilova 5-6)	Savollarga javob beradilar Muammoni yechish bo'yicha o'z fikrlarini beradilar Kichik muammoni yechish bo'yicha fikrlar bildiradilar, munozara qiladilar, tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar. daftarga yozadilar

III-Bosqish. Yakuniy (10 daqqa)	3.1.Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. (Ilova -7) 3.2.Mustaqil ish uchun topshiriq (Ilova -8)	Tinglaydilar. Topshiriqni yozadilar
---------------------------------------	--	--

AXBOROTLI MA`RUZA TA`LIM BERISHNING TEXNOLOGIYASI MODEL

Baqt: 80 minut	Talabalar soni 50 ta
O`quv mashg`uloti shakli	Axborotli ma`ruza
O`quv mashg`uloti rejasi	1. Muqimiy va Muhiy hayot yo'llarining asosiy nuqta va sanalarini qanday tasavvur qilasiz? 2. Shoir merosini o'rganish manbalari. Ijodiy merosining tavsifi, ko'lami, o'rganilish tarixi. 3. Muqimiy lirikasida lirik qahramon talqini, tole va baxt tushunchalari ifodasi. 4. Hajviyotining o'ziga xos tomonlari. An'ana va ijodiylik (Turdi, Maxmur, Gulxaniy hajviyoti an'analari). 5. «Sayohatnoma»larining o'ziga xos janriy-poetik xususiyatlari. 6. XX–XXI asr o'zbek adabiyotida Muqimiy an'analari. Uning abadiyati. Shu savollarga yozma javoblar tayyorlash va yakuniy nazorat uchun taqdim etish. Muqimiy asarlarini to'la tarzda mutoala qilish.
O`quv mashg`uloti maqsadi: «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti» yuzasidan o`quvchilar tushunchalarini o'rnatish, ularga yangi bilimlarni berib, yangi bilimlar asosida ko'nikmalar hosil qilish, mavzu yuzasidan talabalarning axloqiy normalarni tarbiyalash va h.k.	
Pedagogik vazifalar: -Talabalarga Muqimiyning ma'rifatchilik yo'lidagi xizmatlari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish; -XIX asrybyu 2-yarmidagi tarixiy muhit va adabiyot tasnifini berish;	O`quv faoliyati natijalari: XIX asrybyu 2-yarmidagi tarixiy muhit va adabiyot haqida so'zlaydilar; Unda Muqimiyning roli haqida fikr bildiradilar;
Ta`lim usullari	Muammoli usul, aqliy hujum. Bahsli munozara, suhbat
Ta`limni tashkillashtirish shakli	Jamoaviy, individual
Ta`lim vositalari	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, elektron darsliklar, badiiy kitoblar
Ta`lim berish sharoiti	Maxsus jihozlangan xona
Monitoring ba baholash	Tezkor so'rov, qisqa mazmunli so'rov

ADABIYOTLAR RO'YXATI

MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Muqimiy. Asarlar to'plami, 1–2 jildlar, –T., 1960
2. Muqimiy. Devon. –T., 1974

ILMIY ADABIYOTLAR:

1. Karimov G'.K. Muqimiy (hayoti va ijodi) –T., 1970
2. Karimov G'.K. Xalq, tarix, adabiyot –T., 1977, («Hayotbaxsh an'analar», «Muqimiy Toshkentda» maqolalari.)
3. Karimov G'.K. O'zbek adabiyoti tarixi. Darslik, 3–kitob. –T., 1975
4. Furqat va Muqimiy haqida maqolalar. –T., 1958
5. Abdug'afurov A. Muqimiy satirasi –T., 1976
6. Mo'minova V. O'zbek demokratik adabiyotida lirika. –T., Fan, 1979.
7. Ahmedov S. O'zbek adabiyotida «Sayoxatnoma». –T., «Adabiy meros», 1986
8. Yusupov Sh. Muqimiy va Muhyi. O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1996, 21 iyun.
9. Orzibekov R. O'zbek she'riyati janrlari. O'quv qo'llanmasi, I–kitob. –S., 1998

IXTIYORIY DAFTARLARNI OLADILAR VA KERAKLI TUSHUNCHALARNI
YOZIB BORADILAR

Qo'simcha ma'lumot. 3-ilova ma'ruza mashg'uloti bo'lganligi sababli undan foydalanilmaydi.

Guruhlar faoliyatini baholash mezonlari

Guruhlar	Ma`lumotning to`liqligi (1)	Ma`lumot mazmunining aniq tushuntirilishi (1)	Taqdimotning ko`rgazmali berilishi (1)	Umumiy ball
1-guruh				
2-guruh				
3-guruh				
4-guruh				

Guruhlar faoliyati natijalarining umumiy bahosi

Guruh	O`zaro baholash natijalari					Jami
	1	2	3	4		
1	*					
2		*				
3			*			
4				*		

4-ilova

Qo`simcha ma`lumot. Tezkor-so`rov test orqali amalga oshiriladi.

1. Muqimiy 1876- yil qaysi madrasada tahsil oladi?

A) Hokim oyim *B) Mehtar oyim C) Abduxalil domla maktabi D) Abdulazizxon

2. Muqimiyning rafiqasi bilan turmushi buzilishiga nima sabab bo`ladi?

A) Muqimiyning ota onasi sabab bo`lgan. \*B) Sanambibining badiiy zavqdan mahrumligi, adabiyotdan uzoqligi va adibni tushunmagani C) Iqtisodiy muammolarning ko`pligi, Sanambibi boy oilada o`sganligi uchun sabri yetmagan. D) Barcha javoblar to`g`ri.

3. Muqimiy Almaiy, Nodim Namangoniy singari adiblar bilan qayerda tanishadi?

A) Samarqandda B) Xorazm vohasida C) Namanganda *D) Toshkentda

4. Muhammad Yusuf ismli shaxsning Muqimiy hayotida qanday o`rni bor?

A) Muqimiyning buyuk adiblar bilan tanishuviga sababchi bo`lgan. B) Adibning iqtisodiy tarafdin ta`minlab turgan. *C) Muqimiyga xattotlikni o`rgatgan. D) Muhammad Yusuf uning qaynotasi bo`lgan.

5. Muqimiy va Muhyi merosida qaysi janrlar ko‘proq uchraydi?

- A) g‘azal, tuyuq, murabba *B) g‘azal, murabba, muxammas C) g‘azal, tuyuq, ruboiy
D) ruboiy, muxammas, g‘azal

6. Mamajon Makay, Nizomjon, Farzincha, Ismoil Naychi singari o‘z davrining taniqli san’atkorlarni qaysi adib o‘z asrlarida tilga oladi?

- A) Furqat B) Zavqiy *C) Muqimiy D) Komil

7. Muqimiyning hajviy g‘azallari qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

- A) Saylov, Kim desun *B) Saylov, Dar shikoyati Laxtin C) Saylov, Hajvi Viktorboy
D) Hajvi Viktorboy, To‘yi Iqonbachcha

8. Muqimiyning onasini yaqinlari yana qanday atashgan?

- A) Tojinisa B) Bibi C) Bibioyscha *D) Xumorbibi

9. 1850- yilda tug‘ilgan, chiqish adabiyotining eng yaxshi an‘analarini davom ettirgan adib kim?

- *A) Muqimiy B) Furqat C) Komil Xorazmiy D) Fitrat

10. Muqimiyning «To‘yi Iqonbachcha» hajviyasida to‘y uchun necha so‘mlik qo‘y so‘yiladi?

- A) 200 so‘mlik B) 2 so‘m 50 tiyin C) 4 so‘mlik *D) 3 so‘mlik

11. Muqimiyning badiiy so‘zga mehr qo‘yishiga sababchi bo‘lgan insonni ko‘rsating.

- A) Otasi Mirzaxo‘ja Mirfozil B) Rafiqasi Sanambibi *C) Onasi Xumorbibi (Bibioyscha) D) Madrasa muallifi Mehtar oyim

12. Karim Oxun, Qosim dallol pir ushlab etagingdin,

Xayol aylardilar insoflig‘ shayxi zamon Laxtin. Ushbu misralar Muqimiyning qaysi asaridan olingan?

- A) To‘yi Iqonbachcha *B) Dar shikoyati Laxtin C) Voqeari Viktor D) Qosim boyvachcha

13. «Toyi Iqonbachcha» hajviy asarining muallifini aniqlang.

- A) Fitrat B) Abdulla Qodiriy C) Ch.Aytmatov *D) Muqimiy

14. «U o‘z davrining yetuk lirik shoiri, mavjud adabiy muhitning sardori edi, lekin uning isde‘dodi hajviyotda, o‘z qirralarini to‘laroq namoyon etgan». Ushbu ta’rif qaysi ijodkor haqida?

- A) Hamza B) Fitrat C) A.Qodiriy *D) Muqimiy

15. Muqimiyning «Tanobchilar», «To‘yi Iqonbachcha», «Maskovchi boy ta’rifida», «Voqeayi Viktor» kabi asarlari qaysi janrda bitilgan?

*A) masnaviy B) muxammas C) tuyuq D) qit’a

16. Yetti odamni o‘z mahallasidin,

Qorni to‘q, yangi to‘n, basallasidin,

Qildi shovqinlamay imo uyidin,

Mundin, undin, yuqoridin, quyidin. Ushbu satrlar Muqimiyning qaysi asaridan olingan?

A) Tanobchilar *B) To‘yi Iqonbachcha C) Navbahor D) A, C

17. Muqimiyning muxammaslari to‘g‘ri berilgan qatorni aniqlang.

A) Saylov, Dar shikoyati Laxtin *B) Hajvi Viktor, Hajvi Viktorboy C) Hajvi Viktorboy, Maskovchi boy ta’rifida D) Barcha javoblar to‘g‘ri

18. Quyidagi misralarning qaysi biri Muqimiyning «Voqeayi Viktor» masnaviysidan olingan? (majmua asosida)

A) Man rizomas kishiga non bersang,

Yo tovuq saqlasangu, don bersang.

B) Osh misoli tabaqda ko‘z yoshi,

Ko‘rmagi ko‘p guruchidan toshi.

C) Qirq chorak guruch olay deyman,

Yana tojimga yetmagay deyman.

*D) Berib ko‘ndiring bir so‘mig‘a yarim,

Chorakim o‘zimni tug‘ulishganlarim.

19. Muqimiy she’rlarida qaysi mumtoz adabiyot vakillari ijodiga hos timsollardan foydalangan?

A) Atoyi, Lutfiy B) Navoiy, Jomiy C) Lutfiy, Pahlavon Mahmud *D) A, B

20. Xush bu mahfulda tiriklik ulfat-u ahhob ila,

O‘ynashib gohi tabiatni, qilaylik chog‘lar. Ushbu «O‘ynashib gohi tabiatni qilaylik chog‘lar» misrasining mazmuni qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) tabiat qo‘ynida o‘ynashib bir birimizning tabiatimizni chog‘ qilaylik B) O‘zimizning sho‘x-u shodon o‘yinlarimiz bilan tabiatni yanada ko‘rkam qilaylik C) Bunday umrning betakror damlarini ko‘paytiraylik *D) A va B

MA'RUZA MASHG'ULOTLAR

3-MAVZU

ZAVQIY, FURQATLARNING HAYOTI VA IJODI, ADABIY MEROSI

AXBOROTLI MA'RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
I-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa)	1.1.Mavzu: Zavqiy, Furqatlarning hayoti va ijodi, adabiy merosi Maqsad: Mavzu haqida talabaga ma'lumot berish, uning bilim malakasini oshirish, adabiyot orqali talabaning ruhiyatiga ta'sir etish, milliy istiqloq g'oyasi asosida tarbiyalash va h.k. Mashg'ulotni axborotli ma'ruza ekanligi haqida ma'lumot berish (Ilova - 1) 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil islash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi. (Ilova -2. Slaydlar) 1.3. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (Ilova -3)	Talabalar tinglaydilar, yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
II-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1.Talabalar bilimini aqliy hujum orqali faollashtiradi . (Ilova -4) Bilimlarni faollashtirish jarayonida o'quv muammosini yechish bo'yicha izlanuvchanlik faoliyatida faol eshtirok etishlari uchun talabalar bilimini savollar orqali aniqlanadi. Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashg'ulotda yechiladigan muammoga "olib kiriladi" va uni ifodalaydi. Uni yechishni tashkillashtiradi. Talabalar bilan birga yuqoridagi savollarni tahlil qiladi, ularda paydo bo'lgan qiyinchilikni aniqlaydi. 2.2.Muammoni yechish yo'llarini izlashni tashkillashtirishga o'tadi, ya'ni talabalarga mavzu yuzasidan chuqur ma'lumot beradi. Axborotli ma'ruza mashg'ulotining rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish	Savollarga javob beradilar Muammoni yechish bo'yicha o'z fikrlarini beradilar Kichik muammoni yechish bo'yicha fikrlar bildiradilar, munozara qiladilar, tahlil qiladilar,

	bo'yicha harakatlar tartibini bayon etadi. (Ilova 5-10)	xulosa chiqaradilar. daftarga yozadilar
III-Bosqish. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1.Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. (Ilova -10) 3.2.Mustaqil ish uchun topshiriq	Tinglaydilar. Topshiriqni yozadilar

AXBOROTLI MA'RUZA TA'LIM BERISHNING TEXNOLOGIYASI MODEL

Baqt: 80 minut	Talabalar soni 120 ta
O'quv mashg'uloti shakli	Axborotli ma'ruza
O'quv mashg'uloti rejasi	
O'quv mashg'uloti maqsadi: "Turk mumtoz adabiyoti " mavzusi yuzasidan o'quvchilar tushunchalarini o'ttirish, ularga yangi bilimlarni berib, yangi bilimlar asosida ko'nikmalar hosil qilish, mavzu yuzasidan talabalarning axloqiy normalarini tarbiyalash va h.k.	
Pedagogik vazifalar: -Talabalarga xalq og'zaki ijodi haqida ma'lumotlar bilan tanishtirish; -Mumtoz adabiyot vakillarini tasnifini berish; - Turk mumtoz adabiyotining o'rnini va bugungi kundagi ahamiyatini tushuntirish; -Turk mumtoz adabiyotining jahon madaniyati va adabiyotidagi o'rnini ochib berish va bosh.	O'quv faoliyati natijalari: 1. Zavqiy qachon tug'ilgan? 2. Furqat hayoti va ijodining taraqqiyot bosqichlari. 3. Furqatning Farg'ona vodiysidagi yaqin zamondoshlari. 4. Yangi va eski Marg'ilondagi mashg'ulot va faoliyati. 5. Oilaviy fojia va uning Furqat ruhiy kayfiyatiga ta'siri. «Sayding qo'yaber...» musaddasining yozilishiga sabab bo'lgan jihatlar qanday? 6. Furqat Xo'jandda. Bu yerdagi adabiy davraning Furqat ijodiga ta'siri mavzuiga doir nimalar bilasiz? 7. «Sayohati Furqat»ning mazmunini so'zlang. 8. Furqat Toshkentda (1889–1891). Ma'rifatparvarlik faoliyatining yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'lgan omillar xususida nimalar deya olasiz? 9. Suvorov hamda nag'ma xususidagi manzumalardagi rus kishilari, ayollari obrazlariga prototip bo'lgan shaxslar kimlar edi? 10. «Ahvolot» memuar asarining ahamiyati. Unda Furqatning Rusiya mavzusida asarlar yozishiga bois bo'lgan sabablar qanday izohlanadi? 11. Furqat ma'rifatparvarligining ungacha bo'lgan ma'rifatparvarlikdan farqlari va afzalliklarini nimalarda ko'rasiz? 12. Chet ellarga ketishi va Vataniga qaytib kelolmasligining sabablarini izohlab bering. 13. Furqatning chet el marshruti va u yerlarda yozgan asarlari xususida ma'lumotlar bering. Furqat va salaflar mavzusi va mundariyasi qanday? 14. Zavqiy va Furqatlarning badiiy mahoratiga oid bayt keltirib, tahlil qilib bering. 15. Furqat va zamondoshlari mavzui bo'yicha qanday

	adabiy material va fikrlar keltira olasiz? 16. Furqatning badiiy siymosiga bag'ishlangan qanday adabiy va san'at asarlari yaratilgan?
Ta'lim usullari	Muammoli usul, aqliy hujum. Bahsli munozara, suhbat
Ta'limni tashkillashtirish shakli	Jamoaviy, individual
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, elektron darsliklar, badiiy kitoblar
Ta'lim berish sharoiti	Maxsus jihozlangan xona
Monitoring ba baholash	Tezkor so'rov, qisqa mazmunli so'rov

ILOVALAR

1-ilova

MAVZU: FURQATNING HAYOTI VA IJODI REJA: 1. Furqat Toshkentda (1889–1891). Ma'rifatparvarlik faoliyatining yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'lgan omillar xususida nimalar deya olasiz? 2. Furqat ma'rifatparvarligining ungacha bo'lgan ma'rifatparvarlikdan farqlari va afzalliklarini nimalarda ko'rasiz? 3. Furqatning badiiy mahoratiga oid olti bayt keltirib, tahlil qilib bering. 4. Furqatning badiiy siymosiga bag'ishlangan qanday adabiy va san'at asarlari yaratilgan?		
--	--	--

2-ilova a)

Darsda “BBB” jadval bilan ishlash olib boriladi.

Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim
1. Furqat hayoti va ijodi haqida biroz ma'lumotga egaman; 2. Furqat asarini o'qiganman	1. Furqat hayoti va ijodi haqida to'liq ma'lumot olishni istayman.	

ADABIYOTLAR RO'YXATI

MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Furqat. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. –T., 1960.
2. Furqat. Tanlangan asarlar. –T., 1975.
3. Mumtoz manzuma. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 11 sentyabr, 1992.
4. Sayohati Furqat. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 14 sentyabr, 1990.
5. Madaminov A. Furqatning yangi topilgan she'rlari. Furqat ijodiyoti. –T., 1990, 112–138–betlar.
6. Holid Rasul. Furqat asarlarining yig'ma ilmiy–tanqidiy matni. –T., 1999.

ILMIY ADABIYOTLAR:

1. Rasul H. Furqat. Tanqidiy–biografik ocherk. –T., 1959.
2. Furqat va Muqimiy haqidagi maqolalar. –T., 1958.
3. «Zokirjon Furqat» maqolalar to'plami. –T., 1959.
4. Abdug'afurov A. Zokirjon Furqat. –T., FAN, 1977.
5. Yusupov Sh. O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyoti va Furqat. –T., O'zbekiston, 1992.
6. Furqat ijodiyoti. Ilmiy maqolalar to'plami. –T., FAN, 1990.

IXTIYORIY DAFTARLARNI OLADILAR VA KERAKLI TUSHUNCHALARNI YOZIB BORADILAR

Qo'simcha ma'lumot. 3-ilova ma'ruza mashg'uloti bo'lganligi sababli undan foydalanilmaydi.

3-ilova

Guruhlar faoliyatini baholash mezonlari

<i>Guruhlar</i>	<i>Ma'lumotning to'liqligi</i> (1)	<i>Ma'lumot mazmunining aniq tushuntirilishi</i> (1)	<i>Taqdimotning ko'rgazmali berilishi</i> (1)	<i>Umumiy ball</i>
1-guruh				
2-guruh				
3-guruh				
4-guruh				

Guruhlar faoliyati natijalarining umumiy bahosi

Guruh	O`zaro baholash natijalari					Jam i
	1	2	3	4		
1	*					
2		*				
3			*			
4				*		

4-ilova

Qo`simcha ma`lumot. Tezkor-so`rov test orqali amalga oshiriladi.

1. O`zbek mumtoz adabiyotidagi eng yaxshi an`analarni davom ettirish bilan birga, o`zbek adabiyoti rivojini yangi bosqichga ko`targan mashhur shoir va publitsistni aniqlang.

A) Zavqiy B) Furqat C) Fitrat D) Cho`lpon

2. Sakkiz yoshida Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» dostonini yod oladi, sal o`tib, Navoiy asarlarini o`qishga tutinadi. Ushbu iste`dodli shoirni aniqlang.

A) Furqat B) Abdulla Qodiriy C) Zavqiy D) Cho`lpon

3. Shartli ravishda «Furqatnoma» deb nomlanadigan nasriy asarida Furqat quyidagi baytlardan qaysi birini to`qqiz yoshida yozganini qayd etadi?

A) Ba`zilar holim ko`rib majnun dedi,

Bilmaganlar o`xshatur hushyorg`a.

B) Tushti savdoyi judolig` boshima,

Yurmisham rasvo bo`lib bozorg`a.

C) Bo`lib shul asr hikmat ahli hadsiz,

Fatonat ahli donishmand adadsiz.

D) Mening maktabaro buldur murodim,

Xatimdek chiqsa imloyi savodim.

4. Furqat 1870- yilda Qur`on qiroatini kimdan o`rganadi?

A) Muhammad Olimdan B) Ashur Muhammaddan C) Mirzo Buxoriydan D) To`g`ri javob yo`q

5. Furqat 1871-1872- yillarda arab tilini kimdan o`rganib, madrasa ta`limiga tayyorgarlik ko`radi?

A) Muhammad Olimd B) Ashur Muhammad C) Poshshoxo‘ja eshonD) Mirzo Buxoriy

6. Zamon ahli shu boisdan taxallus Furqatiy derlar:

Necha yildur bir oshubi zamonidin adashganman. Qaysi adabiyotshunos olim ushbu baytlarga asoslanib Zokirjonning «Furqat» taxallusini qo‘llash sababini izohlagan?

A) N.Abdulhamid B) V.Rahmonov C) N.Karimov D) U.Normatov

7. «Chor darvesh» va «Nuh manzar» asarlarini fors tilidan o‘zbekchaga o‘girgan adibni aniqlang.

A) Fitrat B) Furqat C) Cho‘lpon D) Muqimiy

8. Mirzalik, xattotlik qilgan, hatto turmush taqozosi bilan choy do‘koni ochib kun kechirgan shoir qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A) Abdulla Qodiriy B) Zavqiy C) Muqimiy D) Furqat

9. Furqat «Turkiston viloyatining gazetasi» muharriri Nikolay Ostroumov bilan qayerda tanishadi?

A) Samarqand B) Qo‘qon C) Toshkent D) Istanbul

10. Istanbulda yozilgan «Sabog‘a xitob» she‘ri necha misradan iborat?

A) 280 B) 250 C) 230 D) 240

11. Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘lining taxallus tanlashida «Alloh jamolidan judolikni ko‘zda tutgan» deya fikr bildirgan shaxsni aniqlang.

A) V.Rahmonov B) N.Abduhakim C) N.Ostroumov D) H.A‘zam

12. Furqatning N.Ostroumov bilan tanishuvidan keyin «Turkiston viloyatining gazetasi»da chop etilgan she‘rlarini aniqlang.

A) Gimnaziya, Ilm xosiyati B) Akt majlisi xususida, Suvorov C) Nag‘ma bazmi xususida, Vistavka D) Barcha javoblar to‘g‘ri

13. Furqat xat orqali tanishgan Samarqandlik savdogar va etnograf olimni aniqlang.

A) Hoji A‘zam B) Zavqiy C) Mirzo Buxoriy D) N.Ostroumov

14. Furqat nechanchi yilgacha «Turkiston viloyatining gazetasi» bilan aloqada bo‘lgan?

A) 1909- yilgacha B) 1905- yilgacha C) 1907- yilgacha D) 1906- yilgacha

15. Lirik asarlarida Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy, Bobur, Mashrab, Ogahiy kabilarning tajribasiga suyangon holda o'zbek lirikasining ifoda imkoniyatlarini kengaytirgan ijodkorni aniqlang.

A) Zavqiy B) Furqat C) Fitrat D) Muqimiy

16. Muqimiy Furqatning lirik merosidagi qaysi g'azaliga taxmis bog'lagan?

A) Qosido ayg'il o'shal dildorg'a B) Ikkimiz C) Ko'zlaring D) O'lturg'usi

17. Furqat qaysi g'azalida o'z muhabbati miqyosini buyuk Mansur Xalloy holatiga tenglashtiradi?

A) Qosido, ayg'il o'shal dildorg'a B) Muncha zolim bo'lmish ul xunrez tarso ko'zlaring C) Ikkimiz D) Ne jafolar chekmadim bir bevafo dildor uchun

18. Qaysi ijodkor g'azalida yorni tasvirlashda Yusuf alayhissalom ham tilga olib, uning husnini, shirin so'zligi yorga qiyoslanadi va «hamma to'g'rida» Yusuf misriydan ham ortiq ekanini bildiradi?

A) Mashrab B) Zavqiy C) Furqat D) Muqimiy

19. «... ul vaqtlarda Rusiya xalqidin biror odamni bozorda ko'rsam qochib yiroqdin o'tib ketar edim. Hatto o'rus birla so'zlashgan odamni yomon ko'rar edim». Ushbu tarjimai hol muallifi kim?

A) Cho'lpon B) A.Qodiriy C) Fitrat D) Furqat

MA'RUZA MASHG'ULOTLAR

4-MAVZU

TOSHKENT ADABIY MAKTABI. FAZLULLOH ALMAIY VA KARIMBEK KAMIYLARNING ADABIY FAOLIYATI HAQIDA MA'LUMOT

4.1. Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi modeli

Talabalar soni: 120	Vaqt: 2 soat
Mashg'ulot shakli	Kirish mavzu bo'yicha ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. Almaiyning ijodiy merosi, uning o'zbek tarjima adabiyotida tutgan o'rni. 2. Karimbek Kamiy va Toshkent adabiy muhiti. 3. Kamiyning milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida tutgan o'rni. 4. Xondayliqiy ijodida dostonnavislik.
Mashg'ulotning maqsadi: Almaiyning ijodiy merosi; lirikasi; tarjimalari ("Kalila va Dimna"); Almaiyning o'zbek tarjima adabiyotida tutgan o'rni; Kamiy ijodiga munosabat masalasi; tarjimai holi; Kamiy va Toshkent adabiy muhiti; ma'rifat mavzuidagi she'rlari; hajviyoti; tarjimalari; shoir ijodida tasavvufiy unsurlar; jadidcha va qadimcha qarashlari; Sidqiy Xondayliqiy shoir, xattot, tarjimonligi; ijtimoiy-siyosiy she'rlari; diniy-axloqiy mavzudagi asarlari; tarjimashunoslikda tutgan o'rni; dostonnavisligi haqida tasavvurga ega bo'lishini ta'minlash	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
Almaiyning ijodiy merosi, uning o'zbek tarjima adabiyotida tutgan o'rni yoritish	Almaiyy XIX asr o'zbek adabiyotining Toshkentda yetishgan taniqli vakillaridan ekanligi, shoir, olim va tarjimonligi, "Mo'yi Muborak" madrasasida, so'ng Buxoro madrasasidagi tahsili, Shukurxon madrasasidagi mudarrislik faoliyati, u asosan xattotlik va tarjimonlik bilan ro'zg'or tebratgani, XIX asrning so'ngida Toshkentda tan olingan 7 bedilxonning biri ekanligi, arab tili grammatikasiga oid "Avzon ul-jumu" ("Ko'plik vaznlari") nomli kitob yozgani, Fazlulloh uch tilda baravar ijod eta olgan shoirligi, uning eng katta xizmatlaridan biri "Kalila va Dimna"ni tarjima qilishi, asarning "Kalila va Dimnai turkiy" nomi bilan uch marta (1898-1901-1913) chop etilgani haqida gapiradi.
Karimbek Kamiy va Toshkent adabiy muhitini yoritib berish	Karimbek Kamiy – milliy uyg'onish davrining faol ijodkorlaridanligi, shoir ijodini o'rganishda asosiy manba – uning asarlari ekanligi, Kamiy o'z davrining e'tirof etilgan shoirlaridan biri sifatida haqli suratda XX asrda tuzilgan majmua-bayozlardan o'rin olishi, bayozlarda ijodkor do'stlar tomonidan u haqda yozilgan g'azallar uchrashi Kamiyning shoirlik darajasini belgilab berishi, 1890-yillarga kelib ustoz shoirlar qatoridan o'rin olishi, safarlarida bo'lgani,

	mumtoz she'riyatimizning g'azal, murabba', muxammas, musaddas, ruboiy, qit'a, fard kabi janrlarida qalam tebratgani, ijtimoiy - falsafiy ruhdagi manzumalar yozgani, muhim voqyealar sanasini o'zida darj etgan ta'rixlar yaratgani haqida gapiradi va tahlil qiladi
Kamiyning milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida tutgan o'rnini yoritib berish	Kamiy ijodiyotining asosiy qismini ishqiy lirika tashkil qilishi, uning ma'rifatparvarlik she'riyati gimnaziyaning tanishtiruvchi she'rlari bilan boshlanishi, bu jihatdan u Furqat maktabining davomchisiga aylangani, keyinchalik shoir ijodida uslubiy o'zgarishlar yuz bergani, asosan, milliy madrasalarimizning tolibi ilmlarini ilmga chaqiruvchi da'vatkorona ruh olgani, XX asrning 10-yillarga kelib Kamiy ma'rifatparvarligi yangi bosqichga ko'tarilgani, uning da'vati ilm toliblariga emas, millatga qaratilgani, Kamiyning bunday xarakterdagi she'rlari milliy-ma'rifiy ruh bilan uyg'unlashib, shoir ijodida millatparvarlik she'riyatining yuzaga kelishiga sabab bo'lgani, Kamiy an'anaviy shakllarni takomillashtirish, yangi mazmunni ifodalovchi yangi obraz va tasviriy vositalar yaratish bilan milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotini boyitishga munosib hissa qo'shgani haqida gapiradi
Xondayliqiy ijodida dostonnavislikning o'rnini haqida ma'lumot berish	Sidqiy Xondayliqiy shoir, xattot, tarjimon bo'lgani, shoir sifatida shakllanishida Kamiyning xizmati katta bo'lgani, ilk she'rlarini «Shuhrat», «Shevan» (nola, fig'on) taxalluslari bilan yozgani, lirik she'rlarida mumtoz adabiyotimizdagi hayotiy, insoniy muhabbat, odamiylik singari yaxshi an'analarni davom ettirgani, poetik merosining salmoqli qismini hajviyot va ijtimoiy she'rlar tashkil qilishi, ijtimoiy-siyosiy she'rlari davrning muhim voqyealariga bag'ishlangani mardikorlik voqyealari haqida asarlar yozgani, Sidqiyning «Rusiya inqilobi» dostoni Rusiya inqilobi voqyealarini keng epik planda tasvir etuvchi dastlabki asarligi, voqyealar inqilobning birinchi kuni tasviridan boshlanib, kunmakun berilgani, doston inqilobdan keyingi sharoitni jiddiy va atroflicha tahlil etish, barchani birlikka, hamjihatlikka chorlash bilan yakun topgani, bu g'oya «Umidi ittifoq» (1918) tarji'bandida davom etgani haqida gapiradi va tahlil qiladi
O'qitish metodlari	Ma'ruza, munozara, muammoli vaziyatlar usuli
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proyektor
O'quv faoliyatini tashkil etish shakllari	Jamoa, to'g'ridan-to'g'ri ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
Qaytar aloqa usul va vositalari	Savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish

4.2. O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	1.1. Ma'ruza mashg'uloti mavzusi, uning maqsadi va vazifalari bilan tanishtiradi	Tinglaydi. Mavzu nomini yozib oladi
	1.2. Mavzuga oid tarqatma materiallar tarqatadi	Tarqatma materialga qaraydi
II-bosqich. Asosiy qism (60 minut)	2.1. Mavzu rejasi va tayanch iboralar bilan tanishtiradi	Tinglaydi
	2.2. Ma'ruzani reja asosida olib boradi, rejaning har bir qismidan so'ng xulosalarini bildiradi. Jarayon kompyuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi	Tinglaydi, slaydga qaraydi, uni o'ziga yozib oladi va savollar beradi
	2.3. Mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi savollarni beradi: 1. "Kalila va Dimnai turkiy"ning xos xususiyatlari 2. Kamiy ijodida milliy uyg'onish mavzui. 3. Kamiyning adabiy davrasi. 4. Xondayliqiy ijodida ijtimoiy-siyosiy mavzu.	Savollarga guruhlarda ishlash asosida javob beradi
	2.4. Tayanch iboralarga qaytiladi.	Har bir tayanch tushuncha va iborani muhokama qiladi
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut)	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosa qiladi.	Tinglaydi
	3.2. Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun topshiriq va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati beriladi	Eshitadi
		Slaydga qaraydi

MA'RUZA MASHG'ULOTLAR

5-MAVZU

MILLIY VA IJTIMOIIY KURASHLAR DAVRI ADABIYOTI BOSQICHI. ISMOILBEK GASPRINSKIY, MAHMUDXO'JA BEHBUDIY VA ABDULLA AVLONIYLARNING HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI

5.1. Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi modeli

Talabalar soni: 100	Vaqt: 2 soat
Mashg'ulot shakli	Kirish mavzu bo'yicha ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. Ibratning hayot yo'li. 2. Shoirning ma'rifatparvarlik faoliyati. 3. Ibrat – ilk o'zbek matbaachisi. 4. Ibrat – tilshunos va tarixchi 5. Mahmudxo`ja Behbudiy hayoti va ijodi 6. Avloniy asarlari tahlili
Mashg'ulotning maqsadi: Ibratning hayot yo'li; ma'rifatparvar shoir, publisist, tarixshunos, tilshunos olim, sayyoh, ilk o'zbek matbaachilaridan biri sifatidagi faoliyati; ijodi; chet ellarga sayohati; “Usuli jadid” maktablarini ochishi; “Matbaai Is'hoqiya”, “Kutubxonai Is'hoqiya”ning vujudga kelishi; matbuotda chop etilgan asarlari; ilmiy faoliyati; rus bosqiniga munosabati haqida tasavvurga ega bo'lishini ta'minlash. Behbudiy va Avloniy asarlarini tahlil qilish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
Ibratning hayot yo'lini yoritish	Is'hoqxon Junaydullo o'g'li Ibrat 1862 yilda Namangan viloyatidagi To'raqo'rg'on tumanida tug'ilgani, ota-onasi, tahsili, Qo'qondagi hayoti va ijodi (1878-1886) o'zbek adabiyoti, madaniy hayotida tub o'zgarish sodir bo'layotgan davrga to'g'ri kelishi, uning Qo'qon adabiy muhitining yirik namoyandalari – Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Nodim, Haziniy va Muhyilar bilan yaqin aloqada bo'lgani, 1886 yilda shoir To'raqo'rg'onga qaytib keladi va yangicha usuldagi maktab ochgani, 1887 yilda Ibratning Sharq mamlakatlariga safarga chiqishdan asosiy maqsadi, chet el xalqlari hayoti, madaniyati bilan yaqindan tanishishi, safar davomida Is'hoqxon Ibrat Istanbul, Suriya, Afina, Rim kabi Yevropaning markaziy shaharlarida bo'lgani, 1892-1896 yillarda Hindistonning eng katta port shaharlaridan Bombey va Kalkuttada yashagani, 1896 yilda Qashqar orqali o'z yurtiga qaytib kelgani va umrining oxirigacha maktabdorlik qilgani haqida gapiradi.
Shoirning ma'rifatparvarlik faoliyatini yoritib berish	Ibrat 1907 yilda o'z xonadonida yangi usuldagi maktab ochgani, o'zi ochgan maktabni stol, stul, parta, doska, yangi darsliklar bilan ta'minlagani, maktab uchun darsliklar yozgani, uning 14 ta ilmiy-

	pedagogik asari mavjudligi, Is'hoqxon Ibrat 1913 yilda «Matbaai Is'hoqiya» qoshida «Al-tijor al-Namangan» nomida gazeta chiqarishga harakat qilgani, o'z uyida anchagina boy kutubxona tashkil qilgani va uni «Kutubxonai Is'hoqiya» deb atagani, mazkur kutubxonada ta'lim-tarbiya va o'qitishga oid o'zbek, rus, turk, tatar, forstojik tillarida ko'plab kitoblar bo'lgani hamda Ibratning yangi usul maktablaridagi faoliyatini tahlil qiladi
Ibrat – ilk o'zbek matbaachisi ekanligini yoritib berish	Ibratning Turkistondagi yerli ziyolilar orasida birinchilardan bo'lib matbaa ochgani, uning faoliyatini tashkillashtirishdagi xizmati, «Kutubxonai Is'hoqiya» kitob fondining kattalashib borishida «Matbaai Is'hoqiya» katta rol o'ynagani, bu matbaada chop etilgan kitoblarning mahalliy aholining savodini chiqarishdagi xizmatini tahlil qiladi
Ibratning tilshunoslik va tarixnavislik merosi haqida ma'lumot berish	Ibrat olti tildagi: arab, fors, hind, turk, rus va o'zbek tillaridagi «Lug'ati sitta-al-sina» («Olti tilli lug'at»)ni yaratgani, keyinroq «Jome' ul-xutut» («Yozuvlar mazmuasi») nomli ilmiy asar yozib nashr etgani, bu asarda muallif yozuvlarning eng ibtidoiysi – piktografik yozuvlardan to so'nggi davr eng mukammal yozuvlargacha bosib o'tgan taraqqiyot tarixini yoritib berishga harakat qilgani, Ibrat o'zining 1916 yilda yaratgan «Tarixi madaniyat» asaridan keyingi 20 yil ichida 14 ta ilmiy-tarixiy, lingvistik asarlar yaratgan yirik tilshunos va tarixnavis ekanligi, uning «Tarixi Farg'ona», «Tarixi madaniyat», «Mezon-uz zamon» kabi tarixiy-ilmiy asarlari Vatanimiz tarixi va madaniyatini o'rganishda birlamchi manbalardan bo'lib xizmat qilishi haqida gapiradi va tahlil qiladi
O'qitish metodlari	Ma'ruza, munozara, muammoli vaziyatlar usuli
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proyektor
O'quv faoliyatini tashkil etish shakllari	Jamoa, to'g'ridan-to'g'ri ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
Qaytar aloqa usul va vositalari	Savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish

5.2. O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	1.1. Ma'ruza mashg'uloti mavzusi, uning maqsadi va vazifalari bilan tanishtiradi	Tinglaydi. Mavzu nomini yozib oladi
	1.2. Mavzuga oid tarqatma materiallar tarqatadi	Tarqatma materialga qaraydi
II-bosqich. Asosiy qism (60 minut)	2.1. Mavzu rejasi va tayanch iboralar bilan tanishtiradi	Tinglaydi
	2.2. Ma'ruzani reja asosida olib boradi, rejaning har bir qismidan so'ng xulosalarini bildiradi. Jarayon kompyuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi	Tinglaydi, slaydga qaraydi, uni o'ziga yozib oladi va savollar beradi
	2.3. Mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi savollarni beradi: 1. Shoir hayotidagi eng ibratli jihat. 2. Ibratning ilmiy faoliyati. 3. Ibratning madaniyat va ma'rifat bobidagi faoliyati. 4. Ibrat she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyati.	Savollarga guruhlarda ishlash asosida javob beradi
	2.4. Tayanch iboralarga qaytiladi.	Har bir tayanch tushuncha va iborani muhokama qiladi
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut)	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosa qiladi.	Tinglaydi
	3.2. Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun topshiriq va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati beriladi	Eshitadi
		Slaydga qaraydi

MA'RUZA MASHG'ULOTLAR

6-MAVZU

TO'LAGAN XO'JAMYOROV – TAVALLO, SO'FIZODA VA SIDQIY XONDAYLIQIYLARNING HAYOTI VA IJODI

6.1. Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi modeli

Talabalar soni: 120	Vaqt: 2 soat
Mashg'ulot shakli	Kirish mavzu bo'yicha ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. Tavalloning ijodiy merosi, asarlarining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni. 2. So'fizoda va Qo'qon adabiy muhiti. 3. Xondayliqiy ijodida dostonnavislik.
Mashg'ulotning maqsadi: hoirlarning ijodiy merosi; lirikasi; ularning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni; Tavallo, So'fizoda va Sidqiy Xondayliqiylarning ma'rifat mavzuidagi she'rlari; hajviyoti; shoirlar ijodida tasavvufiy unsurlar; jadidcha va qadimcha qarashlari; Sidqiy Xondayliqiy shoir, xattot, tarjimonligi; ijtimoiy-siyosiy she'rlari; diniy-axloqiy mavzudagi asarlari; tarjimashunoslikda tutgan o'rni; dostonnavisligi haqida tasavvurga ega bo'lishini ta'minlash	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
Tavalloning ijodiy merosi, ularning o'zbek adabiyotida tutgan o'rnini yoritish	To'lagan Xo'jamyorov – Tavalloning hayoti sahifalari. Vaqtli matbuotdagi ishtiroki. Ijodi. "Ravnaq ul-islom" to'plami. Tavallo va Munavvarqori, Behbudiy munosabatlari. She'rlarining badiiyati. Tavallo va tatar adabiyoti.
So'fizoda va Qo'qon adabiy muhiti	So'fizoda ijodining o'rganilishi tarixi. Tarjimai holi. Hajviyalari. So'fizoda va ozarboyjon mutafakkirlari. So'fizodaning "usuli savtiya" maktablari ochishi. Matbuotdagi ishtiroki. Ma'rifatparvarlik yo'nalishidagi she'rlari. Lirikasi.
Sidqiy ijodi	Sidqiy Xondayliqiy hayoti va ijodi (1884-1934). Shoir ijodining o'rganilishi. Hayoti va ijodiy faoliyati. Shoirning ilk bosma kitoblari. Birinchi jahon urushi va shoirning unga munosabati. She'rlarida mardikorlik voqealari talqini. 1917 yil va Sidqiy. "Rabo(t)chilar namoyishi", "Rabo(t)chilar kelishi", "Toza hurriyat", "Rusiya inqilobi" asarlarining yozilishi. Shoirning 1917 yildan keyingi hayoti va ijodi.

Xondayliqiy ijodida dostonnavislikning o'ri haqida ma'lumot berish	Sidqiy Xondayliqiy shoir, xattot, tarjimon bo'lgani, shoir sifatida shakllanishida Kamiyning xizmati katta bo'lgani, ilk she'rlarini «Shuhrat», «Shevan» (nola, fig'on) taxalluslari bilan yozgani, lirik she'rlarida mumtoz adabiyotimizdagi hayotiy, insoniy muhabbat, odamiylik singari yaxshi an'analarni davom ettirgani, poetik merosining salmoqli qismini hajviyot va ijtimoiy she'rlar tashkil qilishi, ijtimoiy-siyosiy she'rlari davrning muhim voqyealariga bag'ishlangani mardikorlik voqyealari haqida asarlar yozgani, Sidqiyning «Rusiya inqilobi» dostoni Rusiya inqilobi voqyealarini keng epik planda tasvir etuvchi dastlabki asarligi, voqyealar inqilobning birinchi kuni tasviridan boshlanib, kunmakun berilgani, doston inqilobdan keyingi sharoitni jiddiy va atroflicha tahlil etish, barchani birlikka, hamjihatlikka chorlash bilan yakun topgani, bu g'oya «Umidi ittifoq» (1918) tarji'bandida davom etgani haqida gapiradi va tahlil qiladi
O'qitish metodlari	Ma'ruza, munozara, muammoli vaziyatlar usuli
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proyektor
O'quv faoliyatini tashkil etish shakllari	Jamoa, to'g'ridan-to'g'ri ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
Qaytar aloqa usul va vositalari	Savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish

6.2. O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	1.1. Ma'ruza mashg'uloti mavzusi, uning maqsadi va vazifalari bilan tanishtiradi	Tinglaydi. Mavzu nomini yozib oladi
	1.2. Mavzuga oid tarqatma materiallar tarqatadi	Tarqatma materialga qaraydi
Milliy uyg'onish davri Vatanimizda jadidchilik harakati shaklida namoyon bo'ldi. U 1865 yildan boshlanib 1929 yilda harakat namoyandalarini jismoniy tugatishgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu harakatning yuzaga kelishi bevosita istilo va uning oqibatlari bilan bog'langan bo'lib, uning shakllanish davri 1865-1905 yillar bilan belgilanadi. Adabiy harakatning an'anaga ko'ra ko'proq Qo'qon, Xiva, Buxoro, Samarqandda rivoj topdi. Toshkent ham general-gubernatorlikning poytaxti sifatida tez rivojlandi, adabiy-madaniy markazga aylanib bordi. 1905 yil voqealari, xususan, 1905 yil 17 oktyabr Manifestidan keyin u rivojlanish bosqichiga kirdi. 1916 yilga kelib mazkur harakat namoyandalari "qora xalqni oqartirmoq va ko'zini ochmoq chorasiga" (Avloniy) kirishdilar. Shu tariqa, milliy uyg'onish (jadidchilik) nihoyatda tez rivojlandi. Milliy uyg'onish (jadid adabiyoti) mazkur harakatlarning adabiy-badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ldi. U yangi o'zbek adabiyotini boshlab berdi. Uning avj taraqqiysi 1915-1925 yillarga to'g'ri keldi. Shulardan kelib chiqqan holda o'zbek milliy uyg'onish adabiyotini ikki bosqichga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir. 1. Ilk mustamlakachilik davri: manbalari, yuzaga kelishi (1865-1905). 2. Milliy va ijtimoiy kurashlar davri: taraqqiyoti va tugatilishi (1905-1929). Bunday har bir sana muayyan ma'no tashiydi. 1865 yil – Toshkent istilo qilingan sana. 1929 yil esa tarixda jadidchilik harakatining sho'rolar siyosati tomonidan mahv etilishi sanasi sifatida muhrlangan.

1-MAVZU:

MILLIY UYG‘ONISH DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTINING ILK BOSQICHLARI. DAVRNING IJTIMOIIY-MADANIY QIYOFASI. KOMIL, FERUZ, TABIBIYLAR IJODINING XORAZM ADABIY MUHITIDA TUTGAN O‘RNI

Reja:

1. Xiva va Buxoro xonliklarida tarixiy–ijtimoiy sharoit, madaniy–adabiy muhit. Ulardagi mushtarak va o‘ziga xos xususiyatlar.
2. Xiva adabiy muhiti.
3. Buxoro adabiy muhiti
4. Qo‘qon adabiy muhiti
5. Samarqand va Toshkent adabiy maktabi.

Tayanch iboralar: Buxoro amirligi xududidagi adabiy markaz. Uning o‘ziga xos xususiyatlari, tarkibi. Ahmad Donish, uning zamondoshlari. Ikki tillilikning adabiy ijoddagi o‘rni. Tazkira va tarix asarlar yaratishga qiziqish. Voze, Somiy, Salimiy, Xashmat asarlari. Ahmad Donish (1827–1897). Asarlari, Donish haqidagi fikrlar. Ma‘rifatparvarlik faoliyati. Shavqiy, Xiromiy, Shahrisabz, Kitob. Erkin tarjima asarlari, muhammaslari. «Saroy adabiy» doiralaridagi passivlik va parokandalik sabablari

XIX–asrning ikkinchi yarmida Chor Rossiyasining istilosi tufayli Qo‘qon feodal davlati tugatildi. Xiva va Buxoro xonligi qisman Rossiyaga tobelik statusi bilan o‘z davlat mustaqilliklarini saqlab qoldilar. Bu ikki davlat hududida feodal saroyi va ular tasarrufidagi adabiy markazlar yashashda davom etdi. Biroq bu ikki saroydagi adabiy markazning tarkibi ham, salohiyati ham bir xil bo‘lgan emas. Buning o‘ziga xos ob‘ektiv va sub‘ektiv sabablari bor. Shundan Umarxon va keyinroq Feruz saroyidagi adabiy markazlar ancha faolligi bilan ajralib turadi. Biz avval «Saroy–feodal, feodal–klerikal» oqimlaridagi adabiyotlar sifatida sinfiy tabaqalab, kamsitib o‘rgangan bu adabiy muhitlarda ishtirok etgan shoir–ijodkorlar asarlarini ham endilikda umumo‘zbek adabiyotining namunalari, umumo‘zbek adabiyotini yaratishda ishtirok etgan shaxslar sifatida o‘rganishimiz, ularga nisbatan istiqlol yillarigacha davom etib kelgan har qanday kamsitishlarni olib tashlashimiz lozim. Qo‘qon xonligi 1876 yilda tugatilgan sabab, u yerda feodal xonlik saroyi ham, uning tasarrufidagi adabiyot ham yo‘q edi. Bu xonlik xududlaridagi shoirlarning har biri o‘zlari tavallud topgan shahar va qishloqlarda yashab, u yoki bu kasb bilan shug‘ullanish bilan birga badiiy ijodda ham o‘z iste‘dod va imkoniyatlarini namoyon etib turdilar. Sobiq Qo‘qon xonligi territoriyalaridagi shu davr shoirlari ko‘proq

Toshkent, Qo‘qon, Andijon, Samarqand, Namangan (To‘raqo‘rg‘on), Xo‘jand, Kattaqo‘rg‘on kabi shaharlarda alohida–alohida adabiy guruhlar tarzida ko‘zga tashlanadi. Bunday shoirlar ijodida Sobiq Turkiston o‘lkasida yuz bergan siyosiy–ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar feodal–xonlik saroylaridagi shoirlar ijodidagiga nisbatan kuchliroq aks ettirildi.

Buxoro amirligi xududlarida adabiyot

Buxoro amirligida to 1920 yilgacha mang‘it urug‘idan bo‘lgan amirlar (Amir Shohmurod, amir Haydar, amir Nasrullo, amir Muzaffar, amir Abdulahad va amir Olimxonlar) hukmronlik qildilar. Biz yuz yillar davomida bu hududda badiiy ijodga qiziqish va homiylik boshqa qo‘shni xonliklardagiga nisbatan ancha passiv kechganligini kuzatamiz; Biroq Buxoro amirlari ham ayniqsa amir Muzaffar va amir Abdulahad (1861–1885, 1885–1910) o‘z saroylarida siyosiy–diniy maqsadlarda qator tarixchilarni, tazkiranavislarni, olimlar va shoiru adiblarni saqlaganlar Amir Abdulahadning o‘zi ham Ojiz taxallusi bilan she‘rlar mashq qilgan. Bu davr Buxoro xududidagi adabiyot ko‘proq ikki tilda, tojik va o‘zbek tillarida yaratildi. Zullisonaynlik an‘analari bu yerdagi adabiy hayotda katta mavqe tutdi.

Buxoro amirligi territoriyalarida tanilgan shoirlar haqida Rahmatullo Vozehning 1871 yilda yozilgan «Tuhfat–ul ahhob», so‘ngroq o‘tgan shoirlar haqida esa Xashmat, Mirzo Azim Somiy, Salimiylar yaratgan tazkiralarda ma‘lumotlar bor.

Bu davr Buxoro amirligi xududlaridagi adabiyotni saroy doirasidagi hamda atrof xududlardagi shoiru adiblar guruhiga bo‘lib o‘rganish lozim. Atrof muhit shoirlari ichida ijodi shu asr o‘rtalarida shuhrat qozongan Shavqiy Kattaqo‘rg‘oniy hamda Shahrisabzli Xiromiyning o‘rni diqqatga sazovordir. Buxoro amirlari saroyiga yaqin ijodkorlar ichida esa o‘zining salohiyati, qomusiy bilimi, siyosiy qarashlari bilan ayniqsa Ahmad Donish ajralib turadi. U shu davr Buxoro xonligida kurtak yozaborgan ma‘rifatparvarlik oqimining yirik vakillaridan hisoblanadi. Uning ta‘sirida zamondosh do‘stlaridan Rahmatullo Vozeh, Shohin, Savdo, Hayrat, Mirza Azim Somiylar ham tarixnavislikda, ham shoirlikda, ham tazkiranavislikda iqtidor ko‘rsatishib, asosan tojik tilida katta meros qoldirganlar. Shuning uchun mashhur yozuvchi va olim Sadridin Ayniy o‘zining «Esdaliklar» nomli memuar asarida Donish hayoti va faoliyati haqida keng to‘xtalib, uni «XIX asr Buxorosining bulutli osmonidagi yorug‘ yulduz» deb baholangan edi.

Ahmad Donish (1827–1897) keng qamrovli iste‘dod egasi sifatida ko‘p sohalar bilan qiziqqan va shu sohalarga doir qimmatli asarlar yozib qoldirgan. Ahmad Donish madrasa mudarrisi oilasida tavallud topib, maktab va madrasani tugatgach, munshiylik–hattotlik san‘atida ovozi tarqalib, saroyga ishga taklif qilinadi. Bir

necha yil davomida saroyda tarixga, tibbiyotga, islom tarixiga oid asarlarni ko‘chiradi. 1857, 1869 va 1873 yillarda Buxoro amirlarining elchilariga mirzo, maslahatchi sifatida hukumat vakillari bilan Sankt–Peterburgga boradi va bular haqida memuar asarlar bitadi. Uning qo‘lyozma holida qoldirgan shunday asarlari orasida «Navodir ul–vaqoye’» hamda «Tarjimai ahvoli amironi Buxorayi sharif» nomli asarlari ayniqsa muhimdir; Bu asarlarda XIX asrning II yarmi Buxoro amirligidagi ijtimoiy hayot, amir amaldorlarining axloqan nopokligi, layoqatsizligi, ayollarning barcha haq–huquqlardan mahrumliklari tasvirlanadi. Shu bilan birga, jaholat, qonunsizlikda yashash og‘irliklari tanqid qilinadi. Eng muhimi, «Navodir ul–vaqoye’»ning I–fasli Ahmad Donishning Sankt–Peterburgga, ichki Rossiyaga qilgan sayohatlari taassurotlari, u yerlarda ko‘rgan nodir voqealar ifodasidan iborat. Shular targ‘ibi orqali u ajoyib ma‘rifatparvar, islohatlar tarafdori bo‘lgan arbob sifatida ko‘zga tashlanadi.

1.2-MAVZU:

XORAZM ADABIY MUHITI. KOMIL XORAZMIY HAYOTI VA IJODI.

Reja:

1. XIX asr o‘rtalari va ikkinchi yarmida Xiva xonligida tarixiy–siyosiy vaziyat. 1873 yildagi Chorizm bosqini. Sulh. Muhammad Rahimning oqilona siyosati.
2. Madaniy, adabiy hayotdagi ijobiy ishlar. Saroy adabiy doirasi.
3. Tarjima, hattotlik maktablari, matbaa.

Tayanch iboralar: Pahlavonniyoz Komil–hattot, shoir, noshir, mirzaboshi, devonbegi, tarjimon. Sankt–Peterburg, Toshkent (1892) safari «Qasidai Navro‘z». N.Ostroumov bilan uchrashuv. Lobasevich fikrlari. Ogahiy va Komil «Devoni Komil». M.Yunusov nashrlari va tadqiqoti. Munis va Komil: «Shuaro», «Fuzalo», «Juhalo» she‘rlaridagi hamohanglik. Ishqiy g‘azal va muhammaslari. Navoiy va Komil. «So‘yla menga ey sanam» muhammasi. Poetik mahorat qirralari. Takror san‘atining o‘ziga xos ko‘rinshlari. Musiqashunos–«Murabbai Komil», «Peshravi Feruz».

Ismi Pahlavonniyoz, taxallusi Komil bo‘lgan bu iste’dodli shoir, hattot, mirzaboshi, tarjimon, noshir va davlat arbobi 1825 yilda Xivada mudarris Abdulla Oxund oilasida tavallud topdi, 74 yil umr kechirib, 1899 yilda dunyodan ko‘z yumdi. Uning fazilat va xizmatlari haqida Ahmad Tabibiy, Bayoniy, Ogahiy o‘z asarlarida yuksak ta’riflarni keltiradilar. Jumladan Ogahiy o‘zining tarixga oid «Gulshani davlat» asarida shunday fikrlarni yozib qoldirgandir: «Navras fikr va toza tab’ shuaro din hunar ahli orasida mumtoz Pahlavonniyozkim fozillar guruhi ichra taxallusi Komildir». «Chor Rossiya»si sining Xiva xonaligiga qarshi yurishlarida

ishtirok etgan va shu haqda tarixiy – memuar asar yozgan Lobasevich ham u bilan suhbatda bo‘lib, fazilatlarini kuzatib, Komilni Xiva saroy ayonlari ichidagi eng tadbirkor, tashabbuskor, aqlli, sulhparvar, ma’rifatli shaxs bo‘lganligini takidlaydi (Xivinskiye poxodi 1873g.) Komil Feruzning qaynotasi va amakisi Saidamirul Umar orqali saroyda katta e’tibor qozonadi. Avval hattot, mirzaboshi, keyincha devonbegi xizmatlarida bo‘ladi. Hukumat vakillari tarkibida (1892 yilda) Toshekntda, so‘ng Sankt–Peterburg shaharlarida bo‘ladi.

Adabiy merosi. Komil sohibi devon shoirdir. Komil devonining bir qancha qo‘lyozma hamda toshbosmada nashr etilgan nusxalari saqlanib qolingani. Devonda an’anaviy hamda zamonaviy musabba’, qasidalar, ruboyilar, kam bo‘lsa–da, baxri tavilda, muammo shaklida yozilgan she’rlar keltiriladi.

Komil musammatning murabba’, musabba’ janrlarida o‘ynoqi, ajoiyb ishqiy she’rlar yaratgan. Ular suvora maqom yo‘llarida Xorazmli bastakorlar tomonidan hozir ham kuylanilib turibdi. «So‘yla menga ey sanam kimni sevar yorisan» takror qofiyali she’r–qo‘shiq shulardan biridir.

Komilning qator ijtimoiy, hajviy va ta’limiy mavzulardagi g‘azallaridan boshqasi an’anaviy sevgi mavzularidagi oshiqona, orifona g‘azallardir (Devondagi qator g‘azallar tahlili keltiriladi). U bir g‘azalida sadaf yonida «durri g‘alton» ham bo‘lmasa sadafning qimmatini bo‘lmaganidek, muhabbat shavqiga ega bo‘lmagan insonning ham qimmatini bo‘lmaydi,—deydi:

Zamiring aylag‘il ishq muhabbat ma’dani, Komil,

Ne qadru e’tibor o‘lg‘ay sadafg‘a durri g‘altonsiz.

Demak, u muhabbatni inson qalbidagi eng noyob ma’dan deb hisoblaydi. Ma’lumki, ma’shuqa labining jon baxsh etishi va xolning qoraligini xinduga o‘xshatish an’anaviy tasvirdir. Lekin Komil go‘zalning xoli, ko‘zi, sochi va kipriklarini har baytda bir xil emas, balki ikki xil o‘xshatish bilan tasvirlab o‘ziga xos mahorat ko‘rsatadi. Go‘zal yorning labini «chashmai hayvon»–ya’ni hayot chashmasiga o‘xshatsa, lab ustidagi xolni hayot chashmasidan suv ichgani kelgan qora zag‘chalarga qiyoslaydi.

Yoki g‘uncha tong vaqtida tushgan shabnamni durga, marvaridga mengzash klassik adabiyotda tez–tez uchraydi. Komilda u o‘zgacha go‘zallik kasb etadi:

Gul uzra jola emas, maqdaming nisori uchun,

Qizil tabaqqalar terar durri shahvori bahor.

Bu yerda bahor go‘zal yorning qadamiga sochish uchun qizil tabaqqa durri shahvor termoqda deyilishi, ya’ni gulni qizil tabaqqa, shabnamni durri shahvorga o‘xshatish juda o‘rinli va yangidir.

Tokay yuray yo ‘lungda ko ‘zim yoshin oqturub,

Tindir yoshim, ko ‘zimni jamolingga boqturub –

kabi jonli va ehtirosli tasvirlar Komil she‘rlarining badiiy yuksakligidan dalolat beradi:

U insonlarni bir–biriga nisbatan mushfiq–mehribon bo‘lishga, g‘ayrat–shijoat bilan ish tutishga chorlaydi:

Vasl istama, hajr ranjin chekmay,

Kim Komil topti beriyozat ...

Tiriklikda bilinglar yaxshi yoru oshno qadrin,

Yo ‘q ersa, qilg‘aysiz o ‘lgach pushaymonu nadam ahbob.

Komil ham ulkan zamondoshi Ogahiy kabi Alisher Navoiyning kuchli ta’sirida ijod qildi. Komilning Navoiyning shoh asarlarini jiddiy o‘rganib mulohazalarini bayon etib, toshbosmaga tayyorlashi unda buyuk daho ijodiga o‘zgacha mehr uyg‘otdi, «Netong Komil Navoiy yonglig‘ o‘lsa so‘z aro mast ...» holatiga kirib, ishqiy va ijtimoiy mavzularda navoiyona g‘azallar, muhammmaslar yozdi. Jumladan Komilning o‘z davridagi beoqibat, loqayd va vafosiz odamlardan shikoyat qilib yozgan «Bormangiz» radifli muhammasi (Qarang: Devon, 1975, 198–199 betlar) Navoiy g‘azaliga yozgan tazmin muhammaslaridandir.

Komil she‘riyatida umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liq masalalar talqini ham muhim o‘rin tutadi. U adolatni, taraqqiyotni yoqlovchi, xalqning ezgu umidlarini kuylovchi, zulmni, jaholatni qoralovchi she‘rlar ham ijod etdi. Uning «Fuzalo», «Juhalo», «So‘zung» radifli she‘rlari jangovorlik nafasiga ega she‘rlardandir. Shoir ularda fuzalo va shuaro ahllari obro‘yi va manfaatlarini himoya qiladi. Bunga kontras tarzda juhalo haylini, johillarni qattiq qoralaydi, ularni hajv ostiga oladi.

Komilning «Fuzalo» radifli g‘azali Munisning «Shuaro» radifli she‘ri ta’sirida yozildi. Munisning ham, Komilning ham she‘rlarida shu shoirlar yashagan, kuzatgan yillardagi shuaro va fuzalo ahlining og‘ir qismati, o‘kinchlari, ularning johil amaldorlar zulmidan kulfat chekayotganliklari ifodalangandir. Komil bu o‘rinda ijod, iste’dod vakillari ahvoli haqidagi Munis qarashlarini yangi fikrlar bilan boyitadi.

Muhimi shundaki, bu asarlar real–tarixiy haqiqatga asoslangan mavzulardagi asarlardir.

Munis:

*Yutubon bu zamonda qon shuaro,
Nazm etar gavhari fig'on shuaro ...
Dardmandu jafokash elga qilur,
Nazm ila dardini bayon shuaro...*

(Munis, Saylanma, 1980)

Komil:

*Yutubon bu zamonda qon fuzalo,
Kulfat o'qig'adur nishon fuzalo ...
Qatnabon siflalar eshikiga,
Topmas o'lturg'ali makon fuzalo*

(Komil. Devon, 1975, 154 bet).

Shu asnoda u boshqa «Juhalo» radifli g'azalida juhalo ahlining «masnadi izzatda saforat» topganligidan g'azabga keladi (Devon, 155 bet).

Komil ham, Munis va Ogahiylar kabi so'z san'atini yuksak qadrlaydi, uni gavhar bilan tenglashtiradi. Badiiy so'zni, she'riyatni hoyu–havas, boylik orttirish va maishiy ermak vositasiga aylantirmoqqa uringan johil ziyolilarni, mansabdor shaxslarni la'natlaydi. Bunday fikrlar uning «Fuzalo», «Juhalo» radifli she'rlaridan tashqari «Shuaro» (Devon, 24 bet), «So'zung» (Devon, 108–bet) radifli she'rlarida ham ilgari surilgandir. Bular Komilning badiiy ijod, so'z san'ati haqidagi g'oyat qimmatli estetik qarashlaridir.

*Buxl eliga demagil, ey zubbai davron so'zung,
Hayf agar qadrini bilmay, siflai davron so'zung ...
Past fitratlarga dunyo moli uchun tutma ko'z,
Bir qaro pul bobida mushkul qilur oson so'zung ...*

Uning «Kamol» radifli g'azali inson kamoloti orzusidagi o'gitlardan iborat (Devon, 109–bet).

Komil–davlat arbobi, musiqashunos va tarjimon, u imkoni boricha o‘z davlat lavozimidan foydalanib, ilm–ijod va san’at ahllarini himoya qilishga, ma’rifat va madaniyatni rivoj toptirishga harakat qiladi. U 1856 yildan oddiy hattot, 1873 yildan mirzaboshi (saroydagi xattotlar boshlig‘i) bo‘lgan yillarda juda ko‘p qo‘lyozma asarlar maydonga keladi. Komilning bir o‘zi Navoiy «Hamsa»si va «Hazoyinul maoniy» asarlarini, Ogahiyning «Ta’viz ul oshiqin» (1872) devonini va boshqa shoirlar devonlarini kirish so‘zlar bilan nashrga tayyorlaydi. Komyobning, Rojiy Xorazmiyning devonlarini ko‘chiradi. 1873 yilda devonbegilik mansabiga o‘tgach, saroydagi madaniy–ma’naviy ishlarga bosh–qosh bo‘ladi. 1891 yil Feruz topshirig‘i bilan Toshkentda bo‘ladi. N.Ostroumov kabi ziyolilar bilan uchrashadi, muloqotda bo‘ladi. Toshkent safari taassurotlari 50 baytli «Qasidai Navruz» (Dar ta’rifi va tavsifi Toshkand) qasidasida ifodalangan. Bu asar «Turkiston viloyatining gazetida bosilgan ham (Qarang. Devon, 215–216).

Komil Xorazmiy Toshkentda bo‘lganida rus musiqa san’ati bilan ham qiziqadi. Ancha narsalarni o‘rganib qaytadi. Xivaga qaytgach, Feruzning va o‘zining ayrim she’rlariga kuy bastalab, ularni Yevropacha notalarga ko‘chiradi. («Murabbai Komil», «Peshravi Feruz ...»)

Bu haqda Xivali adabiyot muxlisi Hasanmurod Laffasiyning «Xiva shoir va adabiyotchilarining ahvollari» asarida shunday ta’riflar beriladi:

*Komiliykim musiqashunos,
Jahonda yo‘q anga bir qiyos.
Ki adabiyotda erur xush adib,
Ki she’ridur ajab xush zarif
Shashmaqomda ustoz bo‘lub,
Ta’lifi no‘tag‘a mohir bo‘lub,
Maqomi Feruz ixtiro qilib,
Necha maqom ash‘or yozub.*

Komil XIX asrning oxirlarida Muhammad Rahim Feruz tashabbusi bilan yuzaga kelgan Xorazm tarjimachiligi va matbaachiligining ham yirik vakillaridan biri bo‘ldi. U Ogahiy, Sanoiy kabi mohir tarjimonlar ta’sirida fors–tojik adabiyotining ayrim o‘ta ahamiyatli namunalarini nasriy yo‘l bilan o‘zbek tiliga o‘girdi. Shulardan biri Mumtozning ishq mavzuidagi (Boshqa va bir qator shoirlarning– Miriy, Xiromiyning ham diqqatini o‘ziga tortgan) «Mahfiloro», ikkinchisi Avfiy

Buxoroyni o'g'li, iste'dodli memuarist va hikoyanavis Ali Safiyni «Latoif ut-tavoyif» asaridir.

Savollar:

1. Komilning shaxsi va iste'dodi haqidagi ma'lumotlar qanday manbalarda keltiriladi? Ularning mualliflari kimlar?
2. Komilning qanday asarlari «Turkiston viloyatining gazetisi» da bosilgan edi?
3. «So'z» she'rida qanday estetik fikrlar ifodalangan?

Topshiriq:

1. Komil. «Devon»idagi she'rlarni mutaala qilish. Ishqiy–didaktik she'rlarining vaznlarini aniqlab chiqish.

MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Komil Xorazmiy. Tanlangan asarlar – T., 1961.
2. Komil. Devon. – T.: F. Fulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975.
3. Yunusov M. Komil: Saxiy qalamlar – T.: F. Fulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975, 90–107 betlar.

1.3-MAVZU:

Feruz-ilm fan, madaniyat, adabiyot va ma'rifat homiysi. Ahmad Tabibiyni hayoti va ijodi.

Reja:

1. XIX asr o'rtalari va ikkinchi yarmida Xiva xonligida tarixiy–siyosiy vaziyat. 1873 yildagi Chorizm bosqini. Sulh. Muhammad Rahimning oqilona siyosati.
2. Madaniy, adabiy hayotdagi ijobiy ishlar. Saroy adabiy doirasi.
3. Tarjima, hattotlik maktablari, matbaa.
4. Ahmad Tabibiy hayoti va ijodi haqida ma'lumot. A. N. Samoylovich Tabibiy haqida. Feruz saroyidagi shoirlar va Tabibiyni ular orasidagi mavqei. Hayoti va ijodi haqidagi manbalar.
5. Tabibiy–shifokor va shoir. She'riy devonlari. Ijodida zullisonaylik an'analari.
6. Tabibiy faoliyatida she'riy majmualar – tazkiralarni yaratish an'analari.
7. Muhammad Yusuf Bayoniy–shoir va muarrix.

Tayanch iboralar: Feruz hukmronligi (1864–1910) Xorazmda adabiy–ma'naviy hayotning jonlanishi davri. Saroy adabiy markazi. 40 yaqin shoirlar, hattotlar,. Tarjimonlar faoliyati. Feruzning homiyligi, tarixnavislik, musiqa,

kitobatchilik rivoji, matbaa, o'zbek–rus adabiy aloqalari. Ogahiy, Sanoiy, Komil, Tabibiy, Feruz, Bayoniy, Kamyob, Doiy, Mirzo, Avaz kabi ijodkorlar faoliyati.

Shoh va shoir Muhammad Rahimxon Feruz (1844–1910) hukmdorlar shajarasiga mansub bo'lib, 1864 yilda vafot etgan Sayyid Muhammad Rahimxon I ning (1855–1864) farzandidir. U xonning kichik o'g'li bo'lib, ismi Bobojon to'radir. Xiva saroy ayonlari o'n yetti (o'n sakkiz) yoshli shahzodani Muhammad Rahimxon ikkinchi (Soni) nomi bilan Xiva taxtiga o'tqazadilar. U 47 yil (1864–1910) hukmdorlik qiladi. Uning hukmdorligining dastlabki yillari Chor Rossiyasining Xiva xonligiga tajovuzi, bosqini yillariga to'g'ri keldi. Bu yillardagi qirg'inlar, notinchliklar tarixchi Muhammad Yusuf Bayoniyni «Shajarai Xorazmshohiy» asarining qator fasllarida ifodalab qoldirilgan. Yosh Muhammad Rahim rus korchalonlari bilan oxir–oqibat murosaga kelib, og'ir siyosiy va iqtisodiy shartlar evaziga bo'lsa ham, Xiva xonligini mustaqil davlat sifatida tan olinishiga erishadi. U iloji boricha Rusiya podshohligi bilan yaxshi munosabatlarda bo'lish, zarur bo'lganda yon berish, zarur bo'lganda Xonlik manfaatlarini himoya qilish siyosatini olib bordi. Feruz hukmdorligining o'ttiz yildan ko'prog'i Xorazm xonligida nisbatan tinchlik va osoyishtalik yillari bo'ldi. Feruz tadbirkor davlat arbobi sifatida mamlakatda muhim iqtisodiy, ijtimoiy, islohotlarni amalga oshirdi, madaniyat, adabiyot va san'atni yuksaltirishga imkoniyatlar topa oldi. Uning davrida Xivadagi me'moriy, madaniy inshootlar yanada ko'paydi, yangi madrasayu masjidlar qurildi. U qo'shni Rossiya davlati bilan tuzilgan 1873 yilgi sulh shartnomasiga ko'ra Xivani yanada obod qilishga, madaniyat va adabiyotni yuksaltirishga katta e'tibor berdi, iste'dodli ziyolilarning himoyachisi va homiysi sifatida ish tutdi. O'zi bevosita ajoyib shoir, kitobsevar, san'atsevar, hattot, musiqashunos sifatida boshqalarga ibrat ko'rsata oldi, adabiy markaz tashkil etdi. Bu jihatdan uning faoliyati Husayn Boyqaro, Bobur va Amiriylar faoliyatini eslatardi.

Feruz iste'dodli shoir sifatida ko'proq an'anaviy mavzu va janrlarda barkamol lirik asarlar ijod qildi. G'azallardan, muhammaslardan, masnaviylardan, qisman ruboiylardan iborat devon tartib berdi. Bu devonning birqancha qo'lyozma nusxalari bizgacha yetib kelgan va ularni qiyosiy o'rganish natijasi ularoq 1994 yilda «Elga shohu ishqqa qul» nomida devon chop etildi.

Feruz o'z g'azallaridan birida uning she'riyatdagi ustoz Muhammadrizo Ogahiy ekanligini iftixor bilan e'tirof etadi:

Komil ersam nazm aro Feruzdek ermas ajab,

Ogahiydur she'r mashq aylarda ustozim mening

Ogahiydek buyuk shaxsning ta'sirida Feruz she'riyati, ayniqsa g'azallari o'ziga xos jarangga, go'zalikka ega. To'g'ri bu g'azallarning ko'plari an'anaviy mavzularni

ifodalaydi, ishq–muhabbat, sadoqat tuyg‘ulari tarannumidan iborat. Biroq shoir bu mavzuni keng ma’noda– insoniy poklik, jur’atlik, kamolot va ezgulik ma’nolarida talqin etadi. Shuning uchun ham beasos u o‘z g‘azallaridan saralab, ularni boshqa shoirlar uchun payrav aytishga taqdim etmagan. Bejiz Xorazmning o‘sha davrdagi qariyb hamma shoirlari, hatto Feruz nazdida pir va ustozdek salohiyat va ta’sirga ega Ogahiy, Komil kabi mumtoz shoirlar ham uning g‘azallariga javobiyalar, tazmin muhammaslar yozishib turgan.

U yaratgan she’rlarning har biri ohangdor, o‘ynoqi, badiiy, rangdor she’rlardir. Shoir o‘z she’larida mazmunga, go‘zal tuyg‘ularga mos ranglar, ramzlar, badiiy–tasviriy vositalar ishlatishga erishadi.

Gulshan ichra sarv yoxud ul qadi mavzunmudur?

Nargiz erkin mu va yo ul chashmi pur afsunmudur?

Ul gul olmishmu qizil gul ilkiga bu bog‘aro,

YO shahidi ishq qonidin qo‘li gulgunmudur?

Feruz she’rlarida mumtoz adabiyot ilmida mukarrar, raddul matla’ kabi istilohlar bilan atalib kelingan takror, qaytarik usullarda yaratilgan namunalar ayniqsa ancha.

Feruz g‘azaliyotidagi takrorlardan biri lafziy san’atlardan hisoblangan matladagi birinchi misraning maqtaning ikkinchi misrasida aynan takrorlash san’atidir. Uning devonidagi g‘azallardan beshtasida shu san’at ishlatilganligini quramiz.

Feruz g‘azal matlasidagi ilk misrani maktaning so‘nggi misrasida takrorlash orqali birinchidan, g‘azal boshlanmasi bilan tugallanmasining mantiqiy mutanosibligini, ikkinchidan, shu g‘azalning yaxlit va tugal kompozitsiyaga ega bo‘lishini, uchinchidan esa, asardagi lirik qaxramon kechinmalarning tadrij shaklida ifodalanishini ta’minlash maqsadlarini ko‘zlagan va bunga to‘la erishgan. Misollar:

Birinchi g‘azal – 9 bayt. Matlasi:

Ey sabo, bergil xabar, oromijonim qaydadur?

Sarvqadu gulpiraxan, g‘uncha dahonim qaydadur?

Maqtasi:

Topmadim ul gul visolidin xabar Feruzdek,

Ey sabo, bergil xabar, oromijonim qaydadur?

(Devon, 37 bet)

Ikkinchi g‘azal – 7 bayt. Matlasi:

*Ey falak netdim sani, dushmanlig‘ izhor aylading,
Notavon ko‘nglum tuganmas g‘amga duchor aylading.*

Maqtasi:

*Bir yo‘li aylanmayin Feruzning komi bila,
Ey falak, netdim sani, dushmanlig‘ izhor aylading*

(Devon, 52–bet)

Takrorning shoir qo‘llagan ikkinchi usulida agar u g‘azal bo‘lsa, baytining juft misrasida, agar u muhammas bo‘lsa beshlikning beshinchi misrasida bir so‘z bir necha marta qofiya sifatida takrorlanadi. Takrorning bu turi XIX asr o‘zbek shoirlaridan Xon (Madalixon), Dilafor, Muazzamxonlar she‘riyatida ham uchraydi. Biroq bu usulga xorazmli shoirlar ko‘proq murojaat etganlar.

Maqtasi:

*Oftoboso jamoling ko‘rgach o‘ldum, ey nigor,
Beqaroru beqaroru beqaroru beqaror.*

Maqtasi:

*Vaslinga yo‘l topsa har kim bo‘lg‘ay ul Feruzdek,
Baxtiyoru baxtiyoru, baxtiyoru baxtiyor.*

(Devon, 38–bet)

Bu baytdagi ikkinchi misrada keltirilgan uyushikli, ketma–ketli takrorlar birinchi misradagi lirik holatni izohlashga xizmat etgan.

Quyidagi g‘azalda ham shunday:

*Qilibman yutub sharqi la‘lingda qon,
Fig‘onu, fig‘onu, fig‘onu fig‘on ...*

*Ko‘zumga korong‘udir ondin beri,
Jahonu, jahonu, jahonu, jahon ...*

*Erur qoshlaring ishq eli qatliga,
Kamonu, kamonu, kamonu, kamon ...
Guli xusnunga yetmasun dahridin,
Hazonu, hazonu, hazonu, hazon.*

*Kel ey sho 'x, Feruz ko 'ksini qil,
Makonu, makonu, makonu makon.*

(Devon, 75–bet)

Shu stilistik usul Feruzning sakkiz beshlikdan iborat bir ta'bixud muhammasida ham qo'llanilgan. Ishqu oshiqlikka, visol umidvorligi tasviriga bag'ishlangan bu she'rdagi har bir beshlik bandlar oxirida

«*Oromijon nigorim, sarviravon nigorim*» so'zlari 1–4 misralardagi qofiyadosh so'zlarga mos tarzda takrorlanib turadi. (Devon, 134–135 betlar). Uning badiiyot ilmida «Raddul ajuz miq as sadr» san'ati asosida yaratilgan g'azalida har bir bayt birinchi misrasi ma'lum bir so'z bilan boshlanadi, baytning ikkinchi misrasi o'sha so'z bilan yakunlanadi. Shoir qolgan baytlarda ham navbat banavbat xilma–xil so'zlarni qo'llab, takrorlab boradi.

1.4. AHMAD TABIBIY VA BAYONIY

Ahmad Tabibiy XIX asrning II yarim XX asr avvali Xorazmdagi saroy adabiy markazining iste'dodli vakillaridan sanaladi. U Xivada saroy tabibi oilasida tavallud topgan, madrasalarda chuqur bilim olgan, XIX asrning ikkinchi yarmi Rus bosqini yillarida o'z qarashlari va hayotiy tajribalarini boyita borgan iste'dod egalaridandir. Ahmad Tabibiy otasidan o'rgangan tabobatchilik kasbi, bilimdonligi, peshqadam shoir va adabiyotshunos olim–tazkirnavis bo'lganligi bilan ziyolilar, saroy muhitidagi madaniyat ahli o'rtasida katta obro'–e'tiborga ega bo'lgan. U Feruz nazariga tushib, uning ishonchini qozonib, shoirlar sardori darajasiga ko'tarilgan. Shuning uchun ham o'sha davr tarixchilari, shoirlari, shuningdek Rossiyadan Xivaga kelib turgan missionerlar, sharqshunoslar asarlarida Tabibiy haqidagi yaxshi, iliq fikr–mulohazalarni uchratamiz.

Jumladan, Muhammad Yusuf Bayoniy o'zining «Shajarai Xorazmshohiy» asarida bir necha o'rinlarda Tabibiyning shaxsi va faoliyati, u bilan shoh Feruz o'rtalaridagi munosabatlar haqida to'xtaladi. XX asr boshlarida Xivada bo'lib Tabibiy bilan suhbatda yaxshi taassurotda Peterburgga qaytgan hamda Xivali shoirlar tuyuqlari haqida maqola e'lon qilgan akademik A.Samoylovich ham Tabibiyning fikri tiniq iste'dod sohibi ekanligini qayd etgan. XX asrning xususan 80–90 yillarida Tabibiy shaxsi va adabiy merosiga munosabat faollashdi. Akademik B.Valixo'jayevning tazkirachilik tarixi, Xiva saroy adabiy muhiti haqidagi ilmiy ishlarida ancha xolis fikrlar bildirildi. Xorazmdagi adabiy hayot haqida ko'p yildan buyon tadqiqot ishlari olib borayotgan F.Fanixo'jayev uning haqida maxsus risola (1978) va qator ilmiy maqolalar e'lon qildi. Hammualliflar tomonidan yozilgan

«Avaz va uning adabiy muhiti» (1987) monografiyasida, Jumaxo‘ja Nusratulla Xo‘janing Ogahiy, Feruz haqidagi yangi tadqiqotlarida ham Tabibiyga dahldor fikr–mulohazalarni uchratamiz. 1969 yilda Toshkentda Tabibiyning she’rlaridan namunalar alohida kitobcha holida chop etildi. Tabibiy–sermahsul shoir, dostonnavis va tazkiranavisdir, uning ijodi saroy adabiy muhiti bilan bog‘liq qarama–qarshi qutblardan holi emas. Tabibiy shaxsi va ijodi hali o‘zining haqiqiy xolisona bahosini topolganicha yo‘q. Uning badiiy asarlari, tazkira–majmualari matnlari to‘liq nashrdan chiqqach uning o‘zbek madaniyati va adabiyoti rivojida haqiqiy mavqei aniqlashga erishish mumkin.

Adabiy ilmiy merosi. Tabibiy lirik shoir sifatida ikki tilda alohida–alohida nomlarda beshta devon tartib bergan. Ulardagi she’rlar ichida g‘azal va muhammaslar yetakchi janrlar sanaladi. Tabibiy o‘zbek mumtoz she’riyatida son jihatidan eng ko‘p muhammaslar yaratgan shoirdir. Bu muhammaslar tab‘i xud (mustaqil) va tazmin muhammaslar bo‘lib, uning g‘oyaviy–badiiy saviyasiga baho berish galdagi vazifalardandir. Uning she’riy devonlariga Navoiy, Munis va Ogahiylar tomonidan o‘z devonlariga nomlar qo‘yish an‘analariga ko‘ra quyidagicha nomlar qo‘yilgan:

«To‘hfat us–sulton», «Munis ul–ushshoq», «Hayrat ul–oshiqin» (o‘zbek tillarida), «Mir‘ot ul ishq», «Mahzan ul–ishtiyoq» (fors–tojik tilida). Ular asosan an‘anaviy mavzu va timsollar ifodasiga bag‘ishlangandir. Tabibiy devonidagi qator ishqi, didaktik va ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini ifodalovchi g‘azallar, muhammaslar, musaddaslar, ruboiylar badiiy jihatdan ta’sirli she’rlardir. Ayniqsa uning o‘zbekcha g‘azallari ichida «Ne xushdur fasli bog‘ ichra bir zebo sanam bo‘lsa», «Makon etgach o‘ziga gar jinondek guliston bulbul» deb boshlanuvchi g‘azallari, Navoiy, Munis, Ogahiy muhammaslariga bog‘lagan tazmin muhammas–mustazodlari hayratga loyiq lirika namunalaridir. Tabibiy izlanuvchan, yangi she’riy shakllar, usullar kashf etishga, borlarini takomillashtirishga harakat qilgan shoirlardandir. Biz uning she’riyatidagina fors–tojik she’riyatida avvalroq Muborak, Muxlis va Saidoi Nasafiy ijodida tajriba qilib ko‘rilgan tazmin muhammas–mustazodlarni, o‘nlik bandli she’riy shaklni uchratamiz. Biroq qayd qilib o‘tmoq lozimki, bunday she’rlarida shoir ko‘proq shaklbozliklarga yo‘l qo‘yadi, mazmun va badiiyat oqsab qoladi. Tabibiy oz bo‘lsa–da, tuyuq janri rivojiga ham hissa qo‘shdi. Ayniqsa «Qimiz» tajnis qofiyali tuyug‘i harakterlidir. Tabibiy she’riyatida ma‘rifatparvarlik qarashlari ham ifodalangandir. Uning to‘g‘ridan–to‘g‘ri «Ma‘rifat» so‘zi radif sifatida ishlatilgan g‘azalida shoir insonni ilmi, ziyoli, ma‘rifatli bo‘lishga chorlaydi. Ma‘rifatni insoniy kamillik belgisi deb biladi. Ma‘naviy ko‘rkamlilik insonning tuganmas boyligi, izzat obruyi ekanligini takidlaydiki, bunday go‘zal o‘gitlarning qimmati hozir ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga molikdir:

*Ey birodar, olimu orif bo'lurg'a jahd qil,
To yeturgay ko'nglunga anvar ilmu ma'rifat.
Ilm birla ma'rifat ta'limini tark etmagil,
Hosil et borincha jon takror ilmu ma'rifat.
Ilmu nafsu ma'rifat jondur tani inson aro,
Yolg'uz o'lmas dirhamu dinor ilmu ma'rifat.*

Tabibiy 1908 yilda Ozarbayjon xalqining buyuk shoiri Mavloni Fuzuliyning «Haft jom» («Yeti jom») asarini fors-tojik tilidan o'zbek tiliga tarjima qiladi. Bu asardan kuchli ta'sirlanganligi tufayli 1909–1910 yillarda «Yeti ravza» dostonini yaratadi. Asar yetti ravza va 14 hikoyatdan iborat bo'lib, unda Tabibiyning ilg'or didaktik va ma'rifatparvarlik g'oyalari ifodalangandir. Xususan shu dostonning ikkinchi ravzasi–bobi ilm–ma'rifat targ'ibiga bag'ishlandi.:

*Tabibiy, mudom ayla tahsili ilm,
Na tahsil bil ayla takmili ilm.
Nasib o'lg'usi toki izzat sanga,
Ikki olam ichra saodat sanga ...*

Tabibiy–XIX asrning II yarmi, XX asr boshlari Xiva saroy adabiy doirasida she'riy qissalar yaratishga mayl qo'ygan shoirlardan ham bo'ldi. U yuqoridagi «Yeti ravza» dostonidan tashqari XI asr fors-tojik shoiri Unsuriyning «Vomiq va Azro» ishqiy dostoni asosida shu nomda doston yozdi. Unsuriy yaratgan «Vomiq va Azro» ning mazmuni qadimgi Yunon afsonalariga borib taqaladi. Naql qilishlaricha, Yunon amaldorlaridan biri Fuluqrotning Azro (Uzro) nomli qizi bo'lgan ekan, uning boshqa shahardagi qarindoshi Maqzitusning esa Vomiq ismli o'g'li bo'lgan. U onadan yetim qolib, o'gay onasi zulmini tortadi. Uydan chiqib ketishga majbur bo'lgan Vomiq Azro yurtiga kelib, u bilan uchrashib, orada sevgi paydo bo'ladi. Aslida o'ta aqlli, chaqqon Azro 32 ta harbiy hunarni egallab, o'z davrining eng zo'r bahodiri va chavandozi darajasiga yetishadi. Ikki yosh ko'p «savdo» larni boshdan kechirishadi, oxir–oqibatda murodu maqsadlariga yetadilar. Tabibiy dostonida sevishganlar Osafi va Shakarduxt nomlarida tasvirlanadi. Tabibiy undagi ba'zi o'rinlarni, nomlarni o'zgartirib beradi. Bunda Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni obrazlaridan foydalanadi. Garchand, Tabibiyning bu dostoni o'zbek kitobiy dostonchiligining badiiy jihatdan yetuk namunasi bo'la olmasa ham, kitobxonni sadoqatli vafodor, halolu pok, maqsad yo'lida jonfido bo'lishga, hamisha insonlarga yaxshilik qilishga o'rgatishda, xushyor bo'lishdek fazilatlar ruhida tarbiyalashda tarbiyaviy ahamiyati bordir.

Majmua–tazkiralari. Tabibiy o‘z davrining zukko didli namoyandalaridan biri bo‘lib, adabiyot va san‘atga homiylik qilgan Muhammad Rahimxon Feruz maslahatlari bilan Xivadagi Feruzshoh saroyidagi qirqqa yaqin shoirlar haqida «Majmuat ush shuaro-yi Feruzshohiy» tazkira–majmuasini yaratgan: u tuzilishi, estetik prinsiplari jihatidan XIX asrning I–yarmida Umarxon topshirig‘i bilan maydonga kelgan «Majmuat–ush shuaro»ni eslatadi. Tabibiy Feruz ko‘rsatmalariga ko‘ra saroy shoirlari nomlari va asarlarini birma–bir zikr etadi, ularning tarjimai hollari, iqtidorlari, kasb–hunarlar haqida ma‘lumotlar, naqlar keltiradi. Feruzning ularga munosabatiga doir ham lavhalar beradi. Tazkirada ham xolisona, ham noxolisona baholar yo‘q emas. Biz Ogahiy, Komil, Feruz, Bayoniy, Niyoziy, Doiy, Rojiy, Komyob, Rog‘ib, Mirzo kabi shoirlarga doir muhim ma‘lumotlarni shu manbada uchratamiz.

Tabibiyning «Majmuai muhammasot» asari Xorazmning Ogahiy va uning atrofidagi shoirlarning mustaqil hamda tazmin muhammaslari majmuasidir. Demak, Ahmad Tabibiy o‘zining lirik, epik asarlari, she‘riy tazkira–majmualari bilan ilk mustamlakachilik davri ma‘naviy hayotida o‘ziga xos mavqe’ tutdi, sezilarli iz qoldirdi. U ham iste’dodli tabib, ham ijodkor sifatida gumanistik g‘oyalarni targ‘ib etdi. Asarlarida oriyatli, nomusli, diyonatli bo‘lishga chaqirdi. Uning zamondoshi tarixchi olim va shoir Muhammad Yusuf Bayoniyning Tabibiy to‘g‘risidagi quyidagi ta’riflari bor haqiqatni ifodalangandek tuyuladi:

*Tabibiydir shoiri muhtaram,
Naylay oning atvorin aylab raqam.
Maorifda bordur bag‘oyat orif,
Majolisda dog‘i harifu zarif
Pur oyinadur so‘zlari sar basar,
Rumuz oni aksidadur jilvagar ...*

1.5. MUHAMMAD YUSUF BAYONIY (1840–1923)

Asl nomi Muhammad Yusuf bo‘lmish Bayoniy XIX asrning II yarmi va XX asrning boshlarida Xorazmda hayot kechirdi va ijod qildi. Bayoniyning otasi Bobojonbek Olloberdi to‘ra 1804–1806 yillarda Xorazmda xonlik qilgan Eltuzarxoning nabirasi bo‘lgan. Bayoniy o‘z zamonasining yirik tarixchisi, taniqli shoiri bo‘lish birga, tib ilmidan ham puxta xabardor, kuy va maqomlarga muhabbati katta, xattotlikda ham peshqadam kishi bo‘lgan. U suls, kufiy, rayxoniy, shikasta va

boshqa xil xatlarni yaxshi bilgan, kitoblar, qo‘lyozmalar tayyorlashda ulardan foydalangan.

Bayoniy 1923 yilda Xorazmda vafot etgan. U she‘riyatning g‘azal, muhammas, musaddas, musabba‘, tarjiband, masnaviy, ruboiy kabi janrlarida o‘zbek, shuningdek fors–tojik tillarida ijod qilgan. Uning bir qancha qasidaları hamda ta‘rix she‘rlari ham bo‘lib, ular «Shajarai Xorazmshohiy» asari tarkibida keltirilgandir. Bayoniyning she‘rlari, ayniqsa g‘azallari o‘zi hayot vaqtida tuzilgan majmua va bayozlardan o‘rin olgan hamda devon holida ham Xorazmda toshbosmada bosilgan. Bu qo‘lyozma Toshkentdagi Abu Rayxon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda.

Bayoniy «Jahon suv yuzida erur chun», «xubob», «Qarg‘a», «Mustabidlar zulmi» kabi asarlarida zamona va ijtimoiy tuzum to‘g‘risida fikr yuritadi. Xususan uning «Qarg‘a» radifli g‘azalida hokim tabaqaning zulmi, axloqiy, ma‘naviy jihatdan tuban qiyofalari g‘azab bilan ochib tashlanadi. Agar uning tojik tilidagi «Konareyka» radifli g‘azalida bu qushning yoqimliliği, xush ovozliliği, odamlarga zavq bag‘ishlashi ifodalanadigan bo‘lsa, «Qarg‘a» radifli she‘rida majoziy–ramziy yo‘sinda, masal shaklida badkirdorlikka, yozuvlikka nafrat bildiriladi.

Qushlardin o‘zni go‘yo aylar shumor qarg‘a,

Parvoz urar havoda aylab favor qarg‘a ...

Olam elin anga bu atvori etdi dushman,

Eltoshiga xalafdur shayton shior qarg‘a.

Ey koshki yiroqlik sen birla o‘rtamizda,

Sharq ila Farb bo‘lsa, ey beviqor qarg‘a, ...

(O‘zbek adabiyoti. 5–tom I kitob T.:1960 y. 393–bet)

Xivaning so‘ngi xoni Isfandiyor Bayoniyni bu va boshqa isyonkor she‘rlari uchun jazosiz qoldirmadi, uni uyidan chiqarmaslikka mahkum etdi.

Bayoniy Munis, Ogahiy an‘analarini izchil davom ettirgan iste‘dodli muarrix hamdir. Uning «Shajarai Xorazmshohi» asari XX asr avvallari tarixchiligining original namunasi sanaladi.

Bayoniyning bu asari o‘sha davr Xorazmdagi adabiy markaz haqida boy ma‘lumotlar beradiki, unda Feruz, Tabibiy, Ogahiy, Rojiiy, Komil haqida naql va ma‘lumotlar keltiriladi, qasidalar, masnaviylar, ta‘rix she‘rlardan namunalar uchraydi. Feruzning adabiyotga homiyligi ustida so‘z boradi. Jumladan Feruz haqida so‘z ochar ekan yana: «Xon xazratlari she‘rga ko‘p zavq paydo qilib erdilar, Feruz taxallusi bilan mutaxallis bo‘lib, she‘r aytur erdilar. So‘ngroq she‘rga ko‘p haris

bo'ldilar. Har kishining she'r aytmoqqa sahl-qobiliyati bo'lsa, dargohi oliyga olib bora berdilar. Shoirlarning adadlari kam besh qirqa yovuq bordi. Ali mahramning Ahmad otli bir o'g'li bor edi. U ham o'zini Tabibiy taxallusi bilan mutaxallis etib she'r aytmoq boshladi. Xon xazratlari o'z g'azallaridan yuz g'azalni shoirlarga payrav uchun tarqatdi...» qabilidagi ma'lumotlar borki, ularning adabiyot tarixini yoritishdagi ahamiyati albatta bor.

«Shajarai Xorazmshohiy» asarini tadqiq etgan Q.Munirov, I.Adizova kabilar bu asarning Xorazmdagi rus bosqini oqibatlarini, qo'ng'iroq urug'lari saltanatining bir qancha vakillari to XX asrning 20 yillarigacha hukmronligi yillaridagi voqea-hodisalarni, Muhammad Rahim Soniy (Feruz)ning adabiyot-san'at, kasb-hunar ahliga e'tiborini o'rganishda muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etadilar. Demak, Muhammad Yusuf Bayoniy ham Ogahiy, Komil kabi peshqadam zamondoshlari ta'sirida XIX asrning II yarmi va XX asr avvalari Xiva xonligi ma'naviy hayotida o'ziga xos rol o'ynagan shaxslardandir. Shu bois Ahmad Tabibiy «Majmuat ush shuaroyi Feruzshohiy» da uning to'g'risida shunday maqto'v so'zlarni yozib qoldirgan:

*Bayoniyki bir shoiri xush bayon,
So'z ichra qilur duru gavhar ayon.
Muhammad Yusufbek nomi aning,
Hosil aylamak ilm komi aning.
Bayoniyki mashhur shoir edi,
Dema shoir oni, sohir edi . . .*

SAVOLLAR:

1. Tabibiy faoliyatining ko'p qirraliligi nimalarda namoyon bo'ladi? Devonlarining nomlanishlarida an'ananing ta'siri bormi?
2. Qissa-doston va tazkirasimon asarlarining ilmiy-badiiy saviyasi.
3. Mustazod-tazminlari qaysi shoirlar asarlari bilan bog'lanadi.
4. Bayoniyning adabiy iqtidori, asarlaridagi yangi mavzular.

Topshiriq:

XX asrning II–yarmi Xiva saroy adabiy muhitiga oid manbalarni, nashr etilgan badiiy asarlarni o‘qib, mustaqil xulosalarni konspektlashtirish. Amaliy mashg‘ulotlarning birida Tabibiy hamda Bayoniy she’rlaridan ikkitasini mustaqil tahlil qilib berish.

MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Tabibiy. Tanlangan asarlar – Toshkent, 1968.
2. O‘zbek adabiyoti tarixi, 5 jild, 2–jild – Toshkent, 1968.
3. Bayoniy. Tanlangan asarlar – T, 1961.

ILMIY MANBALAR:

1. Fanixo‘jayev F. Tabibiy (hayoti va ijodi) – Toshkent.: Fan, 1978.
2. Valixo‘jayev B. O‘zbek adabiyoshunosligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1993.
3. Qobulov N., Mo‘minov V., Haqqulov I. Avaz va uning adabiy muhiti. – Toshkent.: Fan, 1987.
4. Bayoniy «Shajarai Xorazmshohiy» Meros.–Toshkent.: «Kamalak» nashriyoti, 1991.
5. Jumaxo‘ja N. Feruz madaniyat va san’at homiysi:–Toshkent.: Fan, 1995.

2-MAVZU:

QO‘QON ADABIY MUHITI: MUQIMIY VA MUHYI IJODLARINING DAVR ADABIY MUHITIDA TUTGAN O‘RNI

Reja:

1. Hayoti, adabiy merosi.
2. Ijodining o‘rganilish tarixi haqida.
3. Muqimiy lirikasining ko‘lami, janrlari.
4. Muqimiy lirikasining ta’sir manbaalari: xalq she’riyati, musiqa xazinası, salafılar ijodi ta’siri.
5. Muqimiy lirikasi an’analari.
6. Muhyi ijodi

Tayanch iboralar: Tavalludi–Ho‘qand, 1850 yil. Madrasa tahsili (Ho‘qand, Buxoro) Otasi toshkentlik, onasi ho‘jandlik. Ayolmand bo‘lgan, turmush qiyinchiliklari. Ona, so‘ng ota musibati. o‘z va o‘gay singillar. Yer mahkamasida mirzolik, uyda yamoqchi–kosiblik, qo‘lyozmalarga lavhalar yozib berish. Muxlislari. Madrasa (Miyon Buzruk xujrasidagi umr). Muqimiy va jiyani. Adabiy merosi topilgan manba va shaxslar. Muqimiy va N.Ostroumov. Ho‘qandagi uy muzeyi.

Ijodining o'rganilishi tarixi. XX-asrning 20–30 yillari «Eski shoirlardan Muqimiy («Farg'ona» gazetasi, 1923, 17 mart; Shayxzoda M. Eski faqirlar shoiri (Muqimiy). «Guliston jurnali, 1938 yil 6–son; Latif Yu. Muqimiy haqida «Guliston» jurnali, 1938 yil 6–son; G'.G'ulom (1938 yil), Uyg'un (1942 yil) nashr etgan bayozlar; 1953 yil vafotining 50 yilligi H.Yoqubov, H.Zarif, H.Olimjon, Oybek, G'.Karimov va boshqalar yaratgan risola va tadqiqotlar. Asarlarining nashrlari (1960–1974)

Kirish. Buyuk adib, shoir va olim Oybek Muqimiy haqidagi bir maqolasida shunday fikrlarni bayon etgan edi: «O'zbek adabiyotida Muqimiy alohida, o'ziga xos o'rin ishga oladi. Muqimiy katta talant, keng ma'lumot va sof ko'ngilga ega bo'lgan shoirdir. U adabiyotimizda o'zining zo'r talanti va yuksak badiiy mahorati bilangina emas, balki ijodidagi tematikaning boyligi, xilmaxilligi, shuningdek real hayot hodisalarini tasvir qilishga bo'lgan intilishi bilan ham ajralib turadi. Muqimiy ijodining eng muhim xususiyati uning sotsial motivlar bilan sug'orilgan bo'lishidir.» (Oybek. Muqimiy asarlarida sotsial tiplar. Asarlar XIII tom. Toshkent. 1979 yil. 261–272 betlar.)

Muqimiyning qudratli, ko'p qirrali iste'dodi, chinakam xalq shoiri ekanligi haqida S.Ayniy, Ye.E.Bertels, H.Olimjon, G'.G'ulom, X.Zarif, G'.Karimov kabi mashhur shoiru fuzalolarning fikrlari ham bordir. Ye.E. Bertels uni «chin va to'liq ma'nodagi xalq shoiri» deb atagan. Muqimiyshunos olim G'.Karimov ham «Muqimiy ijodining muhim fazilatlaridan biri uning o'z uslubi va ruhi bilan xalqqa juda yaqin bo'lishi, xalq ma'naviy hayotiga singib ketganligidir. Muqimiy oddiy xalq ichidan yetishib chiqdi, xalq uchun yozdi. Xalq tomonidan sevilib qabul qilindi» deb yozgan.

Muqimiy hayotiga doir yetarli ma'lumotlar uning haqidagi ilmiy, ommabop asarlarda, shoirning o'zi va zamondoshlari yaratgan asarlarda keltiriladi. Muqimiy hayotligi vaqtidayoq uning hayoti, shaxsiyati va asarlariga qiziqish katta bo'lgan. Muqimiyning zamondoshi va ixlosmandlaridan Husanqul Muxsinij (tavalludi Qo'qon, 1868 yil) 1897 yilda 25 baytli qasida yozib, o'z devoniga kiritgan. Qasidada to'g'ridan-to'g'ri Muqimiyning shoir va inson sifatidagi tengsiz fazilatlarini, dovrug'i madh etiladi. Ayrim misralari:

*Zubdai davroni Ho 'qand ichradir yakto Muqim,
Ahli fitratlar aro ham rutbasi a'lo Muqim.
Donishu fazlu balog'at bo'lg'usidir shunchalar,
Ko'rmadi zayli zamon bir sen kibi aslo Muqim.
Ne ajab olsa falotun tabi fikringdan saboq,
Biz kabi odamlaradur Bu ali sino Muqim.
Fi zamoni momazo ko'p shoir o'tgandir va lek,
Sen kabi hech o'tmadi dahr ichra bir tanho Muqim.
Bedil abyoti kitobi qissadek o'lingda xal
Lol bo'lur vaslingda og'iz ochsalar dono Muqim...*

Asli O'ratepali bo'lgan, 1945 yilgacha umr kechirgan zullisonayn shoir Zufarxon Javhariy ham Muqimiy vafotidan bir necha yillar o'tgach «Farg'onalik Muqimiyning kechmishi» nomida kichik bir doston yozgan. Tojik tilida bitilgan ayrim misralarning mazmuni–tarjimasi shunday:

*Bu shoir she'r fanida mohir,
 Har so'zida kamolot zohir.
 G'azalgo'ylik bilan rost umri,
 U xushxonlar bog'ida qumri.
 Xalqqa bo'ldi jon dil bilan do'st,
 Baayni xalq mag'zu u po'st.
 Odmi edi kiygan libosi,
 Bo'yra xujrasining palosi,
 Ro'zg'orida bor aslaxasi,
 Oftobayu sopol kosasi...*

Muqimiy hayotining asosiy sanalari:

1. Otasi Mirzaxoja asli toshkentlik, 1835–1836 yilda Ho‘qandga ko‘chib kelgan. Kasbi nonvoy. Onasi Oyshabibi (Xumorbibi) Ho‘jandlik. 5 farzand—4 qiz, 1 o‘g‘il.
2. 1865 yillardan to 1876 yilgacha madrasa tahsili, avval Nodira tomonidan bino qilingan «Xokim oyim» (1865–1873), 1873–76 yillar davomida 4 yil Buxoroda.
3. Turmushi davomida ko‘p qiyinchiliklarni, musibatlarni ko‘rgan: Onasi vafot etgach, otasi 3ta farzandli Ziyoda bibi degan ayolga uylanadi. Uchta o‘gay singil ro‘zg‘orga qo‘shiladi, boqimandalar ko‘payadi. Muqimiy o‘gay singillardan biri – Sanambibiga uylanadi. Kamtarona, g‘aribona nikoh to‘yi o‘tkaziladi.
4. 1877 yildan boshlab avval Sirdaryo paromida yo‘lovchilarga patta sotuvchi, so‘ng Ho‘qandagi yer mahkamasida mirzolik xizmatlarida ishlaydi. Taassurotlari XX asrning 60–yillarida topilgan «Oqjar odamlari haqida muhammas» (Muqimiy. Devon, 1974 yil, 358 bet.) hamda mashhur «Tanobchilar» masnaviy hajviyasida badiiy ifodalangan.
5. 1878 yillardan to umrining oxirigacha ishsiz, turmush qiyinchiliklari zarbasiga ketma–ket duch keladi, oxiri borib xovli joyini sotishga, yolg‘iz o‘g‘li Akbarali bilan madrasa xujrasiga ko‘chib istiqomat qilishga majbur bo‘ladi. Umrining oxirigacha shu ahvolda yashaydi, ijodini davom ettiradi. Qayd qilish lozimki, Muqimiy ota tomonidan qarindoshligi bo‘lgan tog‘alaridan yordam olish, bu yerdagi o‘zgarish va yangiliklardan xabardor bo‘lish niyatida 1889, 1892, 1899 yillarda Toshkentda bo‘ladi. 1892 yil safari vaqtida N.Ostroumov bilan uchrashib, muloqotda bo‘ladi. Shu uchrashuv oqibatida N.Ostroumovda Muqimiy shaxsi va ijodiga qiziqish ortadi. 1907 yilda u Muqimiyning bir qancha she‘rlarini o‘z ichiga olgan «Devoni Muqimiy maa’ hajviyot» to‘plamchasini nashr ettiradi. N.Ostroumov to‘plamga yozgan so‘zboshida Muqimiy o‘ta xudojo‘y, kechalari Qur‘on tilovati bilan, kunduzlari esa yamoqchilik va kosiblik bilan shug‘ullanuvchi shaxs sifatida ham izohlaydi.
6. Muqimiy 1903 yilda quloq, tamoq, og‘rig‘i natijasida dunyodan ko‘z yumgan. Ho‘qand shahrida Muqimiyning xotira muzeyi bor: Bu muzeyda bir qancha yillar aruznavis shoir, Muqimiy izdoshlaridan biri Charxiy xizmat qilgan. Muzeyda Muqimiy hayoti va ijodiga oid qimmatli materiallar, Muqimiy dasxatlari, jiyani Ro‘zimuhammat Do‘smatov (Hojibuva) bilan yozishmalari saqlanadi. Shularni ham qayd qilish lozimki, Muqimiyning ayniqsa XIX asrning 70–yillaridan keyingi hayoti nihoyatda bir mushkul ahvolda kechgan bo‘lsa ham biroq u faqat zimziyo qorong‘iliklardan iborat emas edi.

1. Kosiblik xunari bo'lgan, xusni xat sohibi sifatida buyurtma qo'lyozma asarlarni ko'chirgan, jaliy qalamda qo'lyozma kitoblarga lavhalar yozgan, bastakorlarga, xofizu-xonandalarga qo'shiq matnlarini yozib berib turgan.
2. Muxlislari, mukarram tutuvchi do'stlari, ixlosmandlari bo'lgan. Ular ham uning ahvolidan tez-tez xabar olib, suhbatlari va asarlaridan bahra olib turganlar.

Muqimiy asarlari bizgacha davlat fondlaridagi qo'lyozma va bosma manbalar, XIX asr matbuoti (asosan «Turkiston viloyatining gazetisi»)da e'lon qilingan shoir asarlari, N.Ostroumov fondi hamda Muqimiy asarlariga ixlosmand bo'lib, uning she'rlarini, maktublarini o'z ixtiyorlarida avaylab saqlab kelgan shaxslar taqdim etgan materiallar orqali yetib kelgan. Bunday mo'tabar shaxslar sifatida «Tazkirayi Qayumiy» muallifi Po'latxon domla Qayumovni, shoir S.Abdulla, Boqiy domla, Charxiy, Muqimiyning jiyani Xojibuvani (Ro'zimuhimmat Do'smatov) eslatib o'tish o'rinlidir. Muqimiy 53 yoshidayoq dunyodan o'tib ketganligi sababli o'z dasxatlarini bironta yirikroq kitob holida qo'lyozma qilishga, devon holiga keltirishga ulgira olmay qolgan. Asarlari turli shaxslar, bastakorlar, xofizu-xonandalar, shoirlar qo'lida parokanda holida qolib ketgan, ayrimlari turli manbalarga kiritilgan ham. XX asrning 30-yillaridan boshlab, shunday manba va ixlosmand shaxslar qo'lidagi Muqimiy asarlarini to'plashga, o'rganishga kirishildi. 1938 yilda Muqimiy vafotining 35 yilligi, 1953 yilda esa 50 yilligi xotira sifatida belgilandi. Shu rasmiy tadbirlar munosabati bilan 1938 yilda G'.G'ulom, 1942 yilda Uyg'unlar o'sha yillargacha aniqlangan, yig'ilgan shoir she'rlaridan ilk guldastalar chop ettirdilar. Shu yillardan boshlab Muqimiy o'rganishga, ommalashtirishga kirishildi, desa bo'ladi. 1953 yilda Muqimiy vafotining 50 yilligi xotirlandi. H.Olimjon, Oybek, H.Yoqubov, A.Olimjon, H.Razzoqov, G'.Karimovlarning qator maqola va risolalari e'lon qilindi. 1955 yilda H.Zarifovning «Muqimiy» (hayoti va ijodiga oid materiallar) risolasi, 1958 yilda «Furqat va Muqimiy haqida maqolalar» to'plamidagi G'.Karimovning «Muqimiy Toshkentda», H.Razzoqov-ning «Muqimiy va Zavqiy» maqolalari chop etildi. A.Abdug'afurovning «O'zbek demokratik adabiyotida satira» (1961 yil) monografiyasida shoir hajviyoti tahliliga muhim o'rin ajratildi. 1970 yilga kelib, muqimiyshunos olim G'.Karimovning Muqimiyga bag'ishlangan jamiki ilmiy va noshirlik ishlarining umumiy natijasi sifatida «Muqimiy (hayoti va ijodi)» monografiyasi e'lon qilindi. Bu mo'tabar olim umrining oxirigacha Muqimiy va uning davri adabiyotini o'rganish bilan shug'ullandi va anchayin muhim ilmiy maqolalar e'lon qildi.

V.Mo'minovaning «O'zbek demokratik adabiyotida lirika» (1979), S.Ahmedovning «XIX asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyotida Sayohatnoma» risolalarida ham Muqimiy ijodining shu turlardagi asarlari tahliliga e'tibor berildi. Shularga qaramay, Muqimiy asarlarining 1960 yildagi 2 jildlik, 1974 yildagi «Devon» deb nomlangan nashrlaridan so'ng uning merosi qayta nashr etilmadi. Holbuki, o'tgan 20 yildan ortiqroq vaqt ichida ham Muqimiyning birqancha yangi asarlari topildi, shularni albatta e'tiborga olgan xolda, Muqimiy asarlarining iloji boricha to'ldirilgan nashrlarini, tanqidiy matnini tayyorlash va nashr etish muddati yetdi.

Shuning bilan birga qayd qilish lozimki, shu vaqtgacha biz sho'rolar mafkurasining qolipi bilan mumtoz adabiyotning ko'p namoyandalari, shu jumladan

Muqimiy merosini ham bir yoqlama o'rganib keldik, unga «demokrat, realist shoir» degan sun'iy yorliqlar yopishtirildi. Uning davri adabiyotiga partiyaviy, sinfiy nuqtai nazaridan yondashildi. Olimlarimiz uning ko'proq chorasiz ahvolini, hajviy asarlardagi timsollarni tahlil qilishga e'tibor qaratdilar. Muqimiyning lirik asarlaridagi nafosat, badiiyat, hajviyalarining mustamlakachilik ildizlarini bo'shashtirishga qaratilgan kuchi, xalqchillik ruhi, uslubi masalalari chuqur tadqiq etilmadi.

Shoir merosi: lirika, hajviyot, sayohatnomalar va maktublar tarzida tasnif etilib o'rganilsa bo'ladi. Muqimiyning chop etilgan «Asarlar»i (1960) hamda «devoni»i (1974)dagi she'riy asarlarining janriy tarkibi:

*№ She'riy asarlarning janrlari Miqdori
(navlari)*

1. Oddiy–an'anaviy g'azallar	310
2. G'azal–muvashshahlar	26
3. G'azal tazminlar (naziralar)	3
4. G'azal–mushoiralar	1
5. G'azal maktublar	8
6. Muhammad maktublar	1
7. Murabbalar	18
8. Hajviy g'azallar	11
9. Hajviy muhammaslar	11
10. Yumoristik g'azallar	23
11. Yumoristik muhammaslar	3
12. Hajviy masnaviylar	5
13. G'azal ta'rixlar (marsiyalar)	3
14. Sayohatnomalar	3
15. O'zbek va tojik tillaridagi fardlar	10

Eslatma:

1973–74 yildan buyon turli bayoz va ayrim shaxslar bisotidan Muqimiyning yuqoridagi nashrlarga kiritilmagan 20ga yaqin g'azallari, hajviy–yumoristik she'rlari topildi. Uning birqancha nasriy maktublari borligi ham ma'lum. Ularning hammasini jamlagan holda Muqimiy asarlarining to'laroq nashrini amalga oshirish vazifasi turibdi.

Muqimiy adabiy merosining salmoqli qismini, shubhasiz, lirika tashkil etadi. U ko'p asrlik boy an'analarga ega bo'lgan o'zbek lirik she'riyatining g'azal, muhammas, murabba', muvashshax, navlaridagi eng nodir namunalarini ijod etgan xassos shoir sanaladi. Uning lirik ijodi mavzu jihatidan ham rang–barang bo'lib, inson kechinmalari va orzu–istaklarining deyarli hamma jihatlarini ifoda etadi. Muqimiy lirikasi ungacha bo'lgan an'analarning ijodiy davomi sifatida o'zining xalqchilligi, uslubining ravonligi, xalq she'riyati va musiqa san'atiga yaqinligi va tilining sodda va o'ta bo'yoqdorligi bilan ajralib turadi. Shu ma'noda Muqimiy lirikasi o'zbek lirik she'riyatining xiyla yangilangan, xalq she'riyati va musiqasiga moslashtirilgan alohida bosqichidir. Hayotiylik, xalq turmushi va orzu–armonlarining

ifodalanishiga ko'ra Muqimiy lirikasi XIX asrning ikkinchi yarmidagi oddiy inson– lirik qahramonning haqiqiy qalb daftaridir. Muqimiy ijodiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda uning lirikasini shartli tarzda: Ilk davrdagi lirikasi (XIX asrning 60–70 yillari), 80–90 yillar lirikasi hamda shoir ijodining oxirgi yillardagi namunalari kabi uch bosqichga bo'lib o'rganish ko'zda tutiladi. Bunday davrlashtirish e'tiroz tug'dirmaydi. Zero Muqimiy ham boshqa iste'dodli shoirlar kabi she'riyatda o'qish, o'rganish, salaf shoirlar tajribalarini o'zlashtirib, o'z adabiy qiyofasini namoyon etish yillarini boshidan kechirgan. Uning lirik asarlari tarkibida, garchand sanalarini aniqlash qiyin bo'lsa ham, ilk ijod yillari mevalari deb atasa bo'ladigan mashqiy, taqlidiy, o'ta an'anaviy she'rlar bor. Muqimiyning 80–yillardan boshlab yaratgan asarlari uning she'riyatdagi kamoloti namunalaridir. Bu davrga kelib, ziddiyatli zamonning, mustamlaka sharoitidagi og'ir turmushning shoir dunyo qarashiga, his-tuyg'ulariga ko'rsatgan ta'siri tufayli lirikasi ijtimoiy ohang ham kasb eta bordi. Ulardan ijtimoiy muhitdan norozi shaxsning dardu–hasratlari, orzu armonlari joy ola boshladi. Uchinchi bosqichda Muqimiy lirik qahramonining yanada yangi qirralari, komil inson sifatidagi fazilatlarini namoyon bo'ldi.

G'azallari. Muqimiy lirikasining asosiy nav'i g'azaldir. Uning chinakam shoir sifatidagi mahorati, birinchi navbatda g'azal ustasi ekanligi bilan belgilanadi. Uni buyuk Navoiyga nisbatan ishlatilgan «g'azal mulkning sultoni» ta'rifidek «XIX asr ikkinchi yarmi o'zbek g'azalnavisligining sultoni» deb atash mumkin. Muqimiy bu sohadagi boy an'analarga rioya qilib, g'azalning turli mavzulardagi, turli shakliy navlaridagi namunalarini ijod qildi, g'azal xazinasini go'zallik bilan boyitdi. Muqimiy g'azallarida an'anaga ko'ra **aa, ba, va** qofiya tartibi va g'azalga xos boshqa barcha shakliy belgilar saqlanadi. Ular faqat mavzulari, obrazlari, ularda qo'llanilgan badiiy–tasviriy vositalar, vazn, qofiya, radiflari bilan bir–biridan farq qiladi. Muqimiy bulardan tashqari janr oralig'i, ularga xos shakliy–poetik xususiyatlarni o'zida sintez qiluvchi g'azallar ham ijod qildi. Bular javob, nazira, tazmin, muvashshah, mushoira g'azallardir. Muqimiyning Navoiy, Fuzuliy, Amiriy, Furqat tavridagi g'azallari borki, ulardagi oshiqona kechinmalar, vazn, qofiya, radif va boshqa shakliy–uslubiy xususiyatlar salaflar g'azallarini eslatuvchi nazira g'azallardir.

Muqimiyning yuraklarni to'lqinlantiradigan ishqiy g'azallaridan biri «Dog'men» radifli g'azalidir. Bu radifda shoir ikkita g'azal yozgan. Ulardan biri:

Rozi dil aytay desam xilvat qilolmay dog'men,

Bir kecha yolg'iz topib, suhbat qilolmay dog'men,

matlai bilan ifodalanadi. Shu g'azal shoirning o'ziga ham kuchli ta'sir qilganligi uchunmi keyinroq shu g'azalga o'zi tazmin muhammas ham bog'lagan edi. (Qarang: Devon, 1974, 307–308–betlar). G'.Karimovning tahmin qilishicha, bu asarlar XIX asrning 80–yillari o'rtalarida ijod qilingan. Asar Muqimiy ijodidagina emas, balki umuman o'zbek g'azalchiligida ishqiy mavzuda yozilgan eng yaxshi namunalardan ham sanaladi: Unda xalqona tavoze, iltijolar, afsuslar, ibora–yu tashbehtar orqali lirik qahramonning visol umididagi orzulari, iztiroblari juda samimiy ifoda etilgan. She'rda uslubiy murakkablik ko'zga tashlanmaydi. Rozi dil, xalqdan istihola qilish, hayo, tiz bukib, ta'zim etib, izzat–ikrom ko'rsatishga harakat kabi tasvirlarda qanchalik nazokat, dili poklik, tili poklik bor. Unda oshiqning bir go'zalga xushtoru

shaydoliği, uning ko'yida oromini yo'qotganligi chiroyli mazmun rishtalari, tadriji orqali mahorat bilan ifodalangan, chiroyli lirik miniatyura yaratilgan. Matlada boshlangan oshiqning tilaklari baytma–bayt konkretlashib, kulminatsiyasiga ko'tarilib boradi. Baytlar aro ma'no–mazmun rishtalari bor. U g'azalning oxirgi maqta' baytida yakunlanganday bo'ladi:

Matn:

*Rozi dil aytay desam xilvat qilolmay dog'men,
Bir kecha yolg'iz topib suhbat qilolmay dog'men.
Jabru bedodu sitam behad chekib dardu alam,
Ko'rmakingni birgina niyat qilolmay dog'men.
Ko'cha ko'yda uchrasang ming istihola xalqdin,
Tiz bukib, ta'zim etib, izzat qilolmay dog'men.
Xasta ko'nglum, so'zlaring malham, zamoni ohkim,
Bir o'zingga yondoshib ulfat qilolmay dog'men.
Ohkim no'sh aylabon vasling mayidin jur'aye,
Hosil aylab komi dil ishrat qilolmay dog'men.
O'turubsan chiyni abro' birla, titrab vahmdin,
Bir o'pay derman, vale jur'at qilolmay dog'men.
Necha dermankim, Muqimiy g'urbat aylay ixtiyor,
Bir vatandin dil uzub, hijrat qilolmay dog'men*

(Devon, 145–bet.)

Shoir «javru bedodi, sitam» kabi uyushiq sifatlashlarni, cheksiz dardu alam chekish kabi mubolag'alarni, tashbehu istioralarni ham ustalik bilan qo'llaydi. Oxiri oshiq shunday nido qiladiki, ma'shuqa diydoridan, vaslidan judo bo'lishni vatandan judo bo'lishdek og'ir qismatga qiyos qiladi. Bu yerda ham serma'no ko'chish–majoz bor. Muqimiyning bu g'azali aruzning ritmik jihatdan ohangdor, musiqiy vazni «ramali musammani mahzuf» vaznida yozilganligi bilan ham ajralib turadi (–V– – / –V– –/–V– –/–V– –).

Shoirning «Yolg'uz» radifli g'azalida ham oshiq yigitning ko'chadan ot o'ynatib o'tayotgan «chavandoz» go'zalga nigohi tushib, ilgaridan xushtor bo'lib yurgan bu go'zalga yolvorishlari, visolga erishish yo'lidagi iltijolari ifoda qilingandir: shoir uchrashuv damlaridagi hayajonli suhbatni dialog usulida olib boradi. Xiyla qaysar yor oshiqning savollariga, yurak dardlariga sho'xlik bilan javob qaytaradi. Shu zaylda oshiq dardlari va shirin umidlarining mo'jazzgina manzarasi o'quvchi ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. G'azaldagi dialog savol javob usulidan foydalanish xazrat A.Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidagi Farhod va Hisrav oralaridagi dialog usulini eslatadi, desak xato bo'lmaydi. Lekin Muqimiy g'azalidagi lirik qahramonlar yovuzlik va ezgulik tarafdorlari emas. Tavsan mingan go'zal ham oshiqlarning ko'ngliga xalovat yetkazuvchi, ularni Majnun ahvoliga soluvchi turfa bir insondir. Yaxshisi g'azal matni bilan to'liq tanishib chiqaylik:

*Banogoh uchradi ot o'ynatib, bir dilrabo yolg'uz.
Rikobig'a surib ko'z, qo'l ochib qildim duo yolg'uz.
Dedimkim: «Nozaninlar xaylida insof qilganda,
O'zingdur xush takallum, to'tii shirin ado yolg'uz.*

*Tabassum birla pinxona dedi: oshiqlarim ichra,
 Vale sen ham asiru mubtalolig 'da judo yolg 'uz.
 Dedim: «jono chekardim dardu hijroningni muddatlar,
 Harimi vaslinga mahramlig ' erdi muddao yolg 'uz».
 Dedi: «Hilvatda tanho ko 'rmagingdan ne g 'araz bordur?
 Dedimkim: «Orzu shuldirki, jon qilsam fido yolg 'uz»
 Urub bir qamchi aydi: «Oshma haddingdinki shohlarni
 Ko 'rolmas hech bir yerda necha sendek gado yolg 'uz».
 Muqimiyni panohi ismatingda asrag 'il, yo rab,
 Xatarlik dasht aro gumgashtai berahnamo yolg 'uz.*

(Devon. 82–bet.)

Ko 'rinadiki, shu sho 'xu shangliklardan so 'ng majoziy oshiq xudo yo 'lida tavba tazarru qilishga o 'tadi. G 'azalning maqtasi so 'fiyona rangga ko 'chadi. Bundan qat 'iy nazar, Muqimiyning bu g 'azali hayotiy real kechinmalar ifodasidan iborat g 'azal namunasi ekanligini saqlab qoladi. Unda oddiylik, konkretlik, hayotiylik bor. Ot o 'ynatib kelayotgan go 'zal yor ot uzangisiga ko 'z surtib, yolvorib, go 'zal haqqiga duo qiluvchi oshiq. Qanday oniy his–tuyg 'u, manzara. Naqqoshlar tasviriga oid sharq miniatyura Behzodona tasvir yaratsa bo 'ladigan holat. Shu holatda g 'azal baytlar aro tadrijga ega bo 'lib, ikkita lirik timsolning xazilomuz uchrashuvi haqida tasavvur tug 'diradi. G 'azal Muqimiyning ko 'p oshiqona g 'azallaridek aruzning ramal bahri tarmoqlaridan «ramali musammani maxzuf» (foilotun, foilotun, foilotun, foilun) vaznida yozilganligi bilan ham ajralib turadi.

Muqimiy «Navbahor» g 'azalida ham navro 'z ayyomidagi tabiat ko 'rkini, vodiy bahorini yuksak ko 'tarinkilik bilan tasvir etgan. Odamlarning bir biriga g 'animat ekanligini, hayot va undagi inson uchun mavjud bo 'lgan ne 'matlarning shirinligini xavas bilan madh etgan «Navbahor» hayotdan, tabiat go 'zalliklaridan zavqlanishni ulug 'lovchi, do 'stlikka undovchi ajoyib asardir. Lekin mavjud ijtimoiy tuzum, tengsizlik insonlarning shunday yashashi uchun g 'ovdir. Shundaylardan biri shoir Muqimiyning o 'zi. G 'azalda bahor tasviri, peyzaj manzaralari madhi zamon nosozliklari tug 'dirgan ijtimoiy norozilik ohanglari bilan qo 'shilib ketadi. Shuning uchun bu g 'azalni sof peyzaj g 'azal deb bo 'lmaydi. G 'azal mazmuniga xos shunday xususiyatlardan kelib chiqib Muqimiy qofiyalar tanlagan. «O 'rtoqlar, chog 'lar, sog 'lar» yaxshi kayfiyatni, niyatni ifodalashga xizmat qiluvchi qofiyali so 'zlar bo 'lsa «zog 'lar, tirnog 'lar» kabilar davr illatlarini, undagi adolatsizliklarni ifodalashga ishora qiluvchi qofiyalardir. Zero shoir orombaxsh tabiat quchog 'ida yor–do 'stlari, o 'ziga yoqimli shaxslar bilan o 'ynab kulishni, ko 'ngil xushlik qilishni orzu qiladi. Ammo buning uchun imkoniyat, sharoit yo 'q. Noiloj qolgan shoir ham, do 'stlari ham afsus nadomat chekishlaridan o 'zga chora yo 'q. Go 'zal tabiat, fusunkor bahor manzaralari bilan ijtimoiy muhit o 'rtasida qarama–qarshilik katta. Shoir bahorning orombaxshligini

*Navbahor ochildi gullar, sabza bo 'ldi bog 'lar,
 Suhbat aylaylik kelinglar, jo 'ralar, o 'rtog 'lar, –*
 deya shodiyona kayfiyatda kuylay turib, Muqimiyni o 'xshagan ma 'rifatparvar, dono kishilarning xoru zabunligini:

Xayfkim, ahli tamiz ushbu mahalda xor ekan,

Oldilar har yerda bulbul oshiyonin zog'lar.—

baytida bulbul, oshiyon, zog'lar kabi ko'chma ma'nolar tashuvchi istiorali so'zlar orqali ifodalaydi.

Malham istab kimsadin, zaxmi dil izhor aylasang,

Choraye qilmoqdin o'zga ustiga tirnog'lar—

baytida «Yaramni tirnaydi» ifodalovchi xalq iborasini ishlatib, lirik qahramon hissiyotini yanada bo'rttirishga erishadi.

«Navbahor» g'azali o'ziga xos kompozitsion tuzilishga ham ega. Uning birinchi va ikkinchi baytlarida lirik qahramonning kayfiyatiga ta'sir qilgan, uni ilhomga keltirgan fusunkor bahor fasli, shoirga do'st, jo'ra bo'lgan insonlarning ichki kechinmalari, kechirishi mumkin bo'lgan shodliklari ifodalanadi. Uning uchinchi va to'rtinchi baytlarida muhabbat dardiga muhtalo bo'lgan shoirning dard-alamlari, undan jabr ko'rayotganligi, keyingi baytlarda esa maqsadi ro'yobga chiqmagan oshiq do'st insonning ijtimoiy fikrlari, muhitdan, sharoitdan noroziligi tasvirlanadi. O'ziga o'xshash jabrdiyda zamondoshlarining qismati ham o'zinikiga o'xshash ekanligi uqdiriladi. Mana shu uch asosiy fikr g'azalning g'oyaviy mazmunini tashkil etadi. Ko'rinadiki, g'azal yakpora, voqeaband yoxud musalsal g'azal emas. Garchand Muqimiy o'z g'azalini tadrij usulida yaratib baytlar aro juda muhim fikrlarni ifoda etgan bo'lsa ham unda mavzu mazmun yaxlitligi yo'q. Shu ma'noda «Navbahor» g'azalini juda yengil, sodda uslubda yaratilgan porokanda g'azallar turkumiga kiritish mumkin. Bunda kompozitsion tartib shoir ifodalamoqchi bo'lgan maqsadga muvofiq tushgan.

«Kim desun?» g'azalida ham har jihatdan kamsitilgan, xo'rlangan shaxsning nidolarini eshitamiz. Bu shaxs ham sirdan qaraganda «yor hajrida azob—uqubat chekkan, yuragi o'ta xunob bo'lgan shaxs». U o'ylab o'yiga yetolmaydi, kechalari uxlamay ux tortib chiqadi, uning dardiga malham bo'luvchi dori yo'q. Shu sabab xokisor bu odamning xasratlari ko'p. Shoir qahramonning ichki kechinmalariga shoirona ta'rif berish uchun xalq naqlaridan, kesatiq piching so'zlaridan, chuqur ma'noli matal va maqollardan ustalik bilan foydalanadi:

O'z ko'mochiga, masalkim, tortadir kul har kishi,

Bas kuyub ishqida chekkan iztirobim kim desun?

Gar qilich boshimga ham kelsa degayman rostin,

So'zki xaq bo'lsa savolimga javobim kim desun?

(Devon. 159–bet.)

G'azalda lirik qahramon ruhiy iztiroblarini namoyon etishga xizmat etuvchi «qofiyalar» ham mazmunga mos «Azobim, Tobim, Iztirobim, Xobim, Savobim, Javobim, Kabobim». Kim desun? savol radif ma'nosi qofiyali so'zlarga javob topish jumbog'ini ifodalaydi.

Muqimiy g'azaliyotining ayrim namunalari to'g'ridan-to'g'ri lirik qahramon, jumladan shoirning qismatidagi og'ir ruhiy iztiroblarini, uning hasbi xolini, yashab turgan muhitiga nisbatan noroziligini aks ettiruvchi asarlardir. «Shunchalar», «Toleim», «Devonamen», «Aylay desam», «Kim desun» nomlari bilan Muqimiy «Devon»ida (1974) keltirilgan g'azallar ijimoiy–tanqidiy ohangining ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Albatta Muqimiyning oshiqona, orifona g'azallarining barchasi ijtimoiy–ta'limiy mazmunga ega. Ulardan ham beto'le, baxti yurishmagan oshiqning,

dunyo ishlariyu charxi kajraftorning shumligidan nolib, ollohga ko‘mak so‘rab iltijo qiluvchi fozil, orif shaxsning mushoxadalarini aks–sadosini his etib turamiz. Ba‘zan shoir sof ishqiy mavzudagi she‘rlarida aylanma yo‘llar bilan, ayrim bayt va misralarda tole zabunlikka, zulmga, haqsizlikka bo‘lgan noroziligi, orzu armonlarini ifodalay boradi. Bunga bir tomoni peyzaj tasviriga, Navro‘z shodiyonalariga bag‘ishlangan «Navbahor» g‘azalidagi ayrim baytlar misol bo‘la oladi. Shu ma’noda biz «ijtimoiy–tanqidiy ohangga ega g‘azallar» deganimizda shunday ohanglar g‘azalning asosiy mazmuni va mohiyatini belgilovchi g‘azallarni nazarda tutmoqdamiz.

Murabbalari. Mumtoz adabiyotda Muqimiy bu janrni yangi bosqichga ko‘tardi, uning Yassaviy, Mashrab murabbalaridek xalqchil, qo‘shiqbob namunalarini ijod etdi. Muqimiy murabba she‘r shaklida juda go‘zal ishqiy–intim she‘rlar yaratishda katta mahorat ko‘rsatdi. Bu murabbalar o‘ta haroratligi, g‘oyat soddaligi va xalqchilligi bilan alohida e‘tibor qozondi. Bu murabbalarga bastakorlar kuylar bastaladilar, xalq kuylariga soldilar. Xofizlar esa shu yoqimli kuylarni ijro etdilar, natijada Muqimiy murabbalari chiroyli lirik qo‘shiqlar sifatida xalq ommasi o‘rtasida shuhrat qozondi.

Muqimiyning ana shunday murabbalaridan biri «Emdi sandek...» yoki «Ko‘nglim sandadir» nomlari bilan shuhrat qozongan she‘ridir. Bu murabbaning dastlabki ikki bandi va uning poetikasi quyidagicha:

<i>Emdi sendek, jono, jonon qaydadur,</i>	a	6+5
<i>Ko‘rib gul yuzingni bog‘da bandadur.</i>	a	6+5
<i>Saqlay ishqing toki jonim tandadur,</i>	a	6+5
<i>O‘zim har joydaman, ko‘nglim sandadur</i>	a	6+5
<i>Mehring o‘ti nogoh tushdi jonlarga</i>	b	6+5
<i>Parvoyim yo‘q zarra xonu monlarga,</i>	b	6+5
<i>Lola yanglig‘ to‘lib bag‘rim qonlarga,</i>	b	6+5
<i>O‘zim har joydaman ko‘nglim sandadur.</i>	a	6+5

Bu she‘rdagi lirik qahramon–an‘anaviy oshiq. U mehri tushgan go‘zal ma‘shuqaning oshiqi shaydosi, go‘zalning yuzi bog‘dagi eng nozik, beg‘ubor gul bargidan ham chiroyli. Go‘zalni ko‘rgandan buyon oshiq qalbi otashda o‘rtanadi, uning xonumonlarga, hech narsaga parvoyi yo‘q, bag‘ri loladek qipqizil qonlarga to‘la, o‘zi qayerda bo‘lsa ham, ko‘ngli, xayoli yor bilan birga.

Lirik qahramonning bu gaplarida oshiqning fidoiyligi, ma‘shuqasiga sodiqligi o‘zining obrazli ifodasini topgan.

Bu murabbaning poetikasiga xos xususiyatlar shundan iboratki, she‘r birinchidan, barmoq sistemasi 2 bo‘g‘inlik turkumning 6+5 turoqli vaznida yozilgan. Shuning uchun ayrim ilmiy adabiyot va maqolalarda uchrab turuvchi u aruz vazniga ham, barmoq vazniga ham mos kelaveradi degan taxminlar asosli emas.

Muqimiy murabbalari ichida uning o‘z g‘azaliga o‘zi yozgan tazmin murabba ham uchraydiki, bu adabiyot tarixida Muqimiygacha uchratilmagan adabiy hodisadir. Chunki biz g‘azalga muhammas, musaddas, musamman bog‘lash hodisasini uchratganmiz, biroq g‘azal baytlariga yana ikki misradan qo‘shib har bir g‘azal baytlarini to‘rtlamalarga, murabbalarga aylantirish hodisasini uchratmaganmiz.

Muqimiy gʻazallari ichida «Kuydirur» radifli yetti baytli ishqiy gʻazali bor. Shu radifda Muqimiy «Kuydirur» murabba sheʼrini ham yozgan. Muqimiy gʻazalining matla bayti shunday:

*Goh vasligʻa yonurman, goh xijron kuydurur,
Boʻyla kuydurmakni qandoq nomusulmon kuydurur.*

Shu bayt uning murabbaga aylantirilgan matnida quyidagicha keltiriladi:

*Har nafas bir dogʻ ila ul mehri raxshon kuydurur,
Goh jamoli shoʻlasidin, gohi pinxon kuydurur,
«Goh vaslidin yonurman goh xijron kuydurur,
Boʻyla kuydirmakni qandoq nomusulmon kuydurur».*

Gʻazalning maqtasi:

*Oshiqi koʻpdir vale, insof etinglar doʻstlar,
Kim hamisha man Muqimiydek anga jon kuydurur*

Shu bayt uning murabbaga aylantirilgan variantida:

*Muhyini ham arzu dodigʻa yetinglar, doʻstlar.
Yani ushshoqi qatorigʻa bitinglar, doʻstlar.
«Oshiqi koʻpdir vale insof etinglar doʻstlar,
Kim hamisha man Muqimiydek anga jon kuydurur»*

(Devon, 1974, 197, 236, 237–betlar)

Muqimiyning murabbasida zamondoshi, baʼzan Muqimiy bilan munosabati sovuqlashib turgan shoir Muhyining nomi tilga olingan Muqimiy gʻazaliga uning tomonidan yangi tazmin murabba yozilishi siri ehtimol Muhyi bilan bogʻliqdir. Qizigʻi shundaki, bu usul Muqimiy izdoshlaridan Hamza–Nihoniylar devonida ham qoʻllanilganligi maʼlum boʻldi. Muqimiyning «Koʻrdim yuzingni» sarlovhali murabbasi ham aruz vaznining «mutaqoribi musammani aslam» bahrida yozilgan. Bu bahrning ruknlari va paradigmasi quyidagicha:

Faʼ lun, fa uv lun, faʼ lun, fa uv lun

*Chun lola koʻksim dogʻ erdi qat–qat,
Hamdam topolmay ayturga xasrat.
Oʻldim deganda boʻldi karomat,
Koʻrdim yuzingni alhamdulillah.*

Yuqoridagi kuzatishlardan koʻrinib turganidek, Muqimiy murabbaning shakl imkoniyatlarini ham, janr imkoniyatlarini ham ancha kengaytirishga muvaffaq boʻlgan. Eng avvalo shuni aytish kerakki, Muqimiy barmoq sistemasining 7, 10, 11 boʻgʻinli oʻlchovlaridan foydalanib gʻoyat original ohangdorlikka ega boʻlgan qoʻshiq bob murabbalar yaratdi. Shoirning aksariyat murabbalari barmoq vaznining ana shu oʻlchovlarida yaratilgan.

Muhammaslari. Musammatlarning sheʼriyat ahli oʻrtasida keng ragʻbat topgan shakliy navlaridan biri boʻlgan muhammas (beshlik, beshlama) Muqimiy ijodida salmoqli oʻrin tutadi. Ilk turkiy namunasi XV asrning birinchi yarmida ijod etgan Xofiz Xorazmiy devonida qayd qilingan muhammas janri A.Navoiy va uning adabiy muhitida lirikaning faol janrlaridan biriga aylanib bordi. XV asrning ikkinchi yarmida A.Navoiy va Husayniylar bu janrning qator namunalarini ijod qildilar. Xususan tazmin muhammaslar yozish bizning mumtoz adabiyotimizda shu davrdan boshlandi. Muhammasnavis shoirlar ichida ayniqsa Ogahiyning, Xiromiyning,

Amiriyning, Ahmad Tabibiyning, Muqimiyning, Avaz O'tar o'g'lining o'ri salohiyatli bo'ldi.

Muqimiy lirikasida bu janr g'azaldan keyingi eng faol janr sifatida ko'rindi. Muqimiyning joriy nashrdagi asarlarida uning lirik, satirik va yumoristik mazmun va uslubdagi yetmishga yaqin muhammaslari keltirilgandir. Ularni badiiy usullariga ko'ra tasnif etsak: mustaqil (tab'i xud), salaf-ustoz shoirlar hamda o'z g'azallariga bog'langan muhammaslar tarzida guruhlashadi. Muqimiy merosida, hozircha, musaddas, musabba, musamman, mutassa, muashshar yozganligi aniqlanmagan.

Muqimiyning «Ayrilib» (Devon 1974 yil 244–245–betlar) «Xush kelding», (246–247 bet), «Arzimni aytay» (256–257 bet) «Aylanay» (276–277 bet) «Majolim qolmadi» (280–281 bet) «Oh kim, holimni so'rmas oshnolardan biri» (280–283 bet) «Kesangchi» (287–288 bet) «Ko'zlaring shahlo nechun» (295–296 bet) «Muncha ham» (299–300bet) «Xalovat ko'rmagan jonim» (305–306 bet) «Olmasam bo'lmas o'chimni» (312 bet) «Ofarin» (313 bet) «Bo'lsin omon» (318–319 betlar) «Oqjar odamlari haqida muhammas» kabilar uning mustaqil, faqat uning qalami mahsuli bo'lgan muhammaslardir. Bu muhammaslar ichida «Oh kim, holimni so'rmas oshnolardan biri», «Intizor o'ltirg'usi» muhammaslarida hasbi xollilik, fuqarolik xasrati, shu orqali ijtimoiy muhitga norozilik ohanglari kuchlidir. Uning «Xalovat ko'rmagan jonim» va boshqa qator mustaqil muhammaslarida ham shoirning isyonkor nidlari yangrab turadi.

Muqimiy mumtoz adabiyotimiz xazinasini chuqur o'zlashtirgan va uning qatlamlaridan o'zi saralab chiqqan g'azallarga o'nlab tazmin muhammaslar yozgan shoir san'atkor hamdir. Salaf shoirlar ichida Navoiy g'azallari muhim o'rin tutadi. U Navoiyning «Nigorim» (243 bet) «Noma yozmading» (248–249 bet) «Xijron zor o'ltirg'usi» (286–bet) «Kerak» (291–292 bet) «Gul» (297–298 bet) radifli mashhur g'azallariga tazmin muhammaslar bog'lagan. Muqimiy muhammaslari ichida salaf shoirlardan Jomiyning «Mekune yo ne» (tojik tilida 266–267 betlar); Fuzuliyning «Asar vermas» (274–275 betlar) «Ixtiyor etmazmidim» (303–304 bet) «Rahmat sango» (328–329 bet) «Orzu»(337–338 bet); Amiriyning «Mujgoning» (250–253 bet) «Xo'b bo'ldi» (278–279 bet) «Muborak» (289–290 bet) «Shirin» (316 317 bet) «Qo'zg'olmasun» (322–323 bet); G'oziyning «Zabon ochding qilay tavsifini.» (242 bet) beshlamalaridan tashqari zamondoshlaridan Muhayyir, Furqat, Zavqiy, Nodim, Almaiy, Umidiy, Kamiy, Muntazir g'azallariga yozilganlari ham ancha. U ayniqsa Furqatning o'nga yaqin g'azallaridan ilhomlanib, ularga ijodiy yondashib, go'zal muhammaslar yozgan. Ular ichida Furqatning she'r ahli orasida shuhrat yoygan «Kashmirlik qizga» (238–239 bet) «Ko'zlaring» (254–255 bet) «Tanxoliging», «Xating» (258–259 bet) «Intizor o'ltirg'usi» (284–285 bet) «Ruxsoringiz chiroylik» (293–294 bet) «Kam–kam bo'lur» (333–334 bet) g'azallariga yozilgan nodir muhammaslari bor. Muqimiy muhammaslarining qofiya radiflari, nomlanishlari kimning qanday mazmun uslubdagi g'azalini beshlamalarga aylantirganligidan ravshan sezilib turibdiki, u oshiqona, orifona, ijtimoiy–falsafiy, ta'limiy mavzularda muhammaslar yozishga, shunday mavzudagi g'azallarni o'z tazmin muhammaslari uchun ilxom tayanch qilib olishga e'tibor bergan. Shu ma'noda uni mumtoz she'riyatimizdagi muhammasnavislik taraqqiyotida ham alohida rol o'ynagan ijodkor sifatida qayd qilishimiz lozim. Muqimiyning har bir mustaqil yoxud tazmin

muhammasi mavzu, g'oya va badiiylik birligida alohida–alohida taxlil etishga loyiqdir. Biroq taassufki, Muqimiyga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarida masalaning bu jihatlariga yetarli e'tibor berilmay kelindi. U o'zining o'nga yaqin ishqiyl hamda ikkita satirik g'azaliga ham o'zi muhammas yozdi.

MUQIMIY HAJVIYOTI

Tayanch so'z va iboralar: Muqimiy va o'zbek hajviy adabiyotining yangi, yuqori bosqichi. Shoir hajviyotida ilk mustamlakachilik davri illatlarining keskin tanqidi. G'azal, masnaviy–hikoya, muhammas shakllaridagi hajviy asarlar. Viktor, Laxtin, saylov haqidagi turkum hajviy asarlar. «Tanobchilar», «To'y», «Maskovchi boy ta'rifida» satiralari. Shoir satirik ijodida mustamlaka zulmiga qarshi ohanglar. Shoir hajviyotining mavzulari, obrazlari, tili va uslubi. Muqimiy hajviyotida Dukchi Eshon talqini. Eshon haqidagi haqiqat va uning o'sha davr hajviyotidagi noxolis talqini. Buning sabablari. Muqimiy yumorlari. Turkum yumoristik she'rlari. Ularda o'sha davr turmushidagi achchiq haqiqat va shoir orzularining ifodalanishi.

Hajviy adabiyot bizda, ayniqsa, Maxmur ijodida o'zining to'laqonli mundariyasi, shakl va uslub xususiyatlari bilan namoyon bo'ldi. Unda ijtimoiy hayotdagi real hodisa va shaxslar qalamga olindi, uning hujumkorlik xususiyati kuchaydi. U XIX asrning ikkinchi yarmida mustamlaka asorati tug'dirgan ziddiyat va illatlar tufayli yangi bir bosqichga ko'tarildiki, bu holat hajv va yumor ustasi Muqimiyning adabiy qiyofasida, hajviyotida namoyon bo'ldi. Muqimiy hajviyotni real borliqqa yaqinlashtirdi, ommaviyligi, ta'sirchanligi va hujumkorligini oshirdi. Hajviyotga yangi–yangi mavzular, obrazlar, badiiy–tasviriy usullar olib kirdi. Muqimiy ijodi tufayli XIX asr ikkinchi yarmi satirasida oldin ko'rganimiz. mavzular: riyo va firibgarlik, adolatsizlik, amaldorlar zulmi, ahloqsizlik, nodonlik, jaholat qatoriga raqobat, iqtisodiy tanglik va buxronlarning aholini xonavayron etishi, zavod–fabrika egalarining sinib, mardikor ommasini nochor ahvolga solishi, kapitalistik firibgarlik va nayrang, mahalliy boylarning nodonligi, bilimsizligi, anqovligi, saylov hangomalari, riyokor din ahllarining taraqqiyotga, ma'rifatga ziyoni kabi mavzular paydo bo'ldi. Shunga yarasha kapitalist, zavodchi, vekselchi boylarning, rus savdogarlarining hajviy obrazlari yaratildi. O'zidan kattaroq nahang boylar yemishiga aylangan mahalliy boylarning kulgili qiyofalari ham gavdalandi. Ayni vaqtda Muqimiy, Zavqiy satiralari orqali antikolonial satira ham shakllandi, qisqasi bu davrdagi hajviy adabiyot o'lkada yuz bergan ijtimoiy o'zgarishlarni, voqea–hodisalarni, ahloqiy–ma'naviy tanazzulni aniq aks ettirdi.

Muqimiyning hajviy asarlari yuqorida bayon etilgan ilmiy–nazariy fikr va tasniflarga ko'ra, hajv (satira) hamda xazl mutoyiba (yumor)larga bo'linadi. Biroq unutmazlik lozimki, har qanday hajviy asar yumorsiz, har qanday yumoristik mutoyiba asar hajvsiz, satirasiz bo'lmaydi. Ularning hajviyotning qaysi xiliga mansubligi mavzuning, ta'sir ob'ektining muhimligiga, kulgining jiddiy fosh qiluvchi yoxud yengilligiga, xazilomuzligiga bog'liq.

Muqimiy hajviyoti o'z tasvir, tanqid ob'ekti, obrazlarning harakteri, shoirning ularga nisbatan qo'llagan badiiy–tasviriy usullariga qarab guruhlanishi mumkin:

1. Mustamlakachi chor chinovniklari va ular bilan hamtomoq bo'lgan mahalliy amaldorlar tanqidiga bag'ishlangan asarlar. Bular asosan «Tanobchilar», «Dodxohim», «Axtaring», «Saylov», «Itboqar ellikboshi» kabi asarlardir.
2. Mustamlakachi kapitalistlar, zavod egalari, bankirlar, sudxo'rlar, savdo–tijorat egalari, mahalliy boylar ichidan chiqqan shunday shaxslar haqidagi satiralar. «Moskovchi boy ta'rifida», Viktor, Laxtin, Asrorqul, choyfurush haqidagi satiralar shu guruhga kiradi.
3. Din–shariat ahllari orasidagi noroso, firibgar, riyokor, ta'magir shaxslar yoxud shunday deb o'ylangan shaxslarni fosh qiluvchi satiralar. Bularga «Voqeai ko'r Ashurboy», «Xoji qadoqchi», «Avliyo», «Hajvi halifai Mingtepa», «Bachchag'ar», «Qurbaqalar» kabi she'rlarni kiritish mumkin.
4. Hazl–yumorlar. Ot, bezgak, aroba, loy, iskaptopar, ko'sa turkumidagi hajv aralash mutoyiba asarlari. «Fonus», «Ta'rifi pech» nomidagi turmush yangiliklaridan zavqlanishni ifodalovchi asarlari.

Hajviyot Muqimiyning XIX asrning ikkinchi yarmi adabiyotidagi grajdanlik–fuqarolik o'rnini, asarlarining hayotiyiligini, ta'sir kuchini belgilovchi asarlardir. Muqimiy hajviyoti adabiy muhitda ziddiyatli hayotning badiiy ko'zgusi bo'lgan yangi–yangi asarlarni paydo bo'lishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Shuni uqtirib o'tishimiz lozimki, agar Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning o'z tabiatida, harakterida askiyaga, xazil–mutoyibaga moyillik, odamlar qiyofasidagi, turmushdagi illat va nuqsonlarga nisbatan murosasizlik kabi hislatlar shakllanmagan, qaror topmaganda edi, u satirada, hazil–mutoyibada munchalik shuhrat qozonmagan, satira va yumorda ham ustoz ijodkor darajasiga ko'tarilmagan bo'lar edi. Bu holatni uning zamondoshlaridan Zokirjon Furqat ham sezgan va Muqimiydagi bu «jangarilikni», boy–badavlat shaxslarni hajv qilishni unchalik xush ko'rmagan. Biroq hajviyotda Muqimiydek qalam surish va so'zni qo'rqmay aytishdan qaytmaslik kamdan–kam ijodkorlarga nasib etgan. Zero biz Muqimiy ijodida bir–biri bilan parallel ikki hil estetik qarashni, ijodiy uslubni ko'ramiz. Birinchi xili go'zalliklarni, ibratli narsalarni yoqlash, tasdiqlash, shular haqida jozibador asarlar yaratish. U bu jihati bilan Furqat dunyoqarashi va ijodi bilan o'xshashlik kasb etadi. Ikkinchi xili tevarak atrofda sodir bo'lib turgan jamiyat va oddiy fuqaro manfaatlariga zid illatlarga, shu illatlarni keltirib chiqarayotgan shaxslarga nisbatan murosasizlik, antipatiya.

Muqimiyning hajviy–yumoristik she'rlari xususan hajviy g'azallari, muhammaslari, masnaviylari an'analar bilan ham bog'liqdir. Ungacha Navoiy (g'azallar), Turdi, Maxmurlar, uning zamondoshlari masnaviy, muhammas, hajviy qit'a, xazil–mutoyiba she'rlar yaratgan edilar. Muqimiy ularning tajribalarini o'rgandi, davom ettirdi va boyitdi.

Hajviy g'azallari. Muqimiyning hajviy–yumoristik asarlaridan anchasi g'azal shaklida yozilgandir. Dukchi eshon siklidagi «Hajvi xalifai Mingtepa», «Avliyo», «Bachchag'ar», «Qurbaqalar», «Saylov» (unga shoirning o'zi taxmis ham bog'lagan) «Dar mazammati zamon», «Dar shikoyati Laxtin», «Asrorqul»; yumorlaridan «Ta'rifi pech», Ko'sa turkimidagi to'rtta mutoyibasi, «Bu otingiz», «Otim», «Uloqchilar», «Shamol», «Aravang», «Aroba», «Loy», «Xayron qildi loy», «Dar mazammati iskab topar», «Shikoyati bezgak», «Behad yomon bezgak», «Fonus»,

(Zavqiyga javob) «Bo‘qoq», «Burun», «Qiyg‘irchilar», «Pashshalar» g‘azal shaklidadir.

«Tanobchilar» hajviy masnaviysi esa zulm–zo‘rlik azobini tortib, tinkasi qurigan oddiy mehnatkash dexqonning xasratlari hikoyasiga bag‘ishlanganligi bilan harakterlidir. Bu asar chor mustamlakachilari davrida avj olgan illatlarga qarshi oddiy mehnatkash fuqaroda paydo bo‘lgan kuchli norozilikni ifodalovchi realistik asardir. Unda hayotiy voqea tasvirlangan. Muqimiyning o‘zi Buxorodan, madrasa tahsilidan qaytgach (1872–1876) oz vaqt Qo‘qondagi yer mahkamasida xizmat qilgan, chor va mahalliy amaldorlarning tanob voqeasi bilan bog‘liq qilmishlaridan xabardor bo‘lib yurgan. O‘z nafratini, mustamlaka tartiblariga bo‘lgan qarashlarini dehqon timsoliga ko‘chirgan. Uning nomidan so‘zlagan. U 68 misradan iborat. Dehqon o‘z boshiga tushgan kulfatlar va zo‘ravonlikni hikoya qilishga kirishar ekan, bunday deydi:

Bo‘ldi taajjub qiziq xangomalar,

Arz etayin emdi yozib nomalar.

O‘n ikki oyda keladir bir tanob,

O‘zgalarga rohatu menga azob.

So‘ngra shoir dehqonning xasratlarini, poraxo‘r va dag‘al amaldorlarning qilmishlarini badiiy gavdalantirib, «tanob» voqeasi misolida chor hukumati soliq siyosati xalqqa yetkazgan og‘ir kulfatlarini ochib beradi. Sultonali va Hakimjonning til biriktirib olishi xalq iboralari, qochirimlari orqali ustalik bilan ifodalanadi. Demak, satirik obrazlar tilida individuallik bor. Bu ularning maqtanishlarida, do‘q po‘pisalarida, xatto vulgar so‘zlar ishlatishlarida ko‘rinadi. Muallifning nutqiy harakteristikasi ham ular qiyofasiga moslashtiriladi:

Sulton Alixo‘ja, Hakimjon ikov,

Biri xotin, birisi bo‘ldi kuyov...

Osh yesalar o‘rtada sarson ilik,

Xo‘ja chiroq yog‘i, Hakimjon pilik...

O‘t qo‘yubon kuydirodurg‘on o‘zim,

Hokimingu o‘ldiradurgon o‘zim.

Asar «sariu’ musaddasi matlui makshuf» vaznida yozilgan.

(muftailun, muftailun, foilun, – V V – / – V V – / V –)

Yumorlari. Muqimiy hajviyotining bir qismini uning hazil–mutoyiba mazmunidagi, yengil kulgi uyg‘otuvchi yumoristik g‘azallari va muhammaslari tashkil etadi. Yumor xalq og‘zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham qadimiy an‘anaga ega. Har bir hajviy asarda yumor, har bir yumoristik asarda satira elementlari bo‘ladi. Bejiz o‘tmish manbalarida hajviyot «qabih va malih» kabi xillarga, hajv va xazilga ajratilmagan. Hajviyotda ularning sintezlashgan holatini kuzatsak ham har birida ularning ustivor xususiyatlari ham namoyon bo‘ladi. Bejiz ularning xususiyatlaridagi kulgining me‘yori va tabiatiga qarab, satira hamda yumor (hajv va xazil, mazax va mutoyiba) istilohlari qo‘llanilmaydi. O‘zbek she‘riyati hamda nasriy adabiyotda ham yumor taraqqiy etib kelgan. Uning namunalari, unga doir lavhalar epik asarlar tarkibida ham, shoiru shuarolar devonlarida ham uchraydi.

Ayniqsa hajv va mutoyibaga ko‘proq mayl ko‘rsatgan, askiyaga usta, tili boy shoirlar yumorda ham iqtidor ko‘rsatganlar.

Muqimiy yumorlari ham turkumlilik xususiyatiga ega. U ot mavzuida beshta, bezgak mavzuida ikkita, ko‘sa mavzuida to‘rtta, aroba va loy mavzularida ham ikkitadan hazil–mutoyibalar ijod etgan. Muqimiy yumorlaridan 21 tasi yumoristik g‘azallardir. Muqimiy harob axvolda qolgan jonivor–ot, xira pashsha, tizzagacha chiquvchi loy, qiyshaygan, shalog‘i chiqqan aroba, odamlarning zavoliga qolgan yuqimli kasal bezgak va boshqalarning kulgili holatlarini, manzaralarini chizish va suratlantirish orqali turmushdagi kishini ranjitadigan narsalarning tugatilishini, tuzatilishini istaydi. Muqimiy yumorlaridagi predmet, odam va manzaralar real haqiqatlar edi. Mustamlakachilik davri hayoti tug‘dirgan qaloqlik, harobalik, tashlandiqlar ustidan kulish, ularning xunuk manzarasini real chizish bilan Muqimiy o‘zining madaniy, go‘zal hayotga bo‘lgan orzu–istaklarini, romantik havaslarni ifoda etdi. Bu qaloq narsalarning ifodasi rus kolonizator va mahalliy ma’murlar uchun aybnoma, tanbeh ham edi.

Xullas, Muqimiydan bizgacha yetib kelgan nasriy va she’riy maktublar ham shoir ijodining ajralmas qismlaridan biri bo‘lib, uning do‘st–birodarlari bilan bo‘lgan munosabatlari, ijodiy hamkorligi, eng muhimi, Muqimiyning xoksor hayotini o‘rganishda eng ishonchli asarlardandir. Ulardan ko‘plari bizga dastxat holida yetib kelgan va hozir ham Muqimiyning Qo‘qon shahridagi uy–muzeyida saqlanmoqda. Muqimiy xususan g‘azal maktublarida badiiylkni yuzaga keltiruvchi vasitalardan unumli foydalanib, bu sohada ham boshqalarga ibrat bo‘la olgan.

Savollar:

1. Muqimiy hayot yo‘lining asosiy nuqta va sanalarini qanday tasavvur qilasiz?
2. Shoir merosini o‘rganish manbalari. Ijodiy merosining tavsifi, ko‘lami, o‘rganilish tarixi.
3. Muqimiy lirikasida lirik qahramon talqini, tole va baxt tushunchalari ifodasi.
4. Hajviyotining o‘ziga xos tomonlari. An’ana va ijodiylik (Turdi, Maxmur, Gulxaniy hajviyoti an’analari).
5. «Sayohatnoma»larining o‘ziga xos janriy–poetik xususiyatlari.
6. XX–XXI asr o‘zbek adabiyotida Muqimiy an’analari. Uning abadiyati. Shu savollarga yozma javoblar tayyorlash va yakuniy nazorat uchun taqdim etish. Muqimiy asarlarini to‘la tarzda mutoala qilish.

MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Muqimiy. Asarlar to'plami, 1–2 jildlar, –T., 1960
2. Muqimiy. Devon. –T., 1974

ILMIY ADABIYOTLAR:

1. Karimov G'.K. Muqimiy (hayoti va ijodi) –T., 1970
2. Karimov G'.K. Xalq, tarix, adabiyot –T., 1977, («Hayotbaxsh an'analar», «Muqimiy Toshkentda» maqolalari.)
3. Karimov G'.K. O'zbek adabiyoti tarixi. Darslik, 3–kitob. –T., 1975
4. Furqat va Muqimiy haqida maqolalar. –T., 1958
5. Abdug'afurov A. Muqimiy satirasi –T., 1976
6. Mo'minova V. O'zbek demokratik adabiyotida lirika. –T., Fan, 1979.
7. Ahmedov S. O'zbek adabiyotida «Sayoxatnoma». –T., «Adabiy meros», 1986
8. Yusupov Sh. Muqimiy va Muhyi. O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1996, 21 iyun.
9. Orzibekov R. O'zbek she'riyati janrlari. O'quv qo'llanmasi, I–kitob. –S., 1998

2.2-MAVZU:

Muhyi Xo'qandiy adabiy merosi. Is'hoqxon Ibrat – ma'rifatparvar.

Reja:

1. Muhyi Xo'qandiy hayotiga oid chizgilar.
2. Adabiy merosi. Bayozlari, devoni, epik asarlari.
3. Lirik ijodi: mavzulari, janrlari, timsollari, an'ana va yangiliklar.
4. Muhyi hajviyoti.
5. Muhyi va Qo'qon shoirlari.
6. Ibratning hayot yo'li.
7. Shoirning ma'rifatparvarlik faoliyati.
8. Ibrat – ilk o'zbek matbaachisi.
9. Ibrat – tilshunos va tarixchi.

XIX asr o'zining murakkabligi, chigal voqea-hodisalari, ayanchli yillari va shuning bilan birga taraqqiyparvar g'oyalarning kuchli ta'sirida o'tgan bir davr sifatida o'zbek adabiyoti tarixida muhrlanib qoldi. Chor Rossiyasining O'rta Osiyoga bosqini, hududimizda mavjud boshqaruv tuzilmalarining o'zaro kelishmovchiligi, siyosiy-ijtimoiy hodisalarni tahlil eta olmasligi fojeaviy oqibatlarni keltirib chiqardi. Natijada, xalqimiz istibdod iskanjasiga tushdi. Ana shunday alamli mag'lubiyatlar, mutlaqo yangi ko'rinishdagi voqelik va siyosiy-ijtimoiy munosabatlar jarayoni deyarli harakatsiz yotgan ma'naviy-madaniy qarashlarni uyg'otib yubordi. Chunonchi, o'zbek adabiyotining tadrijiy bosqichi sanalgan Qo'qon adabiy muhiti ushbu murakkab davrning ko'zgusi sifatida maydonga chiqdi. Shaxsni va u yashayotgan jamiyatni barqaror etadigan komil inson g'oyasini tadqiq etdi, uni rivojlantirdi.

Mazkur adabiy maktabning yorqin namoyandalari Muqimiy, Muhyi, Furqat, Zavqiy, Qoriy, Zoriy, Muhayyir, Rojiy, Muhsiniy, Tamkin, Nisbatiy, Yoriy,

Mavlaviy Yo'ldosh, Nusrat, Nayyiriy, Shaydoiy, Umidiy-Havoiiy, Roiq, Sipandiy, G'aribiy kabi o'nlab shoirlar o'z ijodlari bilan ziyolining jamiyatdagi o'zni va vazifasini bir qadar aniqlab berishga muvaffaq bo'ldilar. Xususan, davr mushkulotlari ildizini tashqaridan emas, ichkaridan axtarishga da'vat etdilar. Shaxsning ma'rifati naqadar yuksak bo'lsa, u shu qadar mustahkam yengillik mohiyat kasb etishini isbotlashga urindilar.

Qo'qon adabiy muhitida o'ziga xos o'rin egallagan, uning shakllanishiga, rivojiga munosib hissa qo'shgan ijodkorlardan biri Muhyiddin Muhammad Rizo Oxund o'g'li Muhyidir². Zamondoshlari tomonidan «Adibi komil», «Toj ush-shu'aro», «Afsahul fusaho», «Shohi shoiron»³, deya e'tirof etilgan Muhyi G'azna shahrida tug'ilgan. Ba'zi manbalarda shoirni Afg'onistonning Qandahor, boshqa manbalarda esa Hirot shahrida tug'ilganligi taxmin qilinadi. Ammo Muhyining o'zi 1318 hijriy (1900-1901 milodiy) yilda bitgan va hozirda qo'lyozma nusxasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar bo'limida 604 inventar raqami ostida saqlanayotgan «Tarix» («Tarixi Muhyi Ho'qandiy») asarida G'azna shahrida tavallud topganligini ta'kidlab o'tadi [146, 111].

Arab tilida «Muhyiddin» dinni tiriltiruvchi, dinga hayot baxsh etuvchi degan ma'nolarni ifodalaydi. O'zbek tilida Muhyiddin ismni ifodalovchi so'z sifatida qabul qilingan. Uning tarkibida: Muhyi (محيى) hamda ad-din (دین) so'zlari mavjud. Ko'rinib turibdiki, shoir taxallusi uning ismiga bevosita aloqador. Ma'lumki, arab tili grammatikasi «sarf» hamda «nahv» (sintaksis va morfologiya) deb ataluvchi ikki bo'limdan iborat. Sarf ilmida Muhyi (محيى) so'ziga shunday ta'rif beriladi: «Muhyi» (محيى) aslida «Muhyiyun» (محيى) ko'rinishiga ega. Mazkur o'rinda zamma «yo» (ي) ga saqil (og'ir) bo'lgani uchun «yo» (ي) ning zammagini tashlab yuborish lozim. Shunda Muhyiy (محيى) hosil bo'ladi. Harfi illat «yo» (ي) bilan tanvinlik nun o'rtasida ikki sokin ketma-ket bir joyda kelib qolganligi bois harfi illat «yo» (ي)ni hazf qilamiz. Natijada, «Muhyiyun» (محيى) so'zi «Muhyin» (محيى) tarzida aks etadi. «Muhyin» (محيى) so'zidagi «in» qo'shimchasining aslida tanvin ekanligi inobatga olinsa, uni «Muhyi» tarzida ishlatish mumkinligi oydinlashadi. (Sharh o'zimizniki – M.A).

² Шу ўринда Мухйи тахаллуси билан ижод қилган бошқа шоирлар ҳам бўлганлигини эслатиб, ўтиш лозим. Масалан, П.Қайюмовнинг «Тазкират-уш-шуаро» асарида Мухйи Хўқандийдан ташқари Шайх Абдулқодир Жилоний (Мухйи) ҳамда Қаердан эканлиги номаълум бўлган Садрул олам унвонли Мухйи тахаллусли шоирлар ҳақида маълумотлар бор. Шунингдек, «Энциклопедияи адабиёти тоҷик»нинг 2-жилдида Мухйи Лорий, Мухйи Ҳисорийлар ҳақида қуйидаги маълумотлар учрайди:

Мухйи Лорий (محيى لارى). Таваллуд санаси номаълум. Вафоти 1527 йил. Форс-тожик шоири ва сайёҳи. Форс ўлкасининг Лори вилоятида туғилган. Аввал ўз она юртида таҳсил олган. Сўнг Жалолуддини Даввонийга шогирд тушган. Ҳаж қилиш мақсадида Ҳижозга саёҳат қилган. Мухйи Лорий назмнинг кўплаб жанрларида шеърлар битган. Унинг баъзи пароканда абётлари адабиёт сарчашмаларида кўзга ташланади. Мухйи Лорий аруз илмига бағишлаб рисола ҳам битган. Ундан бизгача Маккаю Мадина зиёратига бағишлаб ёзилган «Футуҳ-ул-ҳарамайн» (1505) маснавий асари етиб келган. Асар 400 байтдан иборат бўлиб, арузнинг сареи мусаддаси матви мавқуф баҳрида битилган. Мухйи Лорийнинг «Футуҳ-ул-ҳарамайн» номли мазкур асари нусхалари кўп бўлиб, улар уч марта таҳрир қилинган

Мухйи Ҳисорий (محيى حسارى) Мухиддин Абдулазиз (таваллуд санаси номаълум) XV аср форс-тожик насрнависи. Унинг «Сияр-ун-набий» номли асари бор. Асар 1418 йилда таълиф қилинган бўлиб, 12 бобдан иборат. Асарнинг охириги бобида пайғамбар Муҳаммад (с.а.в.) вафотлари ҳамда чаҳориёр (Абубакр, Умар, Усмон, Али)лар ҳукмронлиги тарихи ҳақидаги воқеалар тилга олинган. Асарнинг қўлёзма нусхаси Истанбулдаги Нури Усмония кутубхонасида сақланади. (Иқтибосларнинг форсча асл матни **2-иловада**).

³ Етук адиб, Шоирлар тожи, фасоҳатли, очик, равшан баён қилувчиларнинг пешвоси, Шоирлар шоҳи

Aytish joizki, tadqiqot jarayonida shoir taxallusi «Muhyi» [131; 63], «Muhyi» [133, 135, 146], «Muhyiy» [129, 130] tarzida turli manbalarda turlicha qoʻllanganligiga duch keldik. Yuqoridagi ilmiy tavsifga koʻra shoir taxallusini «Muhyi» hamda «Muhyiy» shaklida qoʻllangan holatlarni xato deb boʻlmaydi. Biroq uni Muhyi tarzida qoʻllash oʻrinli emas. Chunki bu holatda soʻz maʼnosiga jiddiy putur yetadi. Taxallusning «Muhyi» va «Muhyiy» variantlari toʻgʻrisida quyidagi mulohazalarni ham aytib oʻtish zarur deb oʻylaymiz: «Muhyi» ismi foil (bajaruvchining ismi) boʻlib, arab tili sarf fani qoidalariga mos ravishda istifoda etilgan. «Muhyiy» esa «Muhyi»dan bir harf (ى) ortiqligi bilan farqlanadi. Bu ortiqcha harf yuqorida aytib oʻtganimizdek, soʻzning asl holatida mavjud. Boshqacha aytganda, «Muhyiy» soʻzidagi (ى)ni taxalluslarda odatga koʻra qoʻshilishi shart boʻlgan y, (-iy) qoʻshimchasi oʻrnida qabul qilish ham mumkin. Lekin masalaning adabiyotshunoslikda muhim boʻlgan va barcha munozaralarga aniqlik kiritadigan boshqa tomoni ham bor. Bu aruz vazni qoidalari bilan bogʻliq. Shu oʻrinda quyidagi baytlarga murojaat qilib oʻtamiz:

*Har kishining bu jahonda dilda bir maqsudi bor,
Muhyi sandin oʻzga, yorim, huru gʻilmon istamas* [13; 283-b.].
(-v- - / -v- - / -v- - / -v-)

*Jomi vahdat lutf etib, ishq ahligʻa,
Muhyini ham mastu sahbo aylading* [13; 299-b.]. (-v- - / -v- - / -v-)
*Muhyigʻa lutf aylasang mahshar kuni anda ne gʻam,
Bordur ummedim shafot Mustafodin yo Hafiz* [13; 291-b.].
(-v- - / -v- - / -v- - / -v-)

*Dahr bogʻi bebaqodur, Muhyi har firqa kelib,
Subh tarhi bazm aylab, shom yigʻdilar bisot* [13; 289-b.].
(-v- - / -v- - / -v- - / -v-)

Koʻrinib turibdiki, ramal bahrida bitilgan ushbu baytlarni taqte qilish jarayonida shoir taxallusini «Muhyiy» emas, balki «Muhyi» koʻrinishida qoʻllash lozimligi tasdiqlanadi.

Muhyiga bevosita zamondosh boʻlgan Poʻlotxon Qayyumov shoirning tugʻilgan yili haqida maʼlumot bermasa-da, uning Hirot shahrida tavallud topganligi hamda 1911 yilda Andijonda vafot etganligini taʼkidlab, shunday deydi: «...Yoz oylari edi. Toshkandli shoir Abdukarim Kamiy Xoʻqandga kelib, men shoir Muhyining Andijonda oʻzim tefada turib koʻmdirib keldim, deb afsusli xabarni berdi. Taxtaga oʻzi degan vafot tarixini yozib koʻrsatdi:

Murd vah shohi shoiron Muhyi»[81; 554-b.].

Nazarimizda, P.Qayyumovning Kamiy tarix misrasi toʻgʻrisidagi fikrlarida bir oz chalkashlik bor. Misradagi harflarni abjad boʻyicha hisoblab chiqilsa, (م - 40, و - 6, ر - 200, د - 4, و - 6, ح - 8, ش - 300, ا - 1, ه - 5, ش - 300, ا - 1, ع - 70, ر - 200, ا - 1, ن - 50, م - 40, ح - 8, ي - 10) 1250 hijriy yil hisobi hosil boʻladi. Bu milodiy 1836 yilga, yaʼni shoir tugʻilgan yiliga toʻgʻri keladi. Demak, Abdukarim Kamiyning ushbu مورد وح شاه شاعران محى tarix misrasi shoir Muhyining vafot etgan yiliga emas, balki tugʻilgan yiliga bagʻishlab yozilgan deb xulosa qilish joiz.

Muhyi haqida eʼlon qilingan maqolalarda uning tugʻilgan yili 1835, vafoti esa 1911 yil ekanligi koʻrsatib oʻtilgan [146, 111-b; 133, 46-b]. Bu manbalar Muhyining

tugʻilgan va vafot etgan yilini shunday tarzda marsiyasi uning tugʻilgan solnomasiga toʻliq aniqlik kiritadi:

*Vodarigʻo jumodul avval,
Boʻldi betobu notavon Muhyi.
«Irjiʻiy» Haq nidosin eshitib,
Boʻldi «labbayk» deb ravon Muhyi.
Chorumi moh roʻzi seshanba –
Haqqa taslim qildi jon Muhyi.
Yetmish besh yil koʻribon umr
Oxiri ketdi-da qayon Muhyi [9, 52-b.].*

Mazkur marsiyada Muhyining yetmish besh yil umr koʻrganligi, uning 1835 yilda emas, balki 1836 yilda tugʻilganligi yaqqol aks etib turibdi⁴.

Marsiyada Muhyining jumodul avval oyi (islomiy oylarning beshinchisi)da betob boʻlganligi, robiʻul – axir (toʻrtinchi oy)ning seshanba kunida vafot etganligi bildiriladi⁵.

Bu dalillar umumlashtirilsa, shoirning 1836 yilda Gʻazna shahrida tavallud topganligi maʼlum boʻladi. Manbalarda keltirilishicha, Muhyi Gʻazna shahridagi madrasada mudarris boʻlgan otasi qoʻlida xat-savod chiqaradi. Soʻng Hirot madrasalarida qisqa muddat tahsil oladi. Hirotidagi taʼlim darajasidan koʻngli toʻlmagan Muhyi, koʻp oʻtmay Buxoro madrasalaridan biriga kelib oʻqiy boshlaydi. Bu yerda u arab tilini mukammal oʻrganadi. 1850 yillarning oʻrtalarida Buxoro madrasasini tugatib, dastlab Fargʻonaga, soʻngra Andijonga keladi. 1850 yillar oxiriga borib Qoʻqon madaniy muhitiga kelib qoʻshiladi, tez orada shoir va alloma sifatida shuhrat qozonadi. Shuning uchun boʻlsa kerak, uni Qoʻqondagi Mallaxon saroyiga xizmatga olishadi. Muhyi bu yerda ham obroʻ-eʼtibor topadi. Hatto diplomatik ishlarga ham jalb qilinadi. U 1859-1861 yillar orasida xonning maxsus elchisi maqomida bir necha marta Afgʻoniston va Hindistonga boradi. Yoʻl-yoʻlakay Turkiya, Eron singari mamlakatlarni koʻrishga muvaffaq boʻladi. Eʼtiborli jihati, u safar chogʻida qayerda atoqli olim yoki qalam sohibi borligini eshitsa, darhol uning huzuriga borib suhbat quradi. Albatta, shoir xizmat yuzasidan kezib chiqqan shaharlar xususida tuygʻulari, kuzatuvlari aks etgan sheʼrlar ham bitadi. Shulardan biri hozirda Pokiston hududidagi Lohur shahri taʼrifi xususidagi «Dar sifati shahri Lohur ba tariqi badiha gufta shuda bud. Dar shahri Lohur» sarlavhali sheʼridir⁶.

Mallaxondan keyin taxtni egallagan Xudoyorxon hukmronligining uchinchi davrida ham Muhyi saroyning eʼtiborli kishilaridan biri edi. Xonning valiahd farzandi Nasriddinbek Andijon viloyatiga hokim etib tayinlangach, Xudoyorxon oʻgʻliga nazm va nasrdan taʼlim berishni Muhyiga topshiradi. Yillar oʻtib, Nasriddinbek Muhyi saboqlari natijasida noziktaʼb shoir va nosir boʻlib yetishadi.

XIX asrning 70-yillardan boshlab Qoʻqon xonligida oʻzaro nizolar, qoʻzgʻolonlar avjiga chiqadi. Shunday bir tahlikali vaziyatda, 1874 yil oʻrtalarida

⁴ Адибни 1836 йилда туғилган деган фикрнинг тўғри эканлигини Ш. Юсуповнинг Мухйи ҳақида эълон қилган кейинги маълумотларига таянган ҳолда ҳам эътироф этишимиз мумкин [85].

⁵ Бу эса шоирнинг ҳаёти сўнгида бир йилдан ортиқ хаста ётганлигини англатади.

⁶ Маъноси: Лоҳур шахрининг сифатида бадихатан айтилди. Лоҳур шахрида

Muhyi hajga jo'naydi va 1875 yil yanvar oyida haj marosimini ado etib, qaytishida bir necha sharq mamlakatlarini ko'rib, yil oxirida yana Qo'qonga qaytib keladi. Bu paytda, ya'ni 1875 yilning yozida Xudoyorxon Turkiston general-gubernatori fon Kaufmanning hiylasi bilan Orenburgda uy qamog'ida ushlab turilgan edi. Xondan so'ng taxtni egallagan valiahd shahzoda Nasriddinxonni soxta Po'latxon yenggan va u Mahram qal'asida jon saqlashga majbur bo'lgan edi. Shogirdi tang ahvolda ekanligini eshitgan Muhyi darhol Nasriddinxon huzuriga boradi va uni saroydagi obro'li kishilar bilan aloqa o'rnatishga hamda 1876 yil yanvar oyida Qo'qonga taklif etib, taxtni qayta egallashiga ko'maklashadi.

«Tazkirai Qayumiy»da Muhyini mazkur munosabat bilan Nasriddinxonga atab bitgan masnaviysi mavjudligi aytib o'tilgan. Mazkur masnaviy Muhyining forsiy devoniga kiritilgan. Masnaviy avvalida shoir shunday yozadi: «Ittilo' bodki, in masnaviyro vaqtiki g'ufron panoh ʔannati oromgoh Sayyid Muhammad Nasriddinxoni marhum az huʔumi yog'iyoni shum az Xo'qand baromada chand muddati dar Xo'ʔand va Mavze'i Mahram istoda bud. Va Fulod nomi qirg'izi badnihod dar Marg'inon ma'a qirg'izon otashi bedod va xunreziyu tug'yonro afro'xta bud. Faqir Muhyi dar on ayyom az safari sa'odat azmi baytulloh muroʔe'at namuda meomadam. Xoni mazkurro dar mavze'i Mahram diyda budam. Dar sanai 1292-h.» [13, 211-b.].

Tarjimasi: Xabar shuki, bu masnaviy g'ufronpanoh, jannati oromgoh, marhum⁷ Sayyid Muhammad Nasriddinxon shum raqiblarning hujumlari bois Xo'qanddan chiqib, bir necha muddat Xo'jand qal'asidagi mahramda turgan vaqtida yozildi. Bu payt Fulod ismli badfe'l bir qirg'iz Marg'ilonda qirg'izlar bilan birgalikda xunrezlik, tug'yon va zulm olovini alangalatgan edi. Faqir Muhyi bu vaqtda saodat safari bo'lmish Baytulloh ziyoratidan qaytgan edim. Kelib, xonni Mahram mavze'ida maxfiy ko'rdim. Bu 1292 hijriy (1875 milodiy) yilida sodir bo'lgan edi⁸.

Masnaviyda Nasriddinxon Xusravi zarrinkuloh, sarvari ehsonpanoh, sayyidi olijanob, zillullohi xitob, duri daryoyi saxo, gavhari koni ato, qiblai ahli kamol, marja'i arbobi hol, jomi'i fazlu karam, sohibi johi hasham, sarvi bog'i saltanat, charog'i nurafzoyi saltanat, oftobi mulki din, zebbaxshi masnadi toji nigin, deya yuksak sifatlar bilan e'zozlanadi. Masnaviy so'ngida shoir shunday deb yozadi:

*Baxtu davlat bo tu budandi g'ulom,
Dar sipehr sarvari budat maqom.*

*To ʔavod ham tark kardi mulku ʔoh,
Be tu yakson taxtu, sarson shud kuloh.
Podshoho, rahm kun bar olame,
Be ʔamolot olame dar motame.
Be shukuhāt saltanat vayron bud,
Be vuʔudāt mamlakat hayron bud [13, 211-212-b.].*

⁷ Муҳйи маснавий аввалидаги ушбу дебочани маснавий ёзилганидан анча кейин, Насриддинхон вафотидан сўнг ёзган кўринади. Шу сабаб маснавийда хон мархум, дея тилга олинган.

⁸ Муҳйи ижодида алоқадаор манбалардан олинган бу ва бундан сўнг келадиған форсча ва арабча матнлар муаллиф томонидан таржима қилинган.

Chunonchi, Qo‘qon adabiy muhitining yetakchi tadqiqotchilaridan biri, taniqli olim Sh.Yusupov ham bu masnaviy yaratilgan vaziyat xususida Muhyining dastnavis bayozidagi quyidagi ma‘lumotga alohida e‘tibor qaratadi: «Bu masnaviy qo‘zg‘olon vaqti jannatmakon Said Muhammad Nasriddinbek Ho‘qanddin bir necha muddat ketib, Xo‘jand qal‘asida yashirinib turganda yozildi va Fo‘lot ismli qirg‘in keltiruvchi Marg‘ilon shahrida o‘tqa yondirildi. Faqir Muhyi bul vaqtda saodat safaridin Baytullohni ziyorat qilib qaytgan edim. Qaytganimda xonni qal‘ada maxfiy ko‘rdum» [85, 97-b].

SH.Yusupov masnaviy avvalida keltirilgan shoirning ushbu tarixiy ma‘lumotini: «Muhyi voqealarni oradan ancha muddat o‘tgach qayd etgani uchun bo‘lsa kerak, ba‘zi o‘rinlarda noaniqlikka yo‘l qo‘ygan. Chunonchi, soxta Po‘lodxon yondirilmagan, dorga osib o‘ldirilgan», deb izohlaydi [146, 112-b].

Yuqorida Muhyining aynan shu masnaviysi hamda unga sharh sifatida bitilgan tojikcha nasriy bayon bilan tanishgan edik. Tadqiqot jarayonida bayozdagi o‘zbekcha matn devondagi tojikcha matnning tarjimasi ekanligi aniqlandi. Biroq shoir devonda negadir soxta Po‘lodxon (Mulla Ishoq)⁹ning olovda yoqilganligi haqida emas, uning xunrezlik, tug‘yon va zulm otashini alanga oldirib yuborganligi xususida so‘z yuritadi. Bu esa, bizningcha, Muhyining voqealar tafsilotini tarix zarvaraqlarida aks ettirishda beparvo munosabatda bo‘lmaganligini ko‘rsatadi.

Kaufman boshliq chor qo‘shinlari asta-sekin Qo‘qonni ham, xonlikning boshqa hududlarini ham zabt etadilar. Rossiya imperatori Aleksandr II ning farmoniga ko‘ra 1876 yil 19 fevralda Qo‘qon xonligi tugatilib, uning hududida Turkiston general gubernatorligi tarkibida yangi Farg‘ona viloyati tuziladi.

Xonlik tugatilganidan so‘ng yana 35 yil Muhyi Qo‘qonda yashadi. Shu yillar davomida Muhyining istiqomatgohi Qo‘qondagi Sohib Hazrat madrasasining hujralaridan biri bo‘lib qoldi. Shuning bilan birga, Muhyi Andijon shahrini o‘zining ikkinchi vatani sifatida ardoqlar, benihoya yaxshi ko‘rar edi. Balki shu bois ham umri Andijonda poyoniga yetgani bejiz emasdir. 1911 yil bahorida Andijonga, do‘stlari va qadrdonlari suhbatini qo‘msab borgan Muhyining betobligi kuchayib, 4 may kuni (Kamiyning ma‘lumotiga qaraganda [9; 52-b.] robi‘ul-axir oyining seshanba kuni) olamdan o‘tdi. Uning vafoti o‘z davrining ijod ahli qalbini larzaga soldi. Kamiy, Shavkat Iskandariy, Abdullajon Nasimiy, Mavlaviy Yo‘ldosh kabi shoirlar uning vafotiga bag‘ishlab marsiya-tarixlar bitdilar.

Shoir Muhyidan bizgacha bir turkiy va bir forsiy [12, 13] devon, «Tarix»(Tarixi Muhyi Xo‘qandiy) [16] nomli bir nasriy asar, «Majmu‘ati ash‘ori Muhyi» [14], «G‘azaliyoti Muhyi» [15] nomli she‘riy to‘plamlar va shoir tomonidan tuzilgan bayozlar [4, 5] yetib kelgan. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, Muhyi qalamiga mansub ko‘pgina she‘rlar XIX asrning oxiri XX asr boshlarida turli shoirlar tomonidan tuzilgan bayozlarda [4, 5, 6, 7, 8, 9, 10,11] ham uchraydi.

Muhyining hayot yo‘li, shaxsiyati xususida so‘z yuritilganda uning nihoyatda to‘g‘riso‘z, sofdil, shuningdek, mag‘rur inson bo‘lganligi doimo e‘tirof etiladi. U

⁹ Сохта Пўлодхон (Исҳоқ Ҳасан қассоб ўғли) кўзғолони ҳақидаги нисбатан тўлиқ ва тўғри маълумотлар III. Ю с у п о в н и н г «Тарих уммони сирлари». («Шарқ» нашриёти, Тошкент – 2007 й.) номли асарида мавжуд.

huda-behuda mulozamat ko'rsatishni, laganbardorlikni yoqtirmagan. Muhyidagi nozikta'blik, o'zgacha dunyoqarash uning zamondoshi, iste'dodli shoir Muqimiy bilan do'stlashishga, ijodiy hamkorlikka mone'lik qilmagan. Ammo nimagadir sobiq mustabid tuzum Muhyi va Muqimiyni bir-birlari bilan yuz ko'rmas darajadagi raqib qilib qo'ydi. Ularni sinfiy kurash g'oyalari girdobiga tashladi. Biridan salbiy, ikkinchisidan ijobiy qahramon yasadi. Xususan, shoir va dramaturg Sobir Abdulloning «Muqimiy» pesasida [107; 21-40-b, 256-276-b.] Muhyiga nisbatan kommunistik mafkura belgilab bergan g'oyaviy-badiiy talqinlarni uchratish mumkin. Muhyi shaxsiyati buzib talqin etilgan bu pesa xususida Qo'qon adabiy muhitining bevosita shohidi, adabiyotshunos olim Po'lotxon Qayyumov o'zining jiddiy e'tirozlarini bildirgan edi: «... Muhyi suyuqli shoirimiz Muqimiy bilan oralari bir oz sovuqrog'ligi ma'lumdur. Lekin Sobirjon teatrusida ko'rsatgan singari dushmani jon va mol, obro' darajasida emas edi. Kelishmovchilik shundadirki, Muqimiy bazm, tarannum, zavq, safoga moyil tabiatdagi kishidir. Muhyi esa butunlay buning aksi bo'lgan harakterga egadur. Bir madrasada yashadilar, bir davrning ko'zga ko'ringan shoirlaridir. Har ikkalalari ham faqirdurlar. Bir mahallada, bir ko'chada ko'rishadurlar. Muqimiyni ham, Muhyini ham hayotlari Xo'qandda kechdi. Ularning birortasi imom yo muazzin, yo mutavalli, yo mudarris bo'lub biror joyda ishlaganlari ma'lum emasdur [81; 555-b.].

P.Qayyumov yodnomasi asosida aytish mumkinki, Muqimiy va Muhyi harakter jihatidagina bir-birlariga mos kelmaganlar. Tabiiyki, bu hol ikki shoir orasida muayyan kelishmovchiliklarni keltirib chiqargan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Ammo tabiatlardagi nomutanosiblik ularning ijodiy yaqinligiga, bir-biridan ta'sirlanib asarlar yozishiga mutlaqo xalaqit bermagan¹⁰.

Qo'qon adabiy muhitiga oid deyarli barcha manbalarda, Muhyi xususida so'z ketganda, birinchi navbatda uning kamtarligiga, sabru qanoatiga, nuktadonligi hamda donishmandona suhbatiga ishora qilinadi. Shu jihatdan qaraganda Muhyi suhbatdosh qidirgan. Ham ilmda, ham she'riy san'atda nuktadon bo'lganlar huzuriga oshiqqan. Aksincha, orifona suhbatdan ko'ra maishatparastlikka, bazm, o'yin-kulgiga moyil ijodkorlardan o'zini olib qochgan. Alisher Navoiy aytganlaridek,

*Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.*

Binobarin, Muhyining hikmatomiz va go'zal asarlari davrning elitar she'riyat ixlosmandlari diqqatini tortgan, mo'jizakor asarlar darajasida ular tomonidan olqishlangan. Shu sabab ta'sirida Andijon hokimi Nasriddinbek Muhyini «Tojush-shu'aro» unvoni bilan taqdirlagan. Ushbu voqeaga bag'ishlab Jozibxo'ja Rindiy Andijoniy 9 baytdan iborat tarix aytgan. Jumladan, tarixda shunday deyiladi:

*Bul ajab omad az on Rindiyki dar on zamon
«To'qi sari shoiron» ham shuda tarixi on [133; 47-b.].*

Tarjimasi: Rindiyning ajoyibligi shundaki, (تاج سر شاعران) «To'qi sari shoiron» she'r aytilgan yilga moddai tarix bo'ldi.¹¹

¹⁰ Бу ҳақда мазкур бобнинг 2-қисмида батафсил сўз юритилади.

¹¹ Абжад ҳисобига кўра “Тоқи сари шоирон” (تاج سر شاعران) дан (1 - 400, 1 - 3, ج - 60, ر - 200, ش - 300, 1 - 1, ع - 70, ر - 200, 1 - 1, ن - 50) 1286 ҳижрий йил ҳосил бўлади.

Po'lotxon Qayyumov Muhyi siymosini xotirlab, yozadi: «Muhyini butun ko'rgan kishilar arriq, qirra burunli zahil rangli, quvvatsiz holda, o'rta bo'yli, boshida salla va ustida ko'k eski movut, atrofi sariq rangli, jiyakli chakmon kiygan, ichida oq surfdan uzun etib tikilgan tugunli ko'ylak va belbog' ila, bir qo'lining orqasiga tashlab, chakmonini etagidan ko'tarib, ko'chaning chekkasidan sekin ohista borayotgan, xomush, lekin biroz asabiy qiyofada yalg'uz borayotgani ko'zimga ko'rinib turadur. Mana Muhyi shul kishidur, cho'qqi soqolli, ozoda; qo'yin cho'ntagida bir ikkita ro'molchasi bor edi» [81; 554-b.].

Jumladan, Muhyi «Yo'q manda» radifli g'azalida o'z hasbi holini juda aniq ifoda etadi:

*Oh bir g'amgusor yo'q manda,
Qavmu xeshu tabor yo'q manda.
Beqaror bo'lmayin netaykim oh,
Ushbu g'amda qaror yo'q manda.
Bu munofiq jamoalar ichra,
Mushfiqu do'stdor yo'q manda.
Man nechuk aylayin madorokim,
Ey birodar mador yo'q manda.
Chunki tajrid o'ldi manzurim,
Yori shafqatshior yo'q manda.
Balki Adham sifat berib barbod,
Mulku johu diyor yo'q manda.
E'tibor etmadim bu dunyoni,
Lojaram e'tibor yo'q manda.
Man nechuk mayl etayki dunyog'a,
Zarrai ixtiyor yo'q manda.
Muttakou panoh ey Muhyi,
G'ayri parvardigor yo'q manda [13; 326-327-b.].*

Bu satrlarda Muhyi ikki suvratli majoziy ifoda usulidan foydalangan. Birinchi suvratda oddiy hasbi-hol ko'zga tashlanadi. Ikkinchi suvratda u falsafiy tarzda akslanadi. Xususan, «Mulku johu diyor yo'q manda» satrida – mayl va ta'madan ozod bo'lmoq, «dunyo»ga – hirsu nafs makoniga ko'ngil qo'ymaslik, qalbda Haqdan o'zganing bo'lmasligi, ya'ni birlamchi soflikkina hukm yuritishi lozimligi uqtiriladi. Shuning barobarida Muhyi ikkinchi suvratga san'atkorona tarzda ijtimoiy yukni joylashtiradi. Mustabidlik negiziga qurilgan davrni, uning mayl va ta'malari o'tkinchiligini ta'kidlaydi. Ko'ngilni «Mulku johu diyor»ga bermaslikka, qalbni sof va toza tutmoqqa, demakki, o'zlikni yo'qotmaslikka chorlaydi. Atoqli adabiyotshunoslarimizdan biri Muhyining «ustina» radifli g'azalini tahlil eta turib, jumladan shunday yozadi: «O'ziga binosi juda ulug' bo'lib, boshqa shoirlardan oldinda ekanini tubandagi she'rda afsus ila aytadur: (Ustina radifli g'azalida)

*Hayfkim, o'tgan ekan arbobi bozori hunar,
Toli'im ko'rkim, tushubman bazmi vayron ustina.*

Ahli fazllarning qadriga yarasha hurmati bo'lmaganligidan oldingi davrga ham yetib kelalmay shunday bir davrda qolganidan shikoyat etadur. Bazmi vayrona qolganidan afsuslanadur» [81; 556-b.].

Bizningcha, bu o'rinda «hunar bozori»da, ya'ni she'riyat bo'stonida arboblari – uni san'at darajasida o'zlashtirganlar, oliy maqom kasb etganlar qolmaganligidan afsus-nadomat anglashiladi. Taqdirimga qarakim, she'riyat olami vayron bo'libdi. Men bunda begonaman. Bazmi vayronda nima qilishimni bilmayapman – deydi shoir. Muhyi, nazarimizda, o'zining ijod olami tushunilmayotganini bildirib, san'atkorona she'rlari hech kimga keraksizligidan armon qiladi.

Biroq bu fikrlar Muhyining ijodkor zamondoshlarini tan olmasligini isbotlay olmaydi. G'azalda shoirning davrga nisbatan munosabati ham, o'z shaxsiga nisbatan ayovsiz xulosasi ham birdek qalqib turibdi. Chunki Muhyi hamisha orif zotlarning suhbatiga oshiqqan. Do'stu qadrdonlarini doimo ko'klarga ko'tarib alqagan. Ular bilan hamdard, hamnafas bo'lishga intilgan. Tevarak atrofda kechayotgan voqealardan xalq bilan birga aziyat chekkan, iztiroblarini qalban his etgan.

«Muhyi o'zi e'zozlagan, iste'dodiga tan bergan ko'plab qalam sohiblari qarshisida nihoyatda xokisorlik bilan ta'zim bajo etadi, ular xususida o'quvchi qalbini zabt etadigan zo'r fikrlar aytadi. Birgina misol: shoir Tajalliy haqida «Tarixi Muhyi Xo'qandiy»dan quyidagilarni o'qiymiz: – Janobi sayyid avlod Husaynixon Dehlaviy taxallusi Tajalliy... Hozirda Xudoning panohida salomatdur. Hozir bul zotg'a barobar keladigan shoir butun olamda ko'rinmaydur va eshitilmaydur, bunday shoir avvalda ham bo'lmagan, keyin ham bo'lmaydur» [146; 126-b.].

Muhyi faol ishtirok etgan Qo'qon adabiy muhitida u yoki bu ma'noda she'riy majlislar haqida so'z borganda, aksariyat hollarda dastlab Muhyi nomi tilga olinadi. Akademik Ko'r o'g'li «O'zbekskaya literatura» asarida Muhyi, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Nisbatiylarning tez-tez majlislar o'tkazib turishganligini, unda qizg'in bahsu munozaralar avj olganligini ta'kidlab o'tadi [41; 115-b.].

Haqiqatan, Muhyi tevaragida zamonasining peshqadam shoirlari to'plangan edilar. Muhyi bular orasida eng nuqtadoni, she'riy ilmlar allomasi bo'lganligini e'tiborga olsak, u bu davralarda ma'lum ma'noda xolis hakamlilik vazifasini ham o'taganligi ayonlashadi.

Qo'qon adabiy maktabining betakror va hassos shoiri Furqat 24 yoshida Xo'qandning fozil kishilari davrasiga qo'shilganini xotirlab, shunday yozadi: «...Chun yoshim umr shabu ro'zida yigirma to'rt shumoriga yetdi, ul vaqt Xo'qand viloyatidagi fozil va rasotab' kishilar birlan ittihad aylab, alarning suhbatidin ko'p bahralar topdim va asr shuarolarikim, chunonchi Mavlono Muhyi va Mavlono Muqimiy va Mavlono Nisbatiydurlar, hamisha majlis bunyod aylab zodai tab'larimizdin mushoira qilur erdik va bir g'azalda tatabbu' kurguzub bir mazmun har nav' ifoda topar erdi. Goho hamd gulshanidin gul uzub, gohi na't naxlistonidin samarchin bo'lur erduk. Va ba'zi vaqt ishq tavsifi va husn ta'rifida g'azal mashq aylab va gohi qadimiy shu'arolar devonlaridin bir sho'x g'azalni tofib, anga har qaysimiz alohida muhammas bog'lar erduk» [76; 36-b.].

Ta'kidlash lozimki, Furqat Muhyi ijodiga doimo alohida ehtirom va e'tiborli munosabat ko'rsatib kelgan. Ko'p o'rinlarda unga ijodiy ergashgan ham. Tadqiqot jarayonida Muhyi va Furqat ijodida ruhan yaqinlik borligiga amin bo'ldik. Qolaversa, Muhyi va Furqatning bir-birlariga qilgan tatabbu'lari ijodkor do'stlarning nafis majlislarida yaratilgan bo'lishi ham mumkin. Xususan, ularning quyidagi tatabbu'lari diqqatga sazovordir:

- Muhyi:** *Orazing bog 'i jahonda bir guli ra 'noi noz,
Bo 'ldi bu vajh ila zohir olama siymoi noz. [13; 278-b.]*
- Furqat:** *Ko 'zlaring har go 'shasi bir manzili ma 'voyi noz,
Qoshlaringni hamligi ham boisi imoyi noz [109; 87-b.].*
- Muhyi:** *Muncha ham ey, guluzorim, qapqarodur ko 'zlaring,
El gumon aylar muqarrar surmasodur ko 'zlaring [13; 296-b.].*
- Furqat:** *1. Muncha zolim bo 'lmish ul xunrez tarso ko 'zlaring,
Kim solur islom elig 'a sho 'ru g 'avg 'o ko 'zlaring [109; 61-b.].*
- 2. To 'kkali jallod erur ishq ahlidin qon ko 'zlaring,
Lablaring jonbaxshu ammo ofatijon ko 'zlaring [109; 61-b.].*
- Muhyi:** *Qaysi gulshanni saningdek bir guli ra 'nosi bor,
Qaysi bir gulni maningdek bulbuli shaydosi bor [13; 262-b.].*
- Furqat:** *Ul paridek qaysi dilbarni ruxi gulguni bor,
Ham tishidek qaysi daryoni duri maknuni bor [109; 187-b.].*

Umuman olganda, Muhyining hayoti va ijodiy faoliyatini ikki qismga bo'lib o'rganish va har bir qismda o'ziga xos tarixiy, siyosiy-ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqib xulosa chiqarish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shoir hayoti va ijodiy faoliyatining birinchi qismi shoirning Hirot va Buxoro madrasalarida tahsil olishi, Qo'qonga kelishi, olgan ilmlari, she'riy iste'dodini bu yerdagi boy adabiy muhit ta'sirida kamolga yetkazishi, saroy xizmatiga kirishi, turli mamlakatlarga safarga borishi – chorizm istilosiga qadar bo'lgan davrni qamrab olsa, ikkinchi qism istibdod iskanjasida, 35 yil Qo'qondagi Sohob Hazrat madrasasining hujralarida yashab, faol ijodiy faoliyat yuritgan davrni o'z ichiga oladi.

Bu davrlarni esa quyidagicha izohlar bilan belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Muhyi murakkab va chigal ijtimoiy-siyosiy muhitda yashadi. Arbob sifatida ushbu muhitning barcha voqea va hodisalarida faol ishtirok etdi.

2. Muhyi shoir sifatida Qo'qon adabiy muhitiga kelib qo'shilganidan so'ng tanildi. Yetuk ilmiy salohiyati, shoirlik iste'dodi bilan Qo'qon ziyolilari orasida obro' qozondi.

3. Davrning mohiyati uning qalb ko'zgusida aks etdi. Xalq boshiga tushgan ko'rguliklar – zulm, sitam, a'yonlarning nobakorligi, yurtning inqirozga yuz tutishi, mustamlakaga aylantirilishi, o'kinch, nadomad, qayg'uga to'la asarlarni yozilishiga turtki berdi.

4. Muhyi jamiyatni va xalqni kamolotga eltuvchi yagona yo'l – ma'rifat ekanligini anglab yetdi. Qo'qon adabiy muhitining ma'rifatparvar shoiri va ziyolisi sifatida hayoti va faoliyati davomida ushbu g'oyani el ichiga yoyishga, ommalashtirishga xizmat qildi.

5. Muhyi Qo'qon adabiy muhitining nafis majlislarini uyushtirishda, tashkillashtirishda bosh-qosh bo'ldi. Natijada Muhyi, Furqat, Zavqiy, Muqimiy kabi

boshqa shoirlarni o'z tevaragiga birlashtirgan ijodkorlarning ushbu guruhi ma'lum bir bosqichda milliy adabiyot taraqqiyoti mezonlarini belgilab berdi.

6. Muhyi Qo'qon adabiy muhitida ikki tilda (Fors-tojik, o'zbek) devon yarata olgan yagona ijodkor bo'lib qoldi. Uning bu devonlari Qo'qon adabiy muhitining yuksak yutuqlari sirasidan o'rin oldi.

7. U o'z shaxsiyati bilan xalq orasida e'tibor topdi. Xususan, go'zal axloqiy sifatlari (kamtarligi, olijanoblighi, odobi, andishasi) zamondoshlarini u bilan do'stlashishga, undan ibrat olishga undadi.

8. Muhyi o'z zamonasining iste'dodli shoiri edi. Shu bois uning ijodi shaxs va zamon munosabatlarining san'atkorona ifodasiga aylandi.

Shoir ijodida mumtoz adabiyot an'analari

O'zbek mumtoz adabiyoti an'analari tarixi Kultegin bitiklari-yu Yusuf Xos-Hojibning «Qutadg'u bilik» asarigacha mavzuni hikoya qilib berish, bayon etish uslubidan takomilda aruzning cheksiz san'at turlarigacha o'zlashtirish jarayonlaridan o'tib, mazmunan va shaklan boyib bordi.

Agar o'zbek adabiyotining eng gullagan davri XV asr ekanligini va bu davrda adabiy an'analarni barqarorlik kasb etganligini hisobga olsak, uning asosiy mezonini devon tuzish an'anasi va uning strukturaviy qonun-qoidalari – poetik janrlardagi uzviylik, merosiylik, an'anaviylik jihatlari bilan birikkan holda muayyan butunlik hosil qiladi.

Binobarin, XIX asr o'zbek adabiyotida, xususan, uning tarkibiy qismi – Qo'qon adabiy muhitida ham devon tuzish an'analari munosib tarzda davom ettirildi. Muhitning ko'plab iste'dodli ijodkorlari o'z devonlarini yaratdilar, uni mavjud an'analarni asosida tartibladilar. Shuningdek, XIX asr o'zbek adabiyotida tazkiranavislik, nazirago'ylik, qasidago'ylik, zullisonaynlik, muvashshah va hajviya bitish, diniy-tasavvufiy ruhda asarlar yaratish an'analari ham keng miqyosda namoyon bo'ldi. Bulardan, ayniqsa, hajviya bitish an'anasi o'ziga xos uslubiy yangiliklar bilan takomillashtirildi, uning o'tkir ijtimoiy ohanglari ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan talqinlari ko'paydi.

Xususan, devon tuzishning Alisher Navoiy meros an'alariga xos bo'lgan unsurlar – hamd-na'tning kirishda aks etishi, alifbodagi barcha harflar bilan tugallanuvchi g'azallarning bo'lishi, janrlarning tadrijiy joylashtirilishi va boshqa jami besh xususiyatdan iborat tizim badiiy jozibalarning kompozitsion yaxlit asar holatiga keltirish qurilmasi sifatida behad qadrli ahamiyat kasb etdi.

Adabiyotshunos Yo.Ishoqov Alisher Navoiyning etalon darajasiga ko'tarilgan «Xazoyin-ul maoniy» devonida 16 ta janr mavjud ekanligini ta'kidlaydi [37; 19-b.]. Bu borada XIX asr Qo'qon adabiy muhiti vakillari, aytish joizki, she'riyat mulkining sultoniga o'z imkoniyatlari doirasida ergashishgan. Ba'zi hollarda Alisher Navoiy namunaviy qoidalariga nisbatan to'liq rioya qilish imkoniyatlarini topolmaslik, yoki unga nisbatan erkinroq munosabat tarzida yondashish ko'zga tashlanadi. Chunonchi, ana shunday erkin yondashuv tadqiqot ob'ekti – Muhyi ijodida ham kuzatiladi.

Muhyi devon tuzish an'anasini o'z ijodida yorqin aks etishini nafaqat istagan, balki bu sohada astoydil harakat qilib, unga erishgan ijodkordir. Muhyining o'zbek tilidagi devoni an'anaviy tarzda hamd bilan boshlanadi, so'ng na't, munojot she'rlari

bilan davom etadi. Aynan munojot va na'tlarda shoirning falsafiy qarashlari asar ruhining yetakchi leymotivi bo'lib gavdalanadi. Ma'lumki, diniy-tasavvufiy g'oyalar davr jamiyati hayotida o'chmas iz qoldirgan. Bob muqaddimasida ta'kidlaganimizdek, o'zaro nizolar adolat mezonlarining kuchsizlanishi davrning ijtimoiy vaziyatini tahlikali va notinch marom olishiga olib kelgan. Shu bois mavjud ijtimoiy-siyosiy muhitdan qoniqmaslik, norozilik tuyg'ularini ifodalashda, undan qutilishning yo'llarini qidirishda nisbatan progressiv aqidalarni o'zida mujassam etgan tasavvuf g'oyalari bitmas-tuganmas najot manbai bo'lib xizmat qilgan.

Xususan, Muhyi ham devonidagi munojotlar orqali o'z xulq atvori va a'molidan noroziligini, o'zidan qanoatlanmaslikni va shunday ekanligidan nadomatini hissiyotli tarzda ifodalab, bezovta qalbining manzaralarini chizadi.

*Asiri nafs shaytonman, Ilohi, manga rahm ayla,
Havoyi nafs uchun qolg'on damodam yuz balolarg'a.
Agar avf etmasang jurmimni o'z lutfing bila, yo Rab,
Qolurman begumon mahshar kuni qattig' jazolarga.
Qo'lumdin kelmadi hargiz savobu to'atu tavfiq,
Sabab shul zor yig'larman jamii mojarolarg'a.
Saharlar yig'ladim doim duo ta'sirini bilmay,
Kel ey ko'ngil tavajjuh qil budam ahli du'olarga.
Ajab yo'q murshidi komil sani ham avliyo qilsa,
Ki oson xokni zar qilmoq valiyu porsolarga. [13; 250-b.]*

Qisqasi, Muhyi komillikka yetishishni istaydi. Piri komilga murid tushib, kamolot sari yuzlanishni, oriflar hukm surgan manzilga (jamiyatga) yetishni orzu qiladi.

Muhyi o'zbek, tojik va qisman arab tillarda (uning shiru shakar, shahdu shakar san'ati asosida bitilgan g'azallari nazarda tutilmoqda) ijod qildi. Iste'dodli zullisonayn ijodkor sifatida tanildi. Binobarin, zullisonaynlik an'anasi ham badiiy so'z san'ati singari juda ham qadimiy tarixga ega ekanligini ta'kidlash lozim. Zullisonayn an'ananing paydo bo'lishi va shakllanishi mintaqadagi xalqlar o'rtasidagi aloqa va hamkorlik munosabatlarining vujudga kelish jarayonlariga borib tutashadi. Chunonchi, xalqlar, mamlakatlararo bahamjihat munosabatlar, iqtisodiy-siyosiy muomala, savdo-sotiq ishlari qanchalik keng avj olsa, madaniy aloqalarning ko'lami ham shunchalik kengayadi, ravnaq topadi. Shu bilan bog'liq ravishda til, turmush, adabiyot va san'atda ijobiy ma'nodagi yangiliklar ko'payib boradi.

«O'zbek adabiyotining ravnaqiga fors-tojik adabiyoti vakillari hissa qo'shib kelganidek, fors-tojik adabiyotining mazmunli sahifalarini bunyod qilishda o'zbek adiblari ham munosib ulush qo'shib kelganlar. Bu, o'z navbatida, adabiyot olamida zullisonaynlik an'anasining shakllanishiga olib kelgan. O'zbek va fors-tojik adabiy aloqalari tarixida ushbu an'ana g'oyat mazmunli sahifalarni tashkil etadi [30; 66-b.].»

Mumtoz adabiyot an'alarining muhim va noyob jihatlaridan biri adabiy ta'sirdir. Shunisi harakterliki, adabiy aloqa va o'zaro ta'sirning voqe bo'lishida qator ideologik va estetik faktorlar qatnashadi. Ana shunday g'oyaviy va estetik ildizi bo'lgan adabiy aloqagina mustahkam, uzoq yashovchi va ayni zamonda, chinakam

o‘zaro ta’sir uchun zamin yaratish imkoniga egadir¹². Bunday adabiy aloqa va o‘zaro ta’sir ikki mamlakat, alohida olingan regiondagi adabiyotlar uchun foyda keltiradi, ularda chinakam ijodiy muhitning rivoji, istiqbol ufqlarining kengayishi, umuminsoniy g‘oyalar bilan sug‘orilgan yuksak mahoratli asarlarning vujudga kelishida ilhombaxsh turtki bo‘lib xizmat qiladi [30; 65-b.].

Sharq she’riyatida adabiy ta’sir tushunchasining mazmun va mohiyati juda ham ulkan. Shu bois uni an’analar an’anasi deyish ham mumkin. Birgina «Hamsachilik» an’analaridagi o‘zaro ta’sirning miqyosiga nazar tashlasak, fikrimiz o‘zining yaqqol isbotini topadi.

Binobarin, XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan shoirlarimiz ijodida ushbu o‘zaro ta’sir an’anasining poetik ko‘rinishi – nazirago‘ylik shitob bilan rivojlandi desak, ayni haqiqat.

Qo‘qon adabiy muhiti vakillariga ayniqsa, Navoiy va Fuzuliy ijodi ulkan ta’sir o‘tkazgan. Voqean, Muhyi adabiy merosida Navoiy ta’sirida bitilgan she’rlarning borligi uning buyuk shoir ijodidan oziqlanganligi, ruhlanganligini tasdiqlaydi. Masalan, Muhyi hammom tasviri yoritilgan bir qit’asida qo‘yidagicha yozadi:

*Muhyi, hammom makonest z-bahri poki,
Mard onastki, az xabis tabiat shud bok.
G‘azabi Haq palidi yaki z-xabis tiynat,
Pok doxil shuda hammom baroyad nopok [13; 192-b.].*

Ma’nosi: Hammom jismni poklash makonidir. Haqiqiy inson unga kirib ham jisman ham ruhan poklanib chiqadi. Haqning g‘azabidan qo‘rqmagan, riyokor kimsa esa, unga poklik istab kiradiyu nopok holda chiqadi.

Muhyining mazkur qit’asi mazmunan Navoiyning quyidagi qit’asini eslatadi:

*Kamol et kasbkim olam uyidin,
Senga farz o‘l mag‘ay g‘amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o‘tmoq biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq.*

Umuman olganda, hammom tasviri misolida falsafiy fikrlarni ifodalash sharq shoirlari ijodida tez-tez kuzatiladi. Muhyining bu mavzudagi qit’alari Alisher Navoiy ijodi ta’sirida yozilganligi aniq-ravshan ko‘rinib turibdi. Fikrimizni «Hayratul-abror» dostonidagi Imom Faxr Roziy hikoyasi misolida ham isbotlashga harakat qilamiz. Dostonda Navoiy bu tasvirni Sulton Muhammad Xorazmshoh va Imom Faxr Roziylarning savol javobi orqali tasvirlaydi:

*Bor edi hammomda bir kun imom,
Shah dog‘i hammomg‘a qildi xirom.
Bir-biri birla bo‘lubon muxtalit,
Shoh savol etti bo‘lub munbasit:
«K-ey bo‘lub el ilming ila bahravar,
Ayt qiyomat ishidin bir xabar.
Kim necha ul kunda malol o‘lg‘usi,
Har kishida anda ne hol o‘lg‘usi?»*

¹² К о н е в И. Особенности болгаро-балканских литературных взаимоотношений в период национально-освободительного движения СИСЛ. Москва: – 1973, ст. – 208.

*Shoh chu bu nuktani qildi savol,
Bo'yla javob aytdi sohib kamol:
«Kim sangakim hashr so'zi kom erur,
Bil anga monand bu hammom erur». [99; 124-125-b.]*

Muhyi qit'asida ham Navoiy hikoyotidagi kabi hammom mahshar maydoniga o'xshatiladi:

*Hammom emish nishona mahsharg'a ey birodar,
Kim andagi xaloyiq jumla erur barobar.
Ilmu amaldin o'zga yo'qdur rafiqu yoring,
Ibrat uchun bu so'zni Muhyidin ayla bovar. [13; 342-b.]*

Shoirning fikricha, hammom bilan mahshar maydonining o'xshash tomoni shundaki, har ikkisida ham insonlar libosu hashamsiz holda bo'ladilar.

Hikoyatda mahshar kunidagi vahshatlardan toju taxt, mol-dunyo, boylik emas, balki ilm va uni egallash yo'lidagi amallarning mehnatu mashaqqati qutqarishi aytiladi. Navoiy ilmning mol-dunyodan ustun turishini imom va shoh misolida quyidagicha tasvirlaydi:

*Anda gado shah bila yakson bo'lub,
Shohu gado borchasi uryon bo'lub.
Johu jalol ahli seningdek bari
Ichkariyu boru yo'qi tashqari.
Ilmu amal ahli meningdek tamom,
Harne yig'ib, hamrah etib vassalom.
Yo'q sanga sultonliq ila sud ko'p,
Lek manga ilm ila behbud ko'p»[99; 125-126-b.].*

Hikoyatda tasvirlanishicha, Xorazmshoh hammomga toju taxt, molu dunyo, libosu hashamlardan xoli holda kiradi. Faxr Roziyning boru yo'q davlati esa ilm edi. Bu sadoqatli davlat imomdan hatto u hammomdalik chog'ida ham ajralmadi.

Navoiyning hikoyatida asosiy diqqat-e'tibor ilm foydasiga, uning fazilatiga qaratiladi.

*Ilm, Navoiy, sanga maqsud bil,
Emdiki ilm o'ldi, amal aylagil.*

O'z navbatida Muhyi qit'asida ham mahshar kuni kishining hayotlik chog'ida olgan ilmi va qilgan yaxshi amallaridan boshqa himoyasi qolmasligi eslatiladi va shu yo'l orqali ilmu urfon ulug'lanadi.

Muhyi ijodida, ta'kidlaganimizdek, ozar shoiri Fuzuliyning ham ta'sir ko'lami keng. O'zbek adabiyoti tarixida, umuman, Fuzuliy XVII asr va undan keyingi o'zbek adabiyoti tarixida salmoqli mavqe egallaydi. Taniqli adabiyotshunos To'xtasin Jalolov bu haqda shunday deb yozadi: «Fuzuliy ulug' bobomiz Navoiydan ko'p ta'sirlanganidek, o'z navbatida o'zbek adabiyotiga zo'r ta'sir ko'rsatgan san'atkoridir. Hech bir shoir o'zbek klassik adabiyotiga Fuzuliychalik kuchli ta'sir ko'rsatgan emas. Buning uch sababi bor: birinchisi – Fuzuliy tilining o'zbek tiliga yaqinligi; ikkinchisi – Fuzuliyning xushlafz, shirin zabonligi; uchunchisi – Fuzuliy asarlarining badiiy barkamolligi... O'zbek shoirlari qariyb ikki asrdan beri Fuzuliy asarlariga maftun bo'lib keladilar. Bizning shoirlarimiz uchun Fuzuliy badiiy balog'atning simvolidir. Shunga ko'ra, XVIII va XIX asrlar davomida yashab ijod etgan ko'p

zabardast shoirlar Fuzuliy gʻazallariga muhammaslar bogʻlaganlar. Bu anʼanani Furqat, Muqimiy, Zavqiylar davom ettirganlar»¹³

Aytish lozimki, Muhyi ham salafdoshlari qatorida Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Anvari, Amiriylar taʼsiri ostida koʻpgina asarlar bitgan. Zamondoshlari Fazliy Namangoniy va Muqimiylardan ham maʼlum darajada taʼsirlanib ayrim ijod namunalarini yaratgan.

Shu oʻrinda Muhyining Fuzuliyga ergashib, uning vazni va qofiyasini, baʼzan esa radifini ham saqlagan holda yozgan gʻazallarini qiyosan koʻrib chiqamiz.

Sarvi arʼardurmu yo shamshod yo tubomudur,

Fitnai oxir zamon yo ul qadi zebomidur.

Zuhradur yo mushtari yo oftobi xovariy,

Subhi sodiq yo magar ul orazi raʼnomidur. [13; 260- 261-b.]

- v - - / - v - - / - v - - / - v ~

Muhyi

Goʻshai abroʻlaringda chashmi jodularmidur?

Yoʻqsa kirmish yoya tirandoz hindularmidur?

Iqdi shabnamdur guli tar uzra yoxud har taraf,

Qatra-qatra terdan ul ruxsor uza suvlarmidur? [108; 134-b.]

- v - - / - v - - / - v - - / - v ~

Fuzuliy

Fuzuliy yorning qoshi ostidagi sehrar koʻzni yoyning ichiga joylashib olgan oʻq otuvchi hinduga, yor yuzidagi terni guli tar (hoʻl, nam gul) uzra toʻkilgan shabnamga oʻxshatadi. Baytlarda bira toʻla ikkita sanʼatni – **tajohulul-orif** (1-baytda: chashmi jodularmidur, tirandoz hindularmidur; 2-baytda: shabnammi, terdan hosil boʻlgan suvni) hamda **tashbih** (1-baytda: qosh, koʻz – kamon; koʻz qorachigʻi – oʻq otuvchi hindu; 2-baytda: gulga qoʻngan shabnam – yor yuzidagi ter) sanʼatlarini mohirona qoʻllaydi.

Oʻz navbatida Muhyi ham Fuzuliyga ergashib, baytlarni **tajohulu-l-orif** va **tashbih** sanʼatlari bilan bezagan. Shoir yorning qaddini birinchi misrada sarvi arʼar, shamshod, tubi daraxtlariga oʻxshatsa, ikkinchi misrada oxir zamon fitnasiga; yor yuzini bir oʻrinda zuhra, mushtariy (yulduz), quyoshga oʻxshatsa, yana bir oʻrinda subhi sodiqqa oʻxshatadi.

Jumladan, Muhyining boshqa bir gʻazali ham Fuzuliyning keltirib oʻtilgan gʻazali taʼsirida yaratilgan. Muhyi gʻazalni quyidagicha boshlaydi:

Tubiyi bogʻi jinon yo qomati diljoʻmidur,

Zulfi mushkindurmu yo xud sunbuli xudroʻmidur.

Donai tuxmi muhabbat orazing gulzorida,

Zogʻ erur gulzor aro yo xoli anbarmumidur [13; 261-b.].

- v - - / - v - - / - v - - / - v ~

Garchi Muhyining bu nazira (oʻxshatma)larida Fuzuliy gʻazallaridagi qofiyalar (jodularmidur, hindularmidur, suvlarmidur, giysuvlarmidur, loʻʻloʻʻlarmidur, balojoʻlarmidur) dan hech biri ishlatilmagan boʻlsa-da, ularga qofiyadosh soʻzlar (tubimudur, zebomidur, raʼnomidur... diljoʻmidur, xudroʻmidur, anbarmumidur...)ning qoʻllanishi, shuningdek, mazkur ikki gʻazalning ham aynan

¹³ Ж а л о л о в Т. Гўзаллик оламида: мақолалар, адабий тадқиқотлар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 328 б. (310-311-бетлар).

Fuzuliy gʻazali vaznida bitilganligi, qolaversa, Fuzuliyning ham Muhyining ham gʻazallarida boshdan oxir **tajohuli orif** va **tashbih** sanʼatlarining yetakchilik qilishi Muhyining mazkur ikki gʻazali ham Fuzuliy ijodi taʼsirida yaratilganligini koʻrsatib turibdi.

Shoirning Fuzuliy ijodi taʼsirida yozilgan quyidagi gʻazallarida esa yuqorida taʼkidlangan xususiyatlardan tashqari radiflarning ham aynan saqlaganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan:

*Ala olur kezajak ul guli raʼno etagin,
Vahm edarkim, tuta bir oshiqi shaydo etagin.
Bildikim, xoki rah oʻldum etagin tutmoq uchun,
Koʻtarar, dushmakka qoʻymaz yera amdo etagin [108; 250-b].* **Fuzuliy**
*Dutmang ey xalqi jahon shohidi dunyo etagin,
Duta sizlarga na hojat gʻamu gʻavgʻo etagin.
Vermangiz dilni yana zulfi parishonlargʻakim,
Oqil ersang na munosib duta savdo etagin [13; 313-b].* **Muhyi**

Koʻrinadiki, gʻazallarning nafaqat qofiyasi va vazni, balki mavzusi, gʻoyaviy-falsafiy xususiyatlari, hatto radiflari ham bir xil.

Muhyi ijodida Fazliy Namangoniy gʻazaliga tatabbuʼ tarzida bitilgan gʻazallar ham bor. Quyida ana shunday gʻazallarning biridan parcha keltiramiz:

*Kuyub oʻldugʻum bani shomtek oʻshal oftob jamoladur,
Na qamar, na mehru na sarvi gul, na suman, na badru hiloladur.
Na nishoti bogʻu na boʻston, na dimogʻi bazmu na gulsiton,
Hama vahshatim bani bul zamon bu shoʻxi chashm gʻizoladur [13;264-b.].*
*Qizigʻi, Muqimiy Muhyining ushbu tatabbuʼidan taʼsirlanib,
Xiradimni gʻoratin aylagan yuzi oyu sochlari holadur,*

Bu chaman aro na sanavbaru na suman bila guli loladur – bayti bilan boshlanuvchi gʻazal bitgan. Bundan taʼsirlangan Muhyi ham Muqimiyning «Kuydurur» radifli gʻazaliga murabba (**3-ilova**) bogʻlagan. Ushbu murabbaʼ xususida Sh.Yusupov shunday deydi: «Muhyi ham oʻzi hurmat qilgan ijodkor doʻstidan qarzdor boʻlib qolmadi. Bunga «sizdan ugina, bizdan bugina» qabilida ish tutish zarurati emas, balki Muhyi ham Muqimiyning sheʼriy kashfiyotlaridan zavqqa toʻlganligi, oʻz hammadrasa doʻstining isteʼdodiga tan berganligi sabab edi» [146; 113-b.].

Shu oʻrinda, Sh.Yusupovning fikriga qoʻshilgan holda, yana bir jihatni alohida ajratib koʻrsatishni istar edik. Sheʼriy kashfiyot zavqi har qanday shoir ijodiga kuchli turtki berishi barobarida, uning yangi qirralarini yuzaga chiqarishga koʻmaklashadi, mahoratini charxlaydi, badiiy koʻnikmalarini yuksaltirishga undaydi. Shunday ekan, adabiy taʼsir jarayonida nafaqat avvalgi davrlar shoirlari, balki zamondoshlar ham ishtirok etishi – uning bir emas, ikki va undan koʻp koʻrinishlarda faol harakatlanishini taʼminlaydi.

XIX asrning II yarmi XX asr boshlarida oʻzbek va fors-tojik adabiyotida hajviyot¹⁴ muhim ahamiyat kasb etdi. «...Oʻzbek demokratik adabiyotida hajviy

¹⁴ Бу давр адабиётидаги сатира жанрининг муҳим жихатлари А. Абдуғафуров, Ғ. Каримов, Х. Мирзозода, Р. Ҳодизода, Р. Муқимов, Ш. Юсупов, Р. Орзибеков каби адабиётшунос олимларнинг асарларида атрофлича ёритилган.

yoʻnalish koʻproq yozuvchilarning poetik ijodida, tojik demokratik-maʼrifatparvarlik adabiyotida esa adiblarning ham sheʼriy, ham nasriy ijodida baravar roʻyobga chiqqan bordi. Boshqacha aytganda, Muqimiy, Zavqiy, Avaz Oʻtarlar koʻproq hajviy gʻazal, hajviy muhammas, hajviy masnaviy, hajviy ruboiy janrlari imkoniyati doirasida ijod etgan boʻlsalar, Ahmad Donish, Savdo, Vozeh, Sadri Ziyo va Hayrat singari tojik adiblari hajviy ruboiy, hajviy gʻazal, hajviy taqlid (parodiya) janrlaridan tashqari tarixiy biografik va hajviy-publitsistik qissa, hikoya, novella singari prozaik janrlar imkoniyati doirasida ham asarlar yozib, oʻz siyosiy-axloqiy va tanqidiy-hajviy aqidalarini ifodaladilar» [46; 360-b.].

Uqtirib oʻtganimizdek, Qoʻqon adabiy muhitida hajviy yoʻnalishdagi asarlar ham koʻp va xoʻp yozildi, uslubiy takomillashdi, davrning qusurlari va nuqslariga nisbatan maʼnaviy-axloqiy munosabatlar pozitsiyasini shakllantirdi.

Aytish joizki, ushbu janrda original va taʼsirchan asarlar bitgan Muqimiy, Zavqiy qatoriga hech ikkilanmay Muhyini ham qoʻshish mumkin. Agar bu borada Muqimiy va Muhyi ijodlarini solishtirib koʻrsak, ikkala shoirning bir-biriga ergashib yozgan ancha-muncha hajviy sheʼrlari borligiga amin boʻlamiz. Masalan, Muhyining turkiy devonida «Asrorqul» radifli hajviy gʻazal mavjud boʻlib, u aruzning ramali musammani maqsur vaznida bitilgan. Xuddi shu radif, shu vaznda bitilgan gʻazal Muqimiyda ham mavjud **(4-ilova)**. Muhyining hajviy gʻazali **(5-ilova)** quyidagi baytlar bilan boshlanadi:

*Ey oʻzingni holatingni bilmagan, Asrorqul,
Bir eshaksan odamiyga oʻxshagan, Asrorqul.
Topmagansan yaxshilarni suhbatini shul sabab,
Ahli fazlu ulm qadri bilmagan, Asrorqul [10; 212-215-b.].*

Gʻazallarda Asrorqul odamiylik xususiyatlaridan yiroq boʻlgan, atrofdagilarga ozor beradigan, befarosat, xudbin bir kimsa sifatida hajv etilgan.

Muhyi ham, Muqimiy ham hajviy gʻazal maqtasini deyarli bir xil mazmunda quyidagicha baytlar bilan yakunlaganlar.

Muqimiy: *Pand erur sanga – Muqimiy – ushbu soʻz hajv aylasam,
Bosh olib ketsang kerak bu shahrdin, Asrorqul [106; 51-b.].*
Muhyi: *Muhyi tanbih ayladi hajv etmadi, gar etsa hajv,
San qocharsan aylabon tarki vatan, Asrorqul [13; 308-b.].*

Shoirilar maqtada taʼkidlanganidek, Asrorqulning barcha kirdikorlarini hajv etmadilar, balki unga pandu (Muqimiy) tanbih (Muhyi) berdilar, xolos. Gʻazallarda Asrorqul nomli shaxs mazammat etilgan boʻlsa-da, nazarimizda, har ikkala shoirning ham asosiy maqsadi bu emas. Hajviyotning asosiy maqsadi oʻzgalarni Asrorqul holatiga tushib qolishdan ogohlantirish, jamiyatni bu kabi tuban, yaramas feʼl atvorlardan tozalashdir.

Koʻrinadiki, Muhyi hajviyotlarida, asosan, biror-bir shaxs yoki ayrim voqea-hodisalar tanqid ostiga olinadi. Shoir oʻz hajviyotlarini shunchaki koʻngil xushlik uchun emas, balki jamiyat uchun zararli illatlarga qarshi kurashish maqsadida bitgan. Fikrimizni shoirning boshqa bir qitʼasi bilan quvvatlaymiz:

*Ayo Tolibi dunyaviy tobakay,
Qilursan bu jiylagʻa ittek shitob,
Qulogʻingga kirgon emasmu magar,*

*Ayo duni beaql, g'aflatmaob,
Sani haqqingg'a aytdilar Mustafo,
Ki dunyo erur jiyfa, Tolib kilob [13; 343-b.].*

Qit'aga shoir «Toshkandlik Tolibboy nomlig' qulchi laim uchun aytdim» deya sarlavha qo'ygan. Sarlavhaning o'ziyoq o'quvchiga hajv etilayotgan shaxs haqida qisqa bo'lsada tasavvur uyg'otadi. Shoir Tolibboyi hajv etar ekan, uni mol-dunyo to'plash ilinjida o'zini itdek xor qilgan kimsaga o'xshatadi. Qit'a nihoyasida o'zining hayot falsafasini, mol-dunyoga bo'lgan munosabatini ifodalagan shoir Payg'ambar (s.a.v.)ning «Ad-dunyau jiyfa» (Dunyo (mol-dunyo) nojosatdir) degan hadislarini iqtibos sifatida keltiradi. Qit'a zahirida undagi ibratli tasvirlardan to'g'ri xulosa chiqarib, to'g'ri yashashga qilingan targ'ibot yotadi.

1891 yilda ro'y bergan «Vektor voqeasi» ko'pgina ijodkorlar qatori Muhyi e'tiboridan ham chetda qolmadi. Shoir bu voqea xususida 19 banddan iborat muhammas shaklida «Dar mazammati Bektur» nomli hajviy she'r yozdi. Bu hajviy muhammas xususida Sh.Yusupov shunday yozadi: «Muhyi hajvining nayzasi asosan Vektorga emas, balki mol-dunyo hirsiga berilib, kechani-kecha, kunduzni-kunduz demay, oromu rohat nimaligini bilmagan, boyligi hech yerga sig'masa ham shariat buyurgan zakotga g'irromlik qilgan, beva-bechoralarga yordamni aslo xayoliga keltirmagan ziqna boylarga qaratilgan» [146; 119-b.]. Muhammasning quyidagi bandiga diqqat qiling:

*Bermay zakoti shar'iy, haj qilmag'on guruha,
Dunyo deb oxiratni yod etmagan guruha,
Arbobi fazl qadrin hech bilmagan guruha,
Rusiydin o'zga elga bosh inmagan guruha,
Javr ayla – berma pulni imkoni bor Bektur.*

Shoir fikricha, haqiqiy aybdor pulni aldov yo'li bilan o'zlashtirib, mol egalarini chuv tushirib o'z yurtiga qochib ketgan Viktor emas, bilaks yeb to'ymas boylardir. Firibgarning bu ishi esa ayni muddao.

Shu o'rinda Muhyi ijodida ko'plab taxmis she'rlar borligini ham alohida ta'kidlash lozim. Bular orasida tab'i xud muhammaslar ham, yoxud o'zga shoirlar g'azallari asosida yozilgan muhammaslar ham bor. Shoirning «Vektor voqeasi»ga bag'ishlangan ushbu she'ri tab'i xud muhammasdir. Xuddi shunday muhammaslardan yana biri shoirning 1902 yilgi Andijon zilzilasiga bag'ishlab bitgan:

*Ta'n aylamang, azizlar, zinhor Andijona,
Haq amri birla bo'lg'on hamvor Andijona,
Qilgan ekan muqaddar Jabbor Andijona,
Doim duoi hayrat darkor Andijona,*

San aylama malomat bekor Andijona – bandi bilan boshlanuvchi muhammasidir. Shoirning ushbu 19 banddan iborat muhammas-ta'rixi «Turkiston viloyatining gazetisi» sahifalarida «Xo'qandlik shoiri nomdor, sohibi iqtidor Mavlono Hoji Muhyi afandining Andijon shahri xususida dilso'zona abiyotlari» sarlavhasi ostida chop etilgan [146; 119-b.].

Muhammas Andijon ahli boshiga tushgan kulfatlarga shoirning hamdardligi izhori tariqasida bitilgan. Unda andijonliklar sabru toqatga, doimo Haq yodi bilan yashashga da'vat etilgan.

Yuqorida zikr etilganidek, Muhyi ijodida o'zbek adabiyoti tarixidagi buyuk shoirlar ta'siri sezilarli ravishda kuzatiladi. Bunday ijodiy ta'sirlar uning Jomiy, Fuzuliy, Anvariylar g'azallariga bog'lagan muhammaslarida ham namoyon bo'ladi. Masalan, Muhyi Jomiyning:

Mane dilxasta har dam bahri on nozik badan meram,

Gah az rangi qabo, gohe z-bo'yi pirahan meram [103;45-b.] – bayti bilan boshlanuvchi g'azaliga quyidagi band bilan boshlanuvchi muhammas bog'lagan:

Nayam shod az gulu gulshan ba xoriy dar chaman meram,

Chu sham'am bo dili so'zon miyoni anjuman meram,

Dar in g'urbatsaro, yoron, na az yodi vatan meram,

Mane dilxasta har dam bahri on nozik badan meram,

Gah az rangi qabo, gohe z-bo'yi pirahan meram. [14;26- b.].

Ma'nosi: Gulu gulshan sayri meni shod eta olmaydi. Hatto chamanda ham xor kishilar kabi yuraman. Men go'yo bir sham kabiman. Yonuvchi qalb bilan anjuman o'rtasiga kirib boraman. Ey, yorlar, menga bu g'urbatsaro (dunyo)da hatto vatan (uy-joy, oshyon) ham yo'q. Men dilxasta oshiq har doim nozik badan (yor) tomon intilaman. Goh uning rangin libosi, goho xushbo'y hidi meni bexud qiladi.

Tadqiqot jarayonida Muhyi Jomiyning «Oyad» radifli g'azaliga ham muhammas bog'laganligi aniqlandi. Muhammasning oxirgi bandi quyidagicha:

Tu on dildori zeboyeki shohon posbonat shud,

Z-ishqat sarkashon oxir chu Muhyi notavonat shud,

Zamin busi darat garchand maxsus shikonat shud,

Hamin bas davlati Qomiy ki xoki ostonat shud,

Gar on izzat nameyobad ki dar silki sagon oyad[14;32- b.].

Ma'nosi: Sen shunday zebo dildorsanki, hatto podshohlar ham sening posboningga aylandilar. Ishqingda esa sarkashlar (bo'yin egmaganlar) ham oxir-oqibat Muhyi kabi notavon bo'ldilar. Eshiging tuprog'iga ta'zim qilganlar, sening xos qullaringga aylanar ekan, boru yo'q davlatim (xonumonim) ostonang tuprog'iga aylanganining o'zi menga (Jomiyga) yetarlidir. Chunki itlar orasida yashashlikni o'ziga odat qilib olgan kimsa hech qachon izzat topa olmaydi.

Shuningdek, Muhyi ijodida Jomiy g'azallaridan tashqari Fuzuliyning «Aylar orzu», Anvariyning «Kuygonnan» radifli g'azallariga bog'langan muhammaslar mavjud.

Bu davr adabiy an'alaridan yana biri muvashshah bitish an'asidir. Muhyi o'z zamondosh ijodkorlariga nisbatan ko'p muvashshah yozgan shoir sanaladi. Uning dissertatsiya jarayonida tadqiq etilgan asarlarida 40 qa yaqin muvashshah-g'azallar o'rin egallaganligi aniqlangan.

Sababi XIX asrning ikkinchi yarmida muvashshah bitish an'asiga e'tibor tubdan o'zgardi. Biroq biz muvashshah bitish an'asi va uning o'ziga xos xususiyatlarini dissertatsiyaning keyingi boblarida yoritishni maqsad qilganligimiz bois, bu xususda batafsil to'xtalmadik.

Muhyi ijodida yana bir mumtoz an'ana hosilasi – badiha g'azallar ham uchraydi. Tadqiqot natijalari asosida shuni aytish mumkinki, shoirning turkiy devoniga 8 ta, forsiy devonda 4 ta badihatan bitilgan g'azallar kiritilgan. E'tiborga molik tomoni shundaki, devonga kiritilgan badihalar avvalida uning kimga bag'ishlanganligi, yozilish sababi, vaqti va o'rni xususidagi muallifning nasriy sharhlari ham keltiriladi.

Fikrimizni isbotlash uchun badihalarning ayrimlariga murojaat qilamiz:

«Maxfiy qolmasinkim, bir kun bir bog'i farahatfazoda bir necha do'stoni kiromlar birla sayrg'a chiqib anda ta'om adosidan shabu bir maymanaz ziynat afzosi faqirg'a dandoni xilol so'ndilar. Kamina darhol olib, bu baytni:

Daraxti tubidin bo'lsin xilolo,

Sanga ey xojai sohib jamolo – degonimda bu baytni atmomig'a yetkurung dedilar. Kamina daf'atan bu abyotni aytdim».

Erur ta'rifdin mustag'ni husnung

Na hojat anga bahsu qiylu qolo...[13; 241-242-b.]

Shoir ushbu badihada sohib jamolni shakar guftor, shirin maqol, pok tiynat deya ta'rif etar ekan, uning yuzini quyoshga, ko'zini esa nargisi shahloga o'xshatadi. Yor qoshining mehrobiga sajda qilish uchun hatto falak avjida hilol ham sargardon yuribdi, deya baytda bira to'la bir necha san'atlarni (**tashbih, tashhis, husni ta'lil**) mohirlik bilan qo'llaydi. Yor jamolini o'z ko'nglida muhrlanib qolganligini anglagan shoir endi undan judo bo'lish amri mahol ekanligini aytadi.

Boshqa bir badihasi sarlavhasida shoir shunday yozadi: «Ushbu g'azal bir mahbubi majlisoroy suhbatimizg'a qadam ranjida aylab, suhbat-suhbat qofiyalik abyot mashq aylang degonida, daf'atan aytiladi».

Bo'ldi takallumingdin masrur ahli suhbat,

Har qancha shodlig'din maqrur ahli suhbat... [13; 247-b.]

Shoirning ushbu «Suhbat» radifli badihasi g'azal sarlavhasida ta'kidlanganidik, suhbat asnosida majlisga kelib qo'shilgan mahbubi majlisoroy – majlisni jonlantiruvchi suyuqli kishining iltimosiga binoan badihatan bitilgan. Shoir g'azalni majlisga kelib qo'shilgan noma'lum shaxsning so'zlari majlis ahlini benihoya shodlantirgani, hatto uning yoqimli nutqi suhbat ahliga yanada dilkash mavzulardan so'zlash imkoniyatini yaratganligini aytish bilan boshlaydi. Shoir badihada suhbat qilish odobiga oid o'zining nihoyatda original qarashlarini ifodalar ekan, jumladan, yomon kishilar suhbatidan hazar qilish, suhbat qilganda ham arbobi fazl (fazilatli kishilar) bilan suhbat qurish lozimligini uqdiradi. Agar majlis o'ziga bino qo'ygan mag'rur va nodon kishilardan tuzilgan bo'lsa, uning parokandalikka yuz tutishi muqarrarligini aytadi. Muhyi g'azal maqtasida yuqorida aytgan fikrlarining barchasi o'quvchi uchun bir nasihat ekanligiga ishora etib unga quydagicha yakun yasaydi:

Muhyi qilur nasihat ey yori jon amal qil,

Fe'lingdin o'lmasunlar ranjur ahli suhbat.

Muhyi badihalari teran ma'nolarga ega ekanligi bilan qadrlidir. Forsiy devonidagi bir badihasiga shoir «Va lahu ayzon badiha. Dar panj daqiqa dar Marg'inon gufta shud», deya sarlavha qo'yadi. Sarlavhadan ma'lum bo'lishicha,

gʻazalni shoir Margʻilon shahrida besh daqiqa ichida yozib tamomlagan. Badiha orifona ruhda bitilgan quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Onroki koru bor hamisha farogʻatast,

Dar oxirash darigʻu fususu nadomatast [13; 43-b.].

Tarjimasi: Kingaki dunyo matohi hamisha xotirjamlik baxsh etgan boʻlsa, oxir-oqibat unga afsusu nadomatni ham yetkazadi.

Shoir gʻazalda dunyoning oʻtkinchiligi, molu dunyoning bevafoqligini taʼkidlar ekan, oxirat uchun ozuqa hozirlash, yaratganga ibodat qilish lozimligini taʼkidlaydi. Gʻazalning bir baytida Qurʻoni karimdagi «Vama xolaqtul jinna val insa illa liyaʼbuduvn» (maʼnosi: Insonlar va jinlar toifasini faqat Oʻzimgagina ibodat qilishlari uchun yaratdim) oyati maʼnosini quyidagicha iqtibos qiladi:

Xoliqki ofarid yinu odamu malak,

Maqsud bahri toʻatu zuhdu ibodatast.

Maʼnosi: Parvardigor jinu odamu malaklarni taqvo qilishlari va ibodatda boʻlishlari uchun xalq qildi.

Gʻazal 11 baytdan iborat boʻlib, boshdan oxir oʻquvchini fikr etishga undovchi didaktik baytlardan tarkib topgan. Maqtada shoir oʻzining ham gunoh yukidan xalos emasligiga ishora etib, shunday deydi:

Muhyiki noma kard siyah garchi az gunah,

Az Mustafo ba hashr umidash shafoʻatast.

Maʼnosi: Garchi gunohdan (yuzi) qora boʻlsa ham Muhyi ushbu nomani bitdi, chunki u mahshar maydonida Mustafo (s.a.v.)ning shafoʻatidan umidvordir.

Taʼkidlash kerakki, shoirning ayrim badihalari uning turli shaharlarga qilgan safarlari vaqtida bitilgan. Bu kabi badihalar oʻz navbatida oʻzining tarixiy va badiiy jihatlari bilan ahamiyat kasb etadi. Shunday badihalardan biri Lohur **(6-ilova)** shahri taʼrifidadir. Badiha avvalida shoir shunday yozadi: «Dar sifati shahri Lohur ba tariqi badiha gufta shuda bud. Dar shahri Lohur» (maʼnosi: Lohur shahrining sifatida badihatan aytiladi. Lohur shahrida).

Zihi Lohuru shahri dilkushoyash,

Chi goʻyam vasfi xubii havoyash.

Eramro xiylate az tarhi bogʻash,

Falak sar bar zamin az har binoyash [13; 105-b.].

Maʼnosi: Lohur shahri koʻngil ochuvchi shahardir. Uning xushboʻy havosi vasfida nima ham derdim. Lohur bogʻining goʻzalligidan, hatto Eram¹⁵ bogʻi ham xijolatda. Uning har bir binosining balandligidan falakning boshi ham yerda boʻladi.

Koʻrinadiki, badihagoʻylik shoirning zukkoligi, topqirligi, qolaversa, uning nechogʻlik isteʼdod sohibi ekanligini belgilovchi mezonlardan biridir. Ammo badihagoʻylik ijodkorlarning zakiyligini koʻrsatish bilan birgalikda asosi tezkorlikka qurilgani uchun qofiyabozlikni keltirib chiqarishi, rangsiz baytlar yozilishiga sababchi boʻlishi ham mumkin. Bunday holatlar Muhyi badihalarida deyarli kuzatilmaydi. Aksincha, uning badihalari anʼanaviy taʼrifu tavsiflardan oʻtib, oʻquvchini mushohada yuritishga undovchi goʻzal baytlardan tarkib topgan.

¹⁵ Э р а м – қадимги Яман давлатидаги афсонавий гўзал, хушхаво бир боғнинг номи

Guvohi bo'lganimizdek, Muhyi davr adabiy an'alarini o'z ijodi misolida takomillashtirgan ijodkordir. Uning devonida turli shaxslarga turli munosabatlar bilan bitilgan maktub she'rlar ham anchagina. Shuni ta'kidlash kerakki, shoir maktublarning aksarini badihatan bitganligini maktub sarlavhasida aytib o'tadi. Kuzatuvlarimiz davomida devonda Mullo Abdulloh Nasimiy xatlariga javob tarzida yozilgan bir necha turkum g'azallarga duch keldik. Shoir Nasimiy maktublarini mislsiz darajada yuksak e'zozlab, agar attorlar dunyodagi barcha atrlarni bir joyga jam etsalar ham, Nasimiy maktubidan taraluvchi anbarafshonlikni hosil eta olmasliklarini aytadi.

Mullo Abdulloh Nasimiy maktubi javobida yozilgan boshqa g'azalni esa, shoir fayzli bir dilraboning ko'ngil ochuvchi, ixlosu muhabbat bo'yini taratib turuvchi, pur ma'no baytlardan tarkib topgan maktubi kelib yetganligini aytish bilan boshlaydi. Shoir bu g'azalda ham Nasimiy yo'llagan maktubga yuksak baho beradi. Uning fikricha, Nasimiy maktubni yozar chog'ida sidqu safo gavharini ixlos rishtasiga chekib, uni marjondek tizgan. Shu bilan birga shoir Nasimiy sha'niga bisyor du'olar qiladi hamda uning she'r bitish san'atiga tahsin aytib, yuksak iste'dodiga iqrar bo'ladi. Nasimiy ta'rifida bitilgan baytlarga diqqat qiling:

*Ul Nasimiyg'a qilmish Xudo ato tab'i salim,
Haq Ta'olo fazlu lutfi anga bo'lmish yorlar.
Ofarin aylab ani tab'ig'a tahsin ayladim,
Aylamang inkor anga ey oqilu hushyorlar.
Har kishig'a yoshlig'da bo'lsa fazlu aqlu hush,
Bo'lmag'oy mundin ziyoda bo'lsa shul miqdorlar [13; 275-b.].*

Shoir maktub davomida Nasimiy qurdirgan imorat haqida ham so'z yuritadi. Uning tasviricha, Nasimiy binoni ahli ilmu fazl bahramand bo'lsin deb qurdirgan. Bu kabi yaxshi niyat bilan bino qilingan imorat esa xayrli bo'ladi. Shoir imoratning zebu ziynatdan xoli ekanligiga alohida urg'u berar ekan jumladan shunday yozadi:

*Ham demishsizkim imorat betakalluf sodadir,
Topmagon naqqosh ila ziynat daru devorlar.*

Muhyining fikricha, imorat naqshu ganj bilan emas, balki ilmu fazl ahlining tashrifi bilangina haqiqiy ziynat topadi.

*Ilmu fazl ahli bilan ziynat topar ayvoni ganj
Ziynatafzodur kitobu kog'azu ash'orlar.*

Shoir bunday saodatli imorat va imorat sohibini uzundan uzun duolar qiladi. Biroq uni borib ko'rmoqlik uchun fursat topa olmaganligidan afsuslanadi va Haq muyassar etgan kuni albatta uni borib ziyorat etajagini aytadi.

Devondagi yana bir g'azal ham Nasimiy maktubi javobida bitilgan. Bu haqda shoir sarlavhada shunday deydi: «Mullo Abdullohjon Nasimiy ismig'a, maktubining javobida yozilg'ondur» [13; 280-b.]. Ushbu maktub tarzida bitilgan g'azal boshqa maktublardan farqli o'laroq mavashshah san'ati asosida bitilgan. Shoir mazkur muvashshahda «Nasimiy mullo Abdullohjon» ismini berkitgan. G'azalda Nasimiyning Muhyiga yo'llagan yana bir xati haqida iliq fikrlar aytiladi.

G'azal tarzida bitilgan maktublar shoirning forsiy devonida ham mavjud. Masalan, Muhyi Tajalliy maktubi javobida yozilgan bir g'azali sarlavhasida «In maktubro dar javobi maktubi Mavlono Tajalliy navista budam» [13; 107-b.] (bu

maktubni Mavlono Tajalliy maktubiga javob tarzida bitgan edim), deb yozadi. Gʻazalda Muhyi Tajalliy isteʼdodini benihoya qadrlaydi va uning ijodiga yuksak baho beradi.

Xulosa qilib aytganda, Muhyi ijodi mavzu jihatidan anʼanaviy tarzda uch qismga boʻlinadi: ishqiy, falsafiy-didaktik va ijtimoiy-siyosiy. Shunday ekan, mumtoz adabiyot anʼanalari ham adabiy taʼsirlar mezonlari ham ana shu tadrijiylikda kechadi. Qolaversa, turkiy hamda fors-tojik sheʼriyatining anʼanalari, xususan, ularning tasviriy sanʼatlari majmui Muhyi ijodida toʻligʻicha oʻz aksini topdi.

1. Muhyining adabiy anʼanalarga munosabati uning izchil qonuniyligiga asoslanadi.

2. U mavjud janrlar imkoniyatlari doirasida ijtimoiy pozitsiyasini yorqin boʻyoqlarda aks ettira oldi.

3. U oʻz lirikasida hissiy tahlilga eʼtibor qaratdi. Anʼanalardagi mavjud peyzaj tasvirlari orqali kechinmalarini falsafiyalashtirish, ijtimoiylashtirishga erishdi.

4. Buyuk shoir Navoiy ijodidan oziqlandi, undan oʻrgandi. Uning ayrim sheʼrlari taʼsirida yozilgan asarlarida oʻziga xos individual mahoratini namoyish etdi.

5. Qoʻqon adabiy muhiti doirasida salafdoshlari ijodidan ijobiy taʼsirlandi. Ular yaratgan poetik topilmalarni oʻzlashtirdi, uni takomillashtirishga harakat qildi.

6. Muhyi oʻz sheʼrlarida majoziy va haqiqiy ishqni bir-biriga qoʻshmasdan alohida talqin etdi. Uni bir-biridan ajratib turadigan syujet chizigʻi, detal va obrazlar tizimi asosida boyitdi.

7. Muhyi forsiy devoniga fors-tojik gʻazalchiligining qadimiy anʼanalari asosida tartib berdi. Unga navoiyona mushohada usulida bitilgan asarlarni kiritib original yoʻl tutdi.

8. Oʻzbek va fors-tojik tillarining bilimdoni sifatida zullisonaynlik anʼanalarini rivojlantirdi. Uning uch tilda (oʻzbek, fors-tojik, arab) yozgan sheʼrlari sharq sheʼriyatining zullisonaynlik sohasida eʼtiborga molik asarlar boʻlib tanildi.

9. Ijodiy faoliyati davomida koʻplab badihalar yaratdi. Muvashshah gʻazal va muhammaslar yozib oʻz davrining kommunikativ poeziyasi rivojiga munosib hissa qoʻshdi.

10. Muhyi ijodi oʻz yakunida sharq poetikasiga xos merosiylik, anʼanaviylik, uzviylik jihatlari bilan muayyan butunlik hosil qildi.

3-MAVZU:

ZAVQIY, FURQATLARNING HAYOTI VA IJODI, ADABIY MEROSI

Zavqiy (taxallusi; asl ism-sharifi Ubaydullo Solih o'g'li) (1853 — Qo'qon — 1921) — o'zbek shoiri. Qo'qondagi «Madrasai oliy» va «Madrasai chalpak»da tahsil olgan (1870—74). Maxsido'zlik bilan shug'ullangan. Ma'lum muddat mirzalik qilgan, Xo'jand, Samarqand, Buxoro, Toshkent, O'sh, Andijon, Marg'ilon shaharlarida bo'lgan. Tog'asi Muhammad Siddiq bilan Madinani ziyorat qilgan (1900). 1903 yil Qo'qonga qaytgan. Zavqiy mumtoz o'zbek adabiyoti an'analarini davom ettirgan, Qo'qon adabiy muhitining Muqimiy, Furqat, Nodim, Rojiiy kabi namoyandalari bilan ijodiy hamkorlik qilgan.

Zavqiyning g'azal, muxammas, muvashshaxlari («Aylab keling», «Radifi Zavqiy» va boshqa)da o'zi yashagan muhit va tuzum, mehnat ahlining ahvoli tasvirlangan. U turmush alam-iztiroblari, hijron azobiga visol umidi, vafodorlik, sadoqat tuyg'ularini qarama-qarshi qo'yadi («Yuzingni ko'rsatib avval», «Bodai vasling» va boshqa), kishilarni turmush go'zalliklaridan zavqlanishga, uni sevishga chorlaydi. Zavqiyning bir qancha she'rlari («Kajdor zamona», «Ajab zamona», «Abdurahmon shayton» va boshqa)da mustamlaka tuzumidagi ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik, chor ma'muriyati himoyasida bo'lgan ayrim nopok amaldorlarning kirdikorlari fosh etiladi. Zavqiyning «Muncha ko'p» radifli hamda «Ajab zamondur, ahhbob, bosh qotib qoldi» misrasi bilan boshlanuvchi muxammaslari 19-asr boshlari she'riyatidagi eng o'tkir ijtimoiy asarlari jumlasiga kiradi. Zavqiy ijodiy merosida o'zbek qishloqlarining ahvoli, dehqonlar hayoti mavzui ham katta o'rin tutadi («Yangi Qo'rg'on qishlog'i», «Suv janjali», «Shohimardon sayohati» va boshqa). Bu asarlar Muqimiyning «Sayohatnoma»si ta'sirida yozilgan. Zavqiy Muqimiyning hajvchilik yo'lini davom ettirib, o'zbek adabiyotida hajviy yo'nalish taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi («Obid mingboshi haqida hajv» va boshqa). Zavqiyning «Voqeai qozi saylov» (1909—10), «Qahatchilik» (1916) kabi asarlarida ijtimoiy adolatsizlik fosh etiladi, xalqning zulmga qarshi namoyishlari aks ettiriladi. «Ajab ermas» radifli muxammasi 20-asr boshlari o'zbek she'riyatida muhim hodisa bo'ldi. Bunda shoir mustamlaka asoratida ezilayotgan yurtning baxtli kelajagi haqida fikr yuritdi. Ijtimoiy hayotdagi ayrim nosozliklar, kishilar faoliyatidagi salbiy hollar ustidan bir qator she'rlari («Ta'rifi kalish», «Otim», «Fonus», «Sigirim», «Pashshalar» va boshqa)da zaharxanda bilan kuladi. Shoirning ishqiy g'azal va muxammaslari o'sha davrlardanoq xalq hofizlari tomonidan kuyga solinib, ijro etilgan («Yor kelur zamona yo'q, kelmasa-kelmasun netay?!»), «Kulbam aro, ey maxliqo, bir yo'l xirom aylab keling» va boshqa). Zavqiyning she'rlari turli bayoz, majmua, vaqtli matbuot hamda og'zaki manbalar orqali bizgacha yetib kelgan. Qo'qon shahridagi bir mahalla, qishloq, maktab va ko'chaga Zavqiy nomi berilgan.

3.2-MAVZU:

FURQAT (1859-1909). FURQATSHUNOSLIK TADRIJI. IJODIY MEROSI.

Reja:

1. Furqat lirikasining ko‘lami, janr tarkibi.
2. Furqat g‘azaliyoti. Uning shakllanish va takomil bosqichlari.
3. Mavzulari: turmush voqea–hodisalari, ishqiy–dunyoviy, hasbi hol, tashxiz, ijtimoiy mavzulardagi g‘azallari. Ularning g‘oyaviy–badiiy tahlili.
4. Muvashshah g‘azallari.
5. Musammatlari: murabba’, muhammas, musaddaslari, marsiya–tarjebandi. Boshqa mo‘‘jaz janrlardagi lirik she’rlari. «Sayding qo‘yaber sayyod», «Uch harobotiy» musaddaslari haqidagi yangi talqinlar.

Tayanch so‘z va iboralar: Tavalludi 1859–Xo‘qand, do‘kondor. Eski va yangi Marg‘ilon. Muqimiylar davrasi. Oilaviy fojea. Xo‘jand–Toshkent. Farg‘ona vodiysidagi ijodi. Lirik shoir. Toshkent davri (1889–1891) ijodi. Manzumalari. «Turkiston... gazetiga» aloqasi. Memuari. Chet el safariga jo‘nash (1891 iyun). Safar marshruti. Yorkant. Hayoti, oilasi, faoliyati. Vatanga qaytib kelolmaslik sabablari. Adabiy merosi, uni o‘rganilish tarixi.

Zokirjon Furqat XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari o‘zbek adabiyoti tarixida faxrli o‘rinni egallaydi. O‘sha davr adabiyotining salohiyati va o‘ziga xos rivojini Muqimiy qatori Furqat ijodisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Furqat lirik poeziyada, yangicha mazmundagi ma’rifatparvarlik adabiyotida o‘ziga xos maktab yaratgan mutafakkir siymodir. Shuning uchun ham uning shaxsiyati, ijtimoiy faoliyati va asarlariga qiziqish u Toshkentga kelgan 1889 yildanoq boshlangan. To 1905 gacha uning she’rlari, manzumalari, xabarlar, nasriy va she’riy maktublari «Turkiston viloyatining gazetiga» sahifalarida bosilib turgan. Furqat bilan N.Ostroumov munosabatlari davom etgan. Bizning davrga kelib uning ijodi 40–yillardan boshlab jiddiyoq o‘rganila boshlandi.

Hayoti va faoliyatiga bir nazar. Shoirning umri, shaxsiyati, qismati haqida Xolid Rasulning «Furqatning hayoti va ijodi», G‘.Karimovning «Furqat biografiyasining ba’zi masalalari», «Furqat hayoti va ijodiga doir ba’zi materiallar» (Qarang: G‘.Karimov. Xalq, tarix va adabiyot. –T., 1977, 100–127–betlar), M.Yunusovning «Sargashtalikda o‘tgan hayot sahifalari» (Qarang: Barhayot meros sahifalari. –T.,1986, 103–126–betlar), A.Qayumovning «Zokirjon Furqat» esse–qissalarida, Sh.Yusupov monografiyalarida anchayin muhim ma’lumotlar keltirilgan.

Bu manbalarning barchasida Furqat tavalludi 1858 yil ekanligi qayd qilingan. Biroq so‘nggi yillarda N.Ostroumov arxivida saqlanayotgan spravka–hujjatga ko‘ra

shoirning 1859 yilda tavallud topganligi ma'lum bo'ldi. 1890 yilda Furqatga berilgan guvohnomada uning 31 yoshda ekanligi aytiladi.

Furqat tarjimai holiga oid eng ishonchli manba uning o'z asarlaridir. Uning «Xo'qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti. O'zi yozg'oni» nomli prozaik asarida u o'z tarjimai holini, 1891 yilgacha bo'lgan hayotini bayon etadi. Bu asar Furqat «Turkiston viloyatining gazetisi»da hamkorlashib yurgan vaqtlarda, gazetasining 1891 yanvar–iyun oylari sahifalarida e'lon qilingan. Bu asarda Furqat Farg'ona vodiysi va Toshkentda ko'rgan–kuzatgan odamlar, voqea–hodisalar haqida ham faktlar keltiradi, ularga o'z munosabatini bildiradi. Shu jihatiga ko'ra asar «Boburnoma»ga ham o'xshab ketadi. Shuning uchun ayrim olimlar, jumladan Abdug'afurov uni «Furqatnoma» deb atashni tavsiya etadi. G'.Karimov o'z darsligida «Sarguzashtnoma» tarzida tekshiradi.

Shu asardagi ma'lumotlarga ko'ra, shoir Fariddidin Attorning nihoyatda murakkab «Mantiquat tayr» kitobini o'qib bitiradi. 80–yillarda «g'azal va muxammaslari avroqini daftar sherosig'a bog'lab, jam qilib sohibi devon» bo'ladi. 1876 yilda Qo'qon xonligi tugatilib, yangi Marg'ilon–Skobelev markazi bo'lgan Farg'ona oblasti tashkil etiladi. U yerda savdo do'koni ochgan tog'asining qistoviga ko'ra 1879 yilda yosh Furqat bu yerga kelib tog'asiga ko'maklashadi.

Bir detal qiziq. «Mening bir tog'am ul mavzega borib do'kondor bo'lib turgan edi. Meni o'z huzuriga talab qildi. Men Rusiya xalqidan ehtiroz aytib, bormoqni ixtiyor qilmadim. Chunkim, ul vaqtlarda Rusiya xalqidan biror odamni bozorda ko'rsam qochib yiroqdan o'tib ketar edim. Hatto o'rus bilan so'zlashgan odamni ham yomon ko'rar edim»,—deb yozadi shoir.

Keyincha u yangi Marg'ilonida shaxsiy yo'l bilan badavlat kishilarning bolalariga (Abduxoliq Zakonchi) savod o'rgatadi, gazetalar o'qiy boshlaydi. XIX asrning 80–yillari boshida Qo'qonga qaytib Muqimiy boshliq adabiy davra bilan yaqinlashadi. Furqat 1887 yilda eski Marg'ilonga ketadi. «Masjedi Jomiy»dan xujra olib yashaydi. Marg'ilonlik Xo'jajon Rojiiy, Umidiy, Mulla Toshbolto Roiiq bilan tanishadi, do'stlashadi, ijodiy aloqa bog'laydi. Ayniqsa «tab'i ravon, g'azallari latif» Rojiydan ma'rifat hosil qilganligini ta'kidlaydi. Bu shaharda ancha turadi, odamlarning hurmatini qozonadi. Shunday xalqchil to'rtlik paydo bo'lgan ekan:

Marg'ilonida ruscha konvert kim yozar,

Mulla Botir, Mulla Zokirlar yozar.

Mulla Botir – xizmati tojir kishi,

Mulla Zokir Furqatiy shoir kishi.

Furqat Xo'qandni tark etib, yoz oylari Xo'jandga keladi. U yerdagi qator shoirlar (Asiriy, Maxjur va b.) bilan ijodiy aloqalarda bo'ladi.

1889 yil kuzida Toshkentga kelgach, bir qancha oy betob bo'lib qoladi, so'ng madrasa xujralaridan biriga ko'chib ma'rifatparvar do'sti Hoji Zuhurning taklifi va

iltifoti bilan kolyaskada yangi shaharni tomosho qilishga chiqadi. Birinchi bor Toshkent erlar gimnaziyasida bo'lib, shu yerda gimnaziyaning direktori hamda 1870 yildan chiqaboshlagan «Turkiston viloyatining gazetisi» muharriri Nikolay Ostroumov bilan tanishadi. Darvoqe, N.Ostroumov (1852–1930) Turkiston general-gubernatorligining eng ishonchli kishilaridan, o'lkada chor hukumati siyosatini jon-jahdi bilan o'tkazuvchilardan biri edi. O'zR Markaziy Davlat arxivida N.Ostroumovning 191 papkadan iborat shaxsiy arxivi hamda bir necha o'n yillik davrni o'z ichiga olgan kundaliklari saqlanmoqdaki, ular ichida bu shaxsning Furqat bilan bo'lgan uchrashuvlari ham bor. N.Ostroumovga yangi mehmon – Zokirjon Furqatning zukkoligi, qiziquvchanligi yoqib qoladi. U darhol Furqatga gimnaziya tomoshosidan olgan taassurotlarini maqola tarzida gazetasiga yozib berishni taklif etadi. Shunday maqola gazetaning 23 mart sonida chiqadi. 11 aprelda u haqdagi qasida-g'azal e'lon qilinadi. 1890 yil aprel oyida u «Turkiston viloyatining gazetisi»ga ishga olinadi. Shundan so'ng ayrim mahalliy kishilar «uni ruslarga yaqinlashma» deb ko'rqitishga harakat qilishadi. Biroq uning mahalliy va rus ziyolilari, hatto rasmiy kishilar bilan aloqasi kuchaya boradi. Rasmiy doiralarda ham uning obro'yi va ta'siri ortadi. U turli marosimlarga taklif etiladi. Shunday marosimlardan biri 1891 yilda general-gubernator baron Vrevskiy uyida uyushtirilgan bal-ziyofat edi. Bu ziyofatda baron keliniga bag'ishlab Furqat ikkita maqtov she'r yozadi. Bu she'rlar gazetada bosib chiqariladi. Shoir baronning kelinini sharqona quyuq, romantik bo'yoqlarda maqtaydi. Uni «o'zi gul, libosi gul, qizil gullar aro oq gul» deb ta'riflaydi. Bu she'rlar rus tilida ham e'lon qilinadi. Furqatga hasadgo'y ba'zi kimsalar shoirga xusumat qiladilar. U nozik masalada shubha ostiga olinadi, kayfiyati buzuladi, ko'ngli vayron bo'ladi. Bosh olib ketish, haj safariga otlanish niyati paydo bo'ladi. Bunga N.Ostroumov ham, boshqa ma'murlar ham monelik qilmaydilar. 1891 yil yoz oylarida u Samarqandga kelib ikki oycha turib, Mirza Buxoriy topildiqlari, Samarqand obidalari bilan tanishib, Buxoro marshrutidagi otash aroba (poyezdga) o'tirib chet elga jo'naydi.

Tayanch ibora va so'zlar: 8800 misra atrofida. Holid Rasul tuzgan yig'ma majmua, devon. G'azal, muhammas, musaddas, muvashshah yetakchi janrlar. Portret, peyzaj tasviri ustasi. Lirikasida uch davr izlari; bir-biridan farq qiluvchi, bir-birini to'ldiruvchi motivlar. «Istar ko'ngul», «Biri», «Sayding qo'yaber sayyod», «Uch harobotiy» muhammas, musaddaslari talqini. Yangicha qarashlar. «Kashmirli qizga» voqeaband g'azal. Tahlili. Badiiyat qirralari. Kontrast, harf, talmeh, lutf, portret chizish san'ati. «Surating», «Kelinchak», «Fasli navbahor» g'azallari. Aruzdagi, qofiya, radif tanlashdagi o'ziga xoslik. Muvashshahlari.

G'azaliyoti. Furqat g'azallari ijtimoiy hayotning hamda inson kechinmalarining turli qirralarini aks etdiradi. Uning g'azallari orqali shoir ijodining

shakllanish va takomil bosqichlarini aniqlab olish mumkin. Furqat gʻazallari mavzu eʼtibori va gʻoyaviy–hissiy yoʻnalishiga koʻra bir qancha xillarga boʻlinishi mumkin. Shoirning ayniqsa sevgini, oshiqona kechinmalarni katta ijtimoiy masalalar bilan bogʻli holda ifodalovchi gʻazallari ancha. Bunday gʻazallarga uning «Ul qora koʻz koʻzlariga surma bejo tortadur», «Ohkim, yoʻqtur mening tabʼimga loyiq ulfatim», misrasi bilan boshlanuvchi gʻazallarni kiritish mumkin. Birinchi gʻazalda tasvir yor suvratini, qora koʻzi va qora qoshi, qora zulfi vasfi bilan boshlanadi. Yorning ikkala qora koʻzini shoir istiora qoʻllab, qora hindu bolalariga oʻxshatadi, egma qoshlar esa shu hindu bolalarning yonma–yon turib yoy tortayotganligiga oʻxshatiladi:

Qoshlari ostida goʻyo ikki fatton koʻzlar,

Ikki hindu bachchadurkim, yondashib yo tortadur...

shulardan keyin shoir sevgi, noz, dard, mavzulariga, borib–borib zamona, davr, uning teskari aylanishiga oid ijtimoiy mavzu tasviriga oʻtadi. Xulosasi:

Charxi kajraftorning bir shevasidin dogʻmen,

Ayshni nodon surib, kulfatni dono tortadur –

bilan tugaydi. Bu gʻazalning avj nuqtasidir.

«Kashmirli qizga» gʻazali ham yuksak sanʼat mevasidir. U tuzilishi jihatidan voqeaband gʻazaldir. Lirik qahramon – shoirning oʻzi Kashmir sayohati vaqtida bir goʻzalni uchratib qoladi. Gʻazalning birinchi baytida shu uchrashuv qayd etiladi:

Bir qamar siymoni koʻrdim baldai Kashmirda,

Koʻzlari mashuru yuz jodu erur tashirda.

Bu gʻoʻzalning qora sochlari oftob nurlarida tovlanadi, chunki, quyosh uning goʻzalligiga tahsin oʻqib, mukofotiga uning boshidan zar sochadi:

Zarra–zarra zar sochar boshigʻa har kun oftob,

Subh kelgach, kecha yotib chashmai iksirda.

Shu goʻzalning sehrgarligi, jozibasi masihoso quvvatga egaki, hatto u oʻlikka ham jon bagʻishlay oladi. Buning uchun shoir shoirlar tomonidan juda koʻp ishlatilgan maseh obraziga emas, balki Xorut Morut obrazlariga murojaat etadi. Talmih sanʼatining original koʻrinishini qoʻllaydi. Maʼlumki, diniy–afsonaviy kitoblarda Bobilda Xorut Morutni oʻldirib, bir chuqurga koʻmgan. Shundan boshlab oʻlikni chuqurga koʻmish rasm boʻlgan degan rivoyat bor. Kashmirli qamar siymo goʻzalning «Chohi zaqan»i (yaʼni bagʻbaqasi)ni koʻrgan Xorut bilan Morut uni talashadilar. Zaqan ular uchun hayot ramzidir. Shoir bu afsonaviy obrazlarga ishora qilish bilan Kashmir goʻzal insonlarga hayot bagʻishlovchi sehrga–qudratga ega deydi:

Bir koʻrib chohi zaqan Xorut ila Morut ikov,

Chohi Bobil ichra qolmishlar boʻlak tadbirda.

Shoir shu tahlit yorning favqulodda goʻzalligini suratini chizishda davom etadi. Uch–toʻrt bayt bilan bu muddaosini yakunlaydi. Soʻng u bilan savol–javob, muloqot qilishga oʻtadi. Lirik qahramon, oʻzini tiya olmay uning zulfiga oshiq boʻlib

qolganligini aytadi, qo'yadi. Uning bu «izxori dili»ga go'zal darhol javob qaytaradi. Shu taxlit ikki obrazning dialogi boshlanadi:

Aydim: «Ey jon ofati, zulfingga bo'lmishman asir»,

Aydi: «Bu savdoni qo'y, umring o'tar zanjirda».

Demoqchi zulf oshiqni o'z domiga tortib, zanjir kabi bandi qilib qo'yishi mumkin. Chunki zulf zanjirni eslatadi. Muloqot avj cho'qqisiga ko'tariladi. Hazil–mutoyiba aralash holatga ko'chadi. Ob'ekt endi go'zalning labi ustidagi holi bo'ladi. Shoir savol–javob san'ati bilan yonma–yon harf–kitobat san'atini ham ishga soladi:

«Nuqta lab ustida bejodur», – dedim aydi kulib,

«Sahv qilmish kotibi qudrat magar tahrirda».

Baytda shoir yor labida hol borligini anglatmoqchi bo'lib, uni nuqtaga (.) o'xshatadi. Shu sabab arab alifbosida لب –lab so'zining yozilishidan foydalanib so'z o'yini yasaydi. Shoir yorga xitobon «lab» so'zida nuqta (hol) pastda bo'lg'uvchi edi. Sening labingda esa nuqtaning lab ustida turishi bejodur, deb hazil qiladi. Go'zal yor esa o'z navbatida undan ham zukkolik, hazilkashlik qilib: «Tahrir vaqtida kotib xato qilib, nuqtani «lab» so'zining pastiga emas, balki yuqorisiga qo'yib yuborgan», – deydi. Shu nuqtaga kelgach, shoir asosiy muddaoga ko'chadi. Go'zalning:

Aydi: «Ey bechora, nechun aylading tarki vatan» –
degan qaltis savoliga u:

Men dedim: «G'urbatda Furqat bor ekan taqdirda» –

deb javob qaytaradi. Natijada oshiqona tuyg'ular bilan boshlangan g'azal Vatan va g'urbat iztiroblarini kuylash bilan yakun topadi. Shu bosh tuyg'uni berish maqsadida shoir juda hayratomuz, original kompozitsion yo'l o'ylab topadi, istiora, tashbeh, badiiy san'atlar kashf etadi va ularni Vatan sog'inchi, g'urbat azobi, hayotning shirinligi kabi muqaddas tuyg'ular ifodasiga xizmat etdiradi. Shu sabab «Kashmirli qizga» asarini Furqatning yuksak mahoratidan darak beruvchi shoh asarlaridan biri deyish mumkin.

Shoir g'azallaridan ba'zilar monolog shaklidagi hasbi holga oid g'azallardir. «Ohkim, hamdard yo'q dard oshkor aylay desam», «Ko'ngul dardig'a topmay boraman hargiz davo izlab», «Jahonni kezdimu ofoqni sarbasar ko'rdim», «Adashganman» g'azallari shunday g'azallardandir. Bu g'azallarda yolg'izlikda, bekaslikda qolgan kishining xasratlari ifodalanadi.

Ohkim, hamdard yo'q, dard oshkor aylay desam,

Yozg'ali sharhi g'amimni g'amgusor aylay desam...

Necha yurdum adashib to'g'ri yo'ldin besaru somon,

Tutub ilgimni yo'lg'a solsa deb bir raxnamo istab...

U yil fasllari tasviriga bag'ishlangan qish, bahor, Navro'z mavzularida ham go'zal g'azallar yaratgan. Ayniqsa shoirning «Bahor ayyomida gul gasht etarga bir

chaman bo'lsa», «Umr xush o'tmas bahor ayyomi sahro bo'lmasa», «Fasli navbahor o'ldi ketibon zimistonlar» misrasi bilan boshlanuvchi g'azallari bahor, tabiat go'zalligi, uning inson qalbida uyg'otgan boy kechinmalari, romantik orzulari tasviridan iboratdir. Shoir shunday g'azallarini ham ijtimoiy adolatsizlikdan norozilik ohanglari bilan yakunlaydi. Natijada bahor go'zalliklari haqidagi tasvirlar lirik qahramon hayolidagi orzular bo'lib qoladi. biroq shunga qaramay shoirning bunday g'azallarini o'qigach, kitobxon zavqlanib, shoirni hech ikkilanmay bahor va ona yurt tabiati kuychisi deb ataydi. Bunday hayotbaxsh she'rlarda bahor, chaman, gulzor, savsan tavsifi jonparvar nasim, samoning larzaga kelishi, bulutlardan to'qilayotgan ko'klam yomg'iri tomchilari kabilar insonning, lirik qahramonning hayotiy kechinmalari, ruhiy kayfiyati ifodasiga bo'ysundiriladi. Bu usul hassos shoir uchun bo'g'iq va zuqumli bir zamonda uning romantik hayollarini, ezgu orzu istaklarini ifodalash vositasi bo'lib ham xizmat qiladi.

Birinchi «bo'lsa» radifidagi g'azalida shoir

Kishi to'biyu kavsar, jannatu rizvonni ne qilsun,

Jahon ayvonida hosil bu yangliq anjuman bo'lsa –

deya tabiat tasvirining real, haqqoniy va go'zal manzaralarini chizganday bo'lib birdan g'azal maqtaida:

Sururu shodlikni dahr bog'ida nechuk ko'rgay,

Kamina Furqatiyning maskani baytul hazon bo'lsa –

degan nolani keltiradi. Uning «zimistonlar», «gulistonlar» qofiyali o'ta jozibali g'azali ham shunday. U tabiatning sehrigar kuychisi, naqqoshi sifatida ko'rinaborib, birdan vafo ahlini harob etuvchi, sunbulu savsanlarni so'ndiruvchi sharoitdan tab'i xira bo'ladi.

Fasli navbahor o'ldi ketibon zimistonlar,

Do'stlar, g'animatdur, sayr eting gulistonlar.

Subhidam tushib shabnam, bo'ldi sabzalar hurram,

Gul uza tomib kam–kam yog'di abri naysonlar.

Nastaron yuvib yuzni, yosumon tuzib o'zni,

Nargis ochibon ko'zni intizori yoronlar.

Bir sahar edim uyg'oq, o't tutashti olamg'a,

Tog'lar chekib larza, titradi biyobonlar.

Qumrilar qilib ku–ku, bulbul aylabon chah–chah,

Sarv gul uza doim tortar ohu afg'onlar.

Bulbul o'qug'och yig'lab subhidam xazon faslin,

G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar...

Kuymasin bu savdoda ne uchun dimog'imkim,

Ranju g'ussada dono, kechsa shod nodonlar.

Asosan manzara tasviriga bag'ishlangan, biroq, qistirma yo'llar orqali lirik qahramonning ijtimoiy sharoitdan qoniqmayotganligini ifodalovchi bu g'azal aruzning shoirlar unchalik ko'p murojaat qilmagan «hazaji musammani ashtar» vaznida yozilganligini ham qayd qilib o'tish lozim. Uning ruknlardagi sxemasi quyidagicha:

<i>Fas–li–nav</i>	<i>ba–ho–r o‘l–di</i>	<i>ke–ti–bon</i>	<i>zi–mis–ton–lar</i>
<i>Do‘s–t–lar</i>	<i>g‘a–ni–mat–dir</i>	<i>say–r e–ting</i>	<i>gu–lis–ton–lar</i>
foilun	Mafoiylun	foilun	mafoiylun
– V –	V – – –	– V –	V – – –

Uning peyzaj–tabiat manzarasi tasvirining noyob namunasi bo'lgan

Bahor ayyomida gul gasht etarga bir chaman bo'lsa,

Qilurg'a sharhi hol ahli muhabbat ikki tan bo'lsa...–

matlali g'azali ham o'ynoqi ritm va ohangga ega bo'lgan «hazaji musammani solim» (ruknlari:

mafoiylun	mafoiylun	mafoiylun	mafoiylun
V – – –	V – – –	V – – –	V – – –

vaznida yozilgan.

U shunday g'azallardan birida takror so'zli qofiyalarni hodisa va tovushga tahlid qiluvchi so'zlardan tuzadi. Bunday so'zlar g'azalga yumoristik ruh bag'ishlashdan tashqari, hayotiyiligi bilan o'quvchiga zavqu–shavq bag'ishlaydi:

Keldi bahor yomg'uri yog'di shatir–shutur qilib,

Tog' ila qo'y ila qo'zi chopti taqir–tuqur qilib.

Sakradi bir–biri uza qo'ylar o'tga shoshilib,

Ko'zi yetolmay orqadin chopti ba'ur–ba'ur qilib.

Qatrafishon bulutlari, birsoridin esib nasim,

Yashnadi tog'lari unib sabza badir–budur qilib.

To kiyik, qulonlari, dasht ila qo'y ila qo'zi,

Chaynashadi joni bilan maysi qasir–qusur qilib.

Sayri safolar aylasak, qani besh–olti ahli dil,

Borg'ucha ot chopib ketib yo'lda tasir–tusur qilib.

Chaynasa otimiz so'luk, yakka yururda ars–urs,

Na'l tegib uzanguga ketsa shaqur–shuqur qilib.

Furqat ruknlari «maf'ulu foilotun, maf'ulu foilotun» bo'lgan «muzori'i musammani ahrab» vaznidagi xalq qo'shiqlariga yaqin quyidagi yengil va sho'x g'azalda ham shu san'atni qo'llaydi:

Ko'rdimki bir parivash qoshi ko'zi pirillab,

Qon oqti ko'zlarimdan yosh o'rniga shirillab.

Toqat qilib bo'lurmu o'ltursa ro'baro'da,

Tishlab qo'lin uchini gah seskanib, dirillab.

*Izlab yurib topolmay nogoh yo'lida uchrab,
Arz emdi boshlag'anda tashlab ketar g'irillab.*

Shu hodisani alohida ta'kidlash lozimki, Zokirjon Furqat o'ta izlanuvchan, yangilik yaratishga alohida e'tibor bergan shoir edi. Uning g'azallari ichida hammmualliflikda, mushoira tarzida yozilgan, tazmin shaklidagi she'rlar bor. «Uch shatranch o'ynagan donamiz», «Uch harobotiy», g'azal va musaddaslaridan tashqari mushoira g'azallari ham anchaga o'xshaydi. Furqat bu haqda «Sarguzashtnoma»si («Ahvolot»i)da muhim ma'lumotlar keltirganligini eslaylik. «Zodai tab'larimizdan mushoira qilur erdik»,– deydi u va ustozlari Nisbatiy, Muqimiy nomlarini keltiradi. Afsuski shunday mushoiralar hali aniqlanganicha yo'q. Furqatning shoirlar davrasida mushoira she'rlar aytishga qiziquvchanligini uning 1889 yili Xo'jandga kelib, bir qancha vaqt turgach, u yerda istiqomat qiluvchi Toshxo'ja Asiriy, Mahjur Xo'jandiy kabi shoirlar bilan qilgan ijodiy muloqotlari ham tasdiqlaydi. Xo'jandli olim, professor E.Shodiyev «Furqat Xo'jandda» degan maqolasida Asiriy bilan Furqat yozgan mushoira g'azaldan bir misradan keltiradi:

Asiriy:

Keldilar hol so'rg'ali ahli karam, bosh ustina,

Furqat:

Ruxsat aylang, ko'rgali ahli raqam, qosh ustina...

Zokirjon Furqatning qator g'azallari ayol zoti tashqi ko'rinishi – portreti tasvirini beqiyos darajada go'zal qilib ifodalashga qaratilgan asarlardir. Furqat portret hamda tabiat tasvirining eng hassos, benazir suratkashidir. Shunday g'azallaridan biri kelinchak sharafiga bag'ishlangan. Bu g'azal Mavlono Fuzuliy g'azalining birinchi «Surmadin ko'zlar qaro allar hinodin lola rang» misrasini tazmin qilib olib yozilgan g'azaldir. Bu misrani Furqat shunday davom ettiradi:

G'ozadin yuzlarda tobu o'smadin qoshlar tarang.

Za'faroniy ko'ylak uzra arg'uvoniy kamzihur,

Ro'ymol og'ushidin peshonani ahvoli tang.

Bori nozik panjalar oltun uzukdin zebnok,

Qo'l bilarzukdin muzayyan, nuqradin og'izda chang.

Gavhar osqon halqalar siymin banogushida band,

Ko'rinur zulfi tunida subhi sodiqdek arang...

Javrlarkim, Furqat, ul sho'xi jafujo' ayladi,

Muncha bedodu sitam qilmas musulmong'a farang.

Shoir oshiq yigitning sevimli mahbubasiga bo'lgan bunday qalb tuyg'ularini ifodalash uchun unga bob o'ynoqi vazn ham qo'llaydi. U ramal bahrining «ramali musammani mahzuf» (foilotun, foilotun, foilotun, foilun) (– V – – / – V – – / – V – – / – V –)dir. Quyidagi g'azal esa fotodagi go'zal ayol vasfiga bag'ishlangan. Fotosuratlariga tushirish ruslar turkistonga kelganlaridan keyin paydo bo'lgan

hodisadir. Furqat gimnaziya, nag‘ma bazmi, bal tomoshosi, vistavkada ko‘rgan mo‘‘jizalari kabi fotosurat olishning ham hayotga kirib kelishidan hayratga tushgan. Fotodagi inson aksi, tiniqlik, ayolning husni malohati uning qalbini junbushga keltirgan va natijada ko‘zgudagi ayol siymosi sharq she‘riyatiga xos ham an‘anaviy, ham yangi tashbehlarda, ayniqsa o‘z poetik niyatini ifodalashda biror o‘xshashroq voqeaga, nomlarga ishora etish, uni keltirish san‘ati bo‘lgan talmehni qo‘llagan:

*... Yoki Gulandom erursan, boz kelding dar vujud,
Ayladi Bahromdek bizlarni shaydo surating.
Naqshi poyingni chekolmas erdi chin suratgari,
Olg‘usi mir‘at ila rus ahli shaydo surating.
Turfakim tasviri la‘ling murdalarga jon berur,
Yo‘q erur, jono ajab bo‘lsa Masiho surating...*

(Tanlangan asarlar, 1975, 48–bet)

Furqat g‘azallaridagi har bir baytda ham an‘ana, ham real voqelik, atrof va odamlardagi go‘zallik bilan bog‘liq, ularning favqulodda naqshi sifatidagi tashbeh va badiiy san‘atlar uchrab turadi. Ulardagi lirik qahramon hayot kishisidir. U o‘zining bor vujudi, qalbi bilan sadoqatli, pok vijdonli, muruvvatli inson bo‘lishga intiladi. Shunday g‘azallardan biri «aylasam» radifli g‘azaldir. Unda lirik qahramonning nihoyatda samimiy yurak tuyg‘ulari xalqona tashbehlar, obrazli iboralar orqali ifodalangandir.

*... Oshiqi sodiqlig‘imga bovar aylaysanmu yor,
Qozi muhrin bostirib xat birla izhor aylasam.
Ko‘r bo‘lsin ko‘zlarimki, o‘zgaga solsam nazar,
Jong‘a o‘t tushsin agar sendin bo‘lak yor aylasam.
Ham ko‘ngul yuz pora bo‘lsun mayl qilsam o‘zgaga,
Til kesulsun o‘zgaga bir harf guftor aylasam.
Jondan ayrilsun tanu yo bir yo‘li sinsun ayoq,
G‘ayr kuyin bir qadam harsori raftor aylasam.
Istaramkim, ey pari, har erta avrod o‘rnig‘a,
Ismi a‘zamdek oting payvasta takror aylasam.*

Quyidagi baytlarda chiroyli shoirona asoslash ma‘nosini anglatib, she‘rda bir voqeani unga dahli bo‘lmagan hodisa bilan izohlashga xizmat etuvchi husni ta‘lil badiiy san‘ati qo‘llanilgan. Bunda yor latofati gulga qiyoslanadi, gul sinonimida beriladi:

*Yuzlaringdin sharm etib gulshanda, ey ruxsor gul,
Ko‘rinur har yil bahor ayyomida bir bor gul.
Yorga paymol o‘ldi gul sayri guliston aylagach,
G‘uncha qon yutti yana la‘lini xandon aylagach.*

Birinchi baytda shoir «Ey yuzi gul go‘zal, sening yuzingdan uyalgani uchun gul faqat bahor paytida o‘zini ko‘rsatadi, xolos», ikkinchi baytda esa «Yor gulistonni sayr etguday bo‘lsa ochilgan gullar duv to‘kilib, uning ayog‘i ostiga payondozi bo‘ladi, agar lablari tabassumga og‘iz ochsa, gul g‘unchalari ham qon yutadi» demoqchi.

Quyidagi baytlarda ham hayotiy, har kim ham tushunib zavqlana oladigan lavhalar, qiyoslar, majozlar ishlatilgan:

Jamoli bokamoling qaysi bir vasfin ado aylay,

Daqoyiq bobida shoir agar yuz ming kitob aylar

baytining o‘zidayoq shoir mubolag‘a, hatto ig‘roq (ortiqcha bo‘rttirish) usuliga murojaat etib, oshiq tilidan «shoirilar minglab kitob bitsalar ham men sevgan go‘zalning ta‘rifini adog‘ qilolmaydilar»,– deydi.

Tazod usuli:

Agar har lahza sendin ko‘rmagim yuz ming jaf o bo‘lsun,

Aning har qaysini o‘rnig‘a mendin ming vaf o bo‘lsun,

Darig‘ etma necha bo‘lsa jafodin injimam, billoh,

Balog‘a dardu g‘am tog‘i boshimg‘a osiyo bo‘lsin.

(I tom, 193, 162 betlar)

Furqat g‘azallari ichida ma‘lum bir so‘zni jinos san‘ati orqali bir necha ma‘nolarda qo‘llash holatlari ham o‘quvchi diqqatini o‘ziga jalb qila oladi. Quyidagi baytdagi «Yo‘lingda» radifi yorga nisbatan tashnalikda uning yo‘lini poylash hamda uning ko‘yi–g‘amida giryon bo‘lish ma‘nolarida ishlatilgan:

Turub har erta, jononim, yo‘lingda,

Oqardi chashmi hayronim yo‘lingda.

Mana bu bayt misralaridagi «lyd» qofiya so‘zi ham musulmonlarning katta hayit bayrami (Ramazon hayit), ikkinchi misrada yorni ko‘rmaklik oshiq uchun baxt, bayram ma‘nolarida qo‘llanilgandir:

Iydkim xalqi jahonga bordurur ro‘zi said,

Dilrabo, har lahza bir ko‘rmak jamoling menga yid

Furqat:

Berdi vasli va‘dasi yolg‘ondin ul chiniy sanam,

Kecha chini bog‘da, yor bir kuni gulbog‘da –

baytida ham so‘z o‘yinidan foydalanadi: sanam–chiniy (rost–haqiqiy) va‘da bergan. Agar u chindan ham rost bo‘lsa, va‘daga muvofiq, u bilan oshiq uchrashuvi chiniy bog‘da (chin bezaklari bilan yasatilgan bog‘da yoki «bir kuni gulbog‘da», ya‘ni kunduzi gulzor orasida amalga oshmog‘i kerak.

So‘nggi yillarda Furqatning ikkita tuyuq she‘ri borligi aniqlandi. Lekin e‘lon qilinganicha yo‘q. Tabiiyki bu tuyuqlarda ham tajnis–jinos qofiyalar ishlatiladi.

Quyidagi mubolag‘a va lutf san‘ati ishlatilgan baytga ham e‘tibor bering:

Azmi gulshan aylasang yuz noz ila ey xush xirom,

Sarv joyidin turib, qaddin bukib aylar salom.

Bo'lg'usi navro'zi olam to chiqib hijron qishi,

Yuz ochib bir–bir bosib fasli bahorim kelsalar–

baytida ham mutanosib, parallelizm san'ati ishlatilgan.

Furqat musammatlari. Zokirjon Furqatning musammat rivojiga qo'shgan hissasi tahsinga loyiqdir. Uning ijodida musammatning murabba' (3ta) muhammas, musaddas shakllarida yozilgan namunalari bor. Muhammaslarning o'zi shakliy–kompozitsion jihatdan ikki xil. Mustaqil muhammaslar, boshqa shoirlar g'azallari asosida yozilgan tazmin (taxmis) muhammaslar. Uning 10ga yaqin mustaqil muhammaslari bor. Shulardan mashhurlari «Ey ko'ngul xushyor bo'l bu kecha yor o'ynabtular...», «Do'stlar, ayshi tarab fasli bahor istar ko'ngul», «Ermis menga g'araz gul guldin nishon o'zingsan» misralari bilan boshlanuvchi she'rlaridir. U Farg'ona vodiysida ijod qilgan yillarida «Bo'ldi», «Biri» radiflarida ijtimoiy mazmunli mustaqil muhammaslar yozadi. U Navoiy, Amiriy, Mashrab, Haziniy, Muqimiy g'azallariga muhammaslar yozgan.

Ustozlar sabog'i. Furqat Alisherbek Navoiy kabi juda yoshligidan kitob mutaolasiga berilib, «Mantiq ut tayr»ni, «Chor devon»ni o'zlashtirishga o'rgangan edi. «Sarguzashtnoma»sida u to'qqiz yoshlarida juma kuni ajoyib tush ko'rib, Navoiy xazratlari ishtirokidagi azizlar davrasida she'r ta'limidan imtihon topshirganligini, ulardan she'r mashqiga duo olganligini hikoya qiladi. Shundan boshlab, uning qalbida birinchi bor buyuk Navoiy shaxsi va asarlariga muhabbat paydo bo'ladi. Furqat butun umri, ijodi davomida Navoiy adabiy maktabidan ta'sirlanib, ta'lim olib bordi. «Navoiy va Furqat» mavzui bu davoning isboti uchun juda boy materiallar beradi. Navoiyning Furqat ijodiga ta'siri ko'p qirralidir. Bu mavzu bo'yicha furqatshunoslikda ancha muhim ishlar qilingan va qilinmoqda. Xususan A.Abduq'afurovning «Navoiy va Furqat» («Buyuk beshlik saboqlari». Toshkent, 1995, 166–180–betlar), A.Qayumovning «Ustozlar sabog'i», «Navoiy g'azallariga Furqat muhammaslari» («She'riyat jilolari». T., Uqituvchi, 1997, 54–75–betlar) maqolalarida bu mavzu maxsus o'rganilgan. Furqat Navoiy g'azallari uslubida qator nazirasifat g'azallar yozgan. Ulardan asosiylari Navoiyning «Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulruh shitob aylab...», «Kelsa kulbanga o'shal berahm yor o'lturgusi...», «Fido aylay itingga kelsa, joni notavonimni...» misralari bilan boshlanuvchi g'azallaridir.

Akademik A.Qayumov «Navoiy ta'siri faqat Furqat g'azalaridagina emas, balki masnaviy va nasrlarida ham seziladi («Ilm xosiyati», «Sabog'a xitob» va b. «Ilmi she'rning qoidai avzoni» –R.O.). Furqat bolalik chog'laridanoq Navoiy she'rlarining jozibasini his etgan, ularning buyuk mutaassirona qudratiga maftun bo'lgan edi. Bu haqda Furqat o'zining tarjimai holi – «Sarguzashtnoma»da bunday

deb yozgan: «Amir Alisherning turkiy devonlarikim, Navoiy laqabdur zabonim qushi ul xirmandin donachin o'ldi». Navoiy ta'sirining ikkinchi shakli bo'lmish Furqatning Navoiy g'azallariga tazmin muhammaslari ham bu fikrlarni to'la tasdiqlaydi. Furqat Navoiyning quyidagi misralar bilan boshlanuvchi g'azallariga muhammaslar bog'ladi:

1. Sahvdur to'bi demak ra'no niholingni ko'rub...
2. Yor bo'lmoq tong emas men zoru rasvo birla do'st...
3. Tun oqshom keldi kulbam soru ul gulruh shitob aylab
4. Soqiyo hajrilgidin ko'p tortadurmen zorlig'...
5. Sarv uza gul ochtikim, qad uzra ruxsorim budur...
6. Ey ko'ngul, kelkim, ikov bo'lub nigori ko'zloli

Keyingi uchta g'azalga bog'lagan taxmislar hali Furqat asarlari nashrida yo'q. Ular XX asrning 60–yillaridan so'ng aniqlandi, topildi. Furqat tomonidan Navoiyning oltita mashhur g'azalini saralab olib, ularni muhammas holiga keltirilishi shunchayki g'azaldagi baytlar hajmini kengaytirish, ko'paytirish emas, balki ustozning sermazmun, badiiy jihatdan go'zal baytlariga mos, ularni boyituvchi, yanada go'zallashtiruvchi misralar ko'shishdir. Buni ikki g'azal baytlariga qo'shilgan band–beshliklarda yaqqol his qilamiz, fikr mazmun taraqqiysini ko'ramiz:

*Ko'ngulda orzuyi vasli ul oliyjanob aylab,
Yotib erdim firoq anduhi jonimg'a azob aylab,
Banogoh, gul yuziga sunbuli zulfin nihob aylab,
«Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulruh shitob aylab,
Hiromi sur'atidin yuz uza terdin gulob aylab».*

*Soqiyo keltur qadah daf'i xumori ko'zloli,
O'rtadi davron g'ami, emdi kanori ko'zloli,
Bosh qotib turguncha olam ichra kori ko'zloli,
«Ey ko'ngul, kelkim, ikov bo'lub nigori ko'zloli,
Sarv qadni izlabon siymin uzori ko'zloli.*

Furqat «Ilm xosiyati» manzumasida ham «Saddi Iskandariy» dostonidagi hakimlar–olimlar haqidagi epizodlardan foydalanadi. «Sabog'a xitob» nomasida esa «Xayratul abror»dagi «Vafo bobida» maqolotidagi masnaviy baytlariga ham mazmun, ham shaklan yaqin misralar bitadi. Navoiy o'z maqolotida yozma adabiyotimizda birinchilardan bo'lib, saboga murojaat etadi, saboga insoniy hislatlar–belgilarni taqib, uni o'ziga hamfikir, hamdam biladi. Furqat ham Istambul shahridan Toshkentga yo'llagan 130 baytli masnaviy salomnomasida shu obrazga murojaat etdi. Shoir sabo obrazini jonlantirib, unga tirik shaxs, sirdosh do'stday murojaat etib, o'z salomlarini Toshkentga do'stlariga yetkazishni so'raydi. Navoiydan so'nggi shoirlar ichida sabo obrazini o'z kulminatsiyasiga chiqargan shoir albatta Furqat bo'ldi.

Furqat ijodiga Navoiydek ustoz sabog'i uning tomonidan Toshkentda faoliyat ko'rsatayotgan rus sharqshunoslari, etnograflariga ma'lumot uchun yaratgan qator risolalari bilan birga Alisher Navoiy «Mezon ul avzon»i asosida yozgan «Ilmi she'rning qoidai avzoni» qo'llanmasida ham ko'rinadi. Bu risolada shoir Navoiy asaridagi vaznlari aniqlangan 49 matla' baytlarni va uch ruboiyni o'zgarishsiz keltiradi. «Mezon ul avzon»dagi shakl–doirani ham aynan keltiradi. Shu tartibda o'z dastxati bilan boshqalar uchun qo'llanma yaratgandek bo'ladi. Navoiy asaridan ko'chirib tuzilgan bu risola ham Furqatning Navoiyning ilmiy asarlaridan ham xabardor bo'lib, ulardan ham saboq olganligini ko'rsatadi.

Furqat XVI asr buyuk ozarbayjon shoiri Muhammad Fuzuliy ijodining ham muhlisi, davomchisi bo'lgan. U Fuzuliy uslubi va tilida she'rlar yozgan. Furqatning Fuzuliy uslubiga ergashib yaratgan g'azallaridan biri «Bengzar nechun ruhingga sahro yuzida lola» misrasi bilan boshlanuvchi g'azaldir. Bu g'azal fuzuliyvor yolqinli, g'oyat aniq ifodalarga ega:

Onjah nahifo 'ldim men xasta Furqatingda,

Tutgil alim, karam et, yetkur dame visola.

Shoirning «Kelinchak» radifli g'azali ham Fuzuliy g'azaliga tazmin ekanligini bilamiz. Furqat g'azalining:

Surmadin ko'zlar qaro qo'llar xinodin lolarang–

misrasi Fuzuliy g'azalidagi:

Surmadin ko'zlar qaro allar xinodin lolarang–

misrasining o'zginasidir. Furqat bir she'rida Farg'onali Farzinxon kabi mashhur hofizlarning Fuzuliy ash'orlariga bastalangan maqom yo'lidagi qo'shiqlarning havas bilan baland pardalarda kuylayotganliklarini shodlik bilan eslatadi.

Furqat «Dushti» radifli ikkita muvashshah g'azalini ham Fuzuliy uslubida yozgan. U buyuk shoirning «Sadqasi» radifli oshiqona–falsafiy g'azalini tazmin muhammasga aylantirgan.

Furqat Navoiydan so'nggi o'zbek shoirlaridan Mashrabning «Mahsharcha bor – gavharcha bor» qofiya–radifli, zamondoshi, ustoz shoir Muqimiyning Furqatga–Yorkentga sog'inch salomidan iborat «ketting» radifli g'azaliga fikran o'xshash, g'azaldagi sog'inch dardlarini yanada chuqurlashtiruvchi tazmin muhammas yozgan.

Zokirjon Furqat an'anaviy musaddas shaklida ham ijtimoiy mazmuni teran g'oyat muhim asarlar ijod qildi. «Sayding qo'yaber sayyod» musaddasida u Fuzuliy va Andaliblar yaratgan «Layli va Majnun» dostonlari syujet to'qimasida keltirilgan sayd va sayyod (ov va ovchi) obrazlari bilan bog'li an'analardan foydalanadi. Biroq, shoir traditsiya zaminida o'z zamonasi uchun, o'zbek xalqi mustamlaka zulmi ostida qolgan davr uchun dolzarb bo'lgan, g'oyaviy–badiiy jihatdan tamomila yangi bir asarni yaratishga muvaffaq bo'lgan. Bu asarda ijobiy qahramonga xos bo'lgan istiqbol orzulari, kelgusidagi erkin va baxtli hayot istaklari ko'tarinki romantik bir

ruhda aks ettiriladi. A.Qayumov fikricha, musaddasning yaratilishiga Furqat rafiqasining yog‘ dog‘lash fojiasi, sahro yo‘lida kiyikni ov qilib otiga ortib ketayotgan ovchi hodisasi turtki bo‘lgan.

Asar sayyod va uning tuzog‘iga ilingan saydga xitoban yozilgan. Sayyod zulm, zo‘rluk, shafqatsizlik, adolatsizlik timsoli sifatida gavdalanadi. Sayd esa qullik, tutqunlik, erksizlik timsolidir. Shuning uchun ham shoir sayyodni yovuz kuch sifatida la‘natlaydi, undan saydni ozod qilishini iltijo qiladi. shoir andeshaga borib, tazyiqdan cho‘chib, o‘z isyonkor fikrlarini, erk–ozodlik haqidagi qarashlarini ramziy obrazlar va istioralar orqali ifodalashga majbur bo‘ladi. U ramziy sayd obrazi orqali aslida tutqunlik va zulm ostida qiynalayotgan insonning ahvolini tasvirlaydi. Har bir oltilik band oxirida shoir o‘zini ohuga – saydga o‘xshatib, «mendek» radifini qo‘llashi ham shuni ko‘rsatadi.

*Sayding qo‘ya ber sayyod, sayyora ekan mendek,
Ol domini bo‘ynidin, bechora ekan mendek,
O‘z yorini topmasdan ovora ekan mendek,
Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mendek,
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mendek,
Kuygan jigari–bag‘ri sadpora ekan mendek.*

Ko‘rinadiki, mazlumlarga, bechoralarga achinish musaddasning barcha misralaridan qizil ip bo‘lib o‘tadi, bu she‘rdagi yetakchi motivdir. Asar aruzning «hazaji musammani axrab» vaznida yozilgandir. Ruknlari:

<i>Sayding qo‘</i>	<i>ya ber</i>	<i>sayyora</i>	<i>ekan mendek,</i>
	<i>sayyod</i>		
maʼulu	mafoiylun	maʼulu	mafoiylun
– – V	V – – –	– – V	V – – –

Furqat zamondoshlaridan Nodim Namangoniy ham 12 5–6 misralik bandlar aralash shunday asar yaratgan. Uni Furqat musaddasiga nazira–javobiya deyish mumkin. H.H.Niyoziy esa Furqat musaddasiga maqom yo‘llarida kuy bastalab, teatr tomoshalarida o‘zi ijro etgan, boshqalarga ham ijro ettirgan (Nodim. Tanlangan she‘rlar, 1964, 63–65–betlar). Uning hammualliflikdagi «Uch harobotiy» deb boshlanuvchi musaddasi ham erkinlik, rindlik kayfiyatlarini qalandarona, so‘fiyona bo‘yoqlarda ifodalovchi asardir. Furqat asarlari ichida bu musaddasdan oldin ham boshqa shoirlar bilan hammualliflikdagi (Zavqiy, Umidiy) she‘rlar uchraydi. «Uch harobotiy» musaddasi ham uch do‘st–qadrdon shoir hamkorlikda yaratgan asardir. Bu she‘r uch oltilikdan iborat turkum asar. Har bir turkumda shakl va fikr bir xilligi mavjud. U uch shoirning mushoirasi jarayonida maydonga kelgan bo‘lishi tabiiy. Uch

shoir biri ikkinchisining oltiliklarini davom ettirishga harakat qilgan. Natijada, uch oltilik turkum she'r maydonga kelgan.¹⁶

Uqdirib o'tmoq lozimki, Furqat Sharqiy Turkistonda O'rusiya mamlakatining fuqarosi sifatida yashagan. U Rossiya konsulxonalari, konsullari bilan aloqa qilib turgan. 1905 yillargacha o'z nomalarini, xabar-maqolalarini Turkistondagi do'stlariga, N.Ostroumovga, «Turkiston viloyatining gazetini»ning muharririyatiga jo'natib turgan, vataniga qaytish umidida yurgan. Biroq uning bu yo'ldagi sa'y-harakatlari qator sabablarga ko'ra natija bermagan. U jumladan 1892 yildayoq Jadda-Makka safari vaqtida N.Ostroumovga maktub yo'llab, rasmiy hujjatsiz safarga chiqqanligi va bundan Rossiya ma'murlari xabardor ekanliklarini eslatadi. General-gubernator imzosi va muhri bilan guvohnoma jo'natilishini so'raydi. Aftidan Furqatning chet ellarga safarga ketishidan ma'murlar xabardor bo'lgan va rozilik bildirganlar. U mas'uliyatli davlat topshirig'i ham olgan emas. Bordi-yu shunday bo'lganda edi u avvaldan rasmiy hujjatlar bilan ta'minlangan bo'lardi. Asosiy sabab erkka chanqoq bo'lgan, mustamlaka asoratida ezilgan Turkiston zaminida ziyolilarni, xalqni yangilikka, ma'rifatga, o'z-o'zini tanishga qaratilgan Furqatdek faol bir tarixiy shaxsning mavjudligi edi. Ular shoirning ko'zdan yiroqda bo'lishidan manfaatdor edilar. Shuning uchun Chor Rossiyasi ma'murlari turli xiyalalar bilan Furqatning Yorkanddan chiqmasligi choralarni ko'rganlar, uning kutilmagandagi vafoti ularni tashvishlarini taskin topdirgan, xolos.

Savollar va topshiriqlar:

17. Furqat qachon tug'ilgan. Asoslar?
18. Furqat hayoti va ijodining taraqqiyot bosqichlari.
19. Furqatning Farg'ona vodiysidagi yaqin zamondoshlari.
20. Yangi va eski Marg'ilondagi mashg'ulot va faoliyati.
21. Oilaviy fojia va uning Furqat ruhiy kayfiyatiga ta'siri. «Sayding qo'yaber...» musaddasining yozilishiga sabab bo'lgan jihatlar qanday?
22. Furqat Xo'jandda. Bu yerdagi adabiy davrning Furqat ijodiga ta'siri mavzuiga doir nimalar bilasiz?
23. «Sayohati Furqat»ning mazmunini so'zlang.
24. Furqat Toshkentda (1889–1891). Ma'rifatparvarlik faoliyatining yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'lgan omillar xususida nimalar deya olasiz?
25. Suvorov hamda nag'ma xususidagi manzumalardagi rus kishilari, ayollari obrazlariga prototip bo'lgan shaxslar kimlar edi?
26. «Ahvolot» memuar asarining ahamiyati. Unda Furqatning Rusiya mavzusida asarlar yozishiga bois bo'lgan sabablar qanday izohlanadi?

¹⁶ А.Қаюмов. Шеърят жилолари. –Т., 1997, 92–99–бетлар.

27. Furqat ma'rifatparvarligining ungacha bo'lgan ma'rifatparvarlikdan farqlari va afzalliklarini nimalarda ko'rasiz?
28. Chet ellarga ketishi va Vataniga qaytib kelolmasligining sabablarini izohlab bering.
29. Furqatning chet el marshruti va u yerlarda yozgan asarlari xususida ma'lumotlar bering. Furqat va salaflar mavzusi va mundarijasi qanday?
30. Furqatning badiiy mahoratiga oid olti bayt keltirib, tahlil qilib bering.
31. Furqat va zamondoshlari mavzui bo'yicha qanday adabiy material va fikrlar keltira olasiz?
32. Furqatning badiiy siymosiga bag'ishlangan qanday adabiy va san'at asarlari yaratilgan?

MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Furqat. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. –T., 1960.
2. Furqat. Tanlangan asarlar. –T., 1975.
3. Mumtoz manzuma. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 11 sentyabr, 1992.
4. Sayohati Furqat. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 14 sentyabr, 1990.
5. Madaminov A. Furqatning yangi topilgan she'rlari. Furqat ijodiyoti. –T., 1990, 112–138–betlar.
6. Holid Rasul. Furqat asarlarining yig'ma ilmiy–tanqidiy matni. –T., 1999.

ILMIY ADABIYOTLAR:

1. Rasul H. Furqat. Tanqidiy–biografik ocherk. –T., 1959.
2. Furqat va Muqimiy haqidagi maqolalar. –T., 1958.
3. «Zokirjon Furqat» maqolalar to'plami. –T., 1959.
4. Abdug'afurov A. Zokirjon Furqat. –T., FAN, 1977.
5. Yusupov Sh. O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyoti va Furqat. –T., O'zbekiston, 1992.

4-MAVZU:

TOSHKENT ADABIY MAKTABI. FAZLULLOH ALMAIY VA KARIMBEK KAMIYLARNING ADABIY FAOLİYATI HAQIDA MA'LUMOT.

Reja:

1. Rossiya bosqini tufayli xonlik sifatida tugatilgan Turkiston xududlaridagi adabiy jarayonda yuzaga kelgan o'zgarishlar. Adabiy jarayondagi turli yo'nalishlar va ularning vakillari ijodiga muxtasar obzor. Toshkent adabiy muhiti vakillari – Almaiy, Karimbek Kamyilar adabiy merosi.
2. Almaiyning ijodiy merosi. Lirikasi. Tarjimalari (“Kalila va Dimna”).

3. Karimbek Kamiy hayoti va ijodining o'rganilishi. Shoirning hayot yo'li.
4. Kamiyning ijodiy merosi. Shoir lirikasida an'anaviy ruh va shakl.
5. Sidqiy Xondayliqiy shoir, xattot, tarjimon. Ijtimoiy-siyosiy she'rlari. Diniy-axloqiy mavzudagi asarlari. Tarjimashunoslikda tutgan o'rni. Dostonnavisligi.

Tayanch iboralar: Qo'qon xonligining tugatilishi (1876). Adabiy jarayoning Turkiston o'lkasining yirik shaharlari–Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Andijon, Namangon, To'raqo'rg'on, Marg'ilon, Xo'jand, Kattaqo'rg'onda turli tarkib va xolatlarda davom etishi. G'oya va uslubda nisbatan har bir shoirga, adibga xos xususiyatlar. Almaiy, Karimbek Kamiy.

Yangi ijtimoiy–siyosiy va madaniy omillar ta'sirida adabiy hayotda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Dunyoviy–realistik va romantik uslubdagi adabiyot–larning parallel rivoji bilan birga ilg'or ma'rifatparvarlik adabiyoti ham tez rivojlana boshladi. Bu yo'nalishdagi adabiyot namoyandalari feodal saroylari muhitidagi shoirlarga nisbatan hayotni, undagi ijobiy va salbiy jarayonlarni konkret, to'laroq aks ettirish yo'lidan bordilar, hatto ikki yoqlama zulmni qoralash, uning aybdorlarini badnom qilish darajasiga ko'tarildilar.

Sobiq Turkiston o'lkasi, Rossiya tasarrufidagi joylarda uyushgan, shakllangan (Xiva, Buxorodagidek) adabiy markazlar yo'q edi. Biroq Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, Andijon, Samarqand, Toshkent, Kattaqo'rg'on kabi yirikroq shaharlarda turli tarkibdagi, bir–biri bilan yaqindan ijodiy hamkorlik qilib turuvchi ijodkorlar davralari mavjud edi. Masalan, Qo'qonda–Muqimiy, Furqat, Nisbatiy, Muhyi, Zavqiy; Toshkentda–Kamiy, Xolis, Hislat; Samarqandda–Saidahmad Vasliy, Spandiy; Kattaqo'rg'onda–Miri, Noqis, Mahdiy, Ahqar kabilar. Ularni biz «atrof–muhit shoirlari» deb atasak ham bo'ladi. Ayniqsa shular ichida Qo'qon shoirlari davrasida hajviyotning hujumkorlik roli oshdi. Publitsistika janri paydo bo'ldi. Lirik she'riyatda shoirlar an'anaviy–romantik obrazlarni tasvirlash bilan birga, o'z davriga, zamonadagi insonlarga murojaat eta boshladilar. An'anaviy lirik obraz orqali ham zamonadan norozilik, shaxsning erkin nafas olishi uchun kurash ohanglari aks ettira boshlandi. Ma'rifatparvalik targ'ibiga bag'ishlangan asarlarning mazmuni, obrazlarini ham real turmush haqiqatlari tashkil etdi. Furqat, Kamiy va G'urbatlarning gimnaziya haqidagi g'azal–qasidalarida, Ahmad Tabibiyning «Ma'rifat», Avazning «Maktab», «Til» asarlarida shunday.

Milliy uyg'onish davri, ayniqsa, badiiy adabiyotdagi janrlar taraqqiyotida, uning obrazlar sistemasida ko'proq namoyon bo'ldi. Bu davr adabiyotining Muqimiy, Furqat kabi yetuk namoyandalari ijodida satirik yo'nalishdagi, ma'rifatparvarlik mazmunidagi she'riy–hikoya (masnaviy–manzumalar), she'riy «Sayohatnoma»

(Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Nodim, G'urbat) hamda maktubot janrlari rivoj topdi; hajviyatning turmushdagi qoloqliklar ustidan keskin hukm chiqarishga qaratilgan namunalari, shunindek hazl–mutoibaga boy, turmush haqiqatlari ifodasidan iborat yumoristik asarlar turkumlari maydonga keldi, (Muqimiy, Zavqiy va b.) maktublarda ham ijtimoiy–publitsistika ruhi kuchaydi. Ulardan ham milliy uyg'onish davri ohanglari o'rin oldi. Qator asarlarda–g'azallarda, muhammaslarda, she'riy hikoyalarda mustamlaka zulmiga qarshi xalq noroziligi kayfiyatlari aniq ifodalana boshlandi Muqimiyning «Tanobchilar», «Maskovchi boy ta'rifida», «Dar shikoyati Laxtin», «Dar hajvi Viktor»; Zavqiyning «Qaxatchilik», «Zamona», «Ajib zamona» kabi asarlarida shunday. Adabiy jarayonda bir–biridan faqlanib turuvchi yo'nalishlar paydo bo'ldi:

1. Xalqchil romantik; 2. Xalqchil realistik; 3. Ilg'or ma'rifatparvarlik; 4. Diniy–tasavvufiy (u ham xalqchil) yo'nalishlarda davom etdi, shu yo'nalishlarga mansub shoirlar adabiy qiyofasini ular asarlarning mavzulari, timsollari, shakliy–uslubiy jihatlari, estetik prinsiplari bergiladi.

Qori Fazlulloh Almaiy (1852–1891). Shoir, olim va tarjimon sifatida madaniyatimiz tarixida muhim iz qoldirgan Almaiy Toshkentda bo'zchi oilasida dunyoga kelib, o'smirlik yillarida Buxoro madrasalarida o'qidi, u yerdagi olimu shoirlar bilan muloqotda bo'lib «Bedilxonlik»da o'z zukkoligini namoyishi ettirdi. Biroq egnida bir yaktak, eski salla va oyoq yalang Toshkentga qaytdi: «Xatmi kutub–fotihadan (bitirish marosimi) so'ng Abdushukur madrasasida mudarrislik qila boshladi. Almaiy o'z bola–chaqalarini xattotlik hunari bilan boqqan. Muqimiy bilan nihoyatda yaqin munosabatda bo'lgan. Muqimiyning Almaiyning «Hayot» radifli falsafiy g'azaliga tazmin muhammas bog'laganligi ham ma'lum. Almaiy (ma'nosi–zukko, zehni o'tkir) o'z davrining iste'dodli, bilimli shoiri, olimi sifatida hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan g'azallar, muhammaslar, qit'alar, ruboiylar, fardbaytlar, masnaviylar yaratgan. Uning arab tilida bitgan she'rlari ham bor.

Almaiy forsiy tildagi adabiyotning mashhur rindsifat shoirlari Jaloliddin Rumi, Hofiz, Abdurahmon Jomiy, Bedil kabilarning orifona g'azallari asosida original beshlamalar yaratib, ularning adolat, insof, mehru shafqat, vafo, sadoqat, to'g'rilik, ishqda poklik kabi umumbashariy g'oyalarini rivojlantirgan, badiatan go'zal baytlar yaratgan:

Bo'yla demish dahrini donish fani,

Ekma yomonlig'ni, o'rarsan ani.

Sitamgar zulmidin yoqti olovni,

Uzin kuydirdiyu, yana birovni.

*Gar topibsen ma'rifat nuri safosin ey o'g'il,
O'zgani ham bahramand et, bo'lmag'il zinhor baxil.*

*Kimki ko'cha ustig'a qo'yg'ay tuzoq,
O'zi solg'ay ul tuzog' ichra oyog'.*

*Do'sting garchi ming erur kamdur,
Dushmaning bo'lsa gar bir-u ko'pdur.*

*Chiqmag'il makkorlig'ni tomig'a,
Tushkaysen anda baloning domig'a.
Ketti yoru orzusi qoldi ko'nglumda nihon,
Sarv yanglig' qomatining shavqi bu dilda nihon.*

Almai mashhur xind masali «Kalilai Dimna»–ni o'zbek tiliga tarjima etdi. Bu asar uch marta (1898, 1901, 1903 yillarda) chop etilgan. Qadimgi xind adabiyotida «Panchtantra» nomi bilan mashhur bo'lgan bu asar eramizning III–IV asrlarida noma'lum avtor tomonidan tuzilgan rivoyat va masallar majmuasidir. Undagi har bir fasl qahramoni voqea davomida bir rivoyat aytib beradi va qissadan hissa tarzida yakunlanadi. U didaktik masallar kitobidir Almai bu asarni 1896 yilda tarjima etgan.

Karimbek Kamiy – milliy uyg'onish davrining faol ijodkorlaridan. Shoir ijodini o'rganishda asosiy manba– uning asarlari. Asarlarining shu davrda tuzilgan bayozlarga kiritilishi, vaqtli matbuotlarda bot-bot chop etilishi shoir ijodini ommalashtirishning birinchi bosqichi edi. Demak, shoir ijodi uning hayotlik chog'idayoq e'tiborga tushgan.

Shoir Karimbek Kamiy o'z davrining e'tirof etilgan shoirlaridan biri sifatida haqli suratda XX asrda tuzilgan majmua-bayozlardan o'rin olishi bilan bir qatorda, bayozlarda ijodkor do'stlar tomonidan u haqda yozilgan g'azallar ham uchraydiki, bu ham Kamiyning shoirlik darajasini belgilab beradi. Inchunun, 1912 yili G'.H. Orifjonov matbaasida chop etilgan “Bayozi mahbubu-l-mahbub” kitobda shoir Omoniyning “Dar madhi janobi mavlono Kamiy Toshkandiy...” g'azali berilgan bo'lib,

Baldai ash'arni kezgan hasti mavlono Kamiy,
Boisi taskin bo'lur deb ishqa mavlono Kamiy -

deya g'azal "bal dai ash'arni» (o'n shaharni) kezgan Kamiyni vasf etish bilan boshlanadi. G'azal to'laligicha Karimbek Kamiy madhiga bag'ishlanadi.

Shoirning ismi Karimbek, otasining ismi Sharifbek, Kamiy esa adabiy taxallusidir. Mulla Karimbek Kamiy 1865 yillarda Toshkent shahrida Sebzor dahasiga qarashli Chaqar mahallasida choponfurushlar oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Sharifbek aka adabiyotga ayrica mehr qo'ygan kishi edi. Sharifbek akaning to'rt o'g'li, bir qizi bo'lib, ular Mahmudbek xoji, Ahmadbek, Rahimbek, Karimbek va Bibinisolardir. Farzandlar ichida Karimbek yoshligidan zehni tez bo'lgani sababli otanasi ham, maktabdor domlasi ham uning bilim olishiga ayrica ahamiyat bera boshladilar. Ma'lumotlarga qaraganda, shoir Kamiy ibtidoiy maktabni o'sha vaqtning mashhur maktabdori, ham xattoti Mozorxon mahallalik Mansurxon domlada tamom qilib, «Beklarbegi» madrasasiga kelgan hamda Shomahmud Oxundda dars o'qib, «xatmi kutub» qilgan. M.Toshqin Kamiyning haqiqatan-da g'aribona hayot kechirganligini yozar ekan, "rastalardan o'tgan chog'ida do'koniga chaqirib, choy-non qiluvchilar bor bo'lsa-da, juda oz topilar, ular ham masjid yoki mehmonxona solgan bo'lsalar, she'r bilan bino tarixi yozdirib olish yoki so'zlarini ta'rif qildirib, bir she'r yozib berishni aytilish uchun chaqirar va ko'p pul va'da qilib, juda oz narsa to'laganligini» e'tirof etadi.

Shoir Karimbek Kamiy 1922 yil yoz faslida 57 yoshida o'zi tug'ilgan hovlisida vafot etdi.

Ko'rinadiki, shoir Kamiy an'anaviy shakllarni takomillashtirish, yangi mazmunni ifodalovchi yangi obraz va tasviriy vositalar yaratish bilan milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotini boyitishga munosib hissa qo'shdi.

Sidqiy Xondayliqiy (taxallusi; asl ism-sharifi Sirojiddin Maxdum Mirzohidoxund o'g'li) (1884 — hozmrgi Bo'stonliq tumani Xondayliq qishlog'i — 1934) — shoir, xattot, tarjimon. Arab, fors tillarini o'rgangan. Xattotlikka qiziqqan, zamonasining mashhur qilqalami Muhammad Shohmurod kotib (1850—1922)ga shogird tushgan. Sidqiy tosh yo'nib, unga ishlov berish, turli bezaklar tushirish, suratlar ishlash, muhr yasash bilan ham shug'ullangan. Ayni paytda she'r mashq qilgan. Shoir sifatida shakllanishida Kamiyning xizmati katta bo'lgan. U boshliq adabiy davralarda faol ishtirok etgan.

Ilk she'rlarini «Shuhrat», «Shevan» (nola, fig'on) taxalluslari bilan yozgan («Tuhfai Shavkat», 1913; «Savg'oti Shavkat», 1914 — to'plamlar). Keyinroq barcha asarlarini Sidqiy taxallusi bilan chop ettirgan. Lirik she'rlarida mumtoz adabiyotimizdagi hayotiy, insoniy muhabbat, odamiylik singari yaxshi an'analarni davom ettirgan.

Poetik merosining salmoqli qismini hajviyot va ijtimoiy she'rlar tashkil qiladi. Ijtimoiy-siyosiy she'rlari esa davrning muhim voqyealariga bag'ishlangan («Muhoraba», «Yashasun yoshlar», «Toza hurriyat» va b.)Mardikorlik voqyealari haqida asarlar yozgan [«Rabo(t)chilar namoyishi». «Rabo(t)chilar kelishi», 1917].Sidqiyning «Rusiya inqilobi» dostoni (1917, mart) Rusiya inqilobi voqyealarini keng epik planda tasvir etuvchi dastlabki asar. Dostonning hajmi 1502 misra. Shundan 72 misrasi fors-tojik tilida, qolgani o'zbekchada yozilgan. Voqyealar 23 fev. — inqilobning birinchi kuni tasviridan boshlanadi, so'ng kunmakun beriladi.

Sidqiy Fevral inqilobini quchoq ochib qarshi olsada, uning natijalaridan qanoatlanmagan. Doston inqilobdan keyingi sharoitni jiddiy va atroflicha tahlil etish, barchani birlikka, hamjihatlikka chorlash bilan yakun topgan. Bu g'oya «Umidi ittifoq» (1918) tarji'bandida davom etadi.

Sidqiy «Tazkirai imomi A'zam», «Sad irshodi mulla Sidqiy Xondayliqiy» («Mulla Sidqiy Xondayliqiyning yuz nasihati»), «Mezoni shariat» (1915, 1917, 1992), «Zarbulmasali Sidqiy», «Holoti Sidqiy» kabi nasriy asarlar ham yozgan. Ularning ko'pchiligi diniyaxloqiy mavzuda. «Hikoyai latifa», «Bahrom va malikai Gulandom», «Ajoyib ulmaxluqot», «O'g'ri va qozi», «Bo'ston» (Sa'diy) kabi asarlarni tarjima qilgan. Sidqiy ko'chirgan devon, bayoz va risolalar, yasagan muhrlari nusxalari, toshlavhalar hamda chizgan To'ychi Hofiz va Tavallo suratlari xususiy va davlat kutubxonalarida, shuningdek, 20 dan ortiq bosma va qo'lyozma asarlari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. “Kalila va Dimnai turkiy”ning xos xususiyatlari
2. Kamiy ijodida milliy uyg'onish mavzui.
3. Kamiyning adabiy davrasi.
4. Xondayliqiy ijodida ijtimoiy-siyosiy mavzu.

Tayanch iboralar:

1. Almaiy she'rlarining mavzu ko'lam.
2. Almaiy va Muqimiy.
3. Almaiy – tarjimon.
4. Almaiy va “Kalila va dimnai turkiy”.
5. Kamiy hayoti.
6. Kamiy va Toshkent adabiy muhiti.
7. Kamiy – lirik shoir.
8. Kamiy – ma'rifatparvar.
9. Shoir dunyoqarashi.
10. Kamiy she'riyatining tili.

Kursning informasion-metodik ta'minoti

1. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. va b. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. –T.: Ma'naviyat, 2004.
2. Almaiy. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi S.Dolimov). T., 1965.
3. Jalolov A. Shoir Kamiy Toshkandiy. //O'zbek tili va adabiyoti, 1969.
4. Hamidova M. Bayoznavis shoirlar. Adabiy meros. 3-kitob. T, 1973.
5. M.Zokirov. Mavlono Kamiy». //Toshkent oqshomi, 1990 yil 14 dekabr.
6. To'laboyev O. Karimbek Kamiy. //O'zbek tili va adabiyoti, 1993, 4-son.
7. To'laboyev O. «Suxanvarlik iqlimida shuhrati bordir». //Toshkent universiteti, 1994 yil 25 fevral.

8. Oltin O. «Der Kamiy: uyg'oning emdi». //O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1994 yil 15 avgust, 31-32-son
9. Karimbek Kamiy «Dilni obod aylangiz». Tanlangan asarlar. T, «Ma'naviyat», 1998 – 160 bet.

ADABIYOTLAR

1. Qosimov B., Yusupov Sh.,DolimovU., Rizayev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent, «Ma'naviyat»,2004
2. Qosimov B.Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent «Ma'naviyat» 2002.
3. Orzibekov R. Milliy uyg'onish davri adabiyoti. Samarqand.
4. O'zbek adabiyoti tarixi.11 sinf darsligi. (Karimov B.,Normatov U.,Nazarov B.) Toshkent, «O'qituvchi» 1997.
5. Milliy uyg'onish. Toshkent, «Universitet» 1993.
6. Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi Sh kitob. Toshkent, 1987
7. O'zbek adabiyoti tarixi.U jildlik U jildi. Toshkent, «Fan» 1980.

**MILLIY VA IJTIMOIIY KURASHLAR DAVRI ADABIYOTI BOSQICHI.
ISMOILBEK GASPRINSKIY, MAHMUDXO'JA BEHBUDIY VA ABDULLA
AVLONIYLARNING HAYOTI VA IJODIY FAOLİYATI**

*XX аср бошлари Туркистонда ижтимоий сиёсий, маданий ҳаёт.
Жадидчилик. Туркистонда жадидчиликнинг ривожланиши босқичлари.
Даврлаштириш тамойиллари. Жадид адабиёти.*

Мазкур давр хронологияга кўра икки қисмни ўз ичига олади: 1. 1905-1917 йиллар; 2. XX асрнинг 20-йиллари.

1905-1917 йилларда Русия ва жаҳон тарихида юз берган бир қатор муҳим сиёсий воқеалар Туркистон ижтимоий-маданий ҳаётига сезиларли таъсир кўрсатди. Чунончи, 1904 йилда бошланган рус-япон уруши ва Русиянинг енгилиши, 1905 йилда мамлакатда юз берган ҳукуматга қарши ғалаёнлар ва буларнинг натижаси ўлароқ подшо 2-Николайнинг барча фуқароларга, шу жумладан, тобеъ миллатларга сўз, матбуот, виждон эркинлигини ваъда этувчи 17 Октябр Манифестини эълон қилишга мажбур бўлиши, Биринчи Жаҳон уруши ва Туркистондаги мардикорлик воқеалари, 1917 йил Феврал, Октябр ўзгаришлари, ниҳоят шу йили 27 ноябрда Туркистон мухториятининг эълон қилиниши ва хоинона қонга ботирилиши каби оламшумул ҳодисалар муҳим аҳамиятга эга бўлди. XX аср боши ўзбек адабиётида бу воқеаларнинг акс-садосини сезмаслик мумкин эмас. Машҳур татар шоири Абдулла Тўқай шуни кўзда тутиб:

Биз Бешинчи йилда бир кун кўзни очдик тонг билан,

Ишга даъват этди бизни кимдир эзгу ном билан,-

деб ёзган эди. 1905 йил воқеалари Туркистонда ҳам акс-садо топан. Шоира Нозимахоним(1870-1924)нинг:

“Баён эт, эй кўнгул, розингни ҳар дам,

Эшитсун аҳли диллар, бўлса ҳамдам”, -

сатрлари билан бошладиган бир шеъри бор. Шоира бўлиб ўтган “турфа талотўф”лар, “еярга нони йўқ бечора мардум”нинг “ўз аҳволин” айтиб “музлам” бўлиб қолгани, “хуррият эрклик талошин” қилган “юрт эрлари”нинг “бадном” қилиниб, “бошлари кесил”гани ёхуд “бадарға” этилгани ҳақида ёзган эди. Қолаверса, XX аср бошида Русиянинг бир-биридан узоқ уч нуқтасида - Туркистон, Кавказ, Волгабўйида истиқомат қилаётган туркий халқлар ўртасида қардошлик ва ҳамкорликка таянувчи ўзаро хабардорлик пайдо бўлди. Ва бу Туркистон шаъни устида кетган катта-кичик барча ҳодисларда, айниқса, 1916 йил мардикорлимк воқеаларига муносабатда ёрқин намоён бўлган эди.

XX асрнинг 20-йиллари эса эски мустамлака тузумидан янгисига, сотсиалистик диктатурага ўтиш даври бўлди. Ўтиш даврида ҳамиша муайян эркинликларга имкон қолади. 20-йилларнинг биринчи ярмидаги қизғин адабий-маданий ҳаракатчилик ва Фитрат, Қодирий, Чўлпон ижоди мисолида янги

адабиётнинг энг сара намуналарининг худди шу даврда майдонга келиши бежиз эмас.

XX аср Туркистонда ҳам Русияда бўлгани каби йирик сиёсий ҳодисалар билан бошланди. 1900 йиллардан иқтисодий бўҳронга кирган Русияда Япония билан урушдаги муваффақатсизликдан сўнг таназзул янада чуқурлашди. Табиийки, бундай шароитда мустамлака халқларининг, биринчи навбатда, Туркистоннинг ахволи оғирлашди. Янги қурилиб битказилган Красноводск (1898) ва Оренбург (1905) темир йўли ўлкани ҳар икки томонидан маҳкам сиқиб олиб, ўнгу сўлга қайрилишга имкон бермас, Туркистоннинг ададсиз табиий бойликлари кети узилмас вагонларда Русия марказига оқарди. Хусусан, пахтага зўр берилди. Қоракўл, ипак, қуруқ мева ҳам четда қолмади. Русия Туркистонни асосий хомашё манбаига айлантирди.

Русиядан миллионлаб мужикларни кўчириб келтириб, маҳаллий халқдан тортиб олинган серҳосил ва унумдор ерларга жойлаштириш авж олди. Ўлка мустамлакачиликнинг шафқатсиз тартиблари билан идора этила бошланди. Маориф ва ижтимоий соҳаларда эса исломни бузиш, ерли халқни руслаштириш давлат сиёсати қилиб белгиланди. Ушбу мақсадни кўзда тутувчи давлат қарамоғидаги рус-тузем мактаблари кўпайиб борди. Бу мактаблар тубжой болаларга дастлабки таълимни беришни, гўдаклигиданок ақлу фикрини жиловлаб олишни кўзда тутарди. Ўрта мактабларга улар ўқишга қўйилмас эдилар. Рус-тузем мактабларига муносабат ерли зиёлиларда икки хил эди:

1. Ҳамкорлик қилувчилар (Саидғани Саидазимбой ўғли, Сатторхон Абдуғаффоров, Саидрасул Саидазизов).

2. Рад этувчилар (И. Гаспринский, З. Валидий, М. Чўқаев).

1905 йил 17 Октябр Манифести халққа матбуот ва сиёсий ташкилотлар тузишга рухсат бергач, Туркистон жаидлари бир қатор уюшма-жамиятлар билан бирга газета-журнал ишларига ҳам киришдилар. Шулардан бири 1906 йилнинг 27 июнида дунё кўрган “Тараққий”¹ газетаси эди. “Бугазета тез фурсатда шундай шуҳрат қозондики, - деб ёзади Абдулла Авлоний, - ҳатто газета муҳаррири бўлган Исмоил Обидийга “Тараққий” исми берилди. Ҳозиргача халқ Исмоил Обидийнинг исмини “Тараққий” деб юритадур”.

“Хуршид” (1907), “Шуҳрат” (1907), “Тужжор” (1907, муҳаррири Саидкарим Саидазимбой ўғли), “Осиё” (1908, муҳаррири Аҳмаджон Бектемиров) каби газеталар ҳам чиқа бошлади. Бу газеталарнинг ҳеч бири узоқ яшай олмади. Айримлари иқтисодий, баъзилари эса, сиёсий сабаблар билан бекитилди.

Самарқандда Маҳмудхўжа Бехбудий “Самарқанд” (1913) газетасини ва “Ойна” (1913-1915) журналинини чиқарди.

Тошкентда 10-йилларда “Садойи Туркистон” (1914, муҳаррири Убайдулла Хўжаев), Фарғонада “Садойи Фарғона” (1914, муҳаррири Обиджон Маҳмудов), “Тирик сўз” (1915, муҳаррири Обиджон Маҳмудов), Бухорода

¹“Тараққий” газетаси ташкил топган кун шозир Ўзбекистонда “Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимлари кунини” сифатида нишонланади.

“Турон” (1913) каби газеталар, “Ал-ислоҳ” (Тошкент, 1915-1918, муҳаррири Абдурахмон Сайёҳ) журнали чиқиб турди.

Адабий кучлар кўпроқ мана шу газета-журналлар атрофида уюшдилар. Чунончи, Самарқандда “Ойна” Маҳмудхўжа Бехбудий (1875-1919), Саидахмад Васлий (1869-1925), Сиддикий-Ажзий (1864-1927), Саидризо Ализода (1887-1945), Ҳожи Муин (1883-1942) каби истеъдодларни тўплади. Бухородан Фитрат (1886-1938), Тошкентдан Камий (1865-1922) фаол қатнашиб турдилар.

Тошкентда “Садойи Туркистон” газетасида Мунавварқори (1878-1931), Абдулла Авлоний (1878-1934), Тавалло (1883-1937), Хислат (1880-1945), Мирмулла (1886-1923), Абдулла Қодирий (1894-1938) фаол иштирок этдилар. Қўқондан Иброҳим Даврон (1874-1922), Ҳамза (1889-1929), Андижондан Абдулҳамид Сулаймон Чўлпон (1897-1938)нинг шеър ва мақолалари тез-тез босилиб турди.

10-йилларнинг бошида, бемалол айтиш мумкинки, янги адабиёт шаклланиб улгурган эди. Бу борада 1901 йилдан чоп этила бошлаган Мунавварқорининг “Адиби аввал”, “Адиби соний”, Саидрасул Азизийнинг “Устози аввал”(1902), Алиасқар Калининнинг “Муаллими соний”(1903), сўнграқ Абдулла Авлонийнинг “Биринчи муаллим”, “Иккинчи муаллим”, Рустамбек Юсуфбеков(1880-1950)нинг “Таълими аввал”, “Таълими соний” каби дарслик ва дарслик-мажмуалари, хусусан, улардаги ихчам дидактик шеър ва ҳикоялар янги адабиётнинг шаклланишида илк тажрибалар вазифасини ўтади.

Абдулла Авлонийнинг “Адабиёт ёхуд миллий шеърлар” (1909), Саидахмад Васлийнинг “Миллий шеърлар” (1912), Сидкий Хондайликийнинг “Тухфайи Шавкат (1913), “Савғоти Шавкат” (1914), “Базми ишрат” (1914), Ҳожи Муиннинг “Тулдастаи адабиёт” (1914) китоблари янги ўзбек шеърятининг дастлабки намуналари эди.

Маҳмудхўжа Бехбудий 1911 йилда ёзиб, 1913 йилда чоп этган “Падаркуш” драмаси билан ўзбек драмачилигини бошлаб берди. “Фалокатзада” (1911 йил, муаллифи: Абдулрауф Шаҳидий), “Бефарзанд Очилдибой” (1914 йил, муаллифи: Мирмуҳсин Шермуҳамедов), “Дўхтур Муҳаммадёр” (1914 йил, муаллифи: Чўлпон) каби илк реалистик проза намуналари пайдо бўлди.

Матбуотнинг майдонга келиши публицистика тараққиётига йўл очди. Бу борада Бехбудий, Фитрат, Мунавварқориларнинг хизмати катта бўлди.

Туркистоннинг кўзи очик зиёлилари оқ империяни ҳам, қизил империяни ҳам қабул қилган эмас. Шу сабабли, Октябрнинг дастлабки кунлариданоқ миллатнинг ватанпарвар фарзандлари истиқлол йўлларини қидирдилар. Архив материаллари ва тарихий шахсларнинг гувоҳликлари 1917 йилдан ўлкада шу мақсадни кўзда тутувчи “Иттиҳод ва тараққий”, “Турк адам марказияти”, “Иттиҳоди миллий”, “Бирлик” (1919), “Эрк” (1919), “Темур”, “Ботир гапчилар” каби яширин ташкилотлар тузилганлигини, 1921 йилда “Туркистон миллий бирлиги” ташкил топганлигини кўрсатади. Туркистон миллий бирлиги 20-йилларда тарихга “босмачилик” номи билан кирган миллий-озодлик ҳаракатларини ўзаро мувофиқлаштириб боришда муҳим рол ўйнади.

Биринчи Жаҳон уруши йилларида, сўнг инқилобий ҳаракатлар даврида матбуот ва адабиёт фаоллашди. Тошкентда “Нажот” (муҳаррири: Мунавварқори), “Шўройи ислом” (А.Баттол), “Турон” (Авлоний), “Кенгаш” (Заки Валидий), “Улуғ Туркистон” (Кабир Бакир), “Турк сўзи” (Т.Худоёрхонов), “Халқ дорилфунуни” (Мухтор Бакир), Самарқандда “Хуррият” (Мардонкул Шохмуҳаммадзода, Ақобир Шохмансур, Абдурауф Фитрат), Қўқонда “Эл байроғи” (Пўлат Солиев), Наманганда “Фарғона нидоси” (Ҳусайн Мақаев) каби кўплаб газеталар, “Кенгаш” (Қўқон, Ҳамза, Раҳимжон Ҳожи Турсунмуҳаммад ўғли), “Юрт” (Қўқон, Ашурали Зоҳирӣ), “Хуррият” (Қўқон, Маҳмудхўжа Ризоӣ), “Чаён” (Тошкент, Ҳ. Тўлаков, И. Тоҳирӣ), “Ишчилар дунёси” (Тошкент, “Изҳорил-ҳақ Садриддинхўжа муфти ибн Шарифхўжа эшон) каби ўнлаб номдаги бир кўриниб, ёпилган журналлар кўп бўлди.

1918 йилдан социалистик матбуот изга туша бошлади. Унинг дастлабки намунаси шу йилнинг 20 июнидан чиқа бошлаган “Иштирокиюн” газетаси (масъул муҳаррирлари: О.Клеблеев, А.Авлоний, Н.Тўрақулов, А.Донской, Ҳ.Бурнашев, Мирмуҳсин) бўлди. Газета 1920 йилнинг 19 декабридан “Қизил байроқ”, 1922 йилнинг 13 сентябридан “Туркистон” номларида давом этади. “Маориф” (1918, Тошкент), “Болалар йўлдоши” (Самарқанд, 1919), “Таёқ” (Самарқанд, 1920), “Тонг” (Бухоро, 1920), “Қизил тикон” (Наманган, 1920), “Қизил йўл” (Тошкент, 1920), “Қасабачилик ҳаракати” (Тошкент, 1920) каби умри қисқа журналлар дунё юзини кўрди.

1918 йилда Тошкентда Фитрат ташаббуси билан “Чиғатой гурунги” адабий-маданий уюшмаси майдонга келди ва Чўлпон, Боту, Элбек, Ғози Юнус, Ғулом Зафарӣ, Маннон Уйғур, Қайом Рамазон каби фан ва маданиятимизнинг ёрқин истеъдодларини ўз атрофига тўплади. Бор-йўғи бир ярим йилча фаолият кўрсатган ушбу уюшма – жамият тил-имло қоидаларини ишлаб чиқишда, адабиёт тарихини ўрганиш, системалаштиришда, театрчиликни юксалтиришда катта ишлар қилди. Бироқ бундай миллий-маданий тикланиш йўллари тобора ёпила борди ва маданий-адабий ҳаёт ҳам секин-аста сиёсат измига тушиб қолди.

10-йилларнинг иккинчи ярми “Ўзбек жаҳид адабиёти” номи билан тарихга кирган янги адабиётнинг шаклланиб, дастлабки дадил қадамларини ташлаган йиллар бўлди. Миллий матбуотнинг майдонга келиши билан янги адабиётнинг мазмун ва йўналиши, тил ва услуби, жанр ва мавзулари, бадиияти билан боғлиқ масалалар кенг муҳокама қилина борди.

Даврнинг талаб ва эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда социал-ижтимоий мавзуларга, замонавий масалаларга, маърифат ва озодликка катта эътибор берилди. Абдулла Авлоний “Ойнайи ҳар миллат эрур тил-адабиёт”, -деб ёзади. Маҳмудхўжа Бехбудӣ, Мунавварқори Абдурашидхонов театрни “ибратхона” деб атадилар. Мирмуҳсин Номӣ Қамол изидан бориб, “Шоирларимиз замонанинг бир лисонидур...Замонаға муносиб миллий шеърлар майдонга чиқсун!” деган фикрни илгари суради, анъанавий муаммочиликни, тақаллуфу суҳанпардозликни рад этади. Тўғридан-тўғри гапга, жумладан ижтимоий

сатирага-ҳажвияга зўр бериб, “Очилсун интиқод (танқид) манбалари!” шиорини ўртага ташлайди.

Сиддиқий-Ажзий маърифатга муҳаббат эълон қилади. Маъшуканинг анъанавий сифатларини маърифатга кўчиради ва ҳоказо.

Бироқ 10-йиллар шеърияти маърифатни мақсад эмас, восита деб билди. “Кучлик” миллатлар – “жаҳон Жайхунлари” ҳақида ёзди. “Кучсиз”ларнинг уларга лукма (“туъмаи тайёр”) бўлаётганликларига (Авлоний) диққатни қаратди. Шоир Баҳриддин Азизий очикдан-очик сиёсий ташкилот (“жамъият”)лар тузиш, ўзаро иттифоқ бўлиш ва “жумҳурият” учун “бир тил” бўлиб курашиш лозим, деб ҳисоблайди. Сиддиқий-Ажзий эса, бу борада ўзига хос иқтисодий назарияларни илгари суради.

Бугина эмас, шеърият янги қурилажак давлат ва жамиятнинг сиёсий тузумидан ахлоқий турмушигача, иқтисодидан маданиятигача қизиқди. Хуллас, 10- йиллардаги янги ўзбек шеърияти, бу, биринчи навбатда, ижтимоий-сиёсий шеъриятдир.

Айни пайтда, унда қатор поэтик-стилистик ўзгаришлар юз берди. Авлоний ва Ҳамза кўпгина шеърларини қадим шеърий вазнимиз бармоқда ёздилар. Ҳамза сарбастда ўз имкониятларини синаб кўрди (“Шеъри мансур”). Сиддиқий-Ажзий ва Тавалло социал сатиранинг анъанавий аруздаги энг сара намуналарини яратдилар.

Шеърият Биринчи Жаҳон уруши йилларида, хусусан мардикорлик воқеалари даврида ғоят жонланди. Чунончи, мардикорлик воқеаларига бағишланган ўнга яқин шеърий тўплам чоп этилгани маълум. Булар орасида Муҳиддин Иброҳимов тузган “Лошмон” (Наманган, 1916), Ҳамзанинг “Миллий ашувлалар учун миллий шеърлар мажмуаси”нинг 7-бўлими- “Сафсар гул” (Қўқон, 1917), Акбарий Тошкандийнинг “Ватанга хизмат” (Т., 1917), Сидқийнинг “Работчилар намоиши” (Т., 1917), “Работчилар келиши” (Т., 1917), шунингдек Баҳриддин Азизийнинг “Янги шугуфа ёхуд миллий адабиёт” (Т., 1917), Сидқийнинг “Русия инқилоби” (Т., 1917) каби асарларида ҳам мардикорлик воқеалари тасвири учрайди. Бу асарлар, бир қараганда, маҳаллий халқни мардикорликка бориб, оқ подшо хизматини қилиб келишга тарғиб-ташвиқ этаётгандай бўлса-да, аслида унинг тагсатрларида халқнинг осойишта ҳаётини алғов-далғов қилиб юборган, уруш баҳонасида миллатнинг шаъну шукуҳини оёқости этган ҳукмрон миллатга истехзо, ўз она халқини ғафлатдан уйғонишга, қуллиқдан қутулишга даъват балқиб турар эди.

Мардикорларнинг у ерлардаги оғир ва машаққатли ҳаёти Сидқийнинг “Работчилар келиши” китобида ва Ҳамзанинг “Сафсар гул”идаги “Ватан ишчиларининг забун ҳолиндан” деб номланган туркум шеърларидан “Соғиниб”, “Салом айтинг”, “Ҳой, паҳлавон!”да акс этди. Шоирларимиз мардикорларнинг қайтиб келишларига бағишлаб ҳам шеърлар ёздилар (Сидқий, “Ситамдийда работчилар келиши”, “Сизларга мужда”).

1917 йил Феврал воқеаларини Туркистон халқи зўр хурсандчилик билан кутиб олди. Шоирларимиз унга юзлаб шеърлар бағишладилар. Шукрий

(Хуршид) ва Сидкий қисқа муддат ичида “Хуррият меваси” (1917) ва “Русия инқилоби” номли дostonлар ёзиб, чоп эттирдилар.

Окябр воқеасига бағишлаб ўша кезларда ёзилган бадиий асар ўзбек адабиётида учрамайди. Чунки у кенг умумхалқ ходисаси сифатида кутиб олинмади. Аксинча, тўнтариш деб қаралди. У ҳақда асар ёзиш 1918-1919 йиллардан изга тушди. Сўнгроқ чинакам илҳом ва истеъдод билан ёзилган турли жанрдаги хилма-хил асарлар пайдо бўлди. Ҳамза, Авлоний, Сўфизода, Абдулла Қодирий кабиларнинг асарлари бунга далилдир. Аксинча, 1917 йил 27 ноябрдаги Мухторият эълони кенг халқ оммасидаги каби адабиёт аҳлида ҳам завқ-шавқ уйғотди. Беҳбудий ва Фитратнинг кизгин, эҳтиросли туркум мақолалари, Чўлпон (“Озод турк байрами”, “Оллоҳу акбар”) ва Ҳамзанинг (“Туркистон мухториятина!”) ёниқ шеърлари дунёга келди.

Хуллас, янги поэзия 20-йилларга ғоят мураккаб ва зиддиятли туйғуларни ўзида жо этган эътироф ва эътироз билан кириб келди.

Асримизнинг дастлабки йигирма йилида шаклланган янги шеърият анъанавий диний-тасаввуфий шеърият билан ёнма-ён яшади. Мирмахмуд Қорий (1834-1904), Юсуф Сарёмий (1845-1912), Усмонхўжа Зорий (1839-1916), Ҳусайнқул Муҳсиний (1860-1917), айниқса, Зиёвуддин Ҳазиний (1861-1921) бу йўлда самарали ижод этдилар: “Девони Қорий” (Т., 1912), “Девони Юсуф Сарёмий” (Т., 1332 х.), “Баёзи Ҳазиний” (Т., 1911), “Девони Муҳсиний” (қўлёзма, ЎзФАШИ инв.№ 7392) ва ҳ.

10-йилларда яратилган наср намуналари у қадар кўп эмас. Анбар Отиннинг “Қаролар фалсафаси”, С.Азизийнинг 1910 йилдаги “Москва ва Петербург саёҳати» хотиралари каби ижтимоий-фалсафий, саргузашт-автобиографик асарларни назардан соқит қилсак, Беҳбудийнинг “Оқ елпоғичли чинли хотун”, Абдулрауф Шаҳидийнинг “Фалокатзада” (1911) ҳикояларини, Мирмуҳсин Шермухамедовнинг “Бефарзанд Очилдибой” (1914), Ҳамзанинг “Янги саодат” (1915) сингари “Миллий роман” деб номланган қиссаларини, ниҳоят 1915-1916 йилларда эълон қилинган Абдулла Қодирийнинг “Жувонбоз” ва “Улоқда”, Чўлпоннинг “Дўхтир Муҳаммадёр” асарларинигина қайд этиш лозим бўлади.

Драмачилик 10-йилларнинг иккинчи ярмида қизгин ривож топди. Тошкент, Самарқанд, Кўконда театр ҳаваскорлар труппалари тузилиб, самарали иш олиб борди. Самарқандда Беҳбудийга эргашиб, Абдулла Бадрий (“Жувонмарг”, “Аҳмоқ”), Ҳожи Муин (“Эски мактаб-янги мактаб”, “Кўкнори”, “Мазлума хотин”, “Жувонбозлик қурбони”, “Бой ила хизматкор”, “Қози ила муаллим”), Нусратилла Қудратулла ўғли (“Тўй”, “Кенгаш мажлиси”), Тошкентда Абдулла Авлоний (“Адвокатлик осонми?”, “Пинак”, “Биз ва Сиз”), Абдулла Қодирий (“Бахтсиз куёв”), Ғулом Зафарий (“Бахтсиз шогирд”), Фарғона водийсида Ҳамза (“Заҳарли ҳаёт”, “Илм ҳидояти”, “Мулла Нормуҳаммад домланинг куфр хатоси”), Хуршид (“Ориф ила Маъруф”, “Қора хотин”), ниҳоят Бухорода Абдурауф Фитрат (“Беғижон”, “Мавлуди шариф”, “Або Муслим”) каби адибларимиз бир қатор драмалар ёздилар.

1916 йилги мардикорлик воқеаларига бағишланган драмалар пайдо бўлди (Ҳамза: “Лошмон фожиаси”, “Рабочий”), мухторият ҳақида “Автономия ёки

мухторият” (Ҳамза) номли драма ёзилди. Фитратнинг машҳур “Темур сағанаси” драмаси Туркистон мухториятининг фожiona қонга ботирилиши таассуротлари асосида майдонга келган эди.

Адабиётимиз мазкур янги жанрларининг дунё юзини кўриш жараёни ғоят оғир кечган. Беҳбудий ўз “Падаркуш”ини 2 йил деганда зўрға нашр қилишга муваффақ бўлди. Саҳнага қўйилиши учун яна бир йил кетди. 1911 йилда ёзилган асар 1914 йилдагина саҳна юзини кўрди. Вақтли матбуот саҳифаларидаги Мирмуҳсин “Эътироз”лари “миллий роман” (“Бефарзанд Очилдибой”) муносабати билан мутаассибларнинг қаттиқ ҳужуми остида қолганидан далолат беради.

Янги замонавий адабиётшунослик ва танқид шаклланди. Замон ва ижод, бадиий адабиёт тили, янги адабий жанрлар билан боғлиқ масалалар матбуот саҳифаларида кенг муҳокама қилинди. Беҳбудий, Авлоний, Фитрат, Чўлпон, Иброҳим Даврон кабиларнинг бу борада вақтли матбуот саҳифаларида эълон қилган мақолалари янги эстетиканинг шаклланишида муҳим рол ўйнади.

Хуллас, 10-йилларда Туркистон маънавий ҳаётида кенг томир отган ўзбек жаҳид адабиёти ўзининг чинакам самараларини қийин-қистов 20-йилларда берди. Чўлпон ўз шеърияти билан янги ўзбек шеъриятининг асл пойдеворини яратди. Қодирий ўзбек романчилигига асос солди. Фитрат ўзбек драмачилигининг энг сара намуналари муаллифи ва янги ўзбек адабиётшунослигининг асосчиси бўлиб тарихга кирди.

Савол ва топшириқлар

1. Миллий ва ижтимоий курашлар даври адабиётининг хос хусусиятлари нималарда кўринади?
2. XX аср боши ижтимоий воқелигининг бадиий адабиётдаги талқини.
3. Адабиёт ва матбуот.
4. Драма жанрининг юзага келиши ва ривожланиши шарт-шароитлари.
5. Шеъриятдаги мазмуний ва шаклий янгиланишлар.
6. Ўзбек романчилигининг юзага келиш омиллари.
7. Янги ўзбек адабиётининг жанр ва поэтик хусусиятлари.

Таянч иборалар

1. Жаҳидчилик ва жаҳид адабиёти.
2. Туркистонда жаҳидчиликнинг ривожланиш босқичлари.
3. Февраль воқеалари ва адабий жараён.
4. Ўзбек мардикорлик шеърияти.
5. Жаҳид адабиётини даврлаштириш тамойиллари.
6. Адабий-эстетик тафаккурнинг янгиланиши. Адабиётшунослик ва танқиднинг шаклланиши.
7. Таълим соҳасидаги ислохотлар ва жаҳид адабиёти.

8. Миллий адабиёт ривожда матбуотнинг тутган ўрни.

Курснинг информацион-методик таъминоти

1. Қосимов Б. Миллий уйғониш. Т.: “Маънавият”, 2002.
2. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. –Т.: Маънавият, 2004.
3. Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати. Т.: Маънавият, 2011
4. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Т.: “Ўзбекистон”, 2008.
5. Долимов У. Туркистонда жаҳид мактаблари. Т., 2009.
6. Жабборов Н. Маърифат надир. Т.: “Маънавият”, 2010.
7. Абдирашидов З. Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи-отношения-влияние. Ташкент: Akademnashr, 2011.

5.2. МАВЗУ: ИСМОИЛБЕК ГАСПРИНСКИЙ (1851 - 1914)

Исмоилбек Гаспринский Русия жаҳидчилик ҳаракатининг раҳнамоси эди. Туркистонда XIX асрнинг охиридан кўзга ташланган янгиланиш ҳаракатлари кўп жиҳатлари билан шу номга, унинг “Таржимон” газетасига келиб боғланади. Ва ушбу даврдан эътиборан XX асрнинг 20-йилларига қадар фаолият кўрсатган бирор туркистонли зиёли йўқки, бу номни четлаб ўтган бўлсин. Шу сабабли, унинг ижодий фаолияти ва айниқса, маслак-интилишлари билан танишиш Туркистон жаҳидчилиги ва жаҳид адабиётининг шаклланиш ҳамда ривожланиш босқичларинигина эмас, умуман мазмун-моҳиятини англашда, йўналишларини белгилашда ҳам бениҳоя муҳим аҳамиятга эга.

Бу ном юз йил муқаддам туркий дунёдаги энг машҳур ном эди. Уни Қашқардан Лондонгача, Санкт-Петербургда Бомбейгача билар эдилар. У чиқарган “Таржимон” газетасининг 1908 йилдаги 25 йиллик тўйида Хитойнинг “Таранча”сидан табрик телеграммаси келган. 1911 йилда унинг “Хўжаи сибён” (“Болалар муаллими”) китоби Бомбейда босилди. Муаллифни Ҳиндистонга таклиф этадилар. Бир йил олдин эса Франциянинг энг эътиборли журналларидан “Ревю дю монде мусулман” унинг миллат олдидаги буюк хизматлари учун номзодини “Тинчлик борасидаги Халқаро Нобель Мукофоти”га тавсия қилган ва буни хорижий мамлакатлардаги жуда кўп матбуот органлари қўллаб-қувватлаб чиққан эди.

У вафот этган 1914 йилнинг 11 сентябрида машҳур Наримон Наримонов ёзади: “Миллат Исмоилбек каби қаҳрамонларини унутса, ўз ҳаётини барбод этажакдир”. Бу баландпарвоз гап эмас. Далил-тарих. У тириклигидаёқ миллатнинг отаси, раҳнамоси деган ном олди. Унинг энг катта хизмати Русия сарҳадида яшаб турган, лекин замоннинг зайли билан бир-биридан узоқ тушган (тўғрироғи, узоқлаштирилган) ва бегоналашиш даражасига етган туркий халқларни бир-бирига танитди. Беҳбудий сўзлари билан айтганда, “Русиядаги бутун турк-татар халқларини жуда оз тарихий муддатда хайр-хўшлик йўли

билан яхлит бир миллий оилага бирлаштирмоққа ноил бўлди”. Бу дард ўша давр чор Русияси асоратида ўз эрку ҳуқуқигина эмас, асрий урф-удум, маънавий кадриятларидан тортиб, тил ва дин-этиқодигача унутишга маҳкум қилинган туркий халқларнинг энг катта дарди, сўнгсиз армони эди.

Исмоилбек Шарқ халқлари маънавий ҳаётида, хусусан, мактаб-маорифида чинакам инқилоб ясаган, “усули жаид” номи билан тарихга кирган “усули савтия”ни бошлаб берди. XX аср Шарқининг энг машхур, энг тараққийпарвар ҳаракатчилигига жаидчиликка асос солди.

У барча туркий халқларни яхлит, ягона миллат деб билди. Уларни ҳам илм-маърифатда, ҳақ-ҳуқуқда дунёнинг тараққий қилган миллатлари билан тенг, бақамти кўрмоқни орзу қилди. Бутун ақли-вужудини мана шу муқаддас ишга-миллатнинг равақи ва муҳофазаси йўлига сарф этди. Бу шунчаки мутаассибона бир орзу эмас, замонасининг баланд-пастидан хабардор, тарих ва тақдирини теран англаган, Шарқни ҳам, Ғарбни ҳам баббаравар билган ва баббаравар кўрган бир кишининг аниқ ва режали хатти-ҳаракати эди. Афсуски, унинг бу ишларида айрим “дўстлар”и шаккоклик, кофирпарастлик кўрдилар. Душманлари эса унга сиёсий айб қўйдилар. Туркий қавмларни Россия давлатига қарши бирлаштиришда, ягона турк-татар мамлакати тузишга уринишда айбладилар. Ва бу даъволар машъум 30-йилларда жуда “иш” берди. Унинг номи, унинг хотираси авлодлар қалбидан юлиб олинди. Наслларга ўз халқининг қаттол душмани қилиб кўрсатилди...

Гаспринский 80-йилларнинг охиридан авлодларга қайта бошлади...1991 йилда Симферополда таваллудининг 140 йиллигига бағишланган халқаро анжуман бўлиб ўтди. 2001 йилда 150 йиллиги нишонланди. Ўзбекистонда ҳам у ҳақда рисолалар пайдо бўлди.

Четда 1950 йилда у ҳақда Бурбил деган киши, докторлик диссертацияси ёзган ва Гамбургда китоб босдирган. Америкалик Эдвард Жеймс Лаззери диссертацияси 1973 йилда “И.Гаспринский ва Русияда мусулмон модернизми” номи билан Вашингтонда босилиб чиққан. 80-йилларда эса Туркияда Нодир Давлат ва Меҳмет Саройнинг у ҳақдаги монографиялари дунё кўрди. 1991 йилда Тошкентда Э.Аблаевнинг “Исмоил Гаспринский-гуманист, просветитель, педагог” рисоласи босилди. Кейинги тадқиқотлардан бири Ҳокон Қримлининг “Қрим татарларида миллий кимлик ва миллий ҳаракатлар (1905-1916)” (Анқара,1996) китобидир. Ниҳоят, 2003 йилда Туркияда Гаспирали Танланган асарлари уч жилдлигининг 1-жилди босмадан чиқди.

Туркистон сафари. Исмоилбек 1893 йилда Туркистонга келади.

Бухоро амири Абдулаҳадхон билан Қримда учрашган эди. Улар бир-бирларини билардилар. Исмоилбекга Ширвонлик Мажид Ғанизода ҳамроҳлик қилади. Самарқанддилар “усули савтия” ғоясини яхши кутиб оладилар. Тезда “усули жаид” йўлга қўйилиб, иш бошланади. Исмоилбек Шаҳрисабзга кетади. Мажид Ғанизода 40 кун Самарқандда қолиб, “усули савтия”дан дарс беради.

Исмоилбекнинг Туркистонга иккинчи сафари 1908 йилга тўғри келади. Сафар тафсилотлари “Бухорода на кўрдим?” сарлавҳаси остида “Таржимон”нинг ўша йил сонларида (47,50,57-59,64,78) босилган. Каспийдан “Генерал Скоблев” кемасида келиб, Красноводскдан поездга ўтаркан, Гўктепа урушини эслайди. Қалъа аҳолисининг “бутун Осиёга шухрат ва ибрат дея болачақаси баробар қиличдан кечурулуб, от оёғида топталгани”ни алам ва изтироб билан ёдга олади. Исмоилбекни Янги Бухоро (Когон) станциясида амир одамлари ва Русия сиёсий агентлиги таржимони Мирҳайдарбек кутиб оладилар. Амир уни Карманага таклиф этади. Зиёфат асносида Валиаҳд Саййид Олимхон билан учрашади. Валиаҳднинг Русия матбуотини мунтазам ўқиб боришини, дунё воқеаларидан хабардорлигини кўради. Самарқандга ўтади. “Усули жаид” мактаблари билан танишади. Маҳмудхўжа Бехбудий, Абдулқодир Шакурий билан узоқ суҳбатлар қуради. Гап тарих ва келажак, муқаддас обидалар ва уларнинг тақдири, рус истилочилик сиёсати ва ўзликни сақлаб қолиш ҳақида эди.

Қайтишда яна Бухорога тушади. Қушбеги Остонакулбек билан тўхтаб қолган янги мактабни юритишни гаплашади. Асосий тўсқинлик қозикалон томонидан эканлигини англаб, ҳузурига боради, ваъдасини олади. Бухородаги нўғойлар Исмоилбекни меҳмонга чақириб, “Жамияти хайрия”ларига фахрий аъзо қиладилар. Янги очилган бир мактабни унинг шарафига “Исмоилия” атамоқчи эканликларини айтадилар. Исмоилбек унамайди. Амир Абдулаҳадхоннинг марҳум падари хурматиға “Музаффария” номлашни маслаҳат беради...

Мактабларгина эмас, мадрасалар ҳам ислоҳ қилиниши керак. Иложи бўлса, янги замонавий олий ўқув юртлари-университетлар курмоқ керак. Исмоилбек бу фикрга 1885 йилдаёқ келган эди.

“Эй давлатлулар!- деб ёзган эди Бухоро ва Хива хонларига мурожаатида,- майдони сиёсатда мағлуб ўлуб, истиқлолни ғойиб этди(нгиз). Бу замонда ғафлат эдилурса, майдони иқтисод ва маишатда миллат мағлуб тушуб, сабаб ўланлари дунё турдиқча масъул тутажакдир...

Гаспринскийнинг бадий насри

Исмоилбек, бадий иқтидорга ҳам эга эди. Унинг “Фарангистон мактублари” (1887), “Дорур-роҳат мусулмонлари” (1889), “Судан мактублари” (1889), “Хотинлар ўлкаси” (1890), “Гулбобо зиёрати” (1908), “Арслон қиз”, “Кун туғди”, “Иван ва Сулаймон” (1897), “Балойи ислом” (1905), “Муколамаи салотин” каби кўплаб насрий асарлари бор. Айримлари ўзбек тилига таржима ҳам қилинган. Воқеалари деярли ҳаммасида муаллиф тилидан ҳикоя қилинади. Номи –Мулла Аббос Франсавий-Тошкандий. Асли Тошкентлик, Европада ўқиган, саёҳатни яхши кўради. “Муколамаи салотин” (1906) (“Султонлар суҳбати”) Амир Темур ҳақида. “Арслон қиз”(1893) Шарқий Туркистондаги миллий-озодлик ҳаракатларига бағишланган. Марказида Гулжамол билан Қўқонлик машхур Яъқуббек туради. “Кун туғди” (1905) – автобиографик

роман. Дониёлбей-Исмоилбекнинг ўзи. Хуллас, Гаспринский бадий асарларининг деярли ҳаммаси қай бир даражада Туркистон ва туркистонлилар ҳаёти билан боғланади.

“Дорур-роҳат мусулмонлари” “Таржимон”нинг 1887 йил сонларида босилган. 1906 йилда Бокчасаройда алоҳида нашр этилган. 1997 йилда “Қалб кўзи” газетаси қайта чоп этди.

Муаллиф асарнинг жанрини “фантастик рўмон” деб белгилайди. Асарнинг ширин тахайюл асосига қурилгани сарлавҳасиданок кўриниб турибди. Муаллиф хаёлий-афсонавий бир мамлакат Дорул-роҳат (сўзма-сўз-роҳат уйи), яъни обод ва фаровон бир юрт фуқаролари ҳақида ҳикоя қилишни ўз олдига мақсад қилиб қўяди.

Бунинг учун 8 аср давомида мусулмонлар тахти фармонида келган ва ислом давлати сифатида Оврупо мамлакатларига намуна бўлган Андалузияни танлайди. Ҳижрий йилнинг 98 ида (мил.668) Марокашнинг Фаси билан Испания орасидаги Жабал-ат-тариқ (Гибралтар) бўғозини саркарда Мусо ибн Нусойр қўшини кесиб ўтиб, Андалузияни забт этган эди. Андалуз дастлаб Шомга тобеъ эди. 756 йилдан уммавий Абдурахмон тахтни эгаллади ва ўзини халифа эълон қилди. Испанияни мусулмонлардан қирол Фердинанд (1452-1505) қайтариб олди. Сўнгги мусулмон ҳукмдор Ал-Хисорий, сўнгги сарой Ал-Ҳамро (Қизил сарой), сўнгги пойтахт Ғарната (Гренада) бўлган эдилар.

Исмоилбек тахайюлнинг реал асосларига тўхтар экан, олис тарих қатларида қолган турли-туман маълумотлар, сайёҳларнинг бир вақтлар ислом шуури билан гуллаб-яшнаган Андалузия - араблар Испаниясининг маънавий-маданий турмушига оид кўплаб факт ва рақамларни топиб, ўқувчи диққатига ҳавола қилади. Араблар испанларнинг тақир саҳроларини обод ўлкага айлантирдилар,- деб ҳикоя қилади муаллиф.-12 минг қишлоқ, 80 кўрғон, 300 шаҳар, 300 минг жомеъ бино қилинган. Замонида пойтахт Қуртабода 200 минг хонадон яшар эди. 600 жомеъ, 500 шифохона, 800 мадраса, 900 ҳаммом мусулмонлар хизматида эди. Ғарната, Тулиду (Таледо), Сибелё (Севилия) каби шаҳарлар ҳам Қуртабо(Кордова)дан қолишмас эди. Бойлиги-чи?! Фаранг тарихчилари ёзишича, Қуртабо халифалигининг хазинасига жамъи Оврупо мамлакатлариникини қўшганда ҳам етмас экан. 852 йилда Қуртабо кутубхонасида 600 минг китоб бўлган. Бутун ўлкада 70 улкан кутубхона бор эди. Фаранглар келиб, Андалузия мактаб-мадрасаларида ўқидилар. Оврупо Қуртабо мадрасаларидан андоза олиб, университетларини қурди... Хуллас инсоният тараққиётини янги бир босқичга олиб чиққан Ғарб илм-фанининг тамал тоши олис ХII-ХIII асрларда Андалузия - мусулмонлар Испанияси томонидан қўйилган эди. Бироқ ҳар нарсанинг ўз кушандаси бўлганидек, мутаассиблик жуда қисқа муддатда бу ўлкадаги юксак ислом маданиятини йўқ қилиб ташлади. Фердинанд Андалузияни мусулмонлар қўлидан қайтариб олгач, ўлкани жоҳилона бир суръатда мусулмонликдан “тозалаш” бошланди. Мўъжизавий сақланиб қолган “Жомеул кабир”(Катта мачит) ва “Ал-

Ҳамро”гина олис мусулмон Андалузиясининг бир вақтлар балкиган нуридан етиб келган шуъладек йилтиллаб турадилар...

Ушбу маълумотлар муаллиф тилидан берилиб, асарнинг мазмунига сингдириб юборилган. Тахририятнинг ихчам изоҳида бош қаҳрамон тошкентлик Мулла Аббос экани, Франсия саёҳатидан кейин “Франсавий” деб ном олгани, ўз кўрган-билганларини “Фарангистон мактублари” сарлавҳаси остида “Таржимон”да эълон қилиб келгани, мактубларнинг иккинчи қисмидан Андалузия саёҳати ўрин олгани, муаллиф-сайёҳ “бахтиёрона бир сурати маишата етишмиш жамияти муслимадан баҳс этажаги” айтилади.

Дарҳақиқат, асар роман-саргузашт характерида.

Гаспралининг хотин-қизлар ва уларнинг жамиятдаги ўрни масаласи ҳақидаги қарашлари “Хотинлар ўлкаси” номли ҳаёлий-саргузашт қиссасида акс этди. Унда ҳам воқеалар тошкентлик Мулла Аббос Франсавий тилидан ҳикоя қилинади. Асар аёлларни “сочи учун, акли калта” дегувчи ислом мутаассиблигига киноя бўлганидек, эмансипация ниқоби остида уларнинг аслий хусусиятлари ҳисобланиши лозим бўлган назокатдан узоқлаштирилишига, “эркаклаштирилиши”га қарши исён ҳам эди. Бу мавзунинг ҳам Туркистонда нақадар қизғин муҳокама қилингани маълум.

Хулоса қилиб атганда, И.Гаспралининг ҳаёти ва сермазмун фаолиятини Туркистонсиз, унинг тарихи ва тақдири ҳақидаги ўйларисиз тасаввур қилиб бўлмайди. Улуғ мутафаккир Туркистон халқларининг бой маънавий меросини Русия мусулмонлари борасидаги янгилашиш ва ислохотчилик ҳаракатлари учун маънавий омил деб билади. Айни пайтда, бутун вужуди билан Туркистон учун ҳам нажот йўлини излайди ва буни янгилашишда, ислохотда кўради. Шунга кўра, унинг қарашлари ҳам Туркистон билан теран боғланган эди. Шу сабабли бу фикр-қарашлар Туркистонда акс-садо топдигина эмас, туркистонлик тараққийпарвар зиёлилар учун дастуриламал вазифасини бажарди.

Савол ва топшириқлар:

1. “Учинчи муаллим” ким ва уни қайси олим шундай номлаган?
2. Исмоилбек Гаспринскийнинг Туркистон жадиждчилигига кўрсатган таъсири нималарда кўринади?
3. Гаспринский бадий насрида Туркистон мавзуининг ёритилиши.
4. “Хотунлар ўлкаси” асарининг ғояси нима?
5. “Муколамаи салотин” ва жадида адабиётида Соҳибқирон сиймоси.
6. Гаспринскийнинг адабий-эстетик қарашлари ҳақида сўзлаб беринг.

Таянч иборалар:

1. Исмоилбек Гаспринскийнинг ҳаёт йўли.
2. “Таржимон” ва жадида матбуоти.
3. Гапринскийнинг адабий асарлари.
4. Адиб асарларида Оврупо маданияти талқини.

5. Исмоилбек Гаспринский ислом маданияти ҳақида.
6. Гаспринский ва Туркистон.
7. Сиёсий мақолалари.
8. Миллат ва миллият масалалари талқини.
9. Гаспринскийнинг адабий-танқидий қарашлари.
10. Исмоилбек Гаспринский ва “усули жаид” ғояси.

Курснинг информацион-методик таъминоти:

1. Қосимов Б. Исмоилбек Гаспринский, Т., 1991.
2. Қосимов Б. Миллий уйғониш. Т.: “Маънавият”, 2002.
2. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. –Т.: Маънавият, 2004.
3. Ўзбек миллий уйғониш адабиётига материаллар. 1-сон. Т., 2004.
4. Исмоил Гаспринский ва Туркистон. Т., 2005.
5. Абдирашидов З. Исмоил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи-отношения-влияние. Ташкент: Akademnashr, 2011.
6. Абдирашидов З. Аннотированная библиография туркестанских материалов в газете «Таржуман» (1883-1917). Central Eurasian Research Series No.5. TIAS: Department of Islamic Area Studies, Center for Evolving Humanities, Graduate School of Humanities and Sociology, The University of Tokyo, Tokyo, 2011.
7. Абдирашидов З. Исмоил Гаспринский ва Туркистонда жаидчилик. Тошкент: Institut Francais d’Etudes sur l’Asie Centrale. Document de travail de l’IFEAC N°29, mai 2008.
8. Исмоилбек Гаспринский. Ҳаёт ва мамот масаласи. Танланган асарлар. Тошкент: Маънавият, 2006.

5.3. Мавзу: МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ (1875-1919)

Ҳаёти ва фаолиятининг ўрганилиши тарихи. Таржимаи ҳоли. Беҳбудий ва Туркистон миллий матбуоти. Ижодий мероси. “Падаркуш” нъесаси. Публицистикаси. Адабий- эстетик қарашлари.

Ҳаёт йўли. Маҳмудхўжа Беҳбудий Туркистон жаидчилик ҳаракатининг бонийсидир. Унинг ҳаёти ва ижодий фаолияти ҳақида 20-йилларда маҳаллий матбуотда Садриддин Айний, Ҳожи Муин ибн Шукрулло, Лазиз Азиззода каби замондошлари томонидан бир қатор мақола, хотиралар эълон қилинган. Кейинги йилларда, хусусан, мустақилликка эришилгандан сўнг жаидлар фаолиятини ўрганишга қизиқиш кучайиши билан Беҳбудий ҳам қайта кашф этила бошланди. Беҳбудий таржимаи ҳолини ёритишда Ҳожи Муиннинг 1922-23 йилларда ўзи муҳаррирлик қилган “Меҳнаткашлар товуши” (1922),

“Зарафшон” (1923) газеталарида чоп этган мақолалари муҳим аҳамиятга эга. Беҳбудий ҳақида 70-йиллардан бугунги кунгача эълон қилиниб келаётган С.Қосимов, А.Алиев, Н.Каримов, С.Аҳмедов, Ш.Турдиев, Ҳ.Саййид, Н.Авазов, З.Ахророва ишларининг барчасида мана шу Ҳожи Муин маълумотлари асос қилиб олинади.

Беҳбудий 1875 йилнинг 19 январиди (ҳижрий 1291 10-зулҳижжа) Самарқанд яқинидаги Бахшитепа қишлоғида руҳоний оиласида дунёга келган. Отаси Беҳбудхўжа Солиххўжа ўғли туркистонлик, Аҳмад Яссавийнинг авлодларидан, она томондан бобоси Ниёзхўжа урганчлик бўлиб, амир Шохмурод замонида (1780-1785) Самарқандга келиб қолган.

Отаси Беҳбудхўжа вафотидан кейин (1894) тоғаси қози Муҳаммад Сиддиқнинг тарбиясида ўсиб вояга етади. Араб сарфу наҳвини кичик тоғаси Одилдан ўрганади. 18 ёшидан қозихонада мирзалик қила бошлайди. У дастлаб Самарқанд мадрасасида, сўнгроқ Бухорода таҳсил кўрган. 1899-1900 йилларда Беҳбудий бухоролик дўсти Ҳожи Бақо билан ҳаж сафарига чиқади. Дунё кўриши изсиз кетмайди. Сафар янги мактаб ҳақидаги қарашларини мустаҳкамлайди. Унинг ташаббуси ва ғайрати билан 1903 йилда Самарқанд атрофидаги Ҳалвойи (С.Сиддиқий), Ражабамин (А.Шакурий) қишлоқларида янги мактаблар ташкил топади. Адиб ушбу мактаблар учун дарсликлар тузишга киришади. Кетма-кет унинг “Рисолаи асбоби савод” (1904), “Рисолаи жуғрофияи умроний” (1905), “Рисолаи жуғрофияи Русий” (1905), “Китобат-ул атфол” (1908), “Амалиёти ислом” (1908), “Тарихи ислом” (1909) каби китоблари пайдо бўлади. Маҳмудхўжа 1903-1904 йилларда Москва, Петербургга боради, 1906 йилда Қозон, Уфа, Нижний Новгородда бўлади. Булар саёҳат эмас, хизмат сафари эди. Масалан, Нижний Новгородда 1906 йилнинг 23 августида Русия мусулмонларининг турмуш ва маданияти муаммоларига бағишланган қурултой чақирилади. Беҳбудий бу қурултойда Туркистонлилар гуруҳини бошқаради ва катта нутқ сўзлайди.

Театр керак. 1911 йилда ёзилган “Падаркуш” драмаси 1913 йилдагина босилиб чиқади. Асар ўзбек драмачилигининг ҳамма яқдил эътироф этган биринчи намунасидир. Мутахассислар уни ҳам жанр, ҳам мазмунига кўра янги ўзбек адабиётини бошлаб берган бир асар сифатида баҳолайдилар. “Падаркуш” дастлаб Самарқандда 1914 йилнинг 15 январиди саҳнага қўйилди. Тошкентда 1914 йилнинг 27 февралиди қўйилди. Авлонийнинг “Турон” труппаси Колизей (ҳозирги Савдо биржаси биноси)да ўз фаолиятини мана шу “Падаркуш” билан бошлаган эди.

Асар адабий ҳаракатчиликка ҳам кучли таъсир кўрсатди. Абдулла Қодирийнинг машҳур “1913 йилларда чиққан “Падаркуш” пьесаси таъсирида “Бахтсиз куёв” деган театр китобини ёзиб юборғонимни ўзим ҳам пайқамай қолдим”, деган эътирофи бунинг далилидир. 1916 йилда Тошкентга келиб Колизейда “Турон”нинг қатор спектакллари кўрган А.Н.Самойлович ёзади: “Туркистонда янги адабиёт майдонга келди. Бу мен учун қутилган ҳол эди...

Янги адабиётнинг маркази-Самарқанд... Ёш қаламкашларнинг бош илҳомчиси самарқандлик муфти Маҳмудхўжа Бехбудийдир”.

Драма биргина ўзбек эмас, татар, озарбайжон театрчилигига ҳам таъсир кўрсатди.

Бехбудий ва матбуот. 1913 йидан Бехбудий матбуот ишлари билан шуғулланади. Апрельдан “Самарқанд” газетасини чиқаради. 45 та сонидан кейин моддий танқислик туфайли чиқиши тўхтаган. Ўша йилнинг 20 августидан у “Ойна” журналинини чиқара бошлайди. Бу суратли ҳафталик мажалла асосан ўзбек тилида бўлиб, унда ихчам форсий шеърлар, мақолалар, русча эълонлар ҳам бериб бориладди... “Бошда ҳафтада бир марта ва иккинчи йилдан эътиборан 15 кунда бир қатла чиқиб, йигирма ой чамаси давом қилди... Кафказ, Татаристон, Эрон, Афғонистон, Ҳиндистон ва Туркиягача тарқалар эди... Жадидларнинг севиқли журналлари эди. Шунинг учун улар томонидан ҳурматланди, севилиб ўқилди”, деб ёзган эди Зиё Саид. Журнал редакцияси муҳаррирнинг Янги шаҳардаги уйида (Решетников, 3; ҳозир Мирсаид Барака, 1) жойлашган.

Бехбудий шу йиллари нашр ишлари билан қизғин шуғулланди. “Нашриёти Бехбудия” номи билан ўз хусусий нашриётини очди. Фитратнинг “Баёноти сайёҳи ҳинди” асарини 1913 йилда русчага таржима қилдириб, нашр этди. Туркистон харитасини тузиб босмадан чиқарди. Кутубхонани йўлга қўйди. Ўша давр вақтли матбуотида “Бехбудий кутубхонаси” ҳақидаги хабарларга тез-тез дуч келасиз.

1914 йилнинг 29 майида Бехбудий иккинчи бор араб мамлакатларига саёҳатга отланади. Саёҳат хотиралари ҳар жиҳатдан ғоят муҳим бўлиб, “Ойна”нинг 1914 йил сонларида мазкур ном остида пешма-пеш босилган. “Хотиралар” адабиётимиздаги анъанавий тарихий-мемуар жанрининг XX аср бошидаги ўзига хос намунасидир.

“ЎзАС” ҳафталиги Ингеборг Балдауфнинг мазкур хотираларнинг олмонча таржимаси муносабати билан ёзилган “Маҳмудхўжа Бехбудий Фаластинда” (1993, № 21) мақоласини эълон қилди. Муаллиф унда Бехбудий кузатишларининг ўзига хослиги ҳақида ёзган, адиб қалбини ўртаган энг катта дард – эрк ва маърифат эканини айтган.

Бехбудий публицист сифатида юзлаб мақолалар ёзди. Ўзининг Миллат ва Ватан, жамият ва ахлоқ ҳақидаги фикрларини кўпроқ мақола ва чиқишларида ифода этди. Баъзилар унинг мақолалари ададини 200, бошқалар 500 деб белгилайдилар. Унинг барча ёзганлари ҳисоблаб чиқилмаган, ҳатто аниқланмаганлари қанча.

Маърифатдан сиёсатга. Бехбудий замонасидаги мавжуд идора усуллари ҳақида фикр юритиб, уларни учга бўлади:

1. Идораи мустақалла (идораи мутлақа-монархия)
2. Идораи маршрута (конститутсияли парламентли ҳокимият).

3. Идораи жумхурият (Республика).

Лекин миллат озод бўлиб, ўзининг мустақил давлатини ўрнатмагунча, ижтимоий адолатни тиклаш маҳол. Бу Бехбудий келган биринчи хулоса эди. Истиклол ҳақида фикр юритар экан, у ҳар қандай зўравонликни рад этади. Унингча, зўравонлик ғайриахлоқий, бинобарин, ғайриинсонийдир.

Ватан тақдири кун тартибига қўйилган 1917 йилнинг 16-23 апрелида Тошкентда бўлиб ўтган Туркистон мусулмонларининг 150 вакили иштирок этган ўлка қурултойида ҳаяжонли нутқ сўзлади. Миллатни ўзаро ихтилофлардан воз кечишга, буюк мақсад йўлида бирлашишга, иттифок бўлишга чақирди. Худди шу ихтилофимиз сабабли “мустамлакот қондаси ила бизни идора этурлар” деб очиқ айтди.

Бехбудий “Бухоро воқеалари ва дафъи тухмат” (“Хуррият” газетаси, 1917 йил 1 май) деган махсус мақола ёзган эди. Шу йил ноябрнинг 26 сида Қўқонда ўлка мусулмонларининг IV фавқулодда қурултойи иш бошлади. 27 ноябрга ўтар кечаси “Туркистон мухторияти” эълон қилинди. Бу мустамлакадан мустақиллик томон қўйилган жиддий ва жасоратли қадам эди. Унинг маънавий отаси, шубҳасиз, Бехбудий эди. “27 ноябрда Қўқонда Туркистон мухторияти умумий мусулмон съездида эълон қилинди. Муборак ва хайрли бўлсун! Камина ҳам мажлисда бўлушдан ифтихор этаман. Яшасун Туркистон мухторияти!” - деб ёзган эди Бехбудий.

Мухторият бой берилди. У Советлар томонидан хоинона бостирилди. 19-20 февраль кунлари шаҳар тўпга тутилди. 10 мингта туркистонлик ўлдирилди, 180 та қишлоққа ўт қўйилди.

Бехбудий изтироб билан май ойининг бошида Самарқандга қайтади. У ерда тура олмай, Тошкентга келади. Туркистон рус совет ҳукумати раҳбарлари билан музокаралар натижа бермайди. Орзулари чил-чил бўлган Бехбудий 1919 йилнинг баҳорида-25 мартда Шаҳрисабзда қўлга олиниб, сирли бир тусда Қарши шаҳрида қатл қилинади. Унинг қатли ҳақидаги хабар ўша пайтдаги пойтахтимиз Самарқандга роса бир йилдан кейин маълум бўлади. 1920 йилнинг апрелида бутун Туркистон мотам тутайди. Ўнлаб марсиялар ёзилади. “Бехбудийнинг сағанасини изладим” деб аталар эди Фитратнинг бир шеъри. Айнийда бир эмас, уч шеър бор.

Сани мундин буён Турон, кўролурму, кўролмасму?

Санинг мислингни Туркистон тополурму тополмасму?

-деб бошланарди унинг шеърларидан бири.

Машҳур Чўлпон ҳам Бехбудийнинг фожиали ўлдирилганига бағишлаб шеърлар ёзади.

Қарши шаҳри 1926-37 йилларда 11 йил Бехбудий номи билан юритилди. Бироқ унинг асл қиёфаси халқдан сир сақланди. Адиб номининг

адабийлаштирилиши шунчаки бир ниқоб эди. Қарши шахрига унинг номи қўйилган ўша 1926 йилдаёқ у мансуб бўлган жадиदчиликни аксилинқилобий, аксилшўровий ҳаракат сифатида қоралаш кампанияси бошлаб юборилган эди.

Б.А.Пяковский 1922 йилдаги “Инқилоб” журнали саҳифаларида эълон қилган “Ўзбек театри тархи” мақоласида унинг майдонга келиши тарихи ҳақида фикр юритар экан, “Ўзбек театрининг асосини қўйиб берувчи Самарқандлик Маҳмудхўжа Бехбудийдир” деб ёзади, адиб номида Тошкентда маориф клуби, Самарқандда кутубхона ва драмтруппа, Туркистоннинг деярли ҳамма шаҳарларида унинг номига очилган мактаблар, Бухорода эса марказий босмахона борлигини таъкидлайди.

1929 йилда Қозонда босилиб чиққан “Ўзбек адабиёти” китобида эса “Ўзбек миллий адабиётининг негиз тошини Бехбудий билан Фитрат қўйиб берди” (8-бет) деган эътирофга дуч келамиз.

Бу гаплар ҳақиқат эди.

Савол ва топшириқлар:

1. Бехбудийнинг камолотга эришувида кимларнинг ёки ниманинг таъсири кучли бўлди?
2. Бехбудийнинг Туркистонда жади́д мактабларининг толмас тарғиботчиси, ташаббускори эканлиги ҳақида нима дея оласиз?
3. «Падаркуш» драмасини ўқинг, асарда кўтариб чиқилган масалаларни аниқланг, уларни дафтарингизга ёзинг.
4. Бехбудий публицистикасини чуқур ўрганинг ва уларни системалаштиринг.

Таянч иборалар:

1. Бехбудийнинг ҳаёт йўли.
2. Бехбудий ва матбуот.
3. Ижодий мероси.
4. Ижтимоий-маърифий мақолалари.
5. Илмий-маърифий мақолалари.
6. Сиёсий мақолалари.
7. Бехбудийнинг адабий-эстетик қарашлари.
8. “Падаркуш” драмаси.

Курснинг инфор́мацион-методик таъминоти

1. Б.Қосимов Бехбудий ва жади́дчилик. //Ўзбек адабиёти ва санъати, 1990 йил, 19, 26 январ.
2. Б.Қосимов. Карвонбоши. //Ёшлик, 1990, 1-сон.
3. А.Алиев. Маҳмудхўжа Бехбудий. Т.: “Ҳазина”, 1994.
4. Ш.Ризаев. Падаркуш ёхуд Самарқанд тарихидан лавҳалар. //Ватан, 1994 йил, 39-сон.

5. Қосимов Б. Миллий уйғониш. Т.: “Маънавият”, 2002.
6. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. –Т.: Маънавият, 2004.
7. Жабборов Н. Озодликка тўланган товон. //Tafakkur, 2005, 4-сон, 12-18-бетлар.
8. Жабборов Н. Маърифат надир. Т.: “Маънавият”, 2010.
9. Абдирашидов З. Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи-отношения-влияние. Ташкент: Akademnashr, 2011.

5.4. Мавзу: АБДУЛЛА АВЛОНИЙ

(1878-1934)

Ҳаёти саҳифалари. “Шухрат” газетасини чиқариш. Янги мактаблар ташкил этиш. Ижтимоий фаолияти. Ижодий мероси. Педагогик асарлари, шеърляти, драмалари, публицистикаси.

Абдулла Авлоний 1878 йилнинг 12 июлида Тошкентда Мерганча маҳалласида дунёга келди. Бобоси Мирнеъматбой асли кўқонлик ўқчи-ёйчилардан эди. Отаси Миравлон ака майда хунармандлик - тўқувчилик билан шуғулланган. Пиёнбозорда (ҳозирги Навоий театри майдони), Ярмарка бозорида (ҳозирги Санъат музейи атрофи) бўз ва чит билан савдо қиларди. “Онамнинг оти Фотимадир”, деб ёзади адиб ўз таржимаи ҳолида.

Абдулла 7 ёшдан Ўқчидаги эски мактабда Акрамхон домлада савод чиқарди. 1890 йилда шу маҳалладаги мадрасага ўтди. Сўнг Шайхонтоҳурдаги Абдумаликбой мадрасасида Мулла Умар Охунда таҳсил кўрди. Аммо тирикчилик машаққати ўқишга имкон бермайди. “1891 йилдан бошлаб, фақат қиш кунларида ўқуб, бошқа фаслларда мардикор ишладим-деб ёзади у. Кўп ўтмай, бу ҳам барҳам топди. Ўзи айтганидек, “бинокор”ликни ўрганди, “ғишт қуйиш, сувоқчилик, печкачилик, дурадгорлик ишлари” қилди.

Адабиётга ҳавас унда шу йиллари уйғонди. 1900 йилда тошкентлик бир савдогарнинг Саломатхон деган қизига уйланади. Шу йили отаси вафот этади. 1904 йилда Авлоний Мирободда усули жаид мактаби очади. 1907 йилда ўз ҳовлисида “Шухрат” газетасини чиқара бошлайди. Газета ёпилади, Редакция мулки мусодара қилинади Лекин Авлоний бўш келмайди. А.Бектемиров номига рухсат олиб “Осиё”ни чиқара бошлади. Бу газеталар миллий матбуотнинг дастлабки намуналари бўлиши билан ҳам муҳим эди.

1914-15 йилларда адвокат У.Хўжаев билан “Садойи Туркистон”да ҳамкорлик қилади. Газетадаги шеър ва мақолаларнинг аксарияти Авлоний қаламига мансуб. Лекин газета узоқ давом этмади. 66 сони чиқиб, моддий аҳволнинг танглигидан ёпилди.

Умуман, Авлоний 1904-1905 йиллардан ҳам ижодий, ҳам амалий иш билан қизғин шуғулланди. Ўз шеърларини “Ҳижрон” таҳаллуси билан эълон қилди. Мақолаларини эса “Мулла Абдулла”, “Авлоний”, “Абдулла Авлоний” номлари билан босдирди. Сўнгроқ унинг кўп ишлатган лақабларидан бири “Индамас” бўлган эди.

1909 йилда “Жамияти хайрия” очди ва маҳаллий халқ болаларининг ўқиб билим олиши учун пул йиғиб, мактабларга тарқатди. Бу ҳақда ҳатто Оренбургдаги “Вақт” газетаси ёзиб чиқди. 1913 йил охирида тошкентлик жадиждлар ташаббуси билан “Турон” жамияти майдонга келди. Унинг муассислардан бири Авлоний эди. Жамоат қошида театр труппаси тузилди. Авлоний труппа учун “Адвокатлик осонми?”, “Пинак”, “Биз ва Сиз”, “Икки севги”, “Пўртугалия инқилоби” каби драмалар ёзди, “Қотили Карима”, “Уй тарбиясининг бир шакли”, “Хиёнаткор оиласи”, “Бадбахт келин”, “Хўр-хўр”, “Жаҳолат”, “Ўликлар” каби сахна асарларини татарча, озарбайжончадан таржима қилди. Тавалло ёзганидек, театр “тараққийнинг хабари,” “миллатнинг ҳаёт асари” эди. “1915 йилда маҳалла халқи” домламиз “театрчи” бўлди”, “масхарабоз бўлди”,-деб мени мактабдан қувиб, Миробод маҳалласидаги бошланғич мактабни ёпдилар”,- деб ёзади у.

Иккинчи томондан ҳукумат сиқарди. Театрчиликнигина эмас, янги мактабни ҳам. “Усули жаид”, “усули савтия” номи билан тарихга кирган бу мактаблар аслида чинакам фидойилик намуналари эди. Шунга қарамай, у ижтимоий фаолиятда қизғин давом этди. Жумладан, шу йиллари “Нашриёт”, “Мактаб” каби ширкатларни тузишда бош-қош бўлди.

Авлоний 1917 йил Феврал воқеаларидан кейин “Яшасин халқ жумҳурияти!” шиори остида “Турон” газетасини чиқарди. Газета бойқот қилинди. Бу ҳодиса катта шов-шувга сабаб бўлди. “Улуғ Туркистон” газетасида Андижон татар мусулмон “Жамияти хайрия”си номидан Ҳофиз Ямғулатов, ўзбек (турк) ёшлари номидан Абдулҳамид Сулаймоний (Чўлпон)лар имзо чеккан “Туркистон Протопоповлари” деган кескин “протест” босилди. Оренбург ва Уфада чиқиб турган газета ва журналлар ҳам бу шармандали воқеани бутун тафсилотлари билан ёритган ва Мирмуҳсин билан Авлонийни ҳимоя қилиб чиққан эдилар.

1917 йилнинг апрел-май ойларида Туркистоннинг жуда кўп шаҳарларида маҳаллий меҳнаткашларнинг касаба уюшмалари ва ташкилотлари майдонга келди. Авлоний “1917 йилда Тошкентда ерли халқлар бир неча рабочий союзлар ташкил қилдим”, -деб ёзади адиб.

Дарсликлар яратиш йўлида. 1909-17 йиллар давомида махсус мактаб болалари учун ёзилган ўндан ортиқ китоби майдонга келди. Унинг “Биринчи муаллим”, “Иккинчи муаллим”, “Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ”, “Мактаб гулистони” сингари дарсликлари, “Адабиёт ёхуд миллий шеърлар” тўплами 10-йилларда бир неча бор қайта босилиб чиқди ва Туркистоннинг жуда кўп янги усул мактаблари учун қўлланма бўлиб хизмат этди. Маълум сабабларга кўра,

босилмай қолган “Учинчи муаллим”, “Мактаб жўғрофияси”, “Ҳисоб масалалари” сингари дарслик китоблари ҳақида ҳам адибнинг замондошлари жуда илиқ фикрларни айтадилар.

Маърифатпарвар шоир. Авлоний “1894 йилдан бошлаб шеър ёзишга тутинган” бўлса-да, у шеърлар бизгача етиб келмаган. Унинг 1917 йилгача бўлган поэтик мероси, асосан, “Адабиёт” номли 6 қисмдан иборат шеърӣ тўпламларида жамланган. Уларнинг ҳар бири 1909-1917 йиллар оралиғида алоҳида-алоҳида бир неча маротаба нашр қилинган. Шунингдек, ўша давр вақтли матбуоти саҳифаларида ҳам шоир шеърларини кўплаб учратамиз.

Авлоний эрк ва озодликка олиб борадиган бирдан-бир йўл деб илм-маърифатни билди. Шу сабаб Ватани, халқи учун заррача манфаат етказишни ўйлаган кишини маърифатга даъват этди. Шоирда “маданият ваҳшийлари” деган ибора бор. “Маданият” сўзининг “ваҳшийлик” билан ёнма-ён қўйилиши ушбу масалага ёндашишда унинг Гаспринский ва Фитрат билан бир позицияда турганини кўрсатади. Бу, албатта, жаҳоний ходиса бўлган илғор рус маданиятидан воз кечиш дегани эмас. Унинг сиёсий мақсадларга хизмат қилдирилганини англаш, холос.

Биринчи Жаҳон уруши ва унинг асоратлари мавзуи ҳам Авлоний ижодидан кенг ўрин олган. Шоир бу мудҳиш фалокатнинг юзага келиш сабабларини таҳлил қилади, унинг мазмун-моҳиятини белгилашга уринади. Унингча, бош сабаб “рақобат”, бўлинган дунёни бўлиб олишга уриниш, “олама ҳокимлиғ” дағдағаси эди. Ниҳоят, мардикорлик воқеалари юз берди. Ёигитларни фронтга жўнатиш мавзуида адабиётимизда ўнга яқин шеърӣ тўплам майдонга келган. Авлонийнинг “Мардикорлар ашуласи” китоби ҳам шулар сирасида.

Инқилобий воқеалар Авлонийга таъсир этмай қолмади. У энди истиқболни фақатгина маърифат, илм-фан орқали қўлга киритиш мумкин эмаслигини англади, эрк ва ҳурриятга етмоқни йўли битта-бирлашиш, миллий демократик кучларни бирлаштириш деган хулосага келди. Шу умидда рус инқилобий ҳаракатчилиги, советлар билан ҳам боғланди. Афсуски, социалистик “идёл” деганлари сароб эканини, советлар йўли оқ империянинг “қизил” шакли эканини дафъатан англай олмади.

Шеърӣятда эса янги ғоя ва тимсоллар учун янги шакл ва ифодалар излади. Эскиларига янги мазмун сингдирди. Уларнинг муҳимлари қуйидагилар эди:

1. Вазннинг янгиланиши.
2. Поэтик жанрларнинг янгиланиши.
3. Поэтик образларнинг янгиланиши.
4. Шеърларнинг сирлавҳаланиши

5. Анъанавий “ҳамд” ва “наът”лар мазмунининг ўзгариши.

Авлоний 1917 йилда ўқитувчилик билан шуғулланишга ҳам имкон топди. Шоирнинг архивида сақланган паспортида унинг шу йили 31 июн ва 3 август кунлари Қозонда “Болгар” меҳмонхонасида яшагани қайд қилинган. Июнда нима муносабат билан боргани номаълум, лекин 1 августда Қозонда Бутунрусия мусулмон ўқитувчиларининг 2-съезди очилган ва Авлоний унга вакил эди. Шоир 1917 йилда маҳаллий муаллимлар ўртасида сиёсий ишлар олиб боровчи “Ўқитувчилар союзи”ни тузган эди. 1918 йилда эса Коммунистик партия сафига аъзо бўлиб кирди. Ўлка советига сайланди. Тошкент партия ташкилоти, шаҳар ижроия комитетида масъул вазифаларда ишлади. “Улуғ Туркистон” газетасининг 1918 йил сонларидан бирида босилган расмий хабардан Авлонийнинг ўша йили Эски шаҳар ижроия комитети раиси лавозимида ишлагани маълум бўлади. 17-29 декабрда бўлиб ўтган Туркистон Коммунистик партиясининг 2- съезди Авлонийни Марказий Комитетга аъзо қилиб сайлади. 1919 йилнинг апрелида Туркистон Марказий Ижроия Комитетига сайланди. “Иштирокиюн” газетасини юзага чиқарувчи ҳам муҳаррири” бўлиб ишлади.

1919 йил июнида Авлоний РСФСР ҳукумати топшириғи билан Афғонистонга боради. 1919 йил 28 сентябридан 1920 йил 20 июлигача Ҳиротда бош консул бўлиб турди. Афғон сафари унинг большевиклар ҳукуматига бўлган шубҳасини кучайтирди. Ўзларини ҳақиқатчи деб жар солган большевикларнинг собиқ чор генералларидан фарқ қилмаслигига амин бўлди. 1920 йили у соғлиғи ёмонлашгани боис Афғонистондан чақириб олинди ва Туркбюронинг маданият бўлимига бошлиқ этиб тайинланди. Шу йиллари “Қасабачилик ҳаракати” журнали муҳаррири бўлиб ишлади. 1921 йилдан Тошкентдаги ўлка билим юртида, 1923 йили хотин-қизлар билим юртида мудир, 1924 йилда ҳарбий мактабда ўқитувчилик қилди.

1925-30 йилларда Ўрта Осиё Коммунистик университети (САКУ), Ўрта Осиё Қишлоқ хўжалиги мактабида (САВКСХШ) дарс берди. Ўрта Осиё Давлат университети (САГУ) педагогика факультетининг тил ва адабиёт кафедраси профессори, сўнг мудир бўлиб ишлайди.

У, бир томондан, инқилобга катта умид билан қаради, ўз истеъдодини унинг хизматига қўйди. Иккинчи томондан, унинг ўзгаришларидан қаноатланмади. Тўғрироғи, юртнинг иқтисодий талон қилинаётганини, маҳаллий халққа ҳеч қандай ҳуқуқ берилмагани, миллий анъаналар оёқ ости бўлаётганини, дин-диёнат емирилаётганини кўриб изтиробга тушди.

Авлоний 17-йилдан кейин яна 17 йил яшаган бўлса-да, ижодда ҳам фаолиятда ҳам инқилобдан илгаригидек серҳаракат бўлган эмас. Тўғри, ”Набил”, ”Индамас”, ”Шухрат”, ”Тангрикули”, “Сурайё”, “Чол”, “Аб”, “Чегабой”, “Абдулҳақ” каби имзолар билан кўплаб ҳажвий шеърлар, кулги ҳикоялар бостириб турди. Лекин катта, жиддий ишлар қилмади. Аммо шеърларида кочирик, таггап кўпайиб борди. Масалан, “Муштум”нинг 1923 йил

15-сонида босилган “Бир мунофиқ тилидан” шеърида бу яққол кўринади. Муаллиф шеърда бир кишини эмас, бутун зиёлини букаламунга айлантириб қўйган инқилобни, шўро ҳукуматини нишонга олади.

Октябрдан кейин бироз камнамо бўлгандек кўринса-да, у ёш қалам аҳллари вояга етказишда, уларга ижод сирларини ўргатишда фаол иштирок этди. Адабиётга ўша йиллари кириб келган Миртемир эътирофича, у “Ёш ленинчи” газетаси қошидаги машғулотларда фаол қатнашган. Адиб истеъдодли ёш ҳамкасабаларига йўл-йўриқ кўрсатди. “Шеърида зўр маҳорат кўрсатган” Ҳамид Олимжон, “иқтидорли шоир ҳам ёзувчи” Ғафур Ғулом, “таниқли шоир” Уйғун ҳақида матбуотда фикрлар билдирди.

У 20-йилларда самарали илмий ишлар ҳам олиб борди. 1930 йилда САГУ профессори, сўнг кафедра мудири бўлиб ишлагани бежиз эмас. Илмий ходимлар секциясида, Ўздавнашрда, Республика терминология комитетида, Давлат илмий советида масъул вазифаларда ишлади. 1933 йил УЎ синф учун хрестоматияси тузиб нашр эттирди. Унга 20-30-йиллардаги ўнлаб ўзбек адиблари ҳамда рус, Европа адабиётининг қатор вакиллари ҳақида биографик маълумотлар келтирилган, уларнинг машҳур асарларидан намуналар берилган эди.

1934 йил 25 августда вафот этди.

Савол ва топшириқлар:

1. Абдулла Авланийнинг ҳаёт йўли.
2. Авланий жаҳид мактаблари учун қандай дарсликлар нашр эттирган?
3. Абдулла Авланийнинг миллий матбуот шаклланиши ва ривожига хизматлари.
4. Миллий шеъриятдаги шаклий ва мазмуний янгиланишларда Авланий назмининг ўрни.
5. Авланий драмаларида давр воқелигининг талқини.

Таянч иборалар:

1. Авланий – матбуотчи.
2. Авланий ва «Турон» труппаси.
3. Авланий – ношир.
4. Авланий – педагог.
5. Авланийнинг «Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ» асари.
6. «Адабиёт ёхуд миллий шеърлар».
7. Авланий мақолаларида маърифатпарварлик ғоялари.
8. Авланий–драматург.

Курснинг инфор­мацион-методик таъминоти

1. Авланий А. Ўсон миллат. Т, 1993.
2. Авланий А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Т., 1992.

3. Авлоний А. “Афғон саёҳати” кундаликлари. Т, 1990.
4. Қосимов Б. Миллий уйғониш. Т.: “Маънавият”, 2002.
5. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. –Т.: Маънавият, 2004.
6. Жабборов Н. Абдулла Авлоний: “Миллатим ўлмиш нега бемор?” //Jannat Makon, 2010, 6-сон, 52-57-бетлар.

6-MAVZU

TO'LAGAN XO'JAMYOROV – TAVALLO, SO'FIZODA VA SIDQIY XONDAYLIQIYLARNING HAYOTI VA IJODI

Тавалло тахаллуси билан ижод қилган Тўлаган Хўжамеёров 1883 йили Тошкентнинг Кўкча даҳасида туғилган. Унинг ҳаёти оқ ва қизил мустамлакачилик ҳукм сурган даврга тўғри келгани боис, озор-уқубатлар билан ўтди. Тавалло ўзига тўқ, мулкдор отаси Хўжамеёр Жиянбоевнинг ер-сувидан фойдаланиб, савдо ташвишлари билан ҳаётини ўтказиши ҳам мумкин эди. Шу тарзда умри бойваччаларникидек ўтмаса-да, ўртаҳол замондошлариники каби бир маромда кечган бўларди. Аммо Яратган Эгам унга туғма ижодий қобилият тухфа қилган эди. Ижодга ошнолик, халқ ҳаётига яқинлик эса ижтимоий турмушга фаол аралашаётган ундади. Қорасоч, қўйқўз, бўйи атиги бир ярим метр бўлган бу инсон фидойи бўлмаганида, балки умри кузатув остида ўтмас, 1938 йилда отилиб кетмасди.

Тўлаган Хўжамеёров дастлаб эски мактабда, кейин “Бекларбеги” мадрасасида, рус-тузем мактабида таҳсил олди. Олдинига Тошкентдаги бир фабрикантнинг қўлида, 1900 йилдан эса отасининг маслаҳати билан Пржевальскга бориб бир тадбиркор танишининг қўлида ишлайди. Рус тилини мукамал ўрганади, тижорат ва ҳаёт сабоқларини олади. 1909 йилда отаси вафот этгани сабабли Тошкентга қайтиб келади. Бу пайтлар 20 аср бошида чор мустамлакачилиги асоратидаги ўлкаларда миллий уйғониш кучаяётган давр эди. Ақл-идрокли ҳаммаслаклари бўлган Мунаввар қори, Хусанхўжа Дадахўжаев, Саидабдулло Саидазимбоев, Комилбек Норбеков Юсуф Сарёмий, Авлонийлар билан Тўлаган ҳам империя чангалидан озод бўлишга имконият юзага келаяётганини сезиб, турли нашриёт, газета, жамиятлар тузиш орқали авомни “уйқудан уйғотиш” га интилади.

Бу орада 1917 йил октябридаги давлат тўнтариши бўлиб, мустамлакачилик большевиклар тусидаги қитзил рангга ўзгарди холос. Шундай бўлсада Тавалло ёшларнинг маърифатли бўлишини истаб, 1918 йилда Тошкентда янги мактаб ташкил этишга бош бўлади. Шунингдек, ўз маҳалласида камбағалхона ташкил қилиб, давр сабаб оч наҳор, етим есир бўлиб қолганларга озиқ овқат, кийим бош тарқатишга ҳам ҳаракат қилди. Бу пайтда Тавалло большевикларнинг мустамлакачилиги авжига чиқаяётганлигидан доим зорланарди. Бу ҳолатни “авом халқ ўзаро нифоқ ва қўрқоқлик орқасидан хор-зор, қизилларга тутқун бўлди. Бироқ бир куни сабр косаси тўлади” дея баҳоларди. Тавалло яратган шеърларда унинг ўша вақтдаги кайфияти яққол сезилади:

Шунча Туркистон элинда нодон аҳли кўб вале,

Носих ўлмас эрсалар, ақли расолардин насуд?!

Шоирни айникса, миллатнинг эртаси ўйлантириб, шу фикрлар асносида мухаммаслар битди.

Эй кўлум, пул тутма ҳеч, миллатга ёрдамлашмасанг,
Бўлма хушнуд, эй дилим, миллат ғамин ғамлашмасанг,
Равшан ўлма, эй кўзум, ёшинг тўқуб намлашмасанг,
Фикрим, очилма, агар шеъринг ёзиб, ҳамлашмасанг,
Чик ичимдан, жоним, эй, сан манга ҳамдамлашмасанг...

Бошқа бир шеърда эса киноя билан қолоқликни аччиқ ҳажв қилиб ўтади:

Ёврупо аҳли, сиз қулоқ солингиз,
Биз ҳунарлар ёзиб тонуштирамиз.
Келтуринг запнбурак, қурол неча хил,
Бизни сопқон ила отуштирамиз.
Афтомоби, аробангиз қайда,
Ҳўқанд арба билан чопуштирамиз.
Биз билурмиз, сиз тўғри сўзни қули,
Лек биз ялғонлар қотуштирамиз.
Дўстни душман эдуб, солиб иғво,
Гап тошуб ўртага чоқуштирамиз.
Қўлда бидъат маромномаси бор,
Ким яқин келса, биз ёпуштирамиз...

Бу албатта қадимчилардек жаҳид тараққийпарварларга тўсиқ бўлган тоифага киноя тарзида битилган. Шу сингари Тавалло ижодида яна бошқа киноявий, ҳажв йўсинидаги бошқа шеърлар ҳам мавжуд:

Тескари, деманг, замон, бизнинг юришлар тескари,
Элдин ибрат олмайин бизда турушлар тескари.
Қўйса гар миллат қадам, роҳи тараққий изласа,
Дар маҳал доне ўлуб йўлдин урушлар тескари...
Йўқ, деманг, бизда муҳаррир, шоир, эй аҳбоблар,
“Ой юзингдан, вой, кўзингдан”, деб ёзишлар тескари...
Ёки яна бир шеърда шундай сатрлар бор:
Фалак, бизга хабар бер, нечун безътибор этдинг,
Жаҳонда барча эллар ичра бизни шармисор этдинг.
Жаҳолат риштасига банд этиб, раҳм эимадинг ҳаргиз,
Фалокат ҳандақи узра бугун бизни дучор этдинг.
Шарорат ёмғурини ёғдуриб миллатни бошиға,
Адоват отиға отландуруб бизни сувор этдинг...

Миллат дарди билан яшаган шоир бошқа халқлар билан ҳам дўстона муносабатлар тарафдори эди. Хусусан, руслар орасида ҳам дўстлари кўп бўлиб, ўзбек ва рус тиллари уйғунлигида ғазал ҳам ёзган эди. Маълумки, рус тили фонетик хусусиятига кўра, аруз қонунларига бўйсунмайди. Бироқ Тавалло буни ҳам уддалаб, “Вот шеър” сарлавҳаси билан “Муштум” журналининг 1928 йил 3-сонида чоп эттиради:

“Муштум” чироғим, сўйла-чи: как ты поживаешь?
Ҳар кимни сўкиб, сам себе душман наживаешь.
Текканга тегиб, тегмаса шутишь, почему так?
Хуллас, жим ўтир, мунча всегда задеваешь
Если попадет сенга биров мулла қилурсан,
Ҳар қандай асов бўлса-да, узда наdevаешь.
Бир кун чиқасан чёрный кийиб, эртага бошқа,
Откуда чопон ҳафтада наdevаешь?
Ҳеч бир сожальетъ этма, ёзиб тур нима кўрсанг.
Иначе бугун вақти ғаниматни теряешь.
Майли, хорошо, разный қилиқларни ёзиб тур,
Бизлар биламиз, везде бываешь.
Вот энди бугун ман ёзаман, сан смотри,
Сен дема мени “мағзава” тезда забивеашь.

“Муштум”га мурожаат шаклида ёзилган ушбу ғазал ўша вақтда катта шов-шувларга сабаб бўлган. Айрим кўролмаслар эса, Тўлаган ичкиликка берилганидан шундай шеърлар ёза бошлади, дея гап тарқатишади. Унинг ичкиликка берилиши аслида 1931 йилда ўғли Маҳмуднинг вафотидан сўнг бўлганди. Мақсуд, Санобар ва Раҳбар исмли фарзандлари эса отасининг дардини англашарди. Аммо табиатан интилувчан, ғайратли Тавалло хатарли вазиятларда ҳам миллат ҳақида қайғурарди. Ана шу қайғу-аламлар Таваллони 1937 йилнинг сентябрида қатағон домига тортди. Натижада унга “халқ душмани” дея сохта, тўқима айблов қўйилиб, ўша йилнинг 10 ноябрида НКВД училиги Тавалони отиб ўлдирди.

Таваллодан турли жанрларда ёзилган юзга яқин шеър, жаид адиби деган ном мерос бўлиб қолган.

... Хоразмнинг Гурлан туманилик шоир Турсунбой Каримов 1980 йилларда туман кино идораси раҳбари сифатида Тошкентга борганида, у ерда Таваллони таниган-билган қариялардан ёзиб олган шеърларни ўқиб, жаид адабиёти намоёндасининг ҳажв йўсинида ашъорлар битганига амин бўласиз. Ушбу шеърлар ҳали ҳеч бир нашрда ёритилмаган бўлиб, Таваллонинг ҳажв йўли билан тараққиётдан ортда қолмасликка, маърифатли, шижоатли бўлишга замондошларини ундаганини англаймиз:

Тошкентда кўп истироҳат боғимиз,
Ҳеч келишмас анга бориб бизнинг сайр этмоғимиз,
Ёз фасли оқ баданлар оқ кийимлар кийсалар,
Пахталикни ташламай, елкага чиққан ёғимиз.
Уч қават камзулнинг устидан яна бир
Каттакон боғлабон маҳкам қилиб саккиз қулоч белбоғимиз.
Скамейка узра ўлтирса нечалар роҳат қилиб,
Кавфшимиз лойи билан биз устида ётмоғимиз.

Ўқиганингиздек, Тавалло жаид шоирлари каби жамиятда маънавият ва маърифатни юксалтиришга, даврдошларини ўз қобиғига ўралиб, замондан орқада қолмасликка ундаб, камчилик ва нуқсонлар, муаммолардан кўз юммай, уларни ҳажв қилиб шеърлар битган:

Руслар отиб бир замбарак,
Борларни қилди бедарак.
Биз боғда чалиб тар-тарак,
Сопқон отолмаймиз ҳануз.
Руслар учса осмон,
Машинаси аэроплан.
Нечун бизлар трамвайдан
Ерга тушолмаймиз ҳануз?!
Бизлар катта нарвон қўйиб,
Томдан тушолмаймиз ҳануз.

ОНАМ ЙИҒЛАЙДИР

Нелардандир кўнгил бўлиб ғаш,
Ҳам эгилиб, бу эгилмас бош,
Кўзларимда қалқиб турса ёш,
Бу ҳолимга беролмай бардош,
Бир муштипар Онам йиғлайдир,
Қолганлари ёлғон йиғлайдир.

Қайтар бўлсам куруқ қўл овдан,
Қора қозон қолса қайновдан.
Ҳам айрилиб ўлжа, уловдан,
Қарзга ботар бўлсам бировдан,
Таскин бериб Онам йиғлайдир,
Қолганлари ёлғон йиғлайдир.

Бирда ҳақдин, бирда ноҳақдин,
Жабр кўрсам бир бетавфикдин,
Ортда турсам қалби қурокдин,
Қадрим хароб бўлса тупроқдин,
Оҳлар уриб Онам йиғлайдир,
Қолганлари ёлғон йиғлайдир.

Оға-ини ўртасида гап...
Алҳол, келиб чикса ихтилоф,
Бири иззат, бири мулк талаб,
«Бу оқ сутим, меҳримга хилоф», —
Дея шўрлик Онам йиғлайдир,
Қолганлари ёлғон йиғлайдир.

Синалмоқнинг гали келганда,
Ногоҳ мағлуб бўлсам майдонда,
Номим қолмас бўлса жаҳонда,
Ким дўст-душман билинар онда
Аҳволимга Онам йиғлайдир,
Қолганлари ёлғон йиғлайдир.

Ғаним бир ён, мен бир ён бўлсам,
У устувор, мен урён бўлсам,
Бу ҳам камдай ногирон бўлсам,
Ёғоч отга ёнма-ён бўлсам,
Ой тутилиб, Онам йиғлайдир,
Қолганлари ёлғон йиғлайдир.

Бўлсам гумроҳ, бўлса гуноҳим,
Вужудимга солмасдан ваҳм,
Қабул айлаб тавалло — оҳим,
Дариғ тутмай меҳринг, Илоҳим,
Йиғлатмагин мушфиқ Онамни,
Волидаи муҳтарамамни.

6.2. Мавзу: Сўфизода ҳаёти ва ижоди (1869-1937)

Сўфизоданинг ҳаёти ва ижодини ўрганилиш тарихи. Сўфизоданинг ҳаёт йўли. Сўфизода шеърляти. Сўфизода – маърифатпарвар шоир. Сўфизода ижодининг миллий уйғониш даври адабиётида тутган ўрни.

Муҳаммадшариф Сўфизода 1880 йили Чустда хунарманд оиласида дунёга келди. Унинг отаси Эгамберди Сўфи пичоқчилик билан шуғулланган. Унинг оиласи адабиёт шинавандалари эди. Онаси Зайнаб холанинг ҳаракати билан ўғли Муҳаммадшариф ён қўшниси Манзура отин қўлида савод чиқаради, сўнг маҳалласидаги эски мактабда таълим олади.

Сўфизода адабиёт даргоҳига 90-йилларда кириб келди. 1893-1898 йилларда Қўқонда яшаб, Муқимий тўғарагида фаол қатнашиши шоирнинг дунёқарашининг шаклланишида, бадий маҳоратининг ўсишида ўзига хос мактаб бўлди. Жуда қисқа муддат ичида оддий пичоқчи Эгамберди Сўфининг ўғли Муҳаммадшариф «Ваҳший», «Сўфизода» таҳаллуслари билан бутун Фарғона водийсида шуҳрат топди. Лекин ижтимоий тузум ҳомийларини шарманда қилувчи ҳажвиялари шоир бошига катта ташвиш олиб келди. Уни «дахрий» деб эълон қилдилар. Унга «беадаб», «бадасл» деган тавқи лаънат тамғаси босдилар. Бу ҳали ҳаммаси эмас эди. Уни қатл этишни лозим топдилар. Шоир қочишга ва натижада 1900-1913 йилларда она диёридан узоқда дарбадар ҳаёт кечиришга мажбур бўлди. Ўрта Осиёнинг бутун шаҳарларини кезиб чикди. Тифлис, Баку, Арабистон, Ҳиндистон, Туркияда бўлди. Бироқ шоир қаерда бўлмасин, барибир она диёрига қайтишдан умид узмади. У ўз шеърлари билан Кавказ ва Оренбург матбуотида, Тошкентда чиқадиган «Туркистон вилоятининг газети», «Садойи Туркистон» газеталарида фаол қатнашиб турди. Ниҳоят, 1913 йилнинг охирларида Чустга қайтиб, янги усулдаги мактаб очди.

Табиатан дангал, тиксўз, хатто, бир оз чапани феъл бўлган шоир мактабни тепасига шундай деб ёздириб қўйган экан: «Мен ул бўёқчиманки, мактаб кумида ранг бериб, қора чаппаларни ўн икки ойда оқ қиламан».

Сўфизода дастлаб ўз замондошлари, сафдошлари сингари маърифатпарвар шоир сифатида танилди. Унинг озарбайжон адиблари Жалил Мамадқулизода, Алиакбар Собир билан яқиндан танишувчи дунёқарашининг шаклланишига катта ёрдам берди. 1905 йилдан кейин шоир ижоди янги босқичга кўтарилди. Унинг бу давр шеърлятида миллий туйғулар пайдо бўлди.

Сўфизода ижодини ўрганар эканмиз, Сўфизода ва Ҳамза ижодида кўп умумийлик ва муштарак тарафлари бор эканлигини кўрамиз. Ҳамзага ҳам, Сўфизодага ҳам Кавказ орти, ҳозирги Туркистон ва унинг атрофидаги газета-журналларнинг, уларда иштирок этувчи таниқли озарбайжон ва таниқли татар адибларининг таъсири кучли бўлди. Ерли амалдорларни, жамиятдаги норасоликларни талқин қилганликлари учун иккови ўз юртидан қувғинга учради. Сўфизода қувғини ҳақида адабиётларимизда икки хилликлар жуда кўп. Зеро, Сўфизода XX аср миллий уйғониш даврининг йирик намоёндасидир.

Шоир тутқун, жирканч жамиятда шеърлятнинг ўткир, ғоявий қурол бўла олишини чуқур ҳис этди. Қаламини ҳақиқат йўлида бою амалдорлар, маҳаллий ҳукумат вакилларининг кирдикорларини очишга қаратади:

Бераҳм, бағритош, жафокаш бургалар,

Бердинг манга кўп бунча ҳам озор бургалар.

Ҳар ёнга уриб оҳ ила ўзни ситамингдан

Ағнаб чиқаман кечаси бедор бургалар.

Сўфизода ҳаётидаги ҳар бир янги ҳодисага ўзининг фаол муносабатини билдириб борди. Сайлов ер ислоҳоти, хотин-қизлар озодлиги ҳақида шеърлар ёзилиб, халқни ҳушёр бўлишга чақиради, унинг моҳиятини кенг халққа тушунтирди. Унинг «Қалайсизлар» шеъри жамиятнинг бир-биридан иқтисодий жиҳатдан фарқланадиган икки табақаси тилидан ёзилган бўлиб, ҳар бир табақа фикри ўз тили, яъни ҳар бир табақа учун хос бўлган луғат тузилиши ва шевалари билан ифодаланади.

Шоир аёлларни Европа маданиятига чақирибгина чекланган эмас. У аёлларни жамиятнинг фаол қурувчиси, бунёдкори бўлишга ундайди ва илм олишиулар учун энг яхши зийнат деб ҳисобларди:

Мунча ёмон шўрлади пешоналар,

Қизларимиз жорияйи хоналар.

Сиз эдингиз жонлара жононалар,

Қадрингизни билмади дебоналар.

Қумри билан булбули бедоналар

Яхши ўқур, сиз ҳам ўқинг, оналар.

Сўфизода ижодий фаолиятида маърифатпарварлик устувор аҳамиятга эга. У газетага алоҳида аҳамият берди ва халқнинг маданий ҳаётида газетанинг катта рол ўйнашини тушунтирди. Мазкур мавзуга бағишланган «Яшнатиб дил ғунчасин фасли баҳор айтар газет» деб бошланувчи газета тўғрисида ғазали, айниқса, диққатга сазовордир.

Мумтоз адабиётимизнинг таниқли намоёндалари изидан борган Сўфизода байтлар таркибида бир қатор шеърӣ санъатлардан ҳам муваффақиятли фойдалана олди. Масалан, қуйидаги мисраларда истиора, ташбеҳ ва сифатлашни кўрамиз:

Кел, яқин оромижон, рухсори олингдан ўпай,

Гул юзинг устига қўнган эрка ҳолингдан ўпай.

Тишларининг дурдонаси янглиғ тасаллум чоғида

Ҳар замон лаъли лабинг маржон мисолидан ўпай.

Шоирнинг 10-йиллар шеърӣяти марказида зулматга чулғанган Ватан ташвишлари туради:

Ватан заминдан ўту кўзларим, сақфинда қон оғлар,

На ёлғиз кўзларим, мажруҳ ўлан жисмимда жон оғлар.

Шоир жафокаш эл аҳволига разм ташлайди. Умри асоратда ўтаётган масъума чўри қизлар, эшик олдида термулиб турган шўр пешона оналар шоирни изтиробга солади. Шу боис, уларнинг инсонийлик ҳақ-ҳуқуқини ҳимоя қилиб чиқади ва ўз замондошига қарата:

Қўлингдан келса, ётган камбағални тур деб уйғотгил,

Қараб кўр, шоҳу баргу мева асли бир шажардандур

деб хитоб қилади. Шундай қилиб, шоир ижодиёти ўзига хослиги билан, серқирра ва сермазмунлиги билан ажралиб туради.

Савол ва топшириқлар

1. Сўфизоданинг ҳаёти ва ижодининг ўрганилиш тарихи ҳақида гапириб беринг.
2. Сўфизоданинг ҳаёти ҳақида нималарни биласиз?
3. Сўфизода шеърӣида бош ғояни асосан нималар ташкил этар эди?

4. Сўфизода ижодининг миллий уйғониш даври адабиётида тутган ўрни ҳақида дафтарингизга ёзинг.

Таянч иборалар

1. Сўфизода ҳаёти.
2. Сўфизоданинг маорифчилик фаолияти.
3. Сўфизода ижтимоий ҳаёт ҳақидаги танқидий қарашлар.
4. Сўфизода шеърлятида маърифатпарварлик ғоялари.
5. Шоирнинг газета ҳақидаги шеъри.
6. Сўфизода шеърлятининг бадий хусусиятлари.

Курснинг информацион-методик таъминоти:

1. Сўфизода «Тароналар». Тўплаб, нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Т.Расулов. Т, 1968.
2. «Ўзбек совет адабиёти тарихи». 1-том. Т, 1968.
3. Б.Қосимов, У.Долимов. «Маърифат дарғалари». Т, 1990.
4. Н.Каримов ва бошқалар. «XX аср адабиёти тарихи». Т, 1999.
5. Б.Қосимов. «Миллий уйғониш». Т, «Маънавият», 2002.

6.3. СИРОЖИДДИН СИДҚИЙ (1884-1934)

Атоқли адибимиз Ойбек «Улуғ йўл» романида уни шундай аништирган эди: «Шоир Сидқиймахсум Искандардан. Камбағал оилада туғилиб ўсган, қаттиқчиликда қийналиб ўқиган, кейинмадрасага жойлашган. Кўп хору зорлик билан мадрасани тугатган, Искандарга қайтмасдан шаҳарда қолган. Назмда хийла тузук, каломи ўткир, пишиқ, ҳозиржавоб шоир эди. Ўрта бўйли, мулойим ифодали, юзлари буришиқ, фақирона кийинган, хушфеъл, хушмуомала киши эди».

Сирожиддин Сидқий 1884 йилда туғилди. Отаси Мирзоҳид-охунд «охунд» деб номланишидан ўқимишли кишилардан бўлган. Шоир ўз «падари бузруквор»ининг «камдастроқ», «бечораҳолроқ» бўлганлигидан «хизматкорларга ош тошиб, оту улоғ боқиб» рўзғор тебратганини маълум қилади. 6 ёшларида Сирожиддиннинг саводи чиқади. Хати равон бўлиб, қисқа муддатда шериклари орасидан кўзга ташланиб қолади.

1903 йилда ўқишни давом эттириш ниятида Тошкентга келади. Кесакқўрғон маҳалласидаги Мадрасаи Раҳматуллоҳда Шомухиддин охунд қўлида араб тили сарф (морфология)у наҳв (синтаксис)ини ўрганади. Хаттотликка муҳаббат қўйиб, замонасининг машҳур қилқалами Тошкентнинг Арпапоя маҳалласида истиқомат қилувчи Муҳаммад Шохмурод котиб (1850 – 1922)га шогирд тушади. Сўнграқ Фарғона водийсига бориб, «машҳури даврон» Мирза Ҳошим Хўжандийдан сулс, таълиқ, руқъа, ёкутий, убайдий, лохурий

каби хатларни ўрганади ва унинг «тарбияимушфиқонаси», «марҳамати падаронаси сояхи моясида» «ғурбат юртида» шуҳрат қозонади.

Айни пайтда шеър машқ қила бошлайди. Таржима билан шуғулланади. Кекса маорифчи, шоир ва журналист Мўминжон Муҳаммаджонов (1883—1964) ўзининг «Тошкентлик ва Тошкентда бўлган ўзбек шоирларининг таржимаи ҳоллари» қўлёзмасида маълум қилишича, табиатан ғоят закий бўлган бу шоир Мулла Қўшоқ Мискин (1880-1937) билан жуда иноқ эди. Улар биргаликда «Кўкалдош» мадрасасида Акмалхон домладан дарс олганлар. Сўнг Сидқий «Бекларбеги»да Абдулмаликхожи охундда ўқиган. «Кўкалдош»да Сидқий ва Мискинлар билан айни бир вақтда шоир Хислат (1882-1945) ҳам ўқиган. Сидқий ўз таржимаи ҳолида Хислатнинг номини алоҳида эҳтиром билан тилга олади, ундан шеър илмини ўрганганини айтади.

Сидқийнинг шоир сифатида шаклланишида Каримбек Камий (1865-1922)нинг хизмати катта бўлди. «Бекларбеги» мадрасаси хужрасида фақирона ҳаёт кечирган, Тошкентдаги машҳур 7 бедилхондан бири сифатида эътироф этилган бу нозиктаъб шоир кўплаб ёшлар учун устозлик қилган.

Гоҳ «Кўкалдош»да, гоҳ «Бекларбеги»да шеърхонликлар тез-тез бўлиб турган. «Бекларбеги»дан мулла Тўлаган — Тавалло, Мўминжон -Тошқин, «Кўкалдош»дан Сидқий, Мискин, Хислатлар бу мушоираларнинг фаоллари эдилар. Бу оддий суҳбатларда шеър илми билан боғлиқ гаплар ҳам ўртага тушар эди. Сидқий «авзон» (аруз вазни кўзда тутилади), «сажъ» (қофияли наср), «қофия» кабиларни мана шу адабий давраларда ўрганганини айтади ва юқоридагилар билан бир қаторда Ғазанфар, Мунис, Хаёлий, Иффат Боғистоний, Ризоий Андижоний, машҳур Муҳйи Хўқандий, Саидахмад Васлий Самарқандий, Ғурбатий Туркистоний, Абдулқодир Кошғарий каби «фусаҳои рўзгор ва адиби балоғатшиор»лар номини тилга олади. Уларга «улфат бўлуб», «риштаи муҳаббатлариға меҳр аёгин банд этган»ини, «алардан анча касби маориф қилган»ини ёзади.

Сидқийнинг илк шеърлари, шубҳа йўқки, ишқий шеърлар эди. Ва буларни (2 шеър китоби) у «Шавкат» таҳаллуси билан ёзди («Тухфаи Шавкат», Т., 1913; «Савғоти Шавкат», Т., 1914), шу номда нашр эттирди. Бир қатор шеърларига «Шеван» («нола», «фигон») таҳаллусини қўйди. Лекин сўнгроқ барча асарларини «Сидқий» таҳаллуси билан чоп этди. Ҳатто эски ғазалларини ҳам таҳрир қилиб, «Сидқий»га ўзгартирган, девони номини «Девони Сидқий» атаган эди.

Шоирнинг ўзи табиатан меҳнаткаш, ҳунар ва касб ўрганишга мойил ва моҳир бир киши эди. У хушхатликдан ташқари тош йўниб, унга турли ишлов бериш, хат ёзиш, турли безаклар тушириш, суратлар ишлаш, муҳр «қазиш»ни ўрнига қўйган. Ҳозирда хусусий ва давлат кутубхоналаридаги у кўчирган ўнлаб хушхат девонлар, баёз, рисоалар қаторида тайёрлаган кўплаб муҳрлари нусхалари, тошлавҳалар ва ниҳоят, серқирра ижодкор қаламига мансуб Тўйчи ҳофиз, Тавалло суратлари сақланиб келади.

Буларгина эмас, у хуштак яшаш, қуш овлаш, қуш боқишга ҳам уста бўлган. Асалари бокқан. Унга доир замонавий китобларни ўқиб ўрганган. Ўзи

айтмоқчи, арининг «захри омизиши»ни «аҳли миннатнинг шахди омизишидан яхшироқ» кўрган.

Сидқийдан сурат қолган эмас. Чамаси, у суратга тушмаган. Шоирнинг 1984 йилги «Навбахор» тўпламига чизилган сурат қариндошларининг сўзига қараб ишланган.

Адабиётга ошиқона шеърлар, ишқий ғазаллар билан кириб келган шоир ўз ҳаёти давомида кўплаб асарлар ёзди. Бу асарлар жанрига кўра ҳам, мазмун-йўналишига, мақсад-моҳиятига кўра ҳам хилма-хил эди. Шоир бадиий ижодга бадиий лаззатгина оладиган бир гўзаллик тимсоли деб қарамади. Уни ҳаёт ва кураш учун восита ҳам деб билди. Шунинг учун ҳажвиёт шоир ижодидан кенг ўрин олди.

У «Ҳолоти Сидқий» да ёзади: «Адабиёт ва ошиқона ғазали кўб бўлса ҳам, аксар табъи ҳажвиётига мойил бўлуб, Николай йўлига сув сепқонларга ва хутом дунёга сотилгон муфти маожинларига қуввати борица қаршу ҳаракот ва зўр монёбият кўрсатур эди». Дарҳақиқат, Сидқий табиатан тиксўз, ҳозиржавоб, ҳақталаб, адолатсизлик билан ҳеч бир чиқиша олмайдиган, айниқса, текинхўрлик, тамагирлик ва порахўрликни, қаллобликни инсонликка буюк офат билувчи ғоят покиза виждон эгаси эди. У бунинг жабрини ҳам кўрди.

Чунончи, унинг 1984 йилда «Навбахор» тўпламида эълон қилинган асарлари орасида Ўнкўрғон қозиси ҳақида бир воқеий ҳикояси бор. Мазкур шеърӣ ҳикояда жоҳил ва банги бир эшоннинг юрагига қози бўлиш гўлғуласи тушиб, муридларини йиғиб, пора билан унга эришгани, шариат ишларини поймол қилгани, порахўрлик, ҳақсизликка ривож бергани ҳақида гап кетади ва мисол сифатида шариат пешвосининг фаолиятдан бир лавҳа келтирилади:

Бир оқсоқол бир деҳқоннинг устидан арз қилиб келади. Куч ва тезликда ягона-ю ёлғиз айғири бор экан, фалон деҳқон қирчанғи, кўтир байталини ҳайдаб қўйган экан. Шу билан қўшилибди ва бу ҳам шу кундан кўтир бўлибди. Аслида бу ғирт ёлғон бўлиб, деҳқонни чув тушириш учун қилинган найранг эди. Деҳқонни топиб келадилар ва уриб-сўкиб, ўттиз сўмлик қирчанғини байтал эгасига саксон сўмга ўтказадилар.

Деҳқон қаттиқ қайғуради. Сойлиқ қишлоғида бир пок эътиқод, имони мустаҳкам, айна пайтда фозил, шариат раҳнамоси бўлиб келган бир киши бор эди. Шунга маслаҳатга боради. У можарони тинглаб бўлгач, йўқ, сен айбдор эмассан, шариатда бировга қасд билан зиён етказгандагина айбдор саналади. Ҳолбуки иккалангизнинг отингиз ҳам «бўш», ҳайдоқлик экан, - дейди ва қизиқчиликка олиб, сен аксинча, бориб, қозидан байталингнинг маҳрини талаб қил, чунки у ўша куни оқсоқолнинг отига «ҳақиқий хотун бўлибди», - дея қўшиб қўяди.

Сидқий ушбу воқеани олимнинг ўз тилидан эшитганини маълум қилади. Хуллас, бу воқеани шоир ёзиб, эълон қилиб юборади-ю боши балога қолади. «Бу сўзларим барчага қуёш каби фош бўлғоч, - ёзади шоир, - ул золим банги қози ўзи каби золим ва мустабидларни ёллаб, мен камбағални Сибирияга сургун («авоқ») ва турма ичра турғун қилмоқга анча чолишти. Мавлоно Фирдавсий Султон Маҳмуд Ғозийни ҳажв қилиб, Тус шаҳрига қочқондек ул золим амалдин қолғунча мен ҳам Фарғоналарда қочиб юрдим ва икки йилча

умрумни кечурдим. 1329 санаи ҳижрияда қиш ҳавосинда токи ул золим тахтдин тобутга тортилди, мен ҳам ўз ватаним дару девориға ортилдим. Ва биргина ҳақиқат изҳори учун шунчалик ташвиш чектим».

Дарҳақиқат, шоирнинг Андижонда туриб Тошкентга - Камий, Вуслатта йўллаган шеърлари, «Баёзи Ҳазиний»дан жой олган «Юз минг осафки, чарх мани қилди беватан» деб бошланадиган, муаллифнинг ўзи «шикастаҳолу магасулбол Шеваннинг Андижондин Тошкандға фироқ шиддатидин, иштиёқ ва муҳаббатидин шериклариға ёзгон мусаддаси ашъоридиндур» дея изох бериши бежиз эмас.

Бу шўролар замонида янада кучайди. Шоир ҳар қандай ҳолда ҳам рўйирост айтишни қўймади. Бу эса янги замон амаддорларига ҳам кўпда ёқавермасди. «Шул жихатдин,—давом этади шоир,—барчалари Сидқийга мумкин қадар кулфат бермоқға жозим эрдилар. Сидқий халқни(нг) ҳарчанд маориф ишлариға қиздируб `борса ҳам, лекин ҳўкузни қулоғига дўнбура ва танбур чертқондек бўлуб, они сўзиға бирор киши қулоқ осмағай эрдилар...» Шу туфайли:

Фалак тийғи ситам чекмиш, ҳама фазл аҳлини қирмиш,

Жаҳолат аҳлиға фаал аҳлининг ўрнуни топшурмиш.

Фалак бедодидни мен не учун минг додлар қилмай,

Ки мендек фазл элининг шохини саҳрода синдурмиш, —дея хулоса қилади. Инқилобдан олдин тинимсиз ижод қилгани, ўнлаб шеърӣй, насрий асарлар, ҳажвиялар, таржималар ёзиб нашр эттиргани ҳолда шўролар даврида дурустроқ бир асар ёзмаганлигини қуйидагича изохлайди:

«Барчага машҳурдирки, ҳар бир мол харидор бирла ривож топдиғи каби сўз ҳам харидор кўплуғи бирлан ва талабгор жўшиши илан тараққий этар. Сўз харидори ўлмағондурки, ҳозирги асримизда қадимғи шоирларимизнинг амсолини кўрмайдурмиз. Атобеклар, Ширвоншоҳлар, Аврангзеблар, Ҳусайн Бойқаролар бўлмасалар эрди, матбуот дунёсинда «Куллиёти Шайх Саъдий», «Хамсаи Низомин», «Куллиёти Бедил», «Ҳафт авранги Жомий» каби китобларни, албатта, ҳеч ким кўрмас эрди... Бечора Сидқийнинг оз шеър айтмоғиға боис сўз харидорининг йўқлиғидур».

Шоирнинг оилавий ҳаёти ҳам роҳатда кечган эмас. Ўғиллари Фатҳулкарим ва Омонуллоларнинг кетма-кет вафоти Сидқийнинг қаддини тамом букиб қўйди. Сидқий 1934 йили ўзи туғилиб ўсган қишлоқда Парвезтепа мавзеида вафот этди.

Унинг асарларини садоқатли шогирди Абдулла Носиров ЎзФА Шарқшунослик институтининг қўлёзмалар фондига келтириб топширди. 1984 йилда адабий жамоатчилик шоир таваллудининг 100 йиллигини, 1994 йилда 110 йиллигини нишонлади. 1984 йилда салкам 70 йиллик танаффусдан кейин адиб асарлари алоҳида бир китоб ҳолида нашр этилди. 1996 йилда унинг ижоди ҳақида махсус диссертация ёқланди. Бугунги кунда унинг ижоди ҳақида қатор мақолалар, рисоалар ёзилган. Айниқса, XX аср боши Тошкент адабий муҳитини ва шу жумладан Сидқий ижодини ўрганган филология фанлари доктори А.Жалоловнинг номини алоҳида қайд этиш керак. Шуларга қарамай,

шоир асарларини тўплаш ва янги ўзбек адабиёти контекстида баҳолаш масаласи олдинда турибди.

Сидқий — серқирра, сермахсул ижодкор. Араб, форс тилларини яхши билган шоир таржима билан ҳам жилдий шуғулланган. Масалан, у машхур «Минг бир кеча»ни, Саъдий Шерозийнинг «Бўстон»ини, ўнлаб ҳикоя ва латифаларни таржима қилган.

Ўзбекистон Фанлар Академияси Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида Сидқийнинг 20 дан ортиқ номда босма ва қўлёзма китоблари сақланиб келади. Буларнинг катта қисмини, шубҳасиз, шоирнинг оригинал асарлари ташкил қилади. Унинг юздан ортиқ ғазалини ўз ичига олган қўлёзма девонидаги шеърлар истеъдодли лирик шоир бўлганлигини кўрсатади.

10-йилларда босилган «Баёзи Ҳазиний», «Баёзи Муҳалло», «Армуғони Хислат» каби кўпгина тўпламларда Сидқийнинг «Шавкат», «Шеван» таҳаллуслари билан ёзган ўнлаб шеърлари ва ҳажвиялари бор.

Шоирнинг лирик шеърлари шуни кўрсатадики, у мумтоз адабиётимиздаги ҳаётий, инсоний муҳаббат, одамийлик сингари энг яхши анъаналарни давом эттиради. У буюк Навоийга алоҳида ихлос ва муҳаббат билан қарайди. Лекин XX асрнинг шоири бўлганлигидан унга демократик рух, маърифатпарварлик қарашлари ҳар нарсадан яқин туради. Бу ҳол уни Муқимий ва Фурқат изидан боришга ундайди. Буни шоирнинг зоҳиран ижтимоий ҳаёт билан кам алоқадордек туюлган, аслида турмуш билан теран боғланиб кетган анъанавий лирик шеърларида ҳам ошкор эътироф нишонаси — иқги-бос ва мухаммасларида ҳам кўриш мумкин.

Сидқий классик поэтикадан, бой анъанага эга шеърятимизнинг сирсиноатидан ҳам яхшигина хабардор. У ўз «Таржимаи ҳол»ида шеър илми билан махсус шуғулланганини хабар қилган эди. Шоир поэтик меросининг салмоқли қисмини ҳажвиёт ва ижтимоий-сиёсий шеърлар ташкил қилади. Ҳажвий асарларининг аксарияти воқеий ва деярли ҳаммаси порахўр қозилар, тамагир, товламачи амалдорлар, риёкор руҳонийлар ҳақида, ижтимоий-сиёсий шеърлари эса даврнинг муҳим воқеаларига бағишланган.

Масалан, «Муҳораба» шеъри 1914 йилда бошланган маълум ва машхур Биринчи Жаҳон уруши ҳақида. Шоир унинг оддий халқ бошига келтирган фожиаларидан сўз очади, очлик ва талонда қолган меҳнаткаш ёнида туриб, «муҳораба» ҳайбаракаллачиларини лаънатлайди.

Мардикорлик воқеаларига бағишлаб «Рабо(т)чилар намоиши» (1917) асарини яратди. «Рангимиз синук, ҳолимиз забун, бўлди ғам била қадимиз дуто» деган сатрлар бор эди унда. Шоир «қимматчилик»дан, «ҳамма элни тоқати тоқ» бўлганидан, «эл уйига ғам сели» тўкилганидан сўз очган эди. Унда она диёридан юлиб олинган мардикорларнинг юрт, эл, ёр ҳажридаги изтироблари, ниҳоясиз соғинч ҳисси бор эди.

1917 йил Февраль инқилобидан кейин жаҳон жамоатчилигининг, туркистонлик тараққийпарвар мусулмонларнинг қаттиқ талаби билан мардикорлар ўз юртларига қайта бошладилар. Сидқий 1917 йил 19 мартда босилиб чиққан «Рабо(т)чилар келиши» асарини шу воқеага бағишлади. Шоир уларни «рахбарим», «нек ахтарим» (бахт юлдузим) деб тилга олади.

«Тоза хуррият» китобида (у 1917 йил 24 мартда босилган) Ни-колаининг тахтдан ағдарилишини чин дилдан, баланд руҳ билан олқишлайди. Лекин, айти пайтда, ҳали олдинда ишлар жуда кўп эканлигини, балки чинакам озодлик ҳали келмаганини яхши англайди, поэтик синтаксисда «Бўлди!» эмас, «Бўлсун!»ни ёхуд «Бўлса!»ни танлайди:

Бўлғай не ажаб бўлса бу кунлар аро ҳосил,

Ҳар мақсаду ҳар матлабу ҳар кому ҳар аъмол, - деб, «бу кунлар»нинг «мақсад ва матлаб»га йўл очишига умид қилади. Янгича қарашлар билан чиққан «ёшлар»га диққатни жалб этади. Уларнинг уруғчилик, маҳаллийчилик низоларидан, айирмаларидан холи, умумтурк, умуммиллат туйғулари билан тўлиб-тошган элпарвар, юртпарвар авлод эканлигини таъкидлайди:

Туғушғондин зиёда барча элға меҳрибон ёшлар.(«Яшасун, ёшлар!») Шоир миллий, диний туйғуси баланд фидойи авлодга умид кўзини тикади... 1916—17 йилларда ёзилиб, тезкорлик билан босилиб чиққан бу асарлар халқимиз миллий онгидаги ўзгаришларни кузатишда, мустақиллик ва унинг учун кураш ғоясининг адабиётга кириб келиши тадрижини белгилашда муҳим аҳамиятга эга.

Шу жиҳатдан, Сидкийнинг 1917 йил мартада жуда қисқа муддатда ёзилиб, жуда тез босилиб чиққан «Русия инқилоби» достони мавзу ва мақсадига кўра адабиётимиз тарихининг диққатга сазовор ҳодисаларидан бири. У Русия инқилобий юқеаларини кенг эпик планда тасвир этувчи дастлабки асар. Мумтоз адабиёт билан шуғулланувчи айрим мутахассислар анъанавий Шарқ шеърятини, шу жумладан, ўзбек поэзиясини бир қадар торроқ, олайлик, ишқий, дидактик, фалсафий оҳанглардагина кўришга мойил бўлиб, ижтимоийёт ва сиёсатдан узоқ тутадилар. Бу унчалик тўғри эмас.

XX аср боши ўзбек адабиёти, хусусан, Сидкий ва унинг мазкур достони бунга очик далил. Асар ниҳоятда муҳим бўлганлиги учун у ҳақда кенгрок тўхтаимиз. Достон ҳажми салмоқли — 48 бетдан иборат бўлиб, 1502 сатрни ташкил қилади. Шундан 72 сатри «Гуфтори андар ҳамешаги» «Шўройи исломия...» боби (30-32-бетлар) форс-тожик тилида ёзилган. Асарнинг асосий матни (1430 сатр) ўзбек тилида.

Достон муқаддима ва хулоса («Иттифоқ замони»)дан ташқари ҳажми турлича бўлган 13 бобдан ташкил топган. Муқаддима ва хулоса ҳам достондаги воқеалар билан бевосита бирлашиб кетган. Шу сабабли уларни ҳам боблар қаторига қўшиш мумкин.

Асарнинг бошланишида маълум анъанавийлик бор. Буни сарлавҳа («Сабаби назми инқилоб») ҳам таъкидлаб турибди. Умуман, шоирнинг ижтимоий-эстетик қарашларини белгилашда унинг аҳамияти катта. Муқаддимада шундай мисралар бор:

Ки эски ҳукумат замони аро,
Йўқ эрди бу хил журъат этмак манго.
Алар асрида журъат этсам агар,
Ёпар эрдилар турмаға сарбасар.
Чурутқой эдилар вужудим, бале,
Узулғой эди тору пудум, бале.

Февраль инқилоби халқимиз учун мустабидликдан мустақилликка томон кескин бурилиш эди. Февралдаги инқилобий воқеалар тасвири, асосан, биринчи бобда берилган. Ҳажман бирмунча салмоқли (214 мисра) бўлган бу боб тўғридан-тўғри 23 февралдан — инқилобнинг биринчи куни тасвиридан бошланади. Шоир уни «баногоҳ кўзғолди» деб хабар беради. Сўнг ғалаёнга келган элнинг аҳволи, хатти-ҳаракатлари тасвирига ўтади. Воқеалар асарда кунма-кун берилади. Ҳар бир куннинг энг муҳим ҳодисалари тилга олиниб, яқунланади. 23 февралдаги халойиқнинг «можаро»сини Сидқий мамлакатни ларзага келтирган очлик, вайронагарчиликдан кўради.

Инсоний қадрини талаб қилиб чиққан гуноҳсиз кишиларнинг ўққа тутилиши, тўкилган беҳисоб қонлар шоирда ғамгин кайфият уйғотади:

Фалак узра юзланди сонсиз сурон,
Дер эрдингиз йиқилди магар осмон.
Бўлуб нечанинг рўзгори қаро,
Ажал илкида бўлди умри адо.
Ярадорлар бўлди баса беҳисоб,
Йилондек ётар эрдилар печу тоб.
Бўлуб хоку хун бирла оғушталар,
Ўлуктин кўтарилди кўп пушталар.
Саросар халойиққа етти жафо,
Магар ёнди кўкдин аларга бало.
Балоеки, йўқтур давоси анинг,
Халойиқ бўлуб мубталоси анинг.
Чидолмай мунга йиғлаб эл ҳой-ҳой,
Дер эрдики, «Раҳм айлагил, эй, Худой!»

Кейинги воқеалар «Таврически ном ўрда копусинда» бўлиб ўтади. Чор министрлари «Прўтопўпўф», «Доброволский», «Мақореф», «Сухумлинеф», «князь Шаховский»ларнинг қўлга олиниб қамалиши, Николай II нинг тахтдан тушиши, ўз ўрнига укаси Михаил Александровични қўйиши, у эса тахтни қабул этмаганлиги воқеалари берилади.

«Мақбул қурбонлар» бобида шоир Русия озодлик кураши тарихига назар ташлайди. Бу курашнинг узокдан бошланганига ва у ҳамма замонларда шиддатли тўқнашувлар, ҳаёт-мамот жанглари асосида борганлигига алоҳида эътибор беради.

Хуррият олинмади қурбонсизин, Ки тарихларнинг сўзидур чунин, - деб ёзади шоир. Рус инқилобий тарихи саҳифаларини 1772 йилдаги Пугачёв кўзғолони («ихтилол»)дан бошлайди. Шоир инқилобнинг сабабларини мустамлакалардаги миллий зулм билан боғлайди ва ўзи жуда яхши билган, ўзига ҳар жиҳатдан яқин бўлган 1916 йилдаги Туркистон воқеаларини мисол қилиб келтиради. Муаллиф фикрича, Туркистондаги кўзғалишларга асосий сабаб — ноҳақлик ва зулмнинг кучайиши бўлди. Чор ҳукумати бу ерда истилочилик, талончилик сиёсатини юргизди:

Босиб зўр ила мулку молин олиб,
Ўзин оқчасидек ёниға солиб.

Худди шундай шароитда подшоҳ ўлка аҳлини мардикорликка олиш ҳақида фармон берди. Аввало, шоир мардикорликка олишнинг ўзини «На бор эрди фармон аро муҳлати, на бор эрди анда ҳақи-хидмати», дея ғайри қонунийлик деб билади. Унинг устига, бу қонунсиз ишнинг ўзи ҳам қонунсиз амалга оширилади:

На фармонда бор мардикорга адад,

На одамни ҳозирламоқликка ҳад.

Бу ҳол «соддадил» халқни «афтодадил» қилди. Авжи ҳосил йиғиш пайти ҳалойиқ мотамсаро қолди. Қўл тирикчиликка бормади. Оқибатда иқтисод оғирлашди. Лекин «жабр-зулм» ҳалойиқ қалбига жасорат солди. Ниҳоят:

Мусибат бўлуб барчага ҳукмрон,

Ҳалойиқни кўнглида тузди пулон.

Шу тариқа «ислом эли» «хурриятчилар сониға» келиб қўшилди. Достоннинг «Мақбул қурбонлар» боби шуни кўрсатадики, Сидқий чор самодержавиесининг ҳалокатини ижтимоий асослардан келиб чиқиб кўрсатишга ҳаракат килади. Чунончи, чор ҳукумати сиёсатининг зулм ва ноҳақлик асосига қурилганини марказий объект қилиб олади ва буни Русия озодлик ҳаракати, шу жумладан, 1916 йилдаги Туркистон кўзғолонлари мисолида исботлашга уринади.

«Русия инқилоби»нинг кейинги боби «Распутин ила махлуъ (собик) подшоҳ хоними» деб аталган. 52 сатрли бу бобда подшо саройининг ички томони — парда орқасидаги ишлар асосий объект қилиб олинган. Шоир фикрича, чор тузуми ич-ичидан зил кетган, чириб бўлган эди. Бу унинг ахлокий-маънавий инқироziда ҳам яққол намоён бўлди. Бутун Русия ихлос билан эгилган подшонинг хос хонадонида шундоқ ишлар рўй бериб турган экан, бошқа мансабдорларнинг ички ҳаётидан нима кутиш мумкин? Ахлоқан шу қадар тубанлашиб кетган, бутун империяни шоҳ хотинининг шаҳватга бўлган майли бошқарган салтанат яшашга ҳақли ва қодирми? Мазкур бобда Сидқий шу хил саволларни ўртага қўйган ва унга жавоб берган эди.

Kurs ishi kompozitsiyasi «Kirish», «Asosiy qism», «Xulosa» va «Foydalanilgan adabiyotlar»dan iborat bo'ladi. **«Kirish»**da tanlangan mavzuning dolzarbligi, maqsadi, ahamiyati yoritilib, uning materiali va ishlanganlik darajasi ixchamlik bilan bayon qilinadi. **«Asosiy qism»**da mavzuning asosiy mazmuni, ya'ni talabaning shu mavzu bo'yicha aytmoqchi bo'lgan asosli fikrlari aniq va mantiqli tarzda isbotini va ijrosini topadi. Ob'ektivlik, to'liqlik, qisqalik, ijodkorlik va ma'nodorlik barq urib turadi. **«Xulosa»**da yuqoridagi qismlardan kelib chiquvchi umumlashma, ayni paytda, salmoqli (ahamiyatli) fikrlar bir yoki ikki sahifada o'z

aksini topadi. Eng **so'nggi qism**da foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (asar muallifi, nomi, nashr qilingan joyi, yili, sahifalari soni) ko'rsatiladi.

Kurs ishining so'nggi varianti tayyor bo'lgach, u chiroyli kalligrafiya asosida bir xil siyohda oqqa ko'chiriladi.

Kurs ishi talabaning o'z dastxatini va boshqalarnikiga o'xshamaydigan fikr-mulohaza yuritish yo'lini ro'yi-rost ko'rsatishi shart. Uning yutuq va kamchiliklari o'z navbatida kurs ishi rahbari tomonidan baholanishi va DTS (Davlat ta'lim standarti) talablariga mos yo'nalishda talaba ijodining rivojiga turtki beradigan maslahatlarni qamrashi lozim.

Kurs ishining hajmi qo'lyozmada 15-20 betlar atrofida bo'lishi, u talabalarning o'quv-tadqiqot ishlari talablariga javob berishi va texnik jihatdan to'la rasmiylashtirilishi talab etiladi.

Kurs ishining **titul sahifasi** qo'yidagicha to'ldiriladi (namuna):

Kurs ishining ikkinchi sahifasida **ishning rejasi** keltiriladi (mazkur qo'llanmada keltirilgan rejalarga talaba ijodiy yondoshishi, uni kengaytirishi, to'ldirishi, qismlari (punktlari)ni o'rnini almashtirishi mumkin) hamda shu asos va tartibda rejaning mazmuni yoritiladi.

Kurs ishining oxirida ikki yoki uch varaq toza qog'oz qoldirilsa va unda ilmiy rahbarning taqrizi, kurs ishining himoyada olgan ballari qayd etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kurs ishining himoyasi vaqtini kafedra belgilaydi. Himoyada kafedra a'zolari va talabalar ishtirok etadilar. Talaba tanlagan mavzuni, uning mohiyatini, ahamiyatini tushuntirib beradi, so'ngra mavzuga oid savollarga javoblari ham tinglanadi.

Kurs ishi himoyasi tugagach, u komissiya tomonidan baholanadi va uning ballari e'lon qilinadi.

Mazkur qo'llanmani tayyorlashda Istiqlol mafkurasi va adabiyotshunoslikni o'rganish sohasida yaratilgan yangi darsliklar, qo'llanmalar, ilmiy izlanishlar hisobga olindi. «Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi» fani bilan bog'liq barcha nazariy qonun-qoidalarni tahlil va tadqiq etishga bosh diqqat qaratildi.

KURS ISHI UCHUN MAVZULAR

Is'hoqhon Ibrat ijodidagi ma'rifatparvarlik g'oyalari

Is'hoqhon Ibratning publistik faoliyati

Is'hoqhon Ibratning tarixshunos tilshunos ilk o'zbek ma'rifatchilaridan biri sifatidagi faoliyati

Furqat va jadidchilik adabiyoti

Furqat manzumalari, nasriy va publisistik asarlari

Muqimiy sayohatnomalari tahlili

Is'hoqhon Ibratning mustaqillik davridagi o'rganolishitarixshunos tilshunos ilk o'zbek ma'rifatchilaridan biri sifatidagi faoliyati

Almaiyning hayoti va ijodi

Almaiyning tarjima adabiyotida tutgan o'рни

Kamiyning ma'rifat mavzuidagi she'rlari

Karimbek Kamiy va Toshkent adabiy muhiti

Karimbek Kamiy ijodida hajviyotning tutgan o'rni
Muhyinning munajat mazmunidagi g'azallari tahlili
Muhyining ijtimoiy mavzudagi g'azallari tahlili
Muhyi hajviyalari tahlili
"Nazm va silsiya" asari badiiy tahlili
Muhyi Xo'qandiyning siyosiy faoliyati
Muhyining toj radifli g'azali tahlili
Ahmad Vasliy Samarqandiyning hayoti va faoliyati
Sadoyi hayoti va ijodi
Sadoyi va Qo'qon adabiy muhiti
Qoriy Xoqandiy hayoti va ijodi
Qoriy muhammaslari tahlili
Qoriy g'azallari badiiyati
Ishoqxon Ibratning hayoti va ijodi
Toshkent adabiy maktabi
Fazlulloh Almaiyni hayoti va faoliyati
Karimbek Kamiyning hayoti va ijodi

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
MUMTOZ ADABIYOT TARIXI KAFEDRASI
«O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI»
FANIDAN BMI MAVZULARI BANKI VA UNI BAJARISH
BO`YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

BMI mavzulari banki va uni bajarish bo`yicha uslubiy tavsiyalar

Bitiruv malakaviy ishi (keyingi satrlarda malakaviy ish) – oliy o`quv yurti bakalavriatida talabalarni o`qitishning yakuniy bosqichidir.

Malakaviy ishning asosiy maqsadi:

talabalarning leksiya, seminar, tajriba va amaliy mashg`ulotlarda, mustaqil faoliyatda olingan nazariy va amaliy ko`nikmalarni malakaviy ishni tayyorlashda qo`llay olishini namoyish etish;

ilg`or axborot va pedagogik texnologiyalar asosida talabalar olgan taqdimot ko`nikmalarini ifodalash, himoya vaqtida malakaviy ish bajarilishi natijalari bo`yicha o`zini ishonchli tuta olish, har xil texnik vositalar va ularning dasturlaridan foydalana olish qobiliyatini ko`rsatish;

o`quv jarayonida talabalarda shakllangan kommunikativ ko`nikmalarini yarata olish xususiyatini namoyish etish, o`z nuqtai nazarini himoya qila olish va murosaga kelish, dialogga qo`shilish, mohiyati bo`yicha savollarga asoslangan javob berish, qoidaga rioya qilgan holda bahslashish, muzokaralar va davra suhbatlarida qatnashish etikasini namoyish etish hususiyatlarini rivojlantirish;

ishlab chiqarishda zarur bo`lgan hamkorlikdagi ishlar ko`nikmalarini rivojlantirish, talabalarda guruh bilan ishlash ko`nikmalarini faollashtirish, oldinga qo`yilgan maqsadni bajarish bo`yicha qo`shimcha tashabbus ko`rsatish qobiliyatini kengaytirish, umumiy masalalarni yechishda hamkorlar bilan ishlash ko`nikmalarini mustahkamlash;

muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ko`nikmalarini keys stadiylarni yechish, ishbilarmon o`yinlarini o`tkazish, loyixalarni tayyorlash, g`oyalarni generasiya qilish va qarorlarni qabul qilishning nostandart usullarini topish namoyish etish;

ijodiy mustaqil ishlash, ma`lumotlarni izlash, yig`ish, ishlov berish va saqlash uchun zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalardan foydalana olish, ishlab chiqilayotgan masalaning (muammoning) qo`yilish jarayonidan boshlab, uni to`la nixoyasiga yetkazishgacha mas`uliyatni xis etishga o`rgatish, yuqori tashkilotlarga analitik xatlar yozish amaliy ko`nikmalarini rivojlantirish;

Bitiruv malakaviy ishida quyidagi masalalar yechimi ko`rsatilishi lozim:

tanlangan mavzuning dolzarbligini ilmiy asoslash;

tadqiqotning maqsadi va vazifalarini aniq ifoda etish;

tadqiqot obyekti va predmetini aniqlash;

tadqiqot usuli yoki uslubiya-tini tanlash;

tadqiqot jarayonini atroflicha yoritish;

tadqiqot natijalarini tahlil qilish;

xulosalarni izohlash, olingan natijalarga baho berish, amaliy ahamiyatga loyiq aniq tavsiflar berish kerak.

Bitiruv malakaviy ishni tayyorlashda talabalar quyidagilarni bajarishi lozim:

tanlangan mavzuning ilmiy iqtisodiy qiyosiy tahlil asosida dolzarbligini asoslab berish;

yechiladigan ilmiy iqtisodiy muammo bo'yicha qiyosiy sharh va muammoning hozirgi holatini tahlil qilish;

ilmiy iqtisodiy talablarni izohlash, qo'yilgan masala yuzasidan ilmiy yechimning mumkin bo'lgan variantlarini tahlil qilish va ulardan optimal variantni tanlash;

ilmiy iqtisodiy muammoni yechish natijasida tegishli hulosalar va takliflarni izohlash, iqtisodiyotning biror bir sektorida undan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash kerak.

Bitiruv malakaviy ishlarning mavzusini tanlash

Malakaviy ishlar mavzusi mutaxassis chiqaruvchi kafedra tomonidan belgilanadi va oliy o'quv yurti yoki fakultetning ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Malakaviy ishlar mavzusining yillik ro'yxati bitiruv amaliyoti boshlanishiga qadar yoki bitiruv kursining boshida e'lon qilinadi.

Malakaviy ishni bajarishda talabaning kurs ishi, keys stadiylar, vaziyatli o'yinlar, loyixalar tayyorlash mobaynida orttirilgan tajribasi katta ahamiyatga ega. Shu bois ilmiy izlanishlarni uzviyligini ta'minlash maqsadida talabalarga o'z tanlab olgan mavzulari bo'yicha kurs ishi yozish, keys stadiy tayyorlash, vaziyatli o'yinlar o'tkazish, malakaviy ish yozishga sharoit yaratish lozim.

Talabalarga malakaviy ishlarning mavzularini tanlash huquqi beriladi. Talaba yoki talabaning o'qishi uchun to'lov kontrakt mablag'ini to'lovchi buyurtmachi zaruriy asoslar bilan malakaviy ishlar mavzusi bo'yicha o'z variantlarini taklif etishlari mumkin. Korxonalar buyurtmasi asosida tayyorlanadigan bitiruv malakaviy ishlarning afzalligi shundan iboratki, korxona talabalaga ilmiy izlanish olib borishiga to'liq sharoit yaratadi hamda kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga muallif tomonidan tavsiya etilayotgan takliflarni ishlab chiqarishga joriy etishga barcha shart sharoitlar yaratadi va ilmiy izlanishlar natijasidan manfaatdor bo'ladi. Ilmiy izlanishlar natijalari tadbiiq etilganligi haqida kerakli dalolatnomani beradi (ilova №).

Malakaviy ish mavzusi va raxbarni talabaga biriktirish kafedraning taqdimnomasi bo'yicha rektorning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Malakaviy ish rahbari, ishning mavzusiga muvofiq, talabaga malakaviy ishga tegishli materiallarni to'plash bo'yicha (jumladan, malakaviy amaliyot o'tkazish davrida xam) topshirik, beradi(ilova). Topshiriq malakaviy ish bilan birgalikda Davlat attestasiya komissiisiga taqdim etiladi.

Malakaviy ish mavzusini tanlash talaba uchun o'ta muhim hisoblanadi. To'g'ri tanlangan mavzu talabaga 50%dan ziyodga ishni muvaffaqiyatli bajarishga sharoit yaratadi. Malakaviy ishlar mavzusi odatda zamonaviy, ilm va texnikaning dolzarb, kam o'rganilgan masalasiga bag'ishlanadi.

Mavzuni to'g'ri tanlashga quyidagi ishlar yordam beradi:

bitiruv malakaviy ishlar mavzulari kataloglari bilan tanishish;


soha bo'yicha ilmiy konferensiya va seminarlar tezislari to'plamlari bilan tanishish;

soha bo'yicha ilmiy jurnallardagi maqolalar bilan tanishish;

soha bo'yicha ilmiy adabiyotlar bilan tanishish.

Bu jarayon quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

Kitob, ilmiy jurnal, maqolalar to'plami, tezislar to'plami bilan ishlash jarayonining tarkibi.



Bitiruv malakaviy ishini tarkibiy tuzilishi.

Bitiruv malakaviy ishi mustaqil ilmiy tadqiqot ishi bo'lganligi sababli u quyidagi tarkibiy qismlardan tuzilishi zarur:

bitiruv malakaviy ishning sar varag'i; mundarija; kirish qism;

asosiy qism (ilmiy izlanishning nazariy, tajriba tadqiqotlar natijasi) 2 – 3 bob yozilishi tavsiya etiladi;

xulosa va takliflar; o'rganilgan va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati; ilovalar.

Sar varag' bitiruv malakaviy ishning birinchi varag'i hisoblanib belgilangan talablar asosida to'ldiriladi (ilova №).

Mundarijada kirish, asosiy qismning boblarining va ularga tegishli paragraflar nomlari, ularning ishda boshlanishi joylashgan betlari va boshqa bo'limlar ko'rsatiladi. Mundarijadagi sarlavxalar malakaviy ishning asosiy matnidagi sarlavxalar bilan bir xil bo'lishi shart.

Kirish qismida malakaviy ishning dolzarbligi asoslanadi, amaliy ahamiyati, ilmiy yangilik yoki muammolik tomonlari aks ettiriladi, tadqiqot predmeti, obyekti, malakaviy ishda ko'rib chiqiladigan muammolar, ishning maqsad va vazifalari belgilab beriladi.

Kirish qismida quyidagilar yoritilishi lozim:

tadqiqot mavzusining dolzarbligi;

ilmiy izlanishning maqsad va vazifalari;

mavzuning o'rganilish darajasining qiyosiy tahlili;

tadqiqotning ilmiy yangiligi;

tadqiqot predmeti va obyekti;

tadqiqotning ilmiy ahamiyati.

Asosiy qismning tarkibi malakaviy ishning qaysi turga mansub ekanligiga bog'liq – hisob analitik yoki bo'lmasa muammoli tadqiqotlar.

Hisob analitik ishlarda talabalar iqtisodiyotning muayyan sohasi, hududi yoki boshqa tarkibiy qismiga bog'lagan holda amaliyotning konkret masalasini hal etishga o'zini bag'ishlaydi.

Muammoli tadqiqot ishlarda talabalar chuqur ilmiy izlanishlar olib borib muayyan bir muammoni ilmiy tarzda yechilishini hal etib beradilar.

Asosiy qismning boblarini soni va mazmuni ishni turiga qarab belgilanadi. Odatda birinchi bobda tadqiqot olib borilgan obyekt bo'yicha qisqacha ma'lumot berish bilan birga mavzuning umumiy nazariy masalalari, mavzuga mos keladigan tashkilot, muassasa, korxona yoki birlashmaning qisqa tavsifnomasi berilishi lozim. Mazkur bobda quyidagi paragraflar o'zaro mantiqiy izchillikda beriladi:

tadqiqot obyektining funksiyalari, vazifalari, sohasi;

tashkiliy tuzilma, boshqaruv tizimi, uning tashqi va ichki aloqalarining o'ziga xosligi;

tadqiqot obyektining texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari;

tadqiqot obyektida mavjud kamchilik va muammolar;

muqobil vazifalarni nazariy va amaliy hal etishning umumiy usullari.

Ikkinchi bobda ko'rilayotgan masalaning hozirgi ahvoli tahlil qilinadi, amaliyot davrida to'plangan statistik materiallar asosida tadqiqot obyektida mavjud kamchiliklarni yo'qotishga qaratilgan takliflar va tavsiyalari asoslanishi kerak. Tajriba orttirish vaqtida yig'ilgan hamda tadqiqot jarayonida tahlil qilingan materiallar hal qilinmagan masalalar, muammolarni aniqlash va shunga muvofiq xulosalar keltiriladi. Muammoni o'rganish uslub va uslubiyati yoritiladi. Shunday qilib, ikkinchi bob malakaviy ish mazmunining asosiy g'oyasini ifodalaydi.

Uchinchi bobda muallif tomonidan o'rganib chiqilgan materiallar tahlili asosida erishilgan natijalar, yangiliklari, ixtirolar, me'yoriy ko'rsatkichlar, tavsiya etilayotgan texnologik jarayonlar asoslab beriladi, shunga mos jadvallar tavsiya etiladi, taklif etilayotgan obyektning takomillashtirish yo'llari, iqtisodiy samaradorligi aniqlanadi, ilgari surilayotgan g'oya va takliflar ilmiy jihatdan asoslanadi.

Xulosa va takliflar qismi malakaviy ishning umumiy xajmining 5-7 foizini tashkil etadi. Unda ish mazmuni bo'yicha ishlab chiqilgan xulosalar va aniq takliflar, erishilgan natijalar mujassamlashtiriladi. Malakaviy ish ayrim boblardagi xulosalar va takliflar bilan ham tugallanishi mumkin, ammo undan eng muximlari ishning oxirida, ya'ni xulosa bo'limida aks ettirilishi kerak.

Asosiy qism tarkibi malakaviy ish rejasida beriladi. Reja quyidagilarni amalga oshirishga imkon yaratadi:

fikrlar ketma ketligini o'zida mujassam etadi va umumlashtiradi;

matn mazmunini ochib beradi;

manba mazmunini xotirada tiklaydi;

konspekt va tezislarni o'rnini bosadi;


har xil turdagi yozishmalar, ma'ruza, xabarnoma, hisobot tuzishga yordam beradi;

amaldagi yozmani yaxshilaydi;

o'z o'zini nazorat qilishni tezlashtiradi;

e'tiborning bir nuqtada bo'lishligiga va mashg'ulotlarni rag'batlantirishga imkon beradi;

yaxshi tanish matnning xotirada paydo bo'lishida foydalaniladi.



Bitiruv malakaviy ishni yozish uslubi

Malakaviy ish qo'lyozma shaklida yoki kompyuterda bajarilishi mumkin. Kompyuterda tayyorlangan ishning umumiy hajmi 14 shriftda 1,5 intervalda 60-80 betdan iborat bo'lishi kerak. Malakaviy ishning hajmiy o'lchamlari va tarkibiy reja namunasi ilovalarda ko'rsatilgan.

Malakaviy ishni o'z vaqtida va sifatli bajarish talabaning o'z mustaqil ishini tashkil etish qobiliyatiga bevosita bog'liq. Malakaviy ishni bajarishni talaba kalendar grafik tuzishdan boshlaydi. Kalendar grafikda reja asosida boblar va paragraflar bajarilish ketma ketligi va muddatlari ko'rsatiladi (Ilova). Kalendar grafikda talaba bajaradigan quyidagi ishlar aks ettirilishi lozim:

mavzu bo'yicha adabiyotlarni tanlash va tanishib chiqish;

malakaviy ishning dastlabki rejasini tuzish;

tanlab olingan adabiyotlarni chuqur o'rganish va yig'ilgan materiallarni qayta ishlash;

malakaviy ishning oxirgi variantdagi rejasini tuzish;

malakaviy ishni matnini yozish;

malakaviy ishni rasmiylashtirib dastlabki himoyaga olib chiqish.

Bitiruv malakaviy ishni bajarishning asosiy vazifalari



Malakaviy ishning qo'lyozma nusxasi tugatilgach, ilmiy rahbar ruxsati bilan kompyuterda teriladi.

Qo'lyozma matnini kompyuterga tushirish jarayonida ketma-ketlik buzilmasligiga jiddiy e'tibor berish kerak. Matnning tugallanmagan qismlarini boshqa betlarga o'tkazish man etiladi. Yangi fikr ifodalaydigan jumlarlar xat boshidan yoziladi. Agar matnda xorij tilida kelgirilgan so'zlar, qo'shimchalar bo'lsa, ular asliga to'g'ri holda to'raligicha yozilishi kerak. Malakaviy ishda raqamli materiallar jadval shaklida berilishi maqsadga muvofiqdir. Mazmun jihatdan ular analitik va ish jadvallariga bo'linadi. Analitik jadvallar o'rganilayotgan muammoni yoritib beruvchi umumiy xulosalar va sharxlarni talab etadi. Malakaviy ishda analitik materiallarning

ko'p bo'lishi ma'lum darajada talabaning o'zi tadqiq qilayotgan muammoni tushunish darajasini ko'rsatadi. Statistik materiallardan esa matnda bor muammoni sharxlab berish, statistik ko'rsatkichlar tizmini hisoblash uchun foydalanish maqsadga muvofiq.

Qaysi manbadan olinganligani ko'rsatmay turib, matbuotda chop etilgan jadvallardan foydalanish mumkin emas. Jadval boshqa betga ko'chirib o'tkazilgan hollarda jadvalning nomi albatta qaytarilishi va yuqori o'ng tomoniga «jadvalning davomi» deb yozib qo'yilishi kerak. Malakaviy ishning har bir bobi yangi betdan yoziladi. Bobning nomi yoki sarlavhalari asosiy matndan qo'shimcha interval bilan ajralib turishi kerak. Bobning nomidan keyin paragraf nomi yoziladi.

Malakaviy ish talabaning istagi bo'yicha o'zbek, rus va xorijiy tillarda yozilishi mumkin. Betlarning tartib raqami varaqning yuqori o'ng tomoniga qo'yiladi. Malakaviy ishning sar varag'i qabul qilingan namunaga mos bo'lishi (Ilova) va quyidagi talablarga javob berishi kerak:

malakaviy ish nomi 16 shriftda; muallifning ismi, familiyasi va sharifi 12 shriftda; malakasi 12 shriftda; kafedraning nomlanishi 12 shriftda; ilmiy darajasi 12 shriftda yoziladi.

Izoh. Tadqiqot mavzusining nomi, talabaning familiyasi, ismi, sharifi, malakaviy ish hamda so'z boshi katta harflarda teriladi.

Malakaviy ishni **Times New Roman** shriftida bajarish maqsadga muvofikdir.

Malakaviy ish A4 shaklidagi qog'ozning chap tomonidan 2.5 sm, o'ngdan 1.5 sm, yuqori va pastdan 2 sm dan kam bo'lmagan hoshiya qoldirilgan holda terilishi talab etiladi.

Tugallangan malakaviy ish ilmiy rahbar ko'rib bo'lgandan keyin, uni avval, kafedradagi dastlabki himoyaga, so'ngra ochiq himoyaga tavsiya etadigan taqriz beriladi (Ilova).


Ba'zi materiallar malakaviy ishning oxirida ilova sifatida berilishi mumkin. Malakaviy ish tipografiya talablariga mos ravishda muqovalangan bo'lishi lozim.

Mavzuni bayon qilishda avvalambor bu mavzuni mohiyatini ochib berish, ikkinchidan qo'yiladigan masalalar va ularni yoritilishi bir biriga bog'liq holda bo'lishi lozim. Shu bois malakaviy ishga qo'yilgan asosiy talablardan biri tanlangan mavzuni chuqur va qamrovli bayon qilish, ko'rilyotgan savollarni uzviy bog'liqlikda yoritib berish. Malakaviy ishda ko'riladigan savollar uning maqsadini ochib berishga qaratilgan bo'lishi lozim. Malakaviy ish matnida uning mavzusiga taaluqli bo'lmagan mant va amaliy materiallar keltirilmaydi. Barcha paragrflarda g'oya birligi va izchilligi ta'minlanishi zarur. Aksariyat hollarda malakaviy ishning birinchi bobida tanlangan mavzuning nazariy jixatlari yoritiladi. Unda talaba shu mavzuni nazariy jixatdan qanchalik darajada bilishini, turli mualliflarning asarlari va shu soxadagi fikrlarini o'rganganligini, mazmuniy va mantiqiy jixatdan tadqiqot qilinayotgan

mavzuga o'z fikrini bildirib olishini ko'rsata olishi juda muhim sanaladi. Biror fikr yoki ta'riflarni keltirganda yoki ularni qiyosiy taqqoslaganda ular o'z asliga to'g'ri xolda, hech qanday qo'shimchalarsiz qo'shtirnoq ichida (.....) keltiriladi va shu betdagi matn oxirida manbasi (muallif, asar nomi, nashr joyi, nashriyot, yili, beti) ko'rsatiladi.

Malakaviy ishni bajarish uch bosqichda quyidagi amalga oshirish texnologiyasi bo'yicha bajarilishi mumkin:

Malakaviy ish loyihasi tavsifiy xususiyatlar, amalga oshirish texnologiyasi



Ayrim hollarda agar talaba izlanish mobaynida o'rganilayotgan masalani yangi qirralarini ochsa, malakaviy ish mavzusiga va rejaga o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Shu bilan birga agar o'rganilayotgan mavzu bo'yicha korxonaning ma'lumotlari tijorat siri bo'lib talaba berilmagan va shunga o'xshash boshqa hollarda ham talaba malakaviy ish mavzusini hamda amaliyot bazasini o'zgartirish huquqiga ega.

Malakaviy ish oliy o'quv yurtining, odatda, ushbu maksadga maxsus ajratilgan xonalarida bajariladi. Ayrim hollarda, malakaviy ish korxonalar, muassasalar, ilmiy, loyixalash va boshqa muassasalarda bajarilishi mumkin.

Malakaviy ishning bajarilishi kalendar grafigini nazorat qilish kafedra hamda dekanat tomonidan amalga oshiriladi.

Texnik, ilm, injenerlik ishi, arxitektura va boshqa shunga o'xshash o'z hususiyatiga ega yo'nalishlarda bajariladigan malakaviy ishlar (loyixalar)ga, ularnig chizmalariga qo'yiladigan talablar tegishli o'quv uslubiy birlashmalar (assosiasiyalar) tomonidan belgilanadi.

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
MUMTOZ ADABIYOT TARIXI KAFEDRASI
«O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI»
FANIDAN GLOSSARIY

Milliy uyg'onish – fransuzcha “Renessans”, ruscha “Vozrojdeniye” ma'nosiga to'g'ri keladi. Renessans – Vozrojdeniye G'arbda insoniyat tarixining mumtoz davri hisoblanib keladigan qadim yunon, rim madaniyatiga – antik madaniyatga nisbatan aytilgan bo'lib, uning bosh xususiyati shahar madaniyatining gurkirab o'sishi, ilm va ijod egalariga xos qomusiylik, gumanizmning ijtimoiy-ma'naviy turmushning barcha jabhalariga kirib borishidir. XX asr boshlarida Turkistonda sodir bo'lgan “milliy uyg'onish” Vatan taraqqiyotining bosh omili – millatning o'z-o'zini anglashi sifatida qaraladi.

Ma'rifatchilik – xalqni zamona ilmini o'rganishga va oshno qilishga qaratilgan she'riyat.

Devon – biror-bir shoirning ijodi asosida tuzilgan she'riy to'plam.

Qo'lyozma – asarning xattot yoki kotib tomonidan qo'l bilan ko'chirilgan nusxasi.

Toshbosma – XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab tipo-litografik yoki litografik usulda nashr qilingan asar.

Istiloh – atama ma'nosida bo'lib, asosan biror-bir tarixiy jarayon davomida paydo bo'lgan, yangi mezonlarni bildiruvchi so'z.

Jadid – arabcha so'z bo'lib, yangi degan ma'noni anglatadi. 1883 yilda birinchi yangi usul maktabi ochilishi bilan qo'llanila boshlagan.

Jadidchilik – XIX asr so'nggi choragida Rossiya imperiyasi hududida istiqomat qiladigan turkiy xalqlar orasida paydo bo'lgan ijtimoiy-siyosiy harakat nomi. Keng ma'noda ijtimoiy-ma'naviy hayotning barcha jabhalarini yangilashni ko'zda tutadi. Jadidchilik Turkiston ijtimoiy fikri taraqqiyotida islomchilik (panislomizm), turkchilik (panturkizm) va mahalliychilik (o'zbekchilik) ko'rinishlarida ham namoyon bo'lgan.

Usuli jadid – yangi usul, ya'ni XIX asr so'ngiga qadar turkiy xalqlar an'anaviy maktabidagi usulning yangi, zamonaviy o'quv jarayoni bilan almashtirgan usul. Yangi usul qrim tatar ma'rifatchisi Ismoil Gasprinskiy faoliyati bilan bog'liq.

Usuli savtiya – tovush usuli bo'lib, yangi usul maktablarida joriy qilingan.

Millat – milliy uyg'onish davrida bu atama etnos (el, elat), din, mazhab ma'nosida emas, dini va tili bir bo'lgan xalq sifatida qaralgan.

Muharrir – XIX asr oxiri XX asr boshlarida gazeta muxbiri yoki kitob muallifi ma'nosida qo'llanilgan.

Rus-tuzem maktabi – yangi usul maktabiga muqobil ravishda Chor hukumati tarafidan mahalliy aholi bolalarini o'qitishga moslab ochilgan davlat maktabi.

Jamiyat – asosan xayriya tashkiloti ma'nosini bildiradi.

Qadimchilar – XIX asr oxiri XX asr boshlarida yangicha fikrleydigan taraqqiyparvar va ma'rifatparvarlarga qarshi harakat qilgan guruh vakillari.

Abyot – baytning ko'pligi (baytlar)

Abro' – qosh

Adyon – dinlar

Azim – katta, ulkan, buyuk

Ayyom – kunlar

Arzu samo – yeru osmon

Arg'uvon – arg'uvon, qizil gul

Afgor – yaralangan, jarohatlangan, majruh

Afyi anhu – uni kechirgin.

Afro'xta – porlagan, qizarib yongan, lovullab turgan, yondirilgan, o't yoqqan

Asiri nafi shayton – shaytoniy nafsga asir bo'lmoq (bog'lanmoq)

Ash'or – she'ning ko'pligi (she'rlar).

Ag'yor – begonalar, o'zgalar, boshqalar, raqiblar, dushmanlar

Ag'niyo – boylar, badavlatlar, o'ziga to'qlar

Afv – kechirish, gunohdan o'tish, uzrini qabul qilish.

Afsah – fasihiroq, eng fasih, bayoni ravshan, ochiq, maroqli bayon.

Ajz – ojizlik, zaiflik, kuchsizlik, notovonlik, iqtidorsizlik.

Abr – bulut.

Badnihod – yomon tabiat, yomon odat.

Badr to'lin oy, o'n to'rt kunlik oy.

Baytulloh Allohning uyi.

Bayzai bat o'rdak tuxumi

Barbod zoye, nobud, yakson, yo'qolgan

Barq chaqmoq, yashin, chaqin
Baromad chiqish, ko‘tarilish, yuksalish
Bat o‘rdak
Bashar odam, inson
Bahr dengiz
Bebaqa sabotsiz, omonat
Bedod adolatsizlik, zulm, jabr, sitam
Bedodlig‘ zolimlik
Benavolig‘ g‘ariblik, bechoralik, bebahralik
Betakalluf oddiy, soda, ortiqcha tantanasiz, dabdabasiz
Beqaror oromsiz, tinimsiz, toqatsiz, beto‘xtov, qarorsiz
Beh yaxshi, xo‘b, a‘qul
Behamto yagona, yakka; tengi, o‘xshashi yo‘q
Bidon bilgin
Bisot gilam, palos, to‘shak
Bog‘i jinon jannat bog‘i
Bud borliq, mavjudlik, vujud
Gudoz – yonish, iztirob, dard
Dog‘i hirmon – mahrumlik, noumidlik dog‘i
Jo‘ybor – ariq, sersuv joy, soy.
Iltijo – yalanishi, yolvorish, panoh tilash.
Isyon – itoatsizlik, bo‘yso‘nmaslik, qo‘zg‘olon.
Illat – kasal, xastalik, bemorlik.
La uhsi sano – sanoqsiz, sanay olmaslik.
Lutf – mehribonlik, marhamat, shafqat.
Mazra‘ – ekin ekiladigan joy, ekinzor.
Maqsud – qasd qilingan narsa, maqsad, istak, orzu.
Nuqson – kamchilik, ayb, xato.

Ob – suv.

Omol – istaklar, umidlar.

Osiy – gunohkor, xatoga yo‘l qo‘ygan.

Porso – taqvodor, xudojo‘y.

Ravza – bog‘, bog‘cha.

Raso – yetish.

Ra‘fat – mehribonlik, do‘stlik, shafqatlilik.

Rashha – tomchi, sizib chiqqan suyuqlik.

Rah – yo‘l, iz.

Sano – maqtoʻv, maqtash, tahsin madh.

Satr – parda, berkitish, yopish.

Safo – poklik, tozalik, tiniqlik.

Sizi rah – chiziq yo‘l (haritadagi chiziq yo‘l).

Fayz – bahra, dilhushlik, quvonch.

Fariq – firqa, guruh.

Xayrul bashar – insonlarning yaxshisi.

Xil‘at – ust kiyim, hashamatli kiyim, podsholar tomonidan mukofot tariqasida beriladigan kiyim.

G‘ufron – gunohlarni kechirish.

Hashr – to‘planish, yig‘ilish.

Hamd – maqtoʻv, madh.

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
MUMTOZ ADABIYOT TARIXI KAFEDRASI
«O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI»
FANIDAN ILOVA

MILLIY UYG'ONISH DAVRI O'ZBEK ADABIYOTINING ILK
BOSQICHLARI

KARTOCHKA – 1

1. XIX asrning 30- yillarida o'lkani boshqarishni isloh qilish, xalq ommasini o'qitish fan yutuqlarini kishilarning turmushini yaxshilashga xizmat qildirish g'oyalarini ilgari surgan eng birinchi ziyoli shaxslardan biri ko'rsatilgan javobni belgilang.

A) Muqimiy B) Furqat C) Komil D) Hakimxon

2. XIX asrning 70- yillarida o'zbek adabiyotida qanday o'zgarish yuz berdi?

A) Adabiyotga rus adabiyotlarida bo'lgan kamchilik, illatlarning kirib kelishi. B) Yangi o'zbek adabiyotining paydo bo'lishi. C) Lisoni g'ayb yoxud «ilohning tajallisi» tarzida adabiyotga qarash bilan birga mimesis (taqlid) oqibatlari ham yoyildi. D) B, C

KARTOCHKA – 2

1. Ahmad Donish haqidagi qaysi fikr to'g'ri?

A) tarixchi B) tilshunos, ilmi nujum bo'yicha zamonasining yetuk olimi C) falsafa va san'at bo'yicha olim D) barcha javoblar to'g'ri

2. Mumtoz adabiyotning qahramoni ...

A) komil inson B) ma'rifatli shaxs C) shoir (yozuvchi) D) ziyoli inson

3. S.Ayniy tomonidan «Buxoroning qora osmonidagi yorug' yulduz» deya ta'rif berilgan shaxsni aniqlang.

A) Komil B) Bobur C) Hakimxon D) Ahmad Donish

KARTOCHKA – 3

4. Biling ushbu zamon g'amnokidurman,

Kuyib o'rtanmish elning xokidurman. Ushbu misralar muallifini ko'rsating.

A) Anbar Otin B) Avaz O'tar C) Zavqiy D) Muqimiy

5. O'zbek adabiyotida marifatchilik yo'nalishi qaysi adiblar ijodida bo'y ko'rsatdi?

A) Muqimiy, Furqat B) Zavqiy, Avaz O'tar, Anbar Otin C) Dilshod Barno D) A, B, C

6. Mumtoz adabiyotining ma'rifatchilik adabiyotidan ajralib turadigan asosiy xususiyati nimalardan iborat?

A) Mumtoz adabiyotda mazmun asosan alohida kishilar, xos tabaqa vakillariga qaratilgan, marifatchilik adabiyotida esa o'zgacha B) Mumtoz adabiyotda insonni yuksak ma'naviy fazilatlari ulug'langan, marifatchilik adabiyotida esa ulug'lash bilan birga tanqid ham mavjud C) Mumtoz adabiyotda ham tanqid kuchli D) A va B

KARTOCHKA – 4

7. Ma'rifatchilik adabiyotining qahramoni kim?

A) xalq, omma B) mazlumlar C) ma'rifatli shaxs D) komil inson

8. Yangi o'zbek adabiyotining qaysi bosqichini mumtoz adabiy an'analarning tugallanishi va yangi adabiy tajribalarning boshlanish bosqichi deb atash mumkin?

A) ma'rifatchilik adabiyoti B) jadid adabiyoti C) sho'rolar adabiyoti D) mustaqillik davri adabiyoti

KOMIL VA FERUZZLAR IJODINING XORAZM ADABIY MUHITIDA TUTGAN O'RNI BO'YICHA

KARTOCHKA – 1

1. Komil Xorazmiy g'azallarining mavzu doirasi.
2. Komil she'rlarida davr ijtimoiy muammolarining aks etishi.
3. Komil she'riyatida davr adabiy an'analarning o'rni.
4. Komil g'azaliyoti badiiyati.

KARTOCHKA – 2

1. Komilning shaxsi va iste'dodi haqidagi ma'lumotlar qanday manbalarda keltiriladi?
2. Ularning mualliflari kimlar?
3. Komilning qanday asarlari «Turkiston viloyatining gazetisi» da bosilgan edi?
4. «So'zning» she'rida qanday estetik fikrlar ifodalangan?
5. Komil she'rlarida qanday badiiy san'atlar qo'llangan. Misollar keltiring?

KARTOCHKA – 3

1. Ogahiyning 1855-1856- yillarda bitilgan «Gulshani davlat» asarida yuksak iqtidor egasi deb tilga olingan shoir, siyosiy arbob, mohir tarjimonni aniqlang.

A) Navoiy B) Muqimiy C) Komil D) Furqat

2. «Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy» asarining muallifini aniqlang.

A) Komil B) Ogahiy C) Lutfiy D) Sulaymon Buxoriy

3. 1873- yilning 12-avgust kuni Gandimiyon degan bog'da «Tinchlik shartnomasi» qaysi tarixchi adib tomonidan yozilgan?

A) Komil B) Furqat C) Muqimiy D) Cho'lpon

4. Komil Xorazmiy o'z nota tizimini qanday ataydi?

A) Xorazm notasi, Tanbur notasi B) Komil notasi, Tanbur notasi C) Tor notasi, Komil notasi D) Shashmaqom

KARTOCHKA – 4

5. Komilning «Dardoki, yo'q jahon elida sharmsorligi» matla'li g'azali kimning g'azaliga muxammas bog'lab yozilgan?

A) Lutfiy B) Ogahiy C) Munis D) Pahlavon Mahmud

6. Shoirlar orasida birinchilardan bo'lib asarlarida odamni faqat ilohiy yaratq sifatida emas balki tirikchik tashvishlari va ijtimoiy muammolarga ko'milgan inson sifatida aks ettirgan adib kim?

A) Navoiy B) A.Qahhor C) Komil Xorazmiy D) Muqimiy

7. To gulshani jamoling ochar gul chaman-chaman,

Zulfi muanbaring ochar anbar suman-suman.
Ushbu matla'da g'azal ta'svir va tasir kuchini oshirgan usurni aniqlang.

A) So'zlarning takror qo'llangani B) Jarangdor qofiyadoshlardan foydalanilgani sabab C) Oshiq va ma'shuqa munosabati yangicha rakursga aks ettirilgani D) A va C

MUQIMIY VA QO‘QON ADABIY MUHITI BO‘YICHA

KARTOCHKA – 1

1. Muqimiy 1876- yil qaysi madrasada tahsil oladi?

A) Hokim oyim B) Mehtar oyim C) Abduxalil domla maktabi D) Abdulazizxon

2. Muqimiyning rafiqasi bilan turmushi buzilishiga nima sabab bo‘ladi?

A) Muqimiyning ota onasi sabab bo‘lgan. B) Sanambibining badiiy zavqdan mahrumligi, adabiyotdan uzoqligi va adibni tushunmagani C) Iqtisodiy muammolarning ko‘pligi, Sanambibi boy oilada o‘sganligi uchun sabri yetmagan. D) Barcha javoblar to‘g‘ri.

3. Muqimiy Almaiy, Nodim Namangoniy singari adiblar bilan qayerda tanishadi?

A) Samarqandda B) Xorazm vohasida C) Namanganda D) Toshkentda

KARTOCHKA – 2

4. Muhammad Yusuf ismli shaxsning Muqimiy hayotida qanday o‘rni bor?

A) Muqimiyning buyuk adiblar bilan tanishuviga sababchi bo‘lgan. B) Adibning iqtisodiy tarafdin ta‘minlab turgan. C) Muqimiyga xattotlikni o‘rgatgan. D) Muhammad Yusuf uning qaynotasi bo‘lgan.

5. Muqimiy merosida qaysi janrlar ko‘proq uchraydi?

A) g‘azal, tuyuq, murabba B) g‘azal, murabba, muxammas C) g‘azal, tuyuq, ruboiy D) ruboiy, muxammas, g‘azal

6. Mamajon Makay, Nizomjon, Farzincha, Ismoil Naychi singari o‘z davrining taniqli san‘atkorlarni qaysi adib o‘z asrlarida tilga oladi?

A) Furqat B) Zavqiy C) Muqimiy D) Komil

KARTOCHKA – 3

7. Muqimiyning hajviy g‘azallari qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A) Saylov, Kim desun B) Saylov, Dar shikoyati Laxtin C) Saylov, Hajvi Viktorboy D) Hajvi Viktorboy, To‘yi Iqonbachcha

8. Muqimiyning onasini yaqinlari yana qanday atashgan?

A) Tojinisa B) Bibi C) Bibioysha D) Xumorbibi

9. 1850- yilda tug‘ilgan, chiqish adabiyotining eng yaxshi an‘analarini davom ettirgan adib kim?

A) Muqimiy B) Furqat C) Komil Xorazmiy D) Fitrat

10. Muqimiyning «To‘yi Iqonbachcha» hajviyasida to‘y uchun necha so‘mlik qo‘y so‘yiladi?

A) 200 so‘mlik B) 2 so‘m 50 tiyin C) 4 so‘mlik D)

KARTOCHKA – 4

11. Muqimiyning badiiy so‘zga mehr qo‘yishiga sababchi bo‘lgan insonni ko‘rsating.

A) Otasi Mirzaxo‘ja Mirfozil B) Rafiqasi Sanambibi C) Onasi Xumorbibi (Bibioysha) D) Madrasa muallifi Mehtar oyim

12. Karim Oxun, Qosim dallol pir ushlab etagingdin,

Xayol aylardilar insoflig‘ shayxi zamon Laxtin. Ushbu misralar Muqimiyning qaysi asaridan olingan?

A) To‘yi Iqonbachcha B) Dar shikoyati Laxtin C) Voqeani Viktor D) Qosim boyvachcha

13. «Toyi Iqonbachcha» hajviy asarining muallifini aniqlang.

A) Fitrat B) Abdulla Qodiriy C) Ch.Aytmatov D) Muqimiy

14. «U o‘z davrining yetuk lirik shoiri, mavjud adabiy muhitning sardori edi, lekin uning isde‘dodi hajviyotda, o‘z qirralarini to‘laroq namoyon etgan». Ushbu ta‘rif qaysi ijodkor haqida?

A) Hamza B) Fitrat C) A.Qodiriy D) Muqimiy

FURQATNING HAYOTI VA IJODI

KARTOCHKA – 1

1. O'zbek mumtoz adabiyotidagi eng yaxshi an'analarni davom ettirish bilan birga, o'zbek adabiyoti rivojini yangi bosqichga ko'targan mashhur shoir va publitsistni aniqlang.

A) Zavqiy B) Furqat C) Fitrat D) Cho'lpon

2. Sakkiz yoshida Fariddin Attorning «Mantiq ut-tayr» dostonini yod oladi, sal o'tib, Navoiy asarlarini o'qishga tutinadi. Ushbu iste'dodli shoirni aniqlang.

A) Furqat B) Abdulla Qodiriy C) Zavqiy D) Cho'lpon

3. Shartli ravishda «Furqatnoma» deb nomlanadigan nasriy asarida Furqat quyidagi baytlardan qaysi birini to'qqiz yoshida yozganini qayd etadi?

A) Ba'zilar holim ko'rib majnun dedi,

Bilmaganlar o'xshatur hushyorg'a.

B) Tushti savdoyi judolig' boshima,

Yurmisham rasvo bo'lib bozorg'a.

C) Bo'lib shul asr hikmat ahli hadsiz,

KARTOCHKA – 2

4. Furqat 1870- yilda Qur'on qiroatini kimdan o'rganadi?

A) Muhammad Olimdan B) Ashur Muhammaddan
C) Mirzo Buxoriydan D) To'g'ri javob yo'q

5. Furqat 1871-1872- yillarda arab tilini kimdan o'rganib, madrasa ta'limiga tayyorgarlik ko'radi?

A) Muhammad Olimd B) Ashur Muhammad C)
Poshshoxo'ja eshon D) Mirzo Buxoriy

6. Zamon ahli shu boisdan taxallus Furqatni derlar:

Necha yildur bir oshubi zamonidin adashganman.
Qaysi adabiyotshunos olim ushbu baytlarga asoslanib Zokirjonning «Furqat» taxallusini qo'llash sababini izohlagan?

A) N.Abdulhamid B) V.Rahmonov C) N.Karimov
D) U.Normatov

KARTOCHKA – 3

7. «Chor darvesh» va «Nuh manzar» asarlarini fors tilidan o'zbekchaga o'giran adibni aniqlang.

A) Fitrat B) Furqat C) Cho'lpon D) Muqimiy

8. Mirzalik, xattotlik qilgan, hatto turmush taqozosi bilan choy do'koni ochib kun kechirgan shoir qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

A) Abdulla Qodiriy B) Zavqiy C) Muqimiy D) Furqat

9. Furqat «Turkiston viloyatining gazetasi» muharriri Nikolay Ostroumov bilan qayerda tanishadi?

A) Samarqand B) Qo'qon C) Toshkent D) Istanbul

10. Istanbulda yozilgan «Sabog'a xitob» she'ri necha misradan iborat?

1. A) 280 B) 250 C) 230 D) 240

KARTOCHKA – 4

11. Zokirjon Xolmuhammad o'g'lining taxallus tanlashida «Alloh jamolidan judolikni ko'zda tutgan» deya fikr bildirgan shaxsni aniqlang.

A) V.Rahmonov B) N.Abduhakim C) N.Ostroumov D)
H.A'zam

12. Furqatning N.Ostroumov bilan tanishuvidan keyin «Turkiston viloyatining gazetasi»da chop etilgan she'rlarini aniqlang.

A) Gimnaziya, Ilm xosiyati B) Akt majlisi xususida, Suvorov
C) Nag'ma bazmi xususida, Vistavka D) Barcha javoblar to'g'ri

13. Furqat xat orqali tanishgan Samarqandlik savdogar va etnograf olimni aniqlang.


A) Hoji A'zam B) Zavqiy C) Mirzo Buxoriy D) N.Ostroumov

14. Furqat nechanchi yilgacha «Turkiston viloyatining gazetasi» bilan aloqada bo'lgan?

A) 1909- yilgacha B) 1905- yilgacha C) 1907- yilgacha D)
1906- yilgacha

Мавлоно Мухйи Хўқандий

(Суратнинг асл нусхаси Фафур Гулом номидаги Фарғона вилоят адабиёт музейида сақланмоқда)



Мухйи 1936 йилда Ғазна шаҳрида таваллуд топган. У Ғазнадаги мадрасада мударрис бўлган отаси қўлида хат-савод чиқарди. Сўнг Хирот мадрасаларида қисқа муддат таҳсил олди. Хиротдаги таълим даражасидан кўнгли тўлмаган Мухйи, кўп ўтмай Бухоро мадрасаларидан бирига келиб ўқий бошлади. Бу ерда у араб тилини мукаммал ўрганди. 1850 йилларнинг ўрталарида Бухоро мадрасасини тугатиб, дастлаб Фарғонага, сўнгра Андижонга келди. 1850 йиллар охирига бориб Қўқон маданий муҳитига келиб қўшилди, тез орада шоир ва аллома сифатида шўҳрат қозонди. Шу боис у Қўқондаги Маллахон саройига хизматга олинди. Мухйи бу ерда ҳам обрў-эътибор топди. Хатто дипломатик ишларга ҳам жалб қилинди. У 1859-1861 йиллар орасида хоннинг махсус элчиси мақомида бир неча марта Афғонистон ва Ҳиндистонга борди. Йўл-йўлакай Туркия, Эрон сингари мамлакатларни кўришга муваффақ бўлди.

Маллахондан кейин тахтни эгаллаган Худойерхон ҳукмронлигининг учинчи даврида ҳам Мухйи саройнинг эътиборли кишиларидан бири эди. Хоннинг валиаҳд фарзанди Насриддинбек Андижон вилоятига ҳоким этиб тайинлангач, Худойерхон ўғлига назм ва насрдан таълим беришни Мухйига топширди. Йиллар ўтиб, Насриддинбек Мухйи сабоқлари натижасида нозиктаъб шоир ва носир бўлиб етишди.

XIX асрнинг 70-йиллардан бошлаб Қўқон хонлигида ўзаро низолар, қўзғолонлар авжига чиқади. Шундай бир таҳликали вазиятда, 1874 йил ўрталарида Мухйи ҳажга жўнади ва 1875 йил январь ойида ҳаж маросимини адо этиб, қайтишида бир неча шарқ мамлакатларини кўриб, йил охирида яна Қўқонга қайтиб келади.

Бу пайтда, яъни 1875 йилнинг езида Худойерхон Туркистон генерал-губернатори фон Кауфманнинг хийласи билан Оренбургда уй қамоғида ушлаб турилган эди. Хондан сўнг тахтни эгаллаган валиаҳд шахзода Насриддинхонни сохта Пулатхон енгган ва у Маҳрам қалъасида жон сақлашга мажбур бўлган эди. Шогирди танг аҳволда эканлигини эшитган Мухйи дарҳол Насриддинхон ҳузурига боради ва уни саройдаги обрўли кишилар билан алоқа ўрнатишга ҳамда 1876 йил январь ойида Қўқонга таклиф этиб, тахтни қайта эгаллашига кўмаклашади.

Кауфман бошлиқ чор қўшинлари аста-секин Қўқонни ҳам, хонлиқнинг бошқа ҳудудларини ҳам забт этадилар. Россия императори Александр II нинг фармонига кўра 1876 йил 19 февралда Қўқон хонлиги тугатилиб, унинг ҳудудида Туркистон генерал губернаторлиги таркибида янги Фарғона вилояти тузилди.

Хонлик тугатилганидан сўнг яна 35 йил Мухйи Қўқонда яшади. Шу йиллар давомида Мухйининг истиқоматгоҳи Қўқондаги Соҳиб Ҳазрат мадрасасининг ҳужраларидан бири бўлиб қолди. Шунинг билан бирга Мухйи Андижон шаҳрини ўзининг иккинчи ватани сифатида ардоқлар, бениҳоя яхши кўрар эди. Балки шу боис ҳам умри Андижонда поёнига етгани бежиз эмасдир. 1911 йил баҳорида Андижонга, дўстлари ва қадрдонлари суҳбатини қумсаб борган Мухйининг бетоблиги кучайиб, 4 май куни (Камийнинг маълумотига қараганда робийул-ахир ойининг сешанба куни) оламдан ўтди. Унинг вафоти ўз даврининг ижод аҳли қалбини ларзага солди. Камий, Шавкат Искандарий, Абдуллажон Насимий, Мавлавий Йўлдош каби шоирлар унинг вафотига бағишлаб марсия-тарихлар битдилар.

1- Муҳйи

Бу киши форс шоирларидан бўлуб, сулуки Қодирийанинг муассиси бўлмиш **Шайх Абдулқодир Жийлонийдур**. Бағдод шаҳарида ўтмишдур. Бу кишининг Ғавс ул-Аъзам деб юритиладур. Айрим девони ашъори бор. Шул тўрт байтни кўрсатиладур:

Гар биёйи ба сари турбати вайронаи мо,
Бийний аз хуни жигар об зада хонаи мо.
Шукрилиллаҳки, намурдам ва расидам ба дўст,
Офарин бод ба дин ҳиммати мардонаи мо.
Мо аҳад дар лаҳаде танг бигўйам, эй дўст,
Ошнойам ба ту ғайри ту бегонаи мо.
Муҳйи аз шамъи тажаллий ба нигоҳат месўхт,
Дўст мегуфт зиҳи ҳиммате парвонаи мо.

Ад.: Қайюмов П. Тазкират уш-шуаро. 2-китоб (нашрга тайёрловчи Қайюмов А). – Тошкент: ЎзРФА Давлат Адабиёт музейи таҳрир бўлими, 2006. – 182 б., 120-б.

2- Муҳйи

Бу киши форс шоирларидан бўлиб, қайдан экани маълум эмас. Ҳар ҳолда олим, фозил шоир экани англашиладур. Чунки ким томонидан бўлса бу кишига Мавлонои Садрул олам деган унвон берилибдур. Номи Муҳаммаддур. Мавлоно Яҳё номли олимнинг ўғлидур. Ғазна шаҳарининг урушида ўлдирилган, дейди. Шул рўбоний жумлаи ашъоридандур:

Золимки, кабоб аз дили дуруш хўрад,
Чун дар нигорий зи паҳлуйи хуш хўрад.
Дунё асаласт ҳарки зупаш хўрад,
Хун офариду таб оварад пеш хўрад.

Ад.: Қайюмов П. Тазкират уш-шуаро. 2-китоб (нашрга тайёрловчи Қайюмов А). – Тошкент: ЎзРФА Давлат Адабиёт музейи таҳрир бўлими, 2006. – 182 б., 121-б.

3- Мухйи

Мухйии Лорий (محيى لارى) [1]. Санаи таваллудаш номаълум. Вафоташ с.1527. шоир ва сайёҳи форс-тоҷик. Зодгоҳаш Лори вилояти Форс. Аввал дар зодгоҳаш таҳсили илм намуда, баъд шогирди Чалолуддини Даввонӣ шудааст. Бо мақсади ҳаҷ ба ҳичоз саёҳат кардааст. Мухйии Лорий дар навъҳои гуногуни назм шеър гуфтааст. Баъзе абъёти парокандаи ӯ дар сарчашмаҳои адабӣ ба чашм мерасанд. Мухйии Лорий дар илми аруз низ рисола даштааст. Асари то замони мо расидааш маснавии «Футуҳ-ул-ҳарамайн» (1505) оид ба зиёрати Маккаю Мадина аст, ки аз 400 байт иборат буда, дар баҳри сареи мусаддаси матвии мавкуф навишта шудааст. Нусхаҳои хаттии «Футуҳ-ул-ҳарамайн»и Мухйии Лорий зиёд буда, онҳо се бор таҳрир шудаанд. Шояд ба сабаби мазмунан бо рисолаи «Маносики ҳаҷ ва умра»и Ҷомӣ шабоҳат доштаниш аксар ба Абдуллоҳи Ҷомӣ мансуб дониста шуда, дар баъзе нусхаҳои қаламӣ (мас., дар нусхаи 3045 ганҷинаи дастнависи шарқии Ин-ти шарқшуносии АФ Тоҷ. Дар ҳама ҷо таҳалл. Мухйи ба Ҷомӣ табдил дода шудааст).

Ал.: А ф с а х з о д А., Рӯзгор ва осори Абдуллоҳи Ҷомӣ, Д., 1980.


[1] Мухйии Лорий ҳақида Н.Қайюмовнинг «Тазкират-уш-шуаро» (II китоб. – Тошкент: ЎзРФА Давлат Адабиёт музейи таҳрир бўлими, 2006. – 182 б.) асарида ҳам маълумот берилган.

4- Мухйи

Мухйии Ҳисорӣ (محيى حصارى) Мухиддин Абдулазиз (санаи таваллудаш номаълум) насрнависи форс-тоҷик (а. 15.) асаре бо номи «Сияр-ун-набӣ» (таълифаш 1418) дорад, ки аз 12 боб иборат аст. Бобҳои охири он ҳикояти ғавти Муҳаммад ва таърихи мухтасари ҳукмронии ҷаҳор халифаи аввал (Абубакр, Умар, Усмон, Алӣ)-ро дар бар мегирад. Нусхаи дастнависи асар дар китобхонаи Нури Усмонияи Истанбул маҳфуз аст.

Ал.: Стори Ч., Персидская литература. Библиографический обзор, ч. I, М., 1972 г.

Диссертация ишининг манбалари



МУҲҲИ ИЖОДИДА МУМТОЗ АДАБИЁТ АНЪАНАЛАРИ



Девоннинг тожикистондаги нусхаси

Туркий девоннинг бошланиши	–	ای بهر صنعتینکدین دهر اولوب گولشنسرا ایکی عالمکولشنى اندین تاپیب نشؤنما Эй бахори санъатингдин даҳр улуб гулшансаро, Эйки, олам гулшани андин топиб нашъу намо
Форс-тожикча девоннинг бошланиши	–	ای از فروغ حسن تو عکسی جمالها سرگشته در تحیر چشمت غزالها Эй аз фуруги хусни ту акси жамолхо, Саргашта дар тахаййур чашмат гизолхо.

Изох: Тожикистон ФА шарк кулёмалари булимида №885 инвентар рақами билан сақланаётган ушбу кулёмма 1319 хижрий, 1901 милодий йилда Мухйи томонидан қучирилган

Девоннинг диссертацияда тадқиқ этилган нусхаси

Туркий девоннинг бошланиши	–	ای بهر صنعتینکدین دهر اولوب گولشنسرا ایکی عالمکولشنى اندین تاپیب نشؤنما Эй бахори санъатингдин даҳр улуб гулшансаро, Эйки, олам гулшани андин топиб нашъу намо
Форс-тожикча девоннинг бошланиши	–	ای از فروغ حسن تو عکسی جمالها سرگشته در تحیر چشمت غزالها Эй аз фуруги хусни ту акси жамолхо, Саргашта дар тахаййур чашмат гизолхо.

Изох: ЎзФАШИ нинг тошбосма асарлар фондида №3220 инвентар рақами билан сақланаётган нусха

Девонларнинг жанр хусусиятлари

Жанрлар	Ғазал	Қитъа	Фард	Қасида	Рубоий	Мураббаъ	Мусаддас	Маснавий
Туркий девон	153 та 1438 байт	81 та 165 байт	6 та 6 байт	1 та 21 байт	–	1 та 7 банд 28 байт	1 та 7 банд 42 байт	2 та 29 байт
Форсий девон	277 та 2668 байт	103 та 221 байт	24 та 24 байт	2 та 78 байт	2 та 4 байт	–	–	4 та 273 байт
Жами	430 та 4106 байт	184 та 386 байт	30 та 30 байт	3 та 99 байт	2 та 4 байт	1 та 7 банд 28 байт	1 та 7 банд 42 байт	6 та 302 байт
девонларнинг умумий ҳажми	4997 байт (9994 мисра)							

туркий девондаги ғазаллар орасида жойлаштирилган бошқа жанрдаги шеърлар

Байтлар сон	7	21	14	21
алифбо				
ر			1 та мурабба (7 банд)	1 та мусаддас (7 банд)
ك	1 та маснавий (7 банд)			
ن		1 та қасида (21 байт)		
63 байт				
Ғазаллардан сунг жойлаштирилган бошқа жанрдаги шеърлар				
Китъа	81 та (165 байт)			
Фард	6 та (6 байт)			
Маснавий	2 та (18 + 11 = 29 байт)			

Мувашшах

يوزى خورشيد تابان بر پريوش يار كيلميشلر
قرا كوزليك قمر يوزليك شكر كفتار كيلميشلر
ولايتلار كيزيب هرگز اينكديك كورمديم مهوش
اسير ايتماقغه بزلارنى پرى اطوار كيلميشلر
سهى قدلار ارا بر نازنين محبوب بزم آرا
رفيق و يار بولماقلىقغه اول دلدلار كيلميشلر
فدا قيلماي دل و جانلار نه قيلسون عشق اهلى كيم
يوزى مهر منور مطلع انوار كيلميشلر
خوش اولماي نيلاين كيم بوجهان كولزاردين تاكى
خرامان بر قدى سرو سهى رفتار كيلميشلر
اوشل ناز آفرين حسن و جمالين آرزو ايلاب
انى كورماقغه اهل رسته و بازار كيلميشلر
نهاندور بو غزلده محى ايكى يار اسمى كيم
نزاكت كولشنيدين ايكى كول بيخار كيلميشلر

